

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT
TEXNOLOGIYALARI VA KOMMUNIKATSIYALARINI
RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
FARG’ONA FILIALI

“KOMPYUTER INJINIRINGI” FAKULTETI
“GUMANITAR VA IJTIMOIIY FANLAR” KAFEDRASI



**“O‘ZBEKISTON TARIXI”
FANIDAN**

TAYANCH KONSPEKT

KIRISH

XX asr oxiri o'zbek xalqi tarixida olamshumul ahamiyatga molik davr bo'ldi. O'zbekiston mustaqil taraqqiyot yo'liga kirdi, asriy orzusi ushalgan xalq o'z taqdirini o'z qo'li bilan yaratadigan bo'ldi. Kelajagi buyuk davlatni qurish va mustaxkamlash uchun jamiyatni harakatga keltiruvchi komil insonlarni yetishtirish talab etiladi. Buning uchun jamiyatning har bir a'zosi dastavval, o'zligini anglashi kerak.

Prezidentimiz I.A.Karimov "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" deb atalgan risolasida, -"O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi. Tarixni yaxshi bilmasdan turib yuksak mavqega erishish mumkinmi? Albatta, mumkin emas. Ma'naviyatini tiklashi, tug'ilib o'sgan yurtida o'zini boshqalardan kam sezmay, boshini baland ko'tarib yurishi uchun insonga, albatta, tarixiy xotira kerak... Tarixiy xotirasi bor inson - irodali inson. Takror aytaman, u irodali insondir... Jamiyatning har bir a'zosi o'z o'tmishini yaxshi bilsa, bunday odamlarni yo'ldan urish, har xil aqidalar tahsiriga olish mumkin emas. Tarix saboqlari insonni hushyorlikka o'rgatadi. irodasini mustahkamlaydi" deb ta'kidlaydilar.

Respublikamizda keyingi vaqtda, yot diniy ekstremizmning suqilib kirib, bir qism yoshlarimizni o'zligini yo'qotib qo'ygan manqurtlarga, har xil manfur guruhlarining malayiga aylanib qolishi prezidentimiz Islom Karimovning yuqoridagi gaplari naqadar to'g'ri ekanini yana bir bor isbotladi. Yaqinda Respublikamizning bir guruh faylasuf, tarixchi, siyosatshunos, sotsiolog, 'sixolog, 'edagog va adabiyotshunos olimlar bilan uchrashuvida yurtboshimiz "... pirovardmaqsadimiz bo'lgan ozod va obod Vatan, erkin va farovon haet qurish borasidagi intilishlarimizda biz uchun ruhiy-ma'naviy kuch-quvvat manbayi, ilmiy asos - bu milliy g'oya, milliy mafkura bo'lishi shart" - deb ta'kidladilar. Darhaqiqat, xalqimizning fidoiy, sog'lom fikrlovchi, bilimdon ziyolilari ommaga milliy mafkurani tushuntirishi va siigdirishi lozim.

I.A.Karimov o'zining "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" nomli risolasida yana shunday deb yozadilar : "Modomiki, o'z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni yengib bo'lmas ekan, biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur. Tarix bilan qurollantirish, yana bir bor qurollantirish zarur". SHuning uchun prezidentimizning yuqorida eslatib o'tilgan risolasida tarixni o'rganishni davlat siyosati darajasiga ko'tarish masalasini ilgari surdi.

SHuning uchun ham O'zbekiston tarixi fani barcha Oliy va o'rta maxsus tahlim o'quv yurtlarida, litseylar va kasb-hunar kollejlari, umumtahlim maktablarida o'qitilmoqda, bitiruvchilar esa yakuniy Davlat attestatsiyalarini topshirmoqdalar.

Prezidentimiz bu ishga shaxsan o'zlari, bosh-qosh bo'lmoqdalar. U kishining tarixchi olimlar bilan uchrashuvlari, Vazirlar Mahkamasining bu masalaga bag'ishlangan bir qator qarorlari va farmoyishlari yuqoridagi fikrimizning isbotidir.

1-MA'RUZA

O'zbekiston tarixi fanining predmeti, nazariy metodologik asoslari, manbalari ahamiyati. Markaziy Osiyo jahon sivilizasiyasining ajralmas qismi.

REJA:

- 1.O'zbekiston tarixi fanining predmeti va o'rganish ob'ekti.
- 2.O'zbekiston tarixini o'rganishning metodologik tamoyillari.
- 3.O'zbekiston inson tsivilizatsiyasining qadimgi o'choqlaridan biri

TAYANCH IBORALAR:

Arxeologiya, yozma yodgorliklar, etnografik materiallar, xalq og'zaki ijodi formatsiya, antro'logiya tarixini soxtalashtirish, sinfiylik qoli'i, mafkuraviylik qoli'i, O'zbekiston tarixi davrlari, tendentsiya tushunchasi, rus shovinistlari, mustamlakachilik siyosati, Qo'qon Muxtoriyati, kontsepsiya, "Avesto", O'zbekistonning yangi tarixi, milliy qadriyatlar, ma'naviyat. Sivilizatsiya tushunchasi, tarixiy xotira, olamni anglash xissi. ibtidoiy jamoa tuzumi, antropologiya-odamning paydo bo'lishi va rivojlanish muammolari. yakkaxudolik, qadimgi ajdodlarimiz yashagan manzillar: Teshiktosh, Selung'ur, Ko'kbuloq, Uchtut, etnografiya. Arxeologiya, sinantrop, xitoy odami, neandertal, ibtidoiy to'da, urug'chilik jamoasi, Afrosiyob, "Avesto", zardushtiylik.

O'zbek xalqining ezgu orzusi ro'yobga chiqib, o'z mustaqilligini qo'lga kiritdi. Mustaqillik tufayli uning boy madaniy o'tmishidan saboq olish, Vatan tarixini chuqurroq va izchil tadqiq etish va qimmatli xulosalar chiqarish alohida

Muammo: O'zbekiston tarixi fanining predmeti va o'rganish obyekti, metodologik printsiplari, O'zbekiston tarixini davrlashtirish nimalardan iborat?

Yodda tuting:

Tarix – arabcha so'z bo'lib, «tadqiq etish», «tekshirish», «voqealar haqida aniq hikoya qilish» ma'nolarini anglatadi.

ahamiyat kasb etmoqda. prezidentimiz I.A.Karimovning "...tarixga murojaat qilar ekanmiz, bu xalq xotirasi ekanligini nazarda tutishimiz kerak. Xotirasiz barkamol kishi bo'lmaganidek, o'z tarixini bilmagan kishining kelajagi ham bo'lmaydi", - deganlari ayni haqiqatdir.

Tarix insonlar haqidagi, ularning uzoq o'tmishdan bizgacha yetib kelgan hayotiy tajribasi haqidagi fandir.

O'zbekiston tarixi fanining predmeti xalqimizning uzoq o'tmishdan shu kunlarga bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy-ma'naviy taraqqiyoti jarayonidir. O'zbekiston tarixi fani dunyoda eng qadimiy va boy tarixga ega bo'lgan o'zbek xalqining bir necha ming yillik tarixiy va ma'naviy taraqqiyotini o'rganuvchi va o'rgatuvchi fandir. Markaziy Osiyoda, jumladan, O'zbekistonda yashab kelayotgan xalqlar jahon fani va madaniyati hazinasiga munosib hissa qo'shib kelmoqdalar. O'zbek halqi Markaziy Osiyodagi barcha xalqlar qatorida doimo erkinlik, hurlik, ozodlik va mustaqillik uchun mustamlakachilar va kelgindilarga qarshi kurash olib borgan va shu jihatdan u o'zining chuqur ildiz otgan analariga egadir.

O'zbekiston tarixi fanining o'z o'rganish manbalari bor.

- 1) Arxeologik yodgorliklar;
- 2) Yozma yodgorliklar;
- 3) Etnografik materiallar;
- 4) Xalq og'zaki ijodi (fol'klor);
- 5) Texnik vositalar mahsulotlaridir.

O'zbekiston tarixini o'rganganda uni ma'lum davrlarga bo'lib, o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi tarix fani Vatanimiz tarixi davrlarga bo'linadi.

O'zbekiston tarixi fani o'rganishda uning oldiga quyidagi vazifalar qo'yiladi:

Birinchidan, Vatan tarixini o'qish va o'rganish jarayonida yoshlarda tarixiy bilimlar, ilmiy-nazariy tushunchalar va tasavvurlar

shakllanmog'i lozim. CHunki voqea va hodisalarni bilmasdan, ular haqida tushuncha va

tasavvurga ega bo'lmasdan turib g'oyaviy-siyosiy dunyoqarash haqida gap yuritish mumkin emas;

Ikkinchidan, Vatan tarixini yoritish, o'qitish va o'rganish jarayonida chuqur ilmiylik, xolislik, tarixiy haqiqatning ustivorligi asosiy va bosh yo'nalish bo'lishi lozim;

Uchinchidan, Vatan tarixining har bir satri, har bir varag'i milliy qadriyatlarga hurmat ruhi bilan sug'orilgan bo'lishi va milliy g'oya va milliy mafkurasining kamol topishiga xizmat qilishi darkor;

To'rtinchidan, Vatan tarixining boshidan oxiriga qadar singib ketgan asosiy g'oya - otashin vatanparvarlik, baynalminalchilik, inson'arvarlik kabi ulug' fazilatlariga qaratilmog'i kerak;

Beshinchidan, Vatan tarixi fani mustaqil Respublikamizning siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ijtimoiy qadriyatlarining yanada mustahkamlanishi va ravnaq topishiga xizmat qilishi, davr va zamon bilan hamnafas bo'lmog'i ayni muddaodir.

Tarixiy voqealarni o'rganishda qanday ilmiy-nazariy, metodologik asoslarga tayanishning ahamiyati juda katta. Sovetlar davrida uni o'qitish ishlari marksistik metodologiyaga bo'ysundirildi. Har qanday voqeani yoritishga komfirqa mafkuraviyligi, 'artiaviylik, sinfiylik nuqtai nazaridan yondoshildi. Mamlakat, butun bir xalq tarixi ikkiga - eks'luatatorlar va eks'luatatsiya qilinuvchilar, quldorlar va qullar, feodallar va qaram dehqonlar, burjuaziya va yollanma ishchilar, boylar va kambag'allar, mulkdorlar va yo'qsillar tarziga bo'lindi. Boylar va mulkdorlar, ular orasidan chiqqan beklar, amirlar, xonlar, davlat arboblari, ruhoniylar qoralandi, nomlari badnom qilindi. Tarixiy voqealar jamiyat a'zolarining bir qismi - kambag'allar va yo'qsillarni himoya qilgan, ularning manfaatiga bo'ysundirilgan holda yoritildi. Din, diniy qadriyatlar qoralandi, insonlarning diniy ehtiqlari oyoqosti qilindi, ruhoniylar quvg'in ostiga olindi. Buyuk olimlar, allomalar, mahrifat'arvar shoiru-ulamolar, yozuvchilar ikkiga - materialistlar va idealistlar bo'lindi. Ulardan u yoki bu dinga ehtiqod qilganlari idealist deb ataldi, tahqib etildi, ularning faoliyatini o'rganish taqiqlandi, o'zlari taqirlandi, asarlari halqdan yashirildi, yo'qotib yuborildi.

Oqibatda ko'pgina tarixiy voqea - hodisalar soxtalashtirildi, o'tmish qoralandi, ma'naviy merosimiz, milliy qadriyatlarimiz haqoratlandi. Yosh avlodga ularni jirkanch illat, xurofot, eskilik sarqitlari deb o'rgatildi.

Xalqimiz tarixining bu qadar soxtalashtirilishiga faqat marksistik metodologiyaning yaroqsizligi aybdor deyish kifoya qilmaydi, albatta. Bu borada mamlakatda hukmron bo'lgan totalitar tuzumning salbiy roli katta bo'ldi. Tarix esa shu totalitar tuzumning xizmatkoriga, targ'ibotchi va himoyachisiga, kommunistik mafkura dumiga aylantirilgan edi.

Endi, Vatanimiz tarixini yoritishda ilgari yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarga konkret ravishda misollar bilan to'xtab o'taylik. Avvalo, shuni aytish kerakki, ilgari bizda "Vatan tarixi" ("O'zbekiston tarixi" deb tushuning) degan narsaning o'zi deyarli yo'q edi. Faqat dorilfunun va muallimlar tayyorlash oliygohlarining tarix fakulgtetlarida 70-100 soatlik qisqa kurs o'qitilar edi, xolos. Boshqa oliygohlarda, o'rta maxsus ilmgohlarda Vatan tarixi mutlaqo o'qitilmas edi. O'rta maktablarda Vatan tarixidan bir necha mavzulargina SSSR tarixi mavzulariga ilova

sifatida o'qitilar edi. Darslar rus tilida olib boriladigan sinflarda esa O'zbekiston tarixi, turli bahonalar bilan, deyarli o'qitilmas edi.

Birinchi yirik xato shundan iborat ediki, hamma joyda ham o'zi "SSSR tarixi" deb atalgan bu fan aslida, deyarli Rossiyaning tarixidan iborat bo'lgan fan edi. Uni adolat nuqtai nazardan olganda,

Yodda tuting:

- 1) Ibtidoiy jamiyat. Qadimgi davr;
- 2) O'rta asrlar davri;
- 3) CHor Rossiyasi mustamlakachiligi davri;
- 4) Sovetlar istibdodi davri;
- 5) Milliy istiqlol davri;

Muammoli vaziyat:

Vatan tarixiga bag'ishlangan mavjud darslik, risola va qo'llanmalarda tariximizni yoritish borasidagi xato va kamchiliklar nimalardan iborat edi?

haqiqiy fan deb ham bo'lmadi, chunki unda tarix fanining ananaviy 'rintsi'lariga amal qilinmas, ya'ni tarix qanday bo'lsa o'shandayligicha, o'zgarmay, zamonga va siyosatga moslamay o'rganilmas edi.

Ikkinchi xato - Vatanimizda sodir bo'lgan tarixiy hodisa va voqealar zo'rma-zo'raki, ma'lum suniy qoliplarga solib o'rganilar edi. Bulardan biri - formatsion qolib. So'nggi ilg'or ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, Vatanimizda quldorlik munosabatlari formatsiya sifatida, ya'ni ma'lum ijtimoiy-iqtisodiy tuzum sifatida bo'lgan emas. Bu haqda ilgari ham, iymonib bo'lsa ham aytilardi. Hozir baralla aytilmoqda. 1992 yil "O'qituvchi" nashriyoti o'rta maktablarning 8-9 sinf o'quvchilari uchun materiallar sifatida nashr qilgan "O'zbekiston xalqlari tarixi" kitobida quyidagi jummalarni o'qiymiz: "Quldorlik munosabatlari O'rta Osiyo aholisi turli qatlamlari va guruhlarida muhim o'rinni tutgan emas. Ishlab chiqarishda, ayniqsa qishloq xo'jaligida qullar emas, balki erkin jamoachilar bari bir yetakchi ahamiyat kasb etgan".

Vatan tarixnavisligida yo'l qo'yib kelingan xatolarning uchinchisi, Rossiya tarixnavisligiga ko'r-ko'rona moslashish, taqlidchilik va ko'chirmachilikdir. Bu borada ikkita tendentsiyani ko'ramiz:

Birinchisi - O'zbekiston tarixini davrlarga bo'lish hamda tarixiy hodisa va voqealarni baholashda rusiyazon tarixchilarga taqlid qilish va ulardan ko'chirish tendentsiyasi. Masalan, hozirgi O'zbekiston hududiga 1917 yil inqilobidan keyin biror bir davlat qo'shin tortib kelmagani holda, ilgari nashr qilingan barcha darslik va qo'llanmalarda "O'zbekiston chet el intervensiyasi va fuqarolar urushi davrida" deb atalmish mavzular bor edi. Faqat Zakas'iy o'lkasida, u ham bo'lsa, yetti oycha intervensiya bo'lgan xolos. O'zbekiston hududiga kelgan bir necha josus intervensiya tushunchasiga sig'maydi. Yana, Rossiya tarixidan ko'chirib, bizda ham fuqarolar urushi 1918 yil may-iyun oylarida boshlanib, asosan, 1920 yilda tugallandi, deyilardi tarixga oid asarlarning barchasida. Bu mutlaqo noto'g'ri. Qo'qondagi Turkiston Muxtoriyati ("Qo'qon Muxtoriyati") kuchlariga qarshi hujum 1918 yil 30 yanvardan 31 yanvarga (yangi hisobda - 11 fevraldan 12 fevralga) o'tar kechasi sodir bo'lgan. Ana shu sana O'zbekistonda fuqarolar urushi emas, sho'rolar hokimiyatiga qarshi qurolli harakat boshlangan kun deb sanalishi kerak. Aslida sho'rolar hokimiyatiga qarshi qurolli harakat asosan 1923 yilning oxirlari - 1924 yil boshlariga kelib tugadi, deb aytish uchun to'la asos bor, desak to'g'ri bo'ladi. Aslida bu harakat 1935 yili to'la tugatilgan.

Ikkinchi tendentsiya - O'zbekiston tarixini yoritganda, birinchi navbatda, Markazning - Moskvaning, rus shoviniist olimlarining ko'nglini ovlash, ularning diliga ozor bermaslikka intilish tendentsiyasi. Bu tendentsiyaning mohiyatini ochish uchun quyidagi misolni keltirish o'rinlidir. Bu misol Amir Temur va G'arb masalasiga aloqador. Bizga ma'lum ki, Amir Temurni Yevropa tanigan va unga tan bergan. Vizantiya im'eratori Manuil, Frantsiya qiroli Karl VI, Angliya qiroli Genrix IV va Is'aniya qiroli Genrix II Amir Temur bilan aloqa o'rnatishga intilganlar, elchilar yuborganlar (masalan, Klavixo), xatlar yozganlar. Ular turk sultoni Boyazid Yeldirimning Yevropaga yurishiga halaqit bera oladigan yagona qudratli kuch Amir Temur deb hisoblaganlar va yalinib-yolvorib yordam so'raganlar. Bu hodisa XIV asr oxiri XV asr boshlarida sodir bo'ldi. G'arbiy Yevropa Rossiyani risoladagi davlat deb, rus podshosi 'etr I ni risoladagi davlat arbobi deb, faqat XVIII asr boshlariga kelib tan oldi. Amir Temur G'arbiy Yevropa tomonidan Buyuk pyotrdan 300 yildan ortiq vaqt oldin tan olingan. Bu tarixiy haqiqat shoviniist rus tarixchilariga mahqul tushmagan, chunki mustamlakachi davlatlar, shu jumladan Rossiya chorizmi ham jahon afkor ommasini aldar edi, biz qoloq, yarim yovvoyi xalqlarni qanotimiz ostiga olib, ularni sivilizatsiya sari olib boramiz deb o'z bosqinchiligining haqiqiy mohiyatini yashirar edi. G'arbiy Yevropa tan olgan Amir Temurning qudratli davlati va buyuk shaxsi ana shu mustamlakachilik falsafasiga to'g'ri kelmas edi. SHuning uchun bu fakt tarixiy asarlarimizga kirmadi. O'zbek tarixchilari bu haqda so'z ochishga hayiqdilar, "moskvalik ustozlari"ni ranjitishni istamadilar. Temurni ulug'lash, birinchidan, "millatchilikka" kirar edi, ikkinchi tomondan Rossiyaga va Buyuk pyotrga hurmatsizlik edi. "Bu qanday gapki, - o'yoldi shoviniistlar, - pyotr I ni XVIII asrda zo'rg'a tan olgan G'arbiy Yevropa, 300 yil avval qandaydir osiyolik Temurga sig'insa?!" Tarixni yoritish ana shunday mantiqqa asoslanar edi.

Ikkinchi misol, ilgari nashr qilingan kitoblarimizga qarasak, Eron bosqinchilariga, makedoniyalik Iskandarga, arab istilosiga va mo'g'ul zulmiga qarshi mislsiz qahramonlik ko'rsatib kurashgan xalqimiz chorizm bosqiniga qarshi, deyarli hecham kurashma'ti. Haqiqat esa bunday emas. Xalqimiz istilochilarga qarshi keskin kurash olib borgan. Kurashganda ham tengsiz janglarda o'ta qahramonlik ko'rsatishgan. M: 1852-1853 yillarda Oqmachit (hozirgi Qizil O'rda)- Qo'qon xonligining eng chekka qalhasining qahramonlarcha kurashi, 1865 yil Toshkent mudofaasi qahramonlikning yuksak namunasi bo'ldi. 1864 yilgi hujumi sharmandalarcha barbod bo'lgach, general CHernyaev Niyozbek qalhasini egallab, Toshkentga suv va don o'tkazmay qo'ydi. Bu haqda Toshkent mudofaasining shohidi, "Tarixi jadidi Toshkent" kitobining muallifi tarixchi Muhammad Solih Toshkandiy shunday deb yozgan: "General CHernyaev Toshkentni ... 42 kun suvsiz, oziq-ovqatsiz qoldirdi... Toshkent fuqarosi vatani va dini uchun qattiq turdilar ... ochlik va tashnalikka qaramay, toshkentliklar mardona jang qildilar".

1865 yil 15 mayga o'tar kechasi rus qo'shinlari holdan toygan Toshkentga bostirib kirdilar. SHundan so'ng ham uch kun ko'cha janglari davom etdi.

Yana bir misol, 1886 yil 2 maydan 8 iyungacha davom etgan Samarqand qo'zg'oloni rus generallarini tahlikaga solib qo'ydi. Kuch jihatidan ustun bo'lgan general Kaufman holdan toygan mujohidlarni zo'r qiyinchilik bilan yengdi va qo'lga tushgan qo'zg'olonchilarning hammasini qatl qildi.

Qo'qon xonligini olish ham oson bo'lmadi. Bu haqda Turkistonning birinchi general-gubernatori Fon Kaufmanning o'zi shunday deb yozgan edi: "Biz xon bilan emas, balki xalq bilan to'qnashdik. Uni bostirish oson bo'lmadi. Ruslar hali O'rta Osiyoda bunday (Qo'qondagidek) uzoq va qattiq qarshilikka duch kelmagan edilar".

Nega bular haqida baralla yozilmadi, yozilganda ham qo'rqa 'isa bayon etib kelindi. Asosiy sabab: rus "ustozlar"ni ranjitmaslik. Tarixchi olimlarimiz ikkita Rossiya borligini - ochko'z podsho va vahshiy generallar Rossiyasi bilan bir vaqtda xalqlar turmasi bo'lgan mazlumlar Rossiyasi borligini unutdilar yoki eslashni istamadilar.

Rusning buyuk farzandi A.N.Gertsen: "Kimki rus xalqini rus hukumatidan ajratolmas ekan, hech nimani tushunmaydi", degan edi.

CHorizmga qarshi xalq kurashini ana shu nuqtai nazardan bemalol yoritsak bo'laveradi. Ammo johillar buni istamadi, fozillar esa istiholaga borishdi, vaholanki, buyuk qozoq shoiri O'ljas Sulaymonov aytganidek, "tarixiy haqiqat johilni qanchalik tahqirlasa, tarixiy yolg'on ham fozilni shunchalik tahqirlaydi".

Xullas, Vatan tarixini yoritishda hissiyotga o'ta berilish bizni tarixiy haqiqatdan uzoqlashtiradi, tarixni soxtalashtiradi.

"O'zbekiston tarixi" fanining hozirgi mustaqilligimizni mustahkamlash, komil insonni tarbiyalashdagi roli mislsizdir. SHuning uchun ham prezidentimiz I. Karimov tarix fani taqdiriga qiziqib, uni rivojlantirish, buning uchun esa tarixiy tadqiqotlarni to'g'ri yo'lga solib yuborish

ishida tashabbus ko'rsatmoqdalar.

Muammoli vaziyat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yilning 16 dekabrIdagi "O'zbekistonning yangi tarixi"ni tayyorlash va nashr etish to'g'risida" qarorining mazmuni nimadan iborat?

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi prezidentining "O'zbekiston Respublikasi prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi

akademiyasi qoshida "O'zbekistonning yangi tarixini yaratish markazini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni, 1996 yilning 16 dekabrIda esa O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekistonning yangi tarixi"ni tayyorlash va nashr etish to'g'risida" qarori e'lon qilindi.

Bu qarorda Vatan tarixini yoritishning ilmiy-metodologik yo'nalishlari ko'rsatib berildi. Bu yo'nalishlar quyidagilardan iborat:

- xalqimiz o'tmishidagi millat taqdiri bilan bog'liq bo'lgan tarixiy jarayonlarni chuqur ilmiy tadqiq etish, holisona yoritish;

- O'zbekistonning yangi tarixini yozishda tarix bosqichlari va ijtimoiy-siyosiy taraqqiyoti uzluksiz jarayon ekanligini nazarda tutish, tarixiylik va vorisiylik tamoyillariga amal qilish;

- O'zbekiston xalqining buyuk tarixiy merosga ega ekanligi va umumbashariyat qadriyatlariga munosib hissa qo'shganligini ehtirol etgan holda o'ziga xos davlat qurilishi anhanalari va ularga nisbatan fikrlar, qarashlar xilma-xilligini hisobga olish;

- "O'zbekistonning yangi tarixi"ning har bir qismi va bo'limlarini yozishda biryoqlama, subhektiv yondoshuvlarga yo'l qo'ymasdan holisona tadqiqot usuliga amal qilish;

- "O'zbekiston tarixi"ga oid voqea-hodisalarni yoritishda uning ko'xna Turoni-zamin, Turkiston tarixining tarkibiy qismi bo'lganligini yodda saqlash;

- O'zbekiston tarixi dunyoning turli mintaqalarida sodir bo'lgan ijtimoiy-tarixiy voqea-hodisalar hamda jahon taraqqiyoti jarayonlari bilan uzviy bog'liq ekanligini va ularning bir-biriga o'zaro tahsirini hisobga olish;

- tadqiqot yaratishda eski kommunistik-bol'shevistik mafkura aqidalariga va o'tmishni soxtalashtirishga yo'l qo'ymaslik, tarixiy jarayonlarni holisona baholash;

- yoshlarni milliy istiqlol g'oyalari, vatanparvarlik va umuminsoniylik ruhida tarbiyalashda tarixiy voqea-hodisalarning ahamiyatini e'tiborga olish.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'irisida"gi 1998 yil 27 iyulda e'lon qilingan qarori Respublikamizda tarix fanining qaytadan tiklanishi va rivojlanishida tarixiy voqea bo'ldi.

Qarorda Vatanimizda tarix fanining rivojlanishini tahminlaydigan ishlarni tashkiliy jihatdan qayta qurish, texnikaviy jihozlash, kadrlar tayyorlash; bu ishlarni mablag' bilan tahminlash chora-tadbirlari belgilangan. Bu chora-tadbirlar, asosan, bir narsaga - "O'zbek xalqi va uning davlatchiligi haqqoniy tarixini o'rganish, mamlakatimiz va chet ellarda mavjud tarixiy manbalar tahlili asosida olingan ilmiy natijalarning jahon miqyosidagi ehtirolfiga erishish, ularga tayangan holda ilmiy, ilmiy-ommabo' asarlar, darsliklar, turli adabiyotlar yaratish va mazkur bilimlarni keng yoyish hamda tarix sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash"ni tahminlash va bu ishda Fanlar Akademiyasi Tarix instituti faoliyatining bosh maqsadi bo'lishi kerak, deb ko'rsatilgan.

SHuni alohida tahkidlash joizki, yirik davlat arbobi va istehdodli olim Islom Karimovning bir qator kitoblarida va nutqlarida iqtisod va siyosatga, ma'naviyatning turli sohalariga bo'lgani kabi Vatan tarixiga ham, o'tmishimizga to'g'ri munosabatda bo'lish zarurligi haqida ham qimmatli fikrlar bor.

"Xalqimizning otashqalb farzandi" kitobida I.A.Karimov o'zining Vatan tarixiga qarashlarini izchilik bilan rivojlantirib, quyidagilarni yozgan: "Bugungi zamon bahosini berish uchun avvalambor, kechagi kunga - o'tmishga nisbatan qanday munosabatda ekanimizga baho berish kerak".

Yodda tuting:

"Tarixga murojaat qilar ekanmiz, bu xalq xotirasi ekanligini nazarda tutishimiz kerak. Xotirasiz barkamol kishi bo'lmaganidek, o'z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi".

I.Karimov

I.A.Karimovning "O'zbekiston - kelajagi buyuk davlat" kitobidagi bir fikrga diqqat qilish joizdir. Hech mubolag'asiz aytish mumkinki, quyidagi so'zlar tarixchi - tadqiqotchilarimiz izlanishlari uchun metodologik asos bo'la oladi: "Biz yangi hayot uchun bel bog'ladik, biroq o'tmishga malomat toshlarini otmadik. Halqimizning o'tmishga tosh otish - gunohi azim, degan asl aqidasi yodda tutdik... o'tmishni

taftish qilish yoki uni inkor etish - o'z ildizimizni o'zimiz kesishimiz bilan barobar ekanligini yaxshi angladik...”

Bu gaplarni tarixchilarimiz, bazi ijodiy ziyolilarimiz ham o'qib, ham uqib olishlari kerak, chunki ilgari ular bunga amal qilmadilar va hozir ham to'la amal qilayotirlar, deb bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.Karimov 1998 yilning iyun' oyi oxirlarida bir guruh yetakchi tarixchilar hamda, ziyolilarning ayrim vakillari bilan suhbat o'tkazdilar. Bu suhbat “Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q” degan sarlavha bilan alohida risola bo'lib chiqqan.

prezidentimiz suhbatda Vatan tarixining bir qator dolzarb muammolari haqida so'z yuritdilar. Bular asosan quyidagicha:

- Vatan tarixini yaratishning yagona kontse'psiyasi yo'q. Obro'li tarixchi olim fikri ilmiy hukm bo'lib qolmoqda. Munozara, turli fikrlik yo'q.

- Bugun xalqning holis tarixi yaratilmagan, bor qo'llanmalar talabga javob bermaydi.

- O'zbek davlatchiligining rivojlanish bosqichlari konkret ko'rsatilmagan. O'zbek millatining shakllanish tarixini, davlatchiligimizning paydo bo'lishi asoslarini ko'chmanchi xalqlarga bog'lashga intilish kuchli.

- O'zbek davlatchiligi asosi tubjoy xalqlardan, masalan, Xorazmdan boshlanganligi, bunga “Avesto” guvoh ekanligi baralla aytilmadi.

- Tezda jiddiy tadqiqotlarni tuzish kerak, bu ma'naviyatimiz uchun ham, siyosat uchun ham kerak, chunki u tarix ma'naviyatni shakllantirishga, siyosatga xizmat qiladi, yangi, holisona yozilgan tarixsiz siyosatda xatolarga yo'l qo'yish mumkin.

Muammoning yechimi:

Bunga asosiy sabab Vatan tarixini yoritishning yagona kontsepsiyasi yo'qligi, dedilar.

Muammoli vaziyat:

Ўzbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning yetakchi tarixchilar hamda, ziyolilarning ayrim vakillari bilan suhbatning mavzusi nimadan iborat?

Komil insonni tarbiyalashda Vatan tarixining roliga prezidentimiz alohida urg'u beradilar.

“O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi”, - deb yozadi prezidentimiz “Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q” risolasida.

“Ma'naviyatni tiklash, tug'ilib o'sgan yurtida o'zini boshqalardan kam sezmay, boshini baland

ko'tarib yurishi uchun insonga, albatta, tarixiy xotira kerak. Tarixiy xotirasi bor inson-irodali inson. Takror aytaman, irodali insondir”. Yana “Inson uchun tarixdan judo bo'lish - hayotdan judo bo'lish demakdir”.

Yodda tuting:

Tarixni o'rganishning muhim nazariy metodologik asoslari bor. Bulardan biri dialektik metod.

Xulosa qilib shunday deydilar: “Modomiki, o'z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni yengib bo'lmas ekan, biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur. Tarix bilan qurollantirish, yana bir bor qurollantirish zarur”. Bu vazifalarni bajarish uchun nima qilish kerak. Vatan tarixi fanining vazfalarini prezidentimiz lo'nda qilib ko'rsatdilar. “Fanning vazifasi

kelajagimizning shakli-shamoyilini yaratib berish, ertangi kunimizning yo'nalishlarini, tabiiy qonuniyatlarini, uning qanday bo'lishini ko'rsatib berishdan iborat deb, tushunaman. Odamlarga mustaqillikning afzalligini, mustaqil bo'lmagan millatning kelajagi yo'qligini, bu tabiiy qonuniyat ekanini isbotlab, tushuntirish berish kerak. Fan jamiyat va taraqqiyotni olg'a siljituvchi kuch, vosita bo'lmog'i lozim”. Tarixni bilish davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi zarur, - deb ko'rsatadi I.Karimov.

Insoniyat hayoti, jamiyat taraqqiyoti dialektik jarayondir. Dialektika olam yagona va yaxlit, unda sodir bo'ladigan hodisalar, voqealar umumiy va o'zaro bog'lanishi, uzluksiz harakatda, ziddiyatli taraqqiyotda bo'ladi, deb tahlil beradi.

Dialektik metodologiya har qanday mamlakat tarixini jahon xalqlari tarixi bilan bog'liq holda o'rganishni taqozo etadi. Negaki, har bir xalq tarixi milliylik, o'ziga xos betakror xususiyatlari bilan jahon tarixi, butun insoniyat taraqqiyoti bilan umumiy bog'lanishidir.

Darhaqiqat, O'zbekiston tarixi avvalo Markaziy Osiyo mamlakatlari tarixi bilan, qolaversa bashariyat tarixi bilan chambarchas bog'langan. Qadim zamonlardan yaqin yillargacha Vatanimiz O'rta Osiyo mintaqasidagi ko'pgina davlatlar: Afg'oniston, Eron, Shimoliy Hindiston kabi mamlakatlar bilan yagona iqtisodiy va madaniy makonda bo'lib keldi. Bu katta hududda yashovchi urug', qabila, qavm, elatlar etnik jihatdan doimo o'zaro tahsir va aloqada bo'lganlar, qo'shilish jarayonini boshidan kechirganlar, ularning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy hayoti bir-birlari bilan uzviy bog'liq o'tgan. SHu sababli O'zbekiston tarixini qo'shni mamlakatlar tarixi bilan bog'liq holda o'rganish taqozo etiladi.

Tarixiy voqea, hodisalarni o'rganish, tahlil etish va yoritishda holislik-haqqoniy, adolatli yondoshuv muhim metodologik

qoidadir. Holislik qoidasini tarixiy voqea, hodisalarni o'rganayotganda ular bilan bog'liq bo'lgan barcha faktlarning hech bir istisnosiz butun majmui bilan birga olib tekshirishni, aniq haqqoniy dalillarga asoslanishini talab qiladi.

Tarixni o'rganishda tarixiylik metodologiyasi muhim ahamiyatga ega. Tarixiylik qoidasi voqea - hodisalarni o'z davrining aniq tarixiy sharoitidan kelib chiqqan holda o'rganishni taqozo etadi. Voqea - hodisalarni o'rganishda tarixiy bog'lanish, tarixiy rivojlanish jarayoniga e'tibor qilmoq zarur. Har bir hodisa qanday tarixiy sharoitda, muhitda bo'lganligini bu hodisa o'z taraqqiyotida qanday asosiy bosqichlarni o'tganligini, keyinchalik u qanday bo'lib qolganligini bilish tarixiylik qoidasining asosiy talabidir. Masalan, bironta davlat faoliyatiga tarixiylik nuqtai nazaridan turib baho bermoqchi bo'lsak, birinchidan, u qachon, qanday tarixiy sharoitda paydo bo'ldi, ikkinchidan u o'z taraqqiyotida qanday bosqinchilarni bosib o'tdi, uchinchidan, u hali ham mavjudmi hozir qay ahvolda, qanday bo'lib, qoldi?, degan savollarga aniq javob berishi zarur bo'ladi.

Tarixiylik metodologiyasi xalqning o'tmishini, hozirgi zamon va kelajagini yagona tabiiy jarayon deb, o'tmish hozirgi zamonni tayyorlaydi, hozirgi zamon kelajakni yaratadi degan taraqqiyot qonuni asosida qaraydi. Insoniyat ana shunday umumiy yo'ldan borayotgan ekan, 'orloq hayot, turmush qurmoqchi bo'lgan avlod tarix fani orqali o'z o'tmishini yaxshi bilmog'i lozim. O'tmishni, ajdodlarimiz tarixini qanchalik yaxshi bilsak, anglab yetsak, hozirgi zamonni, mustaqilligimiz mazmunini shunchalik mukammal tushunamiz, kelajakni to'g'ri tasavvur etamiz. SHuningdek, hozirgi zamonni bugungi avlodning bunyodkorlik faoliyatini to'g'ri idrok etish o'tmishni, tariximizni chuqur anglashga ko'maklashadi.

Insoniyat taraqqiyotining ma'lum bosqichida urug'chilik tuzumi yemirilib, xususiy mulkchilik kelib chiqib, urug' jamoalari turli ijtimoiy tabaqalarga bo'lingach, tarixiy voqea va hodisalar ana shu tabaqalarning manfaati bilan bog'liq holda kechadigan, har bir ijtimoiy tabaqa o'z manfaati nuqtai nazaridan harakat qiladigan, ularning manfaati bir-biri bilan to'qnashadigan bo'lib qoldi. Bunday vaziyatda sodir bo'lgan voqealarni, tarixiy jarayonni o'rganishda ijtimoiy yondoshuv 'rintsi'ga rioya etish zarur bo'ladi. Ijtimoiy yondoshuv metodologiyasi tarixiy jarayonlarni aholi barcha tabaqalarining manfaatlarini hisobga olgan holda o'rganishni taqozo etadi. Voqealarni alohida bir ijtimoiy tabaqa-kambag'allar, yo'qsillar yoki mulkdor, boylar manfaati nuqtai nazaridan turib tahlil etish, yoritish bir tomonlama yondoshuv bo'lib, u tarixni soxtalashtiradi, to'g'ri xulosaga olib kelmaydi.

Mamlakat yurtboshisiz, boshliqsiz, davlat idora organlarisiz, boshqaruvchilar, amaldorlarsiz bo'lmasligini isbot etishning hojati bo'lmasa kerak. SHunday ekan, barcha davlat arboblari, amaldorlarini Yoppasiga qoralash mumkin emas. Jonajon Vatanimiz ko'hna tarixi ham ular orasida xalq'arvar, arboblar bo'lganligidan guvohlik berib turibdi.

Ijtimoiy yondoshuv 'rintsi'i davlat arboblari, siyosiy kuchlar, 'artiyalar, turli uyushmalar, ular yo'lboshchilarining tarixiy taraqqiyot darajasiga ko'rsatgan ijobiy yoki salbiy

tahsirini, jamiyatni u yoki bu yo'ldan rivojlanishidagi rolini bilib olishda muhim ahamiyatga egadir.

Mamlakatimiz tarixini o'rganishda milliy qadriyatlar, anhanalari va urf-odatlar, islom dini tarixi, odamlarning diniy ehtiқodlari, diniy tahlimotlar va ularning asoschilari faoliyatini tahlil qilishga, yoritishga tsivilizatsion munosabatda bo'lib, ularni hurmatlash, ehzozlash nuqtai nazaridan yondoshmoq kerak. Hayot xalqning necha ming yillar davomida yaratgan ma'naviy madaniyatini, axloqi, mezonlarini ikkiga - eks'luatatorlik madaniyati va axloqi hamda eks'luatatsiya madaniyati va ahloqga bo'lish va birinchisini qoralashdan iborat lenincha yo'riqnomaning naqadar zararli ekanligini ko'rsatadi. Ma'naviy merosga bunday yondoshuv ma'naviy qashshoqlashuvga, milliy qadriyatlarning, urf-odatlarining oyoq osti qilinishiga, ko'pgina olimlar, mahrifat'arvar, ruhoniylarning badnom qilinishiga olib kelganligini hech qachon unutmaslik kerak. Tarixni o'rganishda yuqoridagi metodologik qoidalar bilan bir qatorda faktlarni taqqoslash, mantiqiy-qiyosiy xulosalar chiqarish, davrlashtirish, sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish, statistik, matematik va boshqa usullardan ham foydalaniladi.

Xullas, biz O'zbekiston tarixi fanining prezidentimiz aytganlaridek "... davlatga, xalqqa, jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi lozimligini unutishga aslo haqqimiz yo'q".

prezidentimiz "Fidokor" gazetasi muxbiri bilan bo'lgan suhbatlarida komil insonni yaratishda, milliy g'oya va milliy mafkurani shakllantirishda tarix fanining rolga yana bir bor yuqori baho berib shunday dedilar: "...Milliy mafkurani shakllantirishda eng katta manba - bu xaqqoniy yoritilgan tarixdir. Tarixni bilmay turib, mafkuraning falsafiy negizlarini anglab bo'lmaydi."

Ma'lumki, sivilizatsiya - kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyotida erishilgan madaniyat darajasini anglatadi. O'zbekcha-ruscha lug'atda sivilizatsiya so'zi - madaniylashgan, madaniyatga erishgan, madaniyatli degan mahnolarni anglatishi izohlab o'tilgan.

Demak, sivilizatsiya - insoniyatning ijtimoiy, moddiy va ma'naviy taraqqiyot darajasini anglatadi. SHu o'rinda prezidentimiz I. A. Karimovning "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" nomli risolalarida "bizning Vatanimiz nafaqat sharq balki, umumjaxon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini butun jahon tan olmoqda", deb tahkidlaganlarida ming bor haqdirlar. CHunki, o'zlikni anglash, eng avvalo o'tmishni o'rganishdan, tarixga ehtiyoj sezishdan boshlanadi. Darhaqiqat, o'zini anglayotgan, o'zini tushunayotgan har bir odam qanday oilada dunyoga kelgani, o'z ajdodlari kimlar bo'lgani, otabobolari nimalar bilan shug'ullangani va qanday umr kechirganini bilib olishga intiladi. Ularning qadriyatlar va meroslari bilan faxrlanadi.

Olamni tadqiq etish - tafakkurimizni boyitish, dunyoqarashimizni kengaytirishning yagona yo'li. Olamni anglash hissi insonning o'zligini anglashga, o'zligini tushunishga, olam va odam xaqida o'ylashga dahvat etuvchi beqiyos qudratdir. U jami insonga xos bo'lgan idrok va irodani uyg'otadigan mo'jizaviy kuchdir.

Tarixiy tafakkur, tarixiy xotira mana shu tarzda shakllanadi, inkor

etib bo'lmaydigan, soxtalasht-irilmaydigan mutloq xaqiqatga, oliy qadriyatga aylanadi. Inson kalbi uning ongiga o'z o'tmishini o'rganish orqali tahsir etadi.

Ayni o'zlikni anglash insonning o'z o'tmishi va ajdodlariga qiziqishdan boshlanishi haqiqat ekanligini teran anglamoq kerak. Vatan tarixini chuqurroq va izchil tahqiq etish va qimmatli xulosalar chiqarish alohida ahamiyat kasb etmoqda. prezident I.Karimov milliy g'oya haqida fikr bildirar ekanlar, "... u millatimizning, xalqimizning o'zligini anglashiga, o'zining

Muammo: Markaziy Osiyoda qadimgi sivilizatsiyaning uzoq asrlar davomida shakllanishi, o'lkamizda dexqonchilik va chorvachilikni vujudga kelishi, qadimgi shaharlar va davlatlarni tashkil topishini asoslab bering.

Yodda tuting!

O'zbekcha-ruscha lug'atda sivilizatsiya so'zi – madaniylashgan, madaniyatga erishgan, madaniyatli degan ma'nolarni anglatadi.

milliy qadriyatlarini, urf-odatlarini yo'qotmasdan, ularni tiklab, avaylab, ehzozlab, yangi, o'sib kelayotgan avlodga yetkazib berish uchun xizmat qilishi kerak",--deb tahkidladilar.

So'nggi 15-20 yillar ichida olib borilayotgan arxeologik tadqiqotlar natijasida shu narsa aniq bo'lmoqda-ki, Vatanimiz hududida qadimgi sivilizatsiyaning paydo bo'lishi va shakllanishi uzoq asrlarni o'z ichiga oladi. Vatanimizning eng qadimgi davrlariga - ilk tosh asriga oid bo'lgan Selung'ur, Ko'kbuloq, Qo'tirbuloq, Uchtut kabi makonlar ochildiki, ulardagi to'ilmalarga qarab, haqli ravishda Markaziy Osiyo odamzodning ilk ajdodlari paydo bo'lgan mintaqaga kiradi, degan g'oyani ilgari surish imkoniyati tug'iladi. Bu mintaqada yashagan qadimgi qabilalar tabiiy baliqchilik, hunarmandchilik, dehqonchilik va chorvachilik madaniyatlarini egallaganlar.

Muammoli vaziyat:

Nima uchun ibtidoiy jamoa tuzumi kishilik jamiyati insoniyat tarixini uzoq davom etgan davri xisoblanadi.

Ibtidoiy jamoa tuzumi kishilik jamiyati taraqqiyotining eng uzoq davom etgan davri bo'lib, bundan bir necha million yillar oldin boshlangan degan ilmiy-nazariy fikr isbot etildi. Biroq shuni nazarda tutmoq lozimki, ibtidoiy jamoa tuzumining boshlanishi dunyoning turli hududlarida turli davrlarga to'g'ri keladi. Masalan, Afrikada bu davr

2,5-3 million yil ilgari boshlangan bo'lsa, Amerikada 20-30 ming yil ilgari deb taxmin qilinadi. Markaziy Osiyo hududi minglab yillar davomida odamlarning mehnati tufayli obod bo'la borgan. Agar biz uzoq o'tmishga, keksa tarixga, fikran nazar tashlaydigan bo'lsak, yer yuzasida qanday o'zgarishlar paydo bo'lganligini, odamlar qiyofasi o'zgarib borganligini, bir ijtimoiy tuzum o'rniga boshqasi kelganligini tasavvur qilishimiz mumkin.

Bevosita Markaziy Osiyoda ibtidoiy jamoa tuzumi davriga oid tadqiqotlar hususida to'xtar ekanmiz, A.Okladnikov, V.Masson, V.Ranov, Ya.G'ulomov, O'.Islomov, A.Asqarov, M.Qosimov va boshqa olimlarning Markaziy Osiyo hududida ibtidoiy odamning tarqalish jarayoni, qadimgi makonlarning geografik joylashuvi, toshdan qurollar yasash uslublari xo'jalikning rivojlanishi va oilalarning paydo bo'lishi, ibtidoiy mafkura, xo'jalik turlari, metallning hunarmandchilikka kirib kelishi masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlarni ko'rsatib o'tish mumkin.

Yodda tuting:

- 1) **Paleolit** - (qadimgi tosh davri - "palayos" - "qadimgi", "litos"- "tosh");
- 2) **Mezolit** (o'rta tosh davri, "mezos" - "y'rta", "litos"- "tosh"),
- 3) **Neolit** (yangi tosh davri - "neos"- "yangi", "litos"- "tosh") .
- 4) **Eneolit** (mis - tosh davri).
- 5) **Bronza davri.**
- 6) **Temir davri.**

Ibtidoiy jamoa tuzumi insoniyat tarixining eng qadimgi davri bo'lish bilan birga, u eng uzoq davom etgan davr hamdir. Bu davrni o'rganishning o'ziga xos hususiyati, uni qadimgi mualliflar qoldirgan yozma manbalar asosida

o'rganib bo'lmaydi. SHuning uchun ham bu davr tarixini o'rganishda arxeologiya, antro'ologiya, etnografiya kabi fanlarning ahamiyati kattadir. Bu fanlar to'rlagan materiallarni solishtirish usuli bilan uzoq o'tmishdagi moddiy va ma'naviy madaniyatning ko'pgina tomonlarini tiklash mumkin.

Markaziy Osiyoning ibtidoiy tuzumi davrini o'rganishdagi eng katta muammolardan biri - uzoq tarixiy davrni tashkil etuvchi bu bosqichni davrlarga bo'lish muammosidir. Biroq so'nggi yillardagi olimlarning olib borgan ilmiy tadqiqot natijalariga ko'ra, hozirgi 'aytda Markaziy Osiyo hududi ibtidoiy jamiyat rivojlanishining quyidagi davrlariga bo'linadi:

- 1) **paleolit** - (qadimgi tosh davri - "alayos" - "qadimgi", "litos"- "tosh");
- 2) **Mezolit** (o'rta tosh davri, "mezos" - "o'rta", "litos"- "tosh"),
- 3) **Neolit** (yangi tosh davri - "neos"- "yangi", "litos"- "tosh") .
- 4) **Eneolit** (mis - tosh davri).
- 5) **Bronza davri.**

6) Temir davri.

Ibtidoiy jamoa tuzumi tarixini o'rganishning muhim muammolaridan biri - antro'ogenoz - ya'ni odamning paydo bo'lishi va rivojlanishi muammosidir.

Odamning paydo bo'lishi qachondan boshlangan va u kim tomonidan yaratilgan degan masalada diniy va dunyoviy tadqiqotlarda bir-birini inkor etuvchi xulosalar mavjud. Yakkaxudolik g'oyasini ilgari surgan dunyodagi barcha dinlar, jumladan islom dini ham biz yashab turgan hayotdagi barcha borliqni, odamzodning o'zini ham, hudoyi taolo tomonidan yaratilganligini bashorat qiladi.

Dunyoviy fan vakillari esa o'z ilmiy-g'oyaviy qarashlarida, butun borliq va tirik mavjudot hech kim tomonidan yaratilmagan, u azaldan bor bo'lgan moddiy narsadir, deb isbotlovchi olimlarning qarashlarida talaygina muvaffaqiyatlarga erishdi. Turli mamlakatlarda qadim zamonlarda yashagan mutafakkirlar odamning paydo bo'lishi haqida ilmiy fikrlarni bayon qilganlar. Xitoy, yunon olimlari miloddan avvalgi VI-V asrlardayoq odamning kelib chiqishi tamomila tabiiy hodisa deb tahriflashga uringanlar. Yunon faylasufi Arastu (mil. av. 384-322 yy.) "odam-hayvonot dunyosida tabiat erishgan barcha narsalarning cho'qqisidir" deb yozgan edi. Qadimgi Rimda yashagan mashhur vrach va anatom Klavdiy Galen (miloddning II asri) odamning badan tuzilishi maymunnikiga juda o'xshash ekanligini ko'rib maymun anatomiyasini o'rgandi. "Odam" degan tushunchaning keng mahnosini dastlab ochib berganlardan biri XVIII asrda yashagan mashhur frantsuz mahrifat'arvari Jan Jak Russo bo'ldi. Mashhur shved tabiatshunosi Karl Linney (1707-1779 yy.) hayvonot odamning tabiatdagi o'rmini topishga harakat qildi va odamni hayvonot dunyosidagi olti guruhdan biri sut emizuvchilar guruhiga kiritdi. Uning dunyoni bilish sohasidagi asarlarida ko'pgina kamchiliklar bo'lishiga qaramay, odamning paydo bo'lishi haqidagi bilimlarning rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'ldi.

1956-1960 yillarda ingliz olimi Liki SHarqiy Afrikadagi Olduvay darasidan odamsimon maymunlarning qoldiqlarini to'dilar. Olim bu to'ilmalarga asoslanib u bundan 1 million 750 ming yil ilgari deb tahkidlaydi. Likining o'g'li Richard Keniya va Efiyo'iyada qazishma ishlarini olib borib ko'plab odamsimon maymunlarning qoldiqlarini to'di. Ularni bundan 2,5-3 million yil ilgari yashagan degan xulosaga keldi. Juda ko'plab olimlarning fikricha, Afrikadagi bu to'ilmalar yer yuzasidagi eng qadimgi odamlarning dastlabki vakillari hisoblanib, olimlar bu to'ilmalarga shartli ravishda zijantro' deb nom berdilar.

Uzoq vaqt davom etgan rivojlanish jarayoni natijasida odam hayvondan ajralib chiqqan. 1891-1892 yillarda gollandiyalik olim Dyubua Indoneziyaning Yava orolidan maymun-odamning ('itekanthro') suyak qoldiqlarini topishga muvaffaq bo'ldi. Bu to'ilmalarning yoshi 1,5 million yil deb taxmin qilindi.

Eng qadimgi odam qoldiqlari Xitoy odami - (sinantro'), shuningdek, Germaniyaning Geydel'berg, Vengriyaning Buda'esht shahri yaqinidan ham topilgan. Uzluksiz mehnat jarayonida sinantro'lar jismoniy jihatdan rivojlanib, qadimgi odamlarning paydo bo'lishi uchun zamin hozirladilar.

Markaziy Osiyoning tog' oldi va tog'lik hududlarida (Qizilqum, Qoraqum, Ohangaron, CHirchiq daryolari vodiylari, Zarafshon, Surxondaryo, Qashqadaryo, Farg'ona vodiysi va uning tog'lik hududlari) ibtidoiy jamoa tuzumining yodgorliklari topilgan.

Bu to'ilmalarga asoslanib, Markaziy Osiyoni insoniyat sivilizatsiyasining qadimgi o'choqlaridan biriga qo'shish mumkin. Biroq, hozirgi kunda odamzodning dastlabki Vatani dunyoning qaysi bir qitahsida ekanligi haqida yagona bir fikrga kelingan emas.

Vatanimiz hududida yashagan ilk ajdodlarimizning manzilgohlari: Farg'ona viloyatining So'x tumanidagi Selung'ur, Buxoro viloyatidagi Uchtut, Toshkent viloyatidagi Ko'kbuloq kabi makonlar ilk paleolit davriga oiddir. Bu borada arxeolog olimlar A.Okladnikov, O'.Islomov, M.Qosimov, T.Xo'jaevlarning xizmatlari kattadir. O'.Islomov 1980 yildan boshlab yangi kashfiyotlar qildi. Selungur g'orida yashagan ajdodlarimiz tosh davrining yuqori (paleolit) bosqichida emas, balki ashelg' davrining birinchi bosqichida yashaganliklarini isbotladi. O'.

Islomov o'zi ochgan kashfiyotiga suyanib, Selung'ur g'orida yashagan ajdodlarimizning yoshi yaqin bir million yil atrofida degan xulosaga keladi. Bu g'ordan topilgan odamning qoldiqlari Farg'ona vodiysi hududidan topilganligi sababli shartli suratda "Ferganatro", ya'ni "Farg'ona odami" nomi bilan fanga kiritildi.

O'rta tosh davriga kelib ibtidoiy kishilar Markaziy Osiyoning butun maydoniga keng tarqaldi. Ularning turmushda yangi ko'rinishlari paydo bo'la boshladi. Eng muhimi, ibtidoiy to'dadan urug'chilik jamoasiga o'tila boshlandi. Hozirgi zamon odamlariga o'xshash odamlar (kroman'en) vujudga kelishi uchun zamin hozirlandi. Bu davr ishlab chiqarish qurollari takomillashayotgan, nutq madaniyati o'sib borib, fikrlash ancha oshgan, olov sunhiy tarzda yaratila boshlangan, ovchilik ancha rivojlanib, keng hududlarga tarqalgan davr edi. Sovuq iqlim tufayli paleolit odamlari olovni kashf etdilar. Sunhiy olov chiqarish va uni saqlashni o'zlashtirdilar. O'choq - ibtidoiy odamlarning bir yerga to'lanishlarida katta ahamiyatga ega bo'lib, bu davrning ibtidoiy kishilari g'orlar va ungurlarda o'zlariga makonlar tanlay boshladilar. So'nggi paleolitdan boshlab ibtidoiy odamlar g'orlardan chiqib, yengil turar joylar qura boshlaganlar. Natijada ular faqat tog'li hududlarda yashab qolmay, vohalar bo'ylab tarqalib, tekisliklardan daryo va ko'llar sohillariga kelib joylasha boshladilar. So'nggi paleolitning eng katta yutug'i antro'ogonez jarayonining tugallanishi va hozirgi zamon odamlarning (kromanhen) paydo bo'lishidir. Bu davrning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri ibtidoiy to'dadan urug'chilik tuzumiga (matriarxat) o'tilishidir. Urug'chilik ibtidoiy jamiyat tarixining alohida bosqichini tashkil etib, bu ijtimoiy hayotdagi qator o'zgarishlarning paydo bo'lishiga zamin yaratib berdi.

SHunday qilib, paleolit davrida odamning paydo bo'lishi jarayoni asosan tugadi. Ibtidoiy odamlar xo'jalik yuritishning eng oddiy yo'llaridan, murakkabroq (terib - termachalabdan, ovchilik, baliqchilikka) o'tdilar. Olov kashf etildi. Insoniyat ibtidoiy to'da davridan urug'chilik tuzumiga o'tdi. Mehnat qurollari takomillashib, turlari ko'paya bordi.

Ibtidoiy odamlar orasida dastlabki diniy qarashlar paydo bo'ldi.

Markaziy Osiyoda o'rta tosh - mezolit davri nisbiy tarzda mil.avv. 12-7 ming yilliklarni o'z ichiga oladi. Bu davrga kelib, iqlim barqarorlashadi, hayvonot va o'simlik dunyosi o'zgaradi. Bu davrning katta yutuqlaridan biri - kamon va o'qning kashf etilishidir.

Neolit uzoq davom etgan tosh asrning so'nggi va yakunlovchi bosqichi bo'lib, geografik muhit va shart-sharoitning turli-tumanligi, neolit davri qabilalarida mehnat qurollari, uy-ro'zg'or buyumlari, turar joylar va xo'jaliklarning turlicha bo'lishiga olib keldi. Bu davr qabilalari Markaziy Osiyo hududida xo'jalikning dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik shakllarini rivojlantirib yubordi.

Neolit davri kishilarining eng katta yutuqlaridan yana biri kulolchilik bo'lib, ular loydan har xil idishlar yasash va ularni olovda 'ishirishni o'rganib oldilarki, bu o'sha davr uchun nihoyat katta kashfiyot edi. SHuningdek, to'qimachilik, dastlabki suvda suzish-qayiqsozlik ham paydo bo'ldi.

Eneolit - mis - tosh davrida ibtidoiy odamlar metall bilan tanishdilar. Ungacha ibtidoiy odamlar 2,5-3 mln. yillar davomida (paleolit, mezolit, neolit davrlarida) faqat toshdan, yog'ochdan va suyakdan yasalgan qurollardan keng foydalanganlar.

Mis davriga o'tilishi ishlab chiqaruvchi kuchlarning yanada yuksalganligini ko'rsatadi. Bu o'rinda shu narsaga asosiy e'tiborni qaratmoq kerakki, mezolit oxirida va neolit davrida terib termachlab ovqat topishdan yovvoyi o'simliklarni ekish va o'tqazish yo'li bilan madaniylashtirish orqali vujudga kelgan dehqonchilikka o'tildi. Bu esa eneolit zamonida yuqori xo'jalik turiga aylanib bordi. Dehqonchilik va uy chorvachiligi ortiqcha mahsulot yetishtirishga va mol ayirboshlashni tartibga solishga asos bo'lgan. Eneolit davrida dunyoning barcha hududlarida ijtimoiy taraqqiyotning bir xil bosqichi kuzatildi. Markaziy Osiyodagi yangi madaniy tarixiy jarayonlar (eneolit davri) quyidagilar bilan bog'liq:

1. Xo'jalikning boshqa hamma turlariga qaraganda yerni haydab dehqonchilik qilishning ustunlik qilishi;

2. Toshidan ishlangan qurollar ko'p bo'lgan holda mis qurollarning paydo bo'lishi;

3. Ibtidoiy jamoalarining 'axsadan va hom g'ishtdan tiklangan katta-katta uylari;
4. Kulolchilikda muhim texnika yutug'i - xumdonlarning ishlatilishi;
5. O'troqlik va qurilishda hom g'ishtning paydo bo'lishi;
6. Turli hayvonlarning loydan yasalgan va ona urug'i tuzumi (matriarxat)ga xos haykalchalarning paydo bo'lishi.

7. Rangdor so'ol buyumlar, ya'ni turli tasvirlar ishlangan so'ol buyumlarning mavjudligi. Shu bilan birga, eneolit davrida Markaziy Osiyo aholisining madaniyati bir bosqich yuqoriga ko'tariladi. Lekin, bu yerdagi qabilalarning madaniy va ijtimoiy taraqqiyoti bir xil darajada emas edi. Arxeologik tadqiqotlar natijalari Markaziy Osiyo aholisi orasida notekis rivojlanish bo'lganligini ko'rsatadi. Unumdor xo'jaliklarga asoslangan qabilalar tezroq rivojlangan, qo'shimcha xo'jaliklar bilan mashg'ul bo'lganlari esa madaniy jihatdan bir necha yuz yilliklar orqada qolgan.

Metalchilikning kashf etilishi va xo'jalikda mis qurollarning joriy qilinishi bir necha asr davomida sodir bo'lgan. Odamlar o'z mehnat qurollarini yasashi uchun har xil mustahkam toshlar qidirish jarayonida tabiiy misga duch keladilar. Bu esa mehnat qurollarini yanada takomillashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Ma'lum ki, Markaziy Osiyoning janubiy qismida (Turkmanistonda) miloddan avvalgi VI-ming yillikda dehqonchilik xo'jaligi paydo bo'ladi.

Qadimgi qabilalar mis - tosh davriga o'tgach madaniy xo'jalik va ishlab chiqarish taraqqiyotining yangi bosqichi boshlanadi. Yangi xo'jalik turlari dehqonchilik va uy chorvachiligi

avvalgidek Turkmanistonning janubiy-g'arbida qulay geografik sharoitda rivojlandi. Bu 'aytda quyi Zarafshon va Amudaryo havzalarida yashovchi qabilalar hali madaniy o'simliklar o'stirishga o'tmagan edilar. Markaziy Osiyoning sharqiy qismidagi tog'li hududlar aholisi ibtidoiy xo'jaligida esa ovchilik ustunlik qilar edi. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, ilk rivojlangan mis-tosh davrida Markaziy Osiyo qabilalarining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishida katta farqlar va notekisliklar saqlanadi. Janubiy Turkmanistondagi olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida turar joylar, qadimgi sug'orish tarmoqlari va sug'oriladigan yerlarning chegaralari aniqlandi, mis-tosh davri madaniyati va tarixi har tomonlama o'rganildi. Eng qadimgi sug'orish tarmoqlari shunday sharoitga ega bo'lgan soylar etaklarida vujudga kelganligi isbot qilindi.

Tog' daryolari bo'ylarida yashovchi qabilalar qadimgi sug'orma dehqonchilikda arpa, bug'doy, beda, poliz va boshqa ekinlar ekib asosan, soylar suvlaridan foydalanganlar.

Ibtidoiy odamlar hayotida bronzaning kashf etilishi ibtidoiy hayotda olg'a qarab tashlangan qadam bo'ldi. Bronzaning misga qaraganda tez eruvchanligi misga nisbatan bir muncha qattiqligi, uni ibtidoiy odamlar hayotidagi tutgan rolga izoh berish maqsadga muvofiq bo'lur edi.

Bronza davrining xo'jalik sohasida erishgan eng katta yutuqlaridan biri qadimgi dehqonchilikning keng yoyilishi va miloddan avvalgi II-ming yillikning ikkinchi yarmida chorvachilikning dehqonchilikdan ajralib chiqishidir. Mazkur davrda ishlab chiqarish munosabatlari tez rivojlanib, ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarga katta tahsir qiladi. Ishlab chiqarishning o'sishi natijasida moddiy madaniyat ham yangicha asosida taraqqiy etadi.

Bu davrga mansub madaniyat izlari O'zbekistonning Xorazm, Zarafshon, Qashqadaryo va Farg'ona vodiylaridan topilgan. Bu hududlardagi manzilgohlarni o'rganib shunday xulosa chiqarish mumkinki, bu davrda ikki xil madaniyat hukm surgan. Birinchisi, dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi qabilalar madaniyati (qadimgi qabilalar dehqonchilik qilish uchun qulay yerlarga joylashib olib, yuksak dehqonchilik madaniyati yaratganlar), ikkinchisi, xuddi birinchi madaniyat sohiblari darajasida ishlab chiqaruvchi kuchlarga ega bo'lgan holda qurg'oqchilik yerlarda, tog' oldi yaylovlarida chorvachilik bilan shug'ullanganlar.

Metalldan ishlangan qurollar qadimgi ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotni tezlashtirgani tufayli, Markaziy Osiyoning dasht va tog' oldi hududlarida yashagan aholi boshqa aholidan

(dehqonlardan) ajralib chiqadi va asosan chorvachilik bilan mashg'ul bo'ladi. Bu tarixiy voqea kishilik jamiyati taraqqiyotidagi dastlabki yirik mehnat taqsimoti edi. O'zbekiston hududida bronza davrida asosan chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullangan qabilalarning moddiy-madaniy yodgorliklari Xorazmda Tozabog'yob madaniyati (shu nomli kanal atrofida topilgan) nomi bilan mashhur. Tozabog'yob madaniyatiga - mansub Ko'kcha makoni atrofidagi qadimiy mozorlar ochilganda, odam jasadlarining boshlari g'arb tomonga qaratib qo'yilgan va ularning bosh tomonidan idishlar va bronza zeb-ziynatlar topilgan. Umuman, Tozabog'yob madaniyatiga mansub yodgorliklar Xorazmda 50 dan ziyod topilgan. Ular yarim yerto'la uylardan iborat, atrofida kanallar va qadimgi sug'orish maydonlari bo'lgan.

Xorazmdagi bronza davri aholisining asosiy tirikchilik manbai dehqonchilik va chorvachilik bo'lgan. Tabiiy sharoit kanal qazib, suv chiqarishga asoslangan hududlarda sug'orma dehqonchilikning turli ko'rinishlari vujudga kelgan. Chorvachilik ham katta ahamiyatga ega bo'lgan. Ilmiy adabiyotlarda Quyi Zarafshonning bronza davri yodgorliklari Zamonbobo nomi bilan ataladi. Bu davrga mansub yodgorliklar orasida Zamonbobo ko'lining shimoliy sohilidan topilgan ibtidoiy dehqonlar qabristoni, ayniqsa, diqqatga sazovordir. Bu qabriston 50 yillar boshlarida akademik Ya.G'ulomov tomonidan ochilib, dastlabki natijalar fanda joriy etilgan.

Zamonbobo yodgorligini e'tiborli tomoni shundaki, zamonbobiliklar asosan dehqonchilik va xonaki chorvachilik bilan kun kechirib, chaylasimon kulbalarda istiqomat qilganlar. Topilgan tosh asboblarda saqlanib qolgan jaydari arpa va bug'doy kabi boshqoli o'simlik qoldiqlaridan shu narsa ma'lum bo'ldiki, ular toshqinlardan hosil bo'lgan zax yerlarda dehqonchilik qilib, o'zlari yetishtirgan donlardan umoch, qo'g'irmoch kabi yemaklar tayyorlaganlar. Qazishmalardan topilgan uy hayvonlarning suyaklari zamonbobiliklarning qadimdanoq echki, qo'y va qora mol kabilarni boqib, chorvachilik mahsulotlaridan ham keng foydalanganliklarini ko'rsatadi.

Topilgan ayrim urchuq toshlar hamda suyakdan yasalgan suzan va ignalarga qarab hulosa chiqarsak, ular qo'y va echki junlaridan ip yigirib, kiyim-kechaklar uchun mato to'qiganlar. Zamonbobiliklar jamoasida hunarmandchilikning turli tarmoqlari, xususan, kulolchilik, bronzani eritib undan har xil ashyolar yasash, ayniqsa, toshni ishlash texnikasi ancha rivojlangan.

So'ol idishlar asosan qo'lda yasalgan naqshsiz, tuxumsimon va yassi tubli bo'lib, ular orasida qisman charxda ishlanganlari ham uchraydi. To'ilmalar orasida Kushka, Baktriya yoki Marg'iyonada yasalgan idishlar yoki Badaxshon qimmatbaho toshlaridan ishlangan bezaklar bo'lib, ular, zamonbobiliklardan janubroqda yashagan o'troq dehqon jamoalari hamda shimolroqda istiqomat qiluvchi chorvador aholi bilan ham mahsulot ayribosh qilib madaniy aloqada bo'lganidan dalolat beradi.

O'zbekistonning janubidagi Surxondaryo vohasi ibtidoiy aholining o'troq makonlaridan biri hisoblanib, vohada bronza davri yodgorliklari - qadimgi sug'orish hududlari - Ulonbuloqsoy, SHerobod, Bandixon va Mirshodida to'ib tekshirilgan. Olib borilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatdiki, qadimgi sug'orish yerlari tog' tizimlariga ancha yaqin. Bu hududda 1968 yili Termizdan 70 km, shimoli - g'arbdagi Sopollitepa bronza davri manzilgohi to'ib tekshirilgan. Sopollitepa tarixi 3 ta madaniy qatlam va qurilish davriga bo'linadi. Birinchi davr uylarida 30 ta kichik oila, ikkinchi davrida 61 ta oila va uchinchi davr uylarida qishloq aholisi 155-315 kishidan iborat bo'lishi mumkin. SHuningdek, Sopollitepa moddiy manbalari bu yerda uy hunarmandchiligi yuqori darajada bo'lganligini ko'rsatadi. Ular xilma-xil hunarmandchilik bilan ham shug'ullanganlar. Xilma-xil matolardan kiyimlar tikkanlar. To'qimachilikka oid so'ol va toshdan ishlangan urchuqlar buning dalilidir.

Talabalar e'tiborini shunga qaratmoq joizki, patriarxat urug'ining rivojlanishi ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishi bilan katta jamoa birliklarining boylik orttirishlari uchun qulay vaziyat yaratilgan, deyish mumkin. CHunki, qabrlardan topilgan buyumlar dastlabki mulkiy tengsizlikdan dalolat beradi. Bazi qabrlarda qurollar, idishlar, taqinchoqlar ko'p topilgan bo'lsa (boy qabrlar), bazilarida bunday to'ilmalar kamchilikni tashkil etadi (qashshoq qabrlar).

O'zbekiston hududida so'nggi yillarda olib borilgan arxeologik tekshirishlar shuni ko'rsatdiki, ibtidoiy jamiyat madaniy taraqqiyotida katta-katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Aholi xo'jalik yuritishning ma'lum ko'rinishlariga, ya'ni vohalarda ko'llar va soylar bo'ylarida dehqonchilikka, dasht va tog' oldi hududlarida chorvachilikka (qisman ovchilik) o'tib oldi. Bu davrda Markaziy Osiyoning ijtimoiy tuzumida ham o'zgarish jarayonlari bo'lib o'tdi. paleolit zamonida vujudga kelgan urug'chilik tuzumi bronza davrida ham davom etgan. Ammo, bu davrda ona urug'i (matriarxat) ning mavqei yo'qolib bordi. Metall eritish xo'jaligining rivojlanishi natijasida jamiyatda erkaklar mehnati va mavqei birinchi darajali ahamiyatga ega bo'ladi. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkin: Bronza davri jamiyat taraqqiyotida, dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va hunarmandchilik rivojlanishida erkaklar yetakchilik qilganlar. Xotinlar erkaklar ishlab chiqargan narsalarni istehmol qilishda ishtirok etsalar ham, unga egalik qilishdan mahrum bo'ladilar. Ishlab chiqarishda hukmronlik qilish shu tariqa erkaklar qo'lga o'tadi va ona urug'i tuzumi o'rnini ota urug'i ('atriarxat) tuzumi egallaydi.

Ota urug'i tuzumining rivojlanib borishi ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishi ayrim oilalarning boylik orttirishlari uchun shart-sharoitlar yaratib berdi. Jamoadagi bazi shaxslar qo'lida boylik (dehqonchilik qurollari, dehqonchilik, chorvachilik mahsulotlari va boshqalar) to'lanib borgan bo'lsa, bazi shaxslar qashshoqlashib ularga qaram bo'lib bordi.

SHunday qilib, so'nggi bronza va ilk temir davriga kelib Markaziy Osiyoda dastlab mulkiy tabaqalanish, keyin esa ijtimoiy tabaqalanish jarayonlari ro'y berib, urug'chilik tuzumi xarobalarida sinfiy jamiyat paydo bo'ldi.

Muammo:

O'zbek davlatchiligini
izoxlab bering.

Vatanimiz hududidagi eng qadimgi shaharlar va davlatlar tarixini o'rganishda bizga arxeologiyaga oid qazishmalar, ko'hna asarlar, eroniy yozuvlar, yunonlik, misrlik, xitoylik mualliflar yozib qoldirgan ma'naviy meroslar yordam beradi. Ijtimoiy-iqtisodiy ahvolni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, mil. avv. I-ming yillikning boshlarida Markaziy Osiyoning nisbatan rivojlangan viloyatlarida iqtisodiy hayotdagi siljishlar tufayli ortiqcha mahsulot paydo bo'lib, bu mahsulot ma'lum shaxslar qo'lida to'lana boshlaydi. Qishloq kengayib shaharlar, viloyatlar va davlat uyushmalarining mahmuriy markazi bo'la bordi. Arxeologik tadqiqotlar natijasida Zarafshon va Qashqadaryo vohalaridan miloddan avvalgi VI-IV asrlarga oid Uzunqir, Yorqo'rg'on, Darate'a, Sangirte'a, Lolazor, Xo'ja-Buvton, Afrosiyob, Qorovul-te'a, Qo'rg'oncha kabi 50 dan ziyod ko'hna shahar manzilgohlar ochib o'rganilgan.

So'g'diyonaning 'oytaxti bo'lgan Afrosiyob (Samarqand) ko'hna shahri asrimizning 40-yillaridayoq ochilgan edi. Afrosiyobda miloddan avvalgi I-ming yillik o'rtalarida aholi yashaganligining izlari juda ko'p. Ko'hna shahar aholisi asosan hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shug'ullangan.

Afrosiyob shahar hayotining rivojlanishi So'g'diyona va butun Markaziy Osiyodagi siyosiy va iqtisodiy hayotning yuksalishi va inqirozi bilan muvofiq aloqalarning muhim markazi edi. Samarqand jahon savdo va madaniy markazlaridan biri sifatida o'z mavqei to'la darajada, lekin uzilishlar bilan o'rta asrlarda ham saqlab qoldi.

So'g'diyonaning "ikkinchi 'oytaxti" bo'lgan Yorqo'rg'on (Qashqadaryo) miloddan avvalgi VI-IV asrlarda umumiy maydoni 40 gektarga yaqin bo'lgan mahmuriy markaz edi. Ko'pchilik tadqiqotchilar, xususan yunon-rim tarixchilari bu markazni Kseni''a viloyatining markaziy shahri deb hisoblaydilar. Qishloqlarning rivojlanishi natijasida Markaziy Osiyoning shahar ko'rinishidagi manzilgohlari va shaharlari ko'paya bordi. SHaharlar qalin devorlar bilan o'ralgan bo'lib, ma'lum masofada baland minoralar ham bo'lgan. Qadimgi ko'hna shaharlardan topilgan moddiy madaniyat buyumlari aholining dehqonchilik, hunarmandchilik va chorvachilik bilan shug'ullanganligidan dalolat beradi. Ushbu madaniyatning tarkib topishi va rivojlanishini kuzatish hamda uni qadimgi sharq ti'idagi ibtidoiy shahar sivilizatsiyasining yangi markazlari sifatida baholash, ayni vaqtda uning xronologiyasini aniqlashtirish lozimligi paydo bo'ldi.

Arxeolog olimlarning tahkidlashlaricha, ‘arkana (Farg’ona) da 70 ta katta-kichik shaharlar bo’lgan. Uning hukmdori Gushan (hozirgi O’zgan) shahrida yashagan bo’lib, u yerda jamoa shaharchasi va alohida kishilar yashaydigan qo’rg’onlar bo’lgan. Aholi hunarmandchilik sohalari, savdo bilan shug’ullanganlar. Qurilgan yo’llarning mavjudligi bunga qulaylik yaratgan.

Baqtriyaning ‘oytaxti qadimgi Baktro (hozirgi Balx) shahrida qazishma ishlari olib borilib, u yerdan topilgan qulolchilik buyumlari ko’hna shaharning eng qadimgi qatlamlari miloddan avvalgi I-ming yillikning o’rtalariga oid ekanligidan dalolat beradi. Juda ko’p o’troq manzilgohlar va ulardagi to’ilmalar viloyatda aholi qulolchilik, temirchilik, bronza quyish, to’qimachilik, shuningdek, sug’orma dehqonchilik va chorvachilik bilan shug’ullanganidan dalolat beradi.

Markaziy Osiyoda eng qadimgi davlat uyushmalarning paydo bo’lishi juda muhim masaladir. I.A.Karimovning “Hozirgi davr davlatchilik tariximiz tub burilish ‘allasiga kirgan bir ‘aytda o’zimizning zamon va makondagi o’rnimizni aniq belgilab olishimiz lozim” deganlari ming bor haqiqatdir.

CHunki Markaziy Osiyodagi ilk davlat uyushmalari haqidagi yozma Ma’lumotlar juda kam saqlanib qolgan. Bazi bir ilmiy adabiyotlarda Markaziy Osiyoda Eron ahmoniylarigacha qadimgi davlat uyushmalari bo’lganmi? yoki bunday davlat uyushmalari mavjud emasmi? degan muammo hozirgacha to’la yechimini to’gan emas. Ma’lum ki, Markaziy Osiyoda ilk davlat tuzumi vujudga kelishini yoritib beradigan asosiy yozma manba “Avesto” va qadimgi dunyo mualliflari qoldirgan Ma’lumotlardir. Mavjud yozma manbalar, arxeologik tadqiqotlar bilan solishtirilganda bu makonda qadimgi davlat uyushmalari bo’lganligini isbotlovchi ishonchli dalil, ashyolar mavjud ekanligi ilmiy asosda tahlil qilib beriladi.

O’tgan asrning oxiri va asrimizning boshlarida Avestodagi Ma’lumotlar, Geradot va Gekagtey asarlari “Katta Xorazm” shuningdek, Ktesiyning Qadimgi Baqtriya podsholigi haqidagi Ma’lumotlari Markaziy Osiyoda ilk davlat uyushmalarining paydo bo’lishi muammolarini o’rganish uchun asos bo’lib xizmat qiladi. Tadqiqotchilarimiz ilmiy xulosalarida bu davlatlarning shakllanish jarayoni Eron ahmoniylarigacha bo’lgan davrda, deb hisoblaydilar va uni miloddan avvalgi IX-VII asrlar bilan bog’laydilar (M.Dunker, V.Tomashek, F.Al’txaym, S.’Tolstov, M.M.D’yakanov, I.M.D’yakanov, B.G.G’ofurov, A.Sagdullaev va boshqalar). Yunon olimi Geradotning Ma’lumotlariga qaraganda, Markaziy Osiyoda “Har tomoni adrlar bilan o’ralgan tekislikda qachonlardir xorazmiylar yashagan”. Ko’pchilik tadqiqotchilar bu markazni hozirgi Xorazm o’rnida bo’lmasdan, janubroqda, Marv (Turkmaniston) yoki Xirot (Afg’oniston)da bo’lgan - deyishadi. Biroq, mil.avv. I-ming yillikning o’rtalariga yaqin davrda “Katta Xorazm” davlati mavjud bo’lganligiga shubha qilmasa bo’ladi. Sopollitepadagi yana ilk davlat uyushmasi Qadimgi Baqtriya davlatidir. Bazi Ma’lumotlarga qaraganda, uning tarkibiga So’g’d va Marg’iyona ham kirgan. Yunon muallifi Ktesiy Baqtriya haqida qimmatli Ma’lumotlar beradi. Tarixchi olim Baqtriya davlatidagi ko’plab shaharlar, mustahkam ‘oytaxt shahar Baqtro (Balx), Baqtriya podshosi Oksiart, uning bitmas tunganmas boyliklari haqida hikoya qiladi. Gerodotda Baqtriya Misr va Bobil kabi yirik davlatlar qatorida tilga olinadi. Tadqiqotchi olimlarning fikrlariga qaraganda Qadimgi Baqtriya qudratligi jihatidan ancha ustun bo’lib, ular orasida alohida mavqega ega edi. Baqtriyaning tabiiy boyliklari undan tashqari hududda yoki Old Osiyoga qadar ham mashhur edi.

So’nggi 10-15 yil ichida Baqtriya, So’g’diyona va Marg’iyonadan olingan yangi arxeologik Ma’lumotlar ilk davlat uyushmalari paydo bo’lishini yanada kengroq izohlash imkonini yaratadi. Bu Ma’lumotlarga qaraganda, ilk Temir davri Baqtriya, Marg’iyona, Xorazm va So’g’diyona umumiy jamoalaridagi asosiy ishlab chiqaruvchi kuchlarni bir necha kichik oiladan iborat uy jamoalari tashkil etgan.

Ko’pchilik tadqiqotchilarning fikricha, Markaziy Osiyoda ilk davlat uyushmalari dehqonchilik, chorvachilikdan ixtisoslashgan hunarmand-chilikning ajralish va shahar markazlari shakllanishi asosida paydo bo’ladi.

So'nggi yillardagi arxeologik Ma'lumotlar Markaziy Osiyo ilk davlatlar shakllanishining muhim muammolarini yoritish, shuningdek, ular rivojlanishining quyidagi davrlarini aniqlash imkoniyatini beradi:

1). Bronza davri - unchalik katta bo'lmagan dehqonchilik vohalari asosida ilk davlat uyushmalarining shakllanishi.

2). Bronza asrining temir asriga o'tish davri (mil.avv. X-VIII-asrlar). etnik-madaniy va g'oyaviy vaziyatlarining o'zgarishi sharoitidagi harbiy-siyosiy uyushmalar bazi viloyatlarda bo'lib o'tgan ko'chish jarayonlari davridagi o'troq manzilgohlar sonining qisqarishi va ilgari odamlar yashagan joylarda yangi aholi manzilgohlarining shakllanishi, harbiylar va harbiy boshliqlarning ijtimoiy qatlamlariga bo'linishi.

3). Ilk temir davri (mil.avv. VII-VI asrlar). Qadimgi Baqtriya misolidagi (aynan Baqtriya, So'g'diyona va Marg'iyona) yirik davlat uyushmalari paydo bo'lishi. Bunday davlat uyushmalari paydo bo'lishining tezlashuviga ichki ijtimoiy-iqtisodiy sabablardan tashqari tashqi, omillar ham sabab bo'lgan.

Markaziy Osiyodagi turli xalqlarning qadimgi davrlardagi diniy qarashlari va ehtiqlari, Payg'ambarlari va ular tahlimotlarining yoyilishi ko'pgina olimlar orasida ilmiy munozaralarga sabab bo'layotgan masaladir. Ma'lum ki, Markaziy Osiyo xalqlari orasida keng yoyilgan va asosiy din zardushtiylik edi. Bu tahlimotning asoschisi Zaradushtra va uning faoliyati, bu dinning muqaddas kitobi "Avesto" va paydo bo'lgan hudud haqidagi masalalar ham hozirgi kunda ko'pchilik tadqiqotchilarning diqqat markazida turibdi. Umuman olganda, Zaradushtraning Vatani Markaziy Osiyo deb hisoblovchi olimlar ko'pchilikni tashkil etadi.

Ma'lumotlarda islomda "Qurhon", nasroniylarda "Bibliya" bo'lganidek "Avesto" - zardushtiylik dinining matnlari to'lamidir. Zardushtiylik tahlimoti yer, suv, havo va olovni muqaddas deb hisoblagan.

Yodda tuting:

"Avesto" kitobi turli xil ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Shu jumladan - qadimgi geografik tushunchalar - daryolar, tog'lar, ko'llar nomlari, xududiy etnik qabilalar va viloyatlar nomlari, qadimgi mamlakatlarning ro'yxati, iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar xaqida, siyosiy tuzum, diniy nasihatlar, zardushtiylar falsafasi, dunyo tarixi rivojlanishi haqida

"Avesto" kitobi turli xil Ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. SHu jumladan - qadimgi geografik tushunchalar - daryolar, tog'lar, ko'llar nomlari, hududiy etnik qabilalar va viloyatlar nomlari, qadimgi mamlakatlarning ro'yxati, iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar haqida, siyosiy tuzum, diniy nasihatlar, zardushtiylar falsafasi, dunyo tarixi rivojlanishi haqida qimmatli Ma'lumotlar beradi.

Tarixdan ma'lum ki, zardo'shtiylik miloddan oldingi VII-asrdan, milodning VII asrigacha qariyb ming yil Markaziy Osiyo, Eron, Ozarbayjon va boshqa o'lkalarda diniy ehtiqod sifatida yashadi.

Ko'pchilik tadqiqotchilarning fikricha, Zardo'sht Markaziy Osiyo hududida faoliyat ko'rsatgan ilohiyotchi faylasuf, shoir va tabiatshunos olim bo'lgan. Zardo'sht zardo'shtiylik dinining Payg'ambari sifatida tan olingan va ehtirol etilgan bo'lib, uning tahlimoti Markaziy Osiyo xalqlari tarixida va ma'naviy madaniyatida ulkan rol o'ynadi.

I.A.Karimov bu haqda shunday dedi: "Eng mo'tabar, qadimgi qo'lyozmamiz "Avesto"ning yaratilganiga 3000 yil bo'lya'ti. Bu nodir kitob bundan XXX asr muqaddam ikki daryo oralig'ida, manashu zaminda umrguzaronlik qilgan ajdodlarimizning biz avlodlarga qoldirgan ma'naviy, tarixiy merosidir. "Avesto" ayni zamonda bu qadim o'lkada buyuk davlat, buyuk ma'naviyat, buyuk madaniyat bo'lganidan guvohlik beruvchi tarixiy hujjatdirki, uni hech kim inkor etolmaydi".

Saymali tosh darasidagi qoyatosh surhatlarini biz o'rganayotgan davr sanhatining ilk namunasi, deb atash mumkin.

Farg'ona tizma tog'larining Kukigart? davoni yaqinidan topilgan bu qoyatoshlardagi surhatlar majmuasi qadimgi Farg'ona aholisining boy ma'naviy madaniyatidan yaqqol dalolat beradi.

Saymali tosh qoya surhatlarining ilk davriga xos juda ko'p qismini shakli majmualar tashkil etadi va ular nihoyatda aniq nuqtalar bilan grafik tarzda ifoda etilgan. Arxeologik tadqiqotlarni o'rganish orqali shu narsalar ayon bo'ldiki, saroy rasmiy tantanalari va turmushda musiqa katta ahamiyatga ega bo'lgan. Nay, ud, nog'ora, arora, qayrilgan shox shaklidagi karnay, qomoncha bilan chalinadigan asboblari mavjud bo'lgan. Qo'shiqchilar, raqqoslar, ko'zbo'yamachilar bo'lgan. Afrosiyob shaharchasidan topilgan loydan yasalgan haykalchalar, shaklli tasvirlar, moychiroqlar va boshqa buyumlar o'ziga alohida e'tiborni tortadi.

Bu davrda Xind daryosining yuqori oqimidagi viloyatlar va Markaziy Osiyo xalqlari davlat ishlarida oromiy yozuvidan foydalanganlar. Keyinroq esa oromiy yozuvidan to'rtta yozuv ajralib chiqdi. Bular 'arfiya, so'g'd, baqtriya va Xorazm yozuvlari bo'lib, ular Markaziy Osiyo hududida salkam ming yil (arablar kelgunga qadar) saqlanib qoldi.

Bu davrning o'ziga xos xususiyati shuki, Markaziy Osiyo, Meso'atamiya, Misr, Eron, Yunoniston, Xitoy, Xindiston madaniyatlarining bir-biriga o'zaro tahsiri ijobiy rol o'ynaydi. Omuxtalik bu davr madaniyati va sanhati uchun hos xususiyat bo'lib, mahalliy belgilarning Xindiston, Xitoy, Misr, Yunoniston madaniyati unsurlari bilan aralashib ketganligini o'zida ifodalaydi.

Bu borada Eron, Xitoy, Xindiston bilan mahalliy xalqlarning tijorat-iqtisodiy aloqalari ham katta rol o'ynagan.

"I'ak yo'lidan" - Vaxsh Qorategin va Oloy vodiysi orqali Qashqarga, G'arbiy yo'l 'arfiyadan Eron orqali Suriyaga olib borgan. Boshqa yo'l quyi Amudaryo bo'ylab davom etgan. "Oltin yo'l" Davon (Farg'ona) orqali Issiqko'ldan o'tib Sibirga tomon cho'zilgan. Xindistondan ziravorlar, mushkanbarlar, Xitoydan i'ak matolar, temir, nikel va mo'yna keltirilgan. SHunday qilib, Markaziy Osiyodagi moddiy va ma'naviy madaniyatni shakllanishi va rivojlanishida O'rta va yaqin SHarq xalqlarining o'zaro tahsiri katta bo'lgan.

Demak, tariximizning mana shunday oltin zarvaraqlarini o'rganishimiz yurtboshimiz tahkidlaganlaridek, "... ajdodlarmiz-ning bebaho merosi va zamonaviy tafakkurga tayanib yashaydigan barkamol shaxs - komil insonni tarbiyalashdan iborat".

NAZORAT SAVOLLARI:

1. O'zbekiston tarixi fanining predmeti deganda nimani tushunasiz?
2. O'zbekiston tarixi fanining manbalari nimalardan iborat?
3. O'zbekiston tarixini yoritishning qanday nazariy asoslari bor?
4. O'zbekiston tarixini o'rganishda qanday metodologik asoslarga tayanish kerak?
5. Prezidentimiz I.A.Karimov tarix fani oldiga qanday vazifalarni qo'ydi?
6. Komil insonni tarbiyalashda O'zbekiston tarixining roli va ahamiyati nimadan iborat?
7. O'zbekiston tarixi qanday davrlarga bo'linadi?
8. Sivilizatsiya nima?
9. Markaziy Osiyo xududidagi ibtidoiy jamiyat rivojlanishi davrlari qaysilar?
10. Markaziy Osiyo xududidagi ibtidoiy davr madaniyati o'choqlari qaysilar?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- Karimov I. Milliy mafkura - mamlakat kelajagi poydevori. "Xalq so'zi" gazetasi, 7 aprel, 2000 yil.
- Karimov I. "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q", T."SHarq", 1998.
- Karimov I. "Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovardmaqsadimiz" "Ishonch" gazetasi, 25 yanvar' 2000 yil
- O'zbekiston tarixi (1-qism), T."Universitet", 1997.

O'zbekiston tarixi (talabalar uchun qisqacha mahruzular matni),
T., "Universitet", 1999.

2-MA'RUZA:

O'zbek davlatchiligining shakllanishi va dastlabki taraqqiyot bosqichlari. O'zbek xalqining etnik shakllanishi.

REJA:

1. Davlatchilik tushunchasi. Qadimgi Baqtriya, uning o'zbek davlatchiligining shakllanishidagi o'rni.
2. Qadimgi Xorazm. Ijtimoiy – iqtisodiy va madaniy hayot.
3. O'zbek xalqining etnik shaqillanishi o'zoq davom etgan murakkab jarayon ekanligi.
4. IX-XII asrlarda turkiy qavmlarning o'zbek xalqining etnik shaqillanishidagi o'rni.

Vatan tarixining dolzarb muammolaridan biri davlatchiligimiz tarixidir. SHuning uchun ham Respublikamiz prezidenti Islom Karimov 1998 yil iyun' oyining oxirlarida bir guruh yetakchi tarixchilar va ziyolilar vakillari bilan uchrashganda bu masalaga alohida ahamiyat berdi. O'zbek davlatchiligining paydo bo'lishi, asoslari va rivojlanish bosqichlari konkret ko'rsatilmaganligini tahkidlab o'tdi.

Bu muammoning kun tartibida turish sabablari shundan iboratki, keyingi vaqtda o'zbek davlatchiligi tarixini Vatanimiz hududiga turli davrlarda kirib kelgan ko'chmanchi xalqlar davlatlaridan boshlashga intilish kuchayib bordi. Bazilar buni zo'r istihola bilan niqoblab aytsalar, bazilar jar solib, shu ko'chmanchilik davlatlari bilan farxlanishga chaqirdilar.

Islom Karimov suhbatida "Ko'chmanchilar kelgunga qadar bu yerda davlatchiligimizga asos bo'lgan mahalliy davlatlar bormidi o'zi?", deb savol berganlari bejiz emas. Davlatchilik masalasi ham ilmiy, ham siyosiy masala. Bu haqda prezidentimiz Islom Karimov shunday deydilar:

"Davlatchilik bugungi kunda o'ta siyosiy masala bo'lib turibdi. Nega deganda, O'zbekistonda davlatchilik bo'lmagan, deb orqavarotdan tashviqot yuritayotgan, shu fikrni ongimizga singdirmoqchi bo'layotgan, kerak bo'lsa, halqaro jamoatchilikni shunga ishontirishga urinayotgan kuchlar hali bor. Bunday g'alamislar orasida qanday qilib bo'lsa ham bizni yana sobiq SSSR ga qaytarish niyatida yurganlar yo'q, deysizmi? O'zbek tarixchilarining bugungi kundagi asosiy vazifasi mana shu dahvoning 'uch ekanligini isbotlash, davlatchiligimizning ilmiy nuqtai nazardan asoslangan tarixini yaratishdir".

Tarixchilarimiz oldiga prezidentimiz havola qilgan bu muammo jiddiydir: u hali jiddiy tadqiqotlarni kutadi. Ammo shunga qaramay, mavjud ilmiy fikrlarning oqini-oqiga, qorasini-qorasiga ajratib, yagona ilmiy to'xtamga kelsa bo'ladi. SHuning uchun ham I. Karimov: "Eng mo'tabar, qadimgi qo'lyozmamiz "Avesto"ning yaratilganiga 3000 yil bo'lya'ti. Bu nodir kitob bundan XXX asr muqaddam ikki daryo oralig'ida, mana shu zaminda umrguzaronlik qilgan ajdodlarimizning biz avlodlariga qoldirgan ma'naviy, tarixiy merosidir. "Avesto" ayni zamonda bu qadim o'lkada buyuk ma'naviyat, buyuk madaniyat bo'lganidan guvohlik beruvchi tarixiy xujjatdirki, uni hech kim inkor etolmaydi", deganida to'la haqli edi. "Xo'sh, o'zbek davlatchiligi qaysi asrda paydo bo'ldi? Qanday tarixiy bosqichlarni bosib o'tdi?", degan savollarga javob berish mumkinmi? Asosan mumkin. Buni prezidentimizning yuqoridagi so'zi ham ko'rsatib turibdi. O'zbek davlatchiligi tarixiga to'xtalishdan oldin, umuman davlatchilik tushunchasi masalasida biroz so'z yuritishga to'g'ri keladi. Davlatchilik deganda davlatning paydo bo'lishi, ya'ni davlat bo'lib uyushishi, uning tuzumi va tizimini tushunamiz. Davlat, aslida jamiyatni tashkil etishning siyosiy shaklidir. Davlat - bu hokimiyatning fuqarolar bilan bo'lgan aloqalar va munosabatlar majmuasidir. Davlatning paydo bo'lishi, uning tuzumi va bu davlatning boshqarish tizimi mamlakat va xalqlarning ijtimoiy taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. Bu sohada qonunchilikning roli buyukligini alohida ko'rsatish kerak. O'zbek xalqining qonunchilik anhanalari juda qadimiydir. Qonunchilik bizning Vatanimizda miloddan avvalgi

yillardayoq shakllangan va o'rta asrlarda takomillashgan. Haqiqatda esa mustaqillikka erishganimizdan keyingina qonunchilik o'z mavqeiga ega bo'ldi. prezidentimiz olg'a surgan besh tamoyildan biri - qonunning ustivorligi tamoyili ekanligi ham buning isbotidir. Chunki, qonunchilikka asoslanmagan davlat tuzumi mamlakat taraqqiyotining samaradorligini tahminlay olmaydi. Davlatchilikning asosiy poydevorlari borki, davlat bu poydevorlarsiz o'z vazifasini ado etolmaydi. Bular hokimiyat va ijroiya organlari, sud, 'olitsiya, moliya va soliq tizimi, armiya, Konstitutsiya va boshqa qonunlardir. Davlatning muhim vazifalari bor. Bu vazifalar davlatning ichki va tashqi siyosatini yurgizish orqali amalga oshiriladi. Ichki siyosat, asosan, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotini tahminlashga qaratilgan bo'lsa, tashqi siyosat davlatning mudofaasini mustahkamlashga, chet el davlatlari bilan iqtisodiy, harbiy va madaniy aloqalarini boshqarishga, di'lomatik munosabatlarini mustahkamlashga qaratilgan bo'ladi. Endi rejadagi I-masala ustida fikr yuritamiz.

Davlatchiligimiz asosi qaerda va qaysi zamonda boshlanadi, degan savolga kelsak, tarixchilarimiz, ayniqsa, buyuk o'zbek olimi Yahyo G'ulomov va rus akademigi S.'Tolstovlarning ilmiy xulosalariga asoslanib, asosan Xorazmda yuzaga kelgan "Avesto" muqaddas kitobiga tayanib, davlatchiligimizning asosi, prezidentimiz suhbatda aytganlariday, bundan 2700-3000 yil muqaddam Xorazmda boshlangan deb javob berish mumkin bo'ladi. Akademik A.Asqarovning ilmiy fikriga ko'ra, 'arkana (Farg'ona), Baqtriya davlatlari ham 2800-3000 yil ilgari yuzaga kelgan. Biroz keyinroq Vatanimiz tarixida muhim o'rin egallagan. So'g'diyona davlati vujudga keldi. Ilgari aytganimizday, ko'chmanchilar tuzgan davlatlarning Vatanimiz davlatchiligidagi o'rnini inkor etib bo'lmaydi. Ammo davlatchiligimizning shakllanishi jarayonida "tubjoy" davlatlarning o'zni va roli beqiyos buyukdir.

Davlatchiligimiz tarixini asosan, besh bosqichga bo'lib o'rganamiz. Birinchi bosqich so'nggi bronza davri (miloddan oldingi I ming yillik boshlari)dan Eron Ahmoniylari istilosigacha bo'lgan davr (miloddan avvalgi VI asr o'rtalari).

Tarixchi olim A.Sahdullaevning yozishicha ("O'zbekiston tarixi" "Universitet nashriyoti, 1997") ijtimoiy-iqtisodiy ahvolni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, mil.avv. I ming yillikning boshlarida Markaziy Osiyoning nisbatan rivojlangan viloyatlarida ilk davlat uyushmalari paydo bo'la boshladi. So'nggi bronza davrida mehnatning dastlabki yirik taqsimoti ro'y beradi. Chorvachilik dehqonchilikdan ajralib chiqadi. Iqtisodiy hayotdagi siljishlar tufayli ortiqcha mahsulot paydo bo'lib, bu mahsulot ma'lum shaxslar qo'lida to'plana boshlaydi. Qishloqlar kengayib shaharlarga aylanib borar ekan, bu shaharlar eng qadimgi viloyatlar va davlat uyushmalarining mahmuriy markazi bo'la bordi. Ammo shuni alohida ta'kidlash lozimki, Markaziy Osiyodagi ilk davlat uyushmalari haqidagi yozma Ma'lumotlar juda kam. Mavjud yozma manbalar arxeologik tadqiqotlar bilan solishtirilganda birmuncha ishonchli bo'ladi. Ma'lum ki har bir davlatning bosh yacheykasi oiladir. "Avesto" Ma'lumotlariga ko'ra, ilk quldorlik davrida Markaziy Osiyo jamiyati alohida oilalardan tashkil to'ganini ko'ramiz. Yerga urug' jamoasi, egalik qilgan, bir nechta urug'lar qabilaga birlashgan, nisbatan yirik qabilalar birlashib viloyat ("daxyo") bo'lgan, bu viloyatlarni boshliq ("qavi") boshqargan. Qabila boshliqlari ma'lum vaqtda to'planib kengashib turishgan. "Avesto" qadimgi jamiyatni koxinlar, harbiylar, dehqonlar, chorvadorlar va hunarmandlar kabi tabaqalarga bo'ladi. Qadimgi xo'jaliklar chorvachilik va dehqonchilikka alohida e'tibor berganlar. Akademik A.Asqarovning yozishicha, yunon mualliflarining xabariga ko'ra, bu zaminda qabilalar konfederatsiyasi asosida tarkib to'gan dastlabki davlat bo'lgan. Bular "Katta Xorazm" va "Baqtriya podsholigi" bo'lib, ular harbiy demokratik 'rintsi'lar asosida tarkib to'gan. Afsuski, yozma manbalarda ular haqida uzuq-yuluq va juda qisqa Ma'lumotlar uchraydi. "Avesto" Ma'lumotlari asosida mashhur xorazmshunos olim S.'Tolstov, Ovru'o olimlaridan V.Xenning hamda I.Gershovichlar "Katta Xorazm" davlati haqidagi arxeologik izlanishlar va tarixiy-geografik Ma'lumotlarni solishtirib o'z qarashlarini bayon etganlar. Masalan, S.'Tolstov "Avesto"da Zaratushtaning vatani Arhyanam Vaychax-qadimgi Xorazm bo'lgan deydi. "Avesto"ga ko'ra, Zaratushtaning Vatani Arhayanom Vaychax Daitiya daryosining sohilida joylashgan. S.'Tolstov va qator boshqa olimlar Daitiya bu Amudaryodir deydilar. Qadimgi Xorazm Amudaryo xavzasida joylashgan

viloyat ekan, Zaratushtra o'z tahlimotini shu zamindan chiqib boshqa viloyatlarga tarqatgan, degan xulosaga keladi S'.Tolstov. "Avesto"da "Katta Xorazm"ga tegishli viloyatlar sanab o'tiladi. Bunga ko'ra, O'rta Osiyoning deyarli katta qismi "Katta Xorazm"ga tegishli ekanligiga qanoat hosil qilish mumkin. Miloddan avvalgi IV asrda Amudaryo quyi oqimi hududida Qadimgi Xorazm davlati tashkil to'di. Uning podshosi sifatida Farasman ismli shaxs yunon tarixchilari tomonidan tilga olinadi. Iskandar Zulqarnayn Hindiqush orqali Baqtriyaga, undan So'g'diyonaga qo'shin tortib kelganda Xorazm podshosi Farasman uning huzuriga sovg'a-salomlar bilan kelgan va shimol tomonlarga yurish qilmoqchi bo'lsa, o'z qo'shini bu unga yordamga tayyor ekanligin bildirgan. Markaziy Osiyo hududida ahmoniylarga qadar tashkil to'gan ikkinchi davlat bu Baqtriya podsholigidir. Bu davlat haqidagi dastlabki Ma'lumotlar yunonistonlik tabib Ktesiyda uchraydi.

Keyingi yillarda qadimgi Baqtriya hududida olib borilgan arxeologik tadqiqot ishlari yunon mualliflarining "Qadimgi Baqtriya podsholigi" haqidagi hikoyalari zaminida tarixiy haqiqat borligiga ishora qiladi. Bunga misol qilib Janubiy Baqtriya Oltin - 1 va Oltin - 10 hamda Baqtriya shahri vayronalarini, SHimoliy Baqtriyada Kuchukte'a, Qizilte'a, Tallashkante'a, Bandixon-2 kabi yodgorliklarni ko'rsatish mumkin. Ularning har biri mahalliy hokimliklarning o'rdasi bo'lgan. Qadimgi Baqtriya podsholigi esa ana shu tuman va viloyatlarni birlashtiruvchi harbiy-demokratik ti'dagi konfederatsiya edi.

SHunday qilib, O'rta Osiyoni ahmoniylar saltanati bosib olgunga qadar (bu voqealar miloddan avvalgi VI-IV asrlarda sodir bo'lgan edi) bu ona zaminda harbiy-demokratiya 'rintsi'lari asosida tarkib to'gan ikkita davlat mavjud bo'lgan. Bular haqida "Avesto" va yunon mualliflari juda qisqa bo'lsa-da, tegishli Ma'lumotlar qoldirganlar. Bu davlatlar "Katta Xorazm" va Qadimgi Baqtriya podsholigi edi. Ularning hududiy doirasi, ichki davlat tarkibi va ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy aloqalar haqida, ular o'tgan davr haqida hali olimlar orasida ko'p ilmiy munozaralar bo'ladi, ular haqida ko'plab maxsus ilmiy tadqiqotlar o'tkaziladi va yangidan-yangi asarlar cho' etiladi.

Eron ahmoniylari bosqinlari (milodda avvalgi VI-IV asrlar) va makedoniyalik Iskandar istilolari (miloddan avvalgi IV-III asrlar) davrida Vatanimiz xalqlarining uzoq va shonli kurashlariga, daxshatli qo'zg'olonlariga (S'itamen) qaramay, mahalliy davlatchiligimiz barham to'di. Markaziy Osiyo (miloddan avvalgi 522-521 yillar)da bo'lib o'tgan xalq qo'zg'olonlari Doro I ni qattiq ichki siyosat olib borishga majbur etdi. U hatto saroy aristokratiyasi huquqlarini ham cheklab, mamlakatda hokimiyat tartiblarini o'rnatdi.

Gerodotning habar berishiga qaraganda, Doro I o'z imperiyasini alohida viloyatlarga-satra'liklarga bo'lib idora qilgan. Har bir satra'lik har yili davlat xazinasiga ma'lum miqdorda soliq to'lashga majbur edi. Makedoniyalik Iskandar vafoti (miloddan avvalgi 323 yil)dan keyin taxt uchun kurashlar natijasida SHarq yerlari lashkarboshi Salavkga o'tdi. U miloddan avvalgi 293 yil SHarqni idora qilish ishini o'zining S'itamen qizi A'amandan bo'lgan o'g'li Antiox I ga topshirdi.

Miloddan avvalgi III asrning o'rtalariga kelganda (miloddan avvalgi 250 yil) salavkiylar saltanatinig O'rta Osiyodagi mavqei butunlay tushib ketdi. Saltanatning sharqiy satra'liklari markaziy hokimiyatga bo'ysunishdan bosh tortib, ularning har biri mustaqil siyosat yurgizishga intildi. Ayniqsa, bu vaziyat 'arfiya va Baqtriya satra'iklarida ko'zga yaqqol tashlanar edi. Bu vaqtda Baqtriya satra'i Diodot edi. Strabonning fikriga qaraganda Baqtriyaning salavkiylardan ajralib chiqishi, baqtriyaliklarning markaziy hokimiyatga nisbatan isyoni edi. Baqtriyaning salavkiylardan ajralib chiqishiga Diodotdan tashqari, Yevtidem ham aralashgan. Yevtidem xuddi o'sha vaqtda So'g'diyona hokimi bo'lib, u Diodotga tobe edi.

SHunday qilib, miloddan avvalgi III asr o'rtalarida davlatchiligimiz yana o'z taraqqiyotining ikkinchi mustaqillik 'allasiga kirdi. Mustaqillikka erishgan Baqtriya Diodot I davrida qudratli davlatga aylandi. Miloddan avvalgi 212 yilda Yevtidem Yunon-Baqtriya davlatining podshosi edi. Miloddan avvalgi 206 yildan boshlab Yunon-Baqtriya davlati uchun salavkiylar tomonidan endi hech qanday xavf yo'q edi.

Evtidemning o'g'li Demetriy davrida (miloddan avvalgi 199-167 yillar) Baqtriyaning hududi kengayib har jihatdan yuksaldi. Uning nomi bilan ko'plab joylarda tangalar zarb etildi. Davlatni boshqarish borasida islohot o'tkazildi. Bunga ko'ra davlatni mayda hokimliklarga bo'lib boshqarish joriy etildi. Demetriy mahalliy aslzoda vakillarini davlatni boshqarish ishiga tortadi.

Nihoyat, miloddan avvalgi 141 va 128 yillar orasida Yunon-Baqtriyaga shimoldan kelgan ko'chmanchi yue-chjilar barham berdilar.

Vatanimiz tarixida muhim rol o'ynagan SHarqning bu davlati 120 yildan ortiq vaqt yashadi. Tarixchilar bu davrda oldin Baqtriyaga qaram bo'lgan, keyin, miloddan avval II asrda, mustaqil bo'lgan So'g'diyona haqida ham ko'p gapiradilar.

Davlatchiligimiz tarixining ikkinchi bosqichida muhim rol o'ynagan davlatlardan biri Qadimgi Xorazm davlatidir. Qadimgi Xorazm tarixining bilimdoni S'.Tolstov asarlarida massaget qabilalari ittifoqi, ularning Saksafar, Omarg va To'maris kabi vakillari to'g'risida fikr yuritib o'tadi. S'.Tolstov To'marisi debriklar malikasi, Omargni esa saklarning podshosi edi, deydi. Saksafarga kelganda u siyovushiyar sulolasiga tegishli qadimgi Xorazm podshosi SHAushafor bo'lishi kerak, degan g'oyani olg'a suradi. S'.Tolstovning bu mantiqiy o'xshatishida tarixiy haqiqat bo'lsa, u holda miloddan avvalgi VI asrda qadimgi Xorazm o'z hukmdoriga ega bo'lgan. Saksafar Xorazm davlatining ilk podsholaridan biri bo'lgan.

Akademik Ya. G'ulomovning tahkidlashicha, Sirdaryo o'rta oqimi xavzasida, (hozirgi Toshkent, qisman Sirdaryo viloyati va Janubiy Qozog'iston hududida), miloddan avvalgi III asr boshlarida tashkil to'gan Kang davlati davlatchiligimiz tarixida alohida ahamiyatga ega. Bizningcha, makedoniyaliklar qo'shinlariga qarshi uyushgan mahalliy va ko'chmanchi qabilalar davlati bo'lgan Kang davlati asosan, ko'chmanchilar davlati bo'lib, mahalliy xalq ularga mudofaa zaruratidan qo'shilgan. SHunga qaramay, Kang davlatining davlatchiligimiz tarixida o'z o'rni bor.

Qadimgi manbaalarda Kang davlatining qanday idora qilinganligi, uning davlat tuzilishi to'g'risida Ma'lumotlar yetib kelmagan. Ammo faqat bir marta to'ng'ich Xan' sulolasi tarixida (miloddan avvalgi II-I asrlarga oid) Kanguy podshosi o'z oqsoqollari bilan maslahatlashib ish tutishi haqida eslab o'tiladi. Demak, quldorlik jamiyati sharoitida tashkil to'gan Kang davlatida Oliy kengash asosiy rol o'ynagan.

Davlat kengashida qabila boshliqlari, harbiy sarkardalar faol qatnashib, muhim davlat ahamiyatiga molik masalalar hal etilgan. podsho hokimiyati demokratik 'rintsi'lar asosida tashkil to'gan davlat tizimi edi. Kang davlatiga qarashli yerlar bir necha viloyatlarga bo'lingan. Ularni boshqargan boshliqlar jobg'u yoki yobg'ular deb atalgan. Kang xoqonlari mamlakatni ana shu jobg'ularga tayanib boshqarar ekan, ular, odatda, hoqonlarga yaqin kishilardan, ularning qavm-qarindoshlaridan, yirik urug'-qabila boshliqlaridan tayinlangan. Kang davlatiga tobe viloyatlarni boshqarish ishi mahalliy hokimlar qo'lida bo'lib, ular markaziy hokimiyatga boj to'lab turgan. Ana shunday tobe viloyatlarga qadimgi Xorazm, So'g'd yerlari, Ural tog'oldi rayonlari (alan va yan qabilalari) kirgan. Kang davlati VII asr yashab, milodning V asri o'rtalarida yemirildi. Markaziy Osiyo xalqlari tarixida, jumladan, o'zbek xalqi tarixida bu yarim ko'chmanchi davlat zaminida yashovchi Qadimgi Eron tilining shimoliy shaxobchasida so'zlashuvchi tubjoy xalqlar Janubiy Sibir, Oltoy, SHarqiy, Turkiston, Yettisuv viloyatlarida yashovchi turkiy tilda so'zlashuvchi qabilaar bilan yaqinlashdi. Qadimgi manbalarda bu davrda Farg'ona (Davan, 'arkan) davlati bo'lganligi haqida ham yoziladi. Farg'ona vodiysining qadimgi tarixi haqida gap ketganida, odatda, uning miloddan avvalgi VII-VI asrlardan to milodiy eraning V asriga qadar bo'lgan davr tarixini ko'z o'ngimizga keltiramiz. CHunki, undan avvalgi davr qadimgi Farg'ona tarixida ibtidoiy jamoa tuzumi va V asrdan boshlab esa uning feodal davri tarixi boshlandi. Bu davr ijtimoiy-siyosiy hayotida erkin jamoa xo'jaligi jamiyat rivojida asosiy qatlamni tashkil etardi. Farg'ona ahmoniylarga ham, makedoniyaliklarga ham tobe bo'lmagan. Xitoy manbalarida yozilishicha, miloddan avvalgi II-I asrlarda Davan aholisi dehqonchilik va

hunarmandchilik bilan shug'ullangan, xo'jaliklari yuksak rivojlangan. Davan davlati boy shaharlarga va kuchli qo'shinga ega bo'lgan. Davlatchiligimiz tarixida Farg'ona davlat tuzumi muhim, hatto ibratli ahamiyat kasb etadi.

Miloddan avvalgi II asrda (Xitoy elchisi CHjan TSyan' bu yurtga kelgan davrlarda) qadimgi Farg'onada kuchli siyosiy davlat tizimi shakllangan edi. podsholik te'asida mahalliy aholining aslzodalaridan chiqqan hukmdor turardi. Ulardan bazilarining nomlari xitoychada Mugua, CHan, Fin, Yanhlyu deb berilgan. Hukmdorning yonida eng yaqin qarindoshlaridan ikkita yordamchi bo'lgan. Hukmdor davlat ishlarini olib borishda oqsoqollar kengashiga suyangan. Oqsoqollar kengashi hukmdor bilan birgalikda davlat ahamiyatiga molik ijtimoiy, siyosiy va diniy masalalarni hal etgan. SHu bilan birga, oqsoqollar kengashi hukmdor faoliyatini muhim masalalarda nazorat qilib borgan. Oliy kengash oldida hukmdorning huquqi cheklangan edi. Ayniqsa, urush va tinchlik: di'lomatik masalalarda hal etuvchi kuch va huquq oliy kengash qo'lida edi. Oliy kengash hukmdorni hokimiyatdan tushirishi, uning o'rniga yangisini saylashi mumkin bo'lgan. Xitoy manbalarining xabar berishiga qaraganda, o'zga davlat va uning qo'shini bilan bo'lgan janglarda davanliklarning mag'lubiyati uchun oliy hokimiyat egasi-hukmdor oqsoqollar kengashi qarori bilan o'lim jazosiga tortilgan. Davan davlatining siyosiy tuzumi shaharlarning yoki vo'ha-davlatlarining erkin ittifoqidan tashkil to'gan konfederatsiya edi.

Xitoy ayg'oqchisi CHjan TSyaning Davan davlatining qudrati haqidagi Ma'lumotlari ham e'tiborga loyiqdir. Davan 60 ming qo'shinga ega edi. 'iyoda askarlar oddiy qurollangan, otliq qo'shin harbiy mahoratda tengsiz bo'lgan. Ularning ot ustida turib kamondan uzgan o'qlari dushmani dog'da qoldirardi. Ularning ayollari ham qamondan o'q uzishda o'z erlaridan qolishmagan.

Davanliklar g'arbda kangliklar, shimolda usunlar, sharqda esa uyg'urlar bilan yaqin aloqada bo'lishgan. Xitoy bilan bo'lgan janglarda ularni har doim kango'ylar qo'llab-quvvatlaganlar.

Qadimgi Farg'ona davlatini milodiy eraning dastlabki yuz yilliklarida mahalliy aslzodalar sulokasi boshqargan. Xitoy manbalariga qaraganda, qadimgi Farg'onani 419 yilgacha bir sulola (xonadon) vakillari uzluksiz boshqarib kelgan. O'rta osiyo hududlarida Eftalitlar davlati qaror to'gach, qadimgi Farg'ona davlati o'z mustaqilligini yo'qotgan.

Davlatchiligimiz tarixida Kushon podsholigi ham diqqatga sazovordir. Kushonlar ko'chmanchi qabilalar bilan qo'shib ketgan massagetlar bo'lib, S'itamen qo'zg'olonidan so'ng SHarqiy Turkiston va Mo'g'uliston chegaralariga ketib qolgan edilar. Xitoy tarixchilari ularning yue-chjilar deytilar. Miloddan avvalgi II asr o'rtalarida ular xunlardan yengilib Farg'onaga qaytib keladilar. Miloddan avvalgi 140 yilda Baqtriyaning tushkunlikka uchraganidan foydalanib So'g'd orqali Baqtriyaga o'tadilar. Bu yerda ular 5 qabilaga bo'lingan. Kushon qabila boshlig'i Kudzula Kadfiz qolgan 4 qabilani tobe etib o'zini hukmdor deb e'lon qilgan. Kushon davlati keyin butun Markaziy Osiyo, Afg'oniston, 'okiston va Xindiston yerlarini qo'shib olib, yirik im'eriyaqa aylandi va davlati milodiy IV asrgacha yashadi. Bu davrda pul va din islohoti o'tkazildi.

Bu davlat buyukligiga qaramay, ko'chmanchilar davlati edi va davlatchiligimiz taraqqiyotida muhim rol' uynadi deb aytish holis Tariximizni yaratish tamoyillarigi hilofdir. SHunday qilib, davlatchiligimizning 2-bosqichi haqida gapirganda, biz asosan, Qadimgi Xorazm, Baqtriya va Farg'onani ko'rsatishimiz kerak.

Muammo:

O'zbek xalqining shakllanish jarayoni qanday kechgan?
O'zbek atamasi qachon paydo bo'lgan?

O'zbek xalqining kelib chiqishi va shakllanish tarixi tarixnavisligimizdagi eng dolzarb muammolardan biridir. SHuning uchun ham prezidentimiz I.A.Karimov 1998 yil iyun' oyining oxirida bir guruh tarixchilar hamda ziyolilarning ayrim vakillari bilan o'tkazgan uchrashuvida bu masalaga katta ahamiyat berdi. Bu masalaning kun tartibiga dolzarb muammo qilib qo'yilish

sabablaridan yana biri shundan iboratki, keyingi vaqtda o'zbek millatining shakllanishi tarixini turli vaqtlarda Vatanimizga ko'chib yoki bosib kirib kelgan ko'chmanchi xalqlardan boshlashga

intilish kuchaymoqda. Bazilar buni zo'r istihola bilan aytsalar, bazilar jar solib, shu ko'chmanchilar avlodi bo'lganligimizdan faxrlanishga chaqirmoqdalar. Keyingi 'aytlarda "Bizlar xunlarning avlodimiz", "Biz kelib chiqishimiz jihatidan turklarmiz" degan gaplar ko'paydi.

SHuning uchun ham prezidentimiz I.Karimov uchrashuvdagi suhbatda "... qadim ajdodlarimiz hayotining asosini o'troq madaniyat tashkil etganmi yo ko'chmanchimi? O'zbek xalqining shakllanishida qanday elatlarning tahsiri bo'lgan? Bilaman, bular og'ir savollar. Lekin ularga javob topishimiz zarur", deb aytdilar. prezidentimizning yana quyidagi fikrlari diqqatga sazovordir: "Yana qaytarib aytmogchiman: biz o'zimizni millat deb bilar ekanmiz,

o'zbekchiligimiz haqida aniq tushunchaga ega bo'lishimiz kerak. Turkiy-tilli xalq bor, turk halqi bor. Farqini har bir fuqaromiz, avvalo, farzandlarimiz bo'lib olsinlar". Islom Karimovning uchrashuvda aytgan quyidagi gaplari o'zbek xalqining shakllanishi tarixi bilan shug'ullanuvchi tarixchilarning tadqiqotlari uchun metodologik asos bo'la oladi. "Movarounnahr sarhadlariga uzoq tariximiz davomida ne-ne bosqinchilar kirib kelmagan, ko'p yillar, balki asrlar davomida yurtimizda ne-

Muammoli vaziyat:

Hozirgi kunda o'zbek xalqining etnik shakllanishi to'g'risida turli tarixiy adabiyotlarda turlicha qarashlar ilgari surilmoqda. Bu muammoni tarixiy manbalardan tanqidiy, xolisona foydalanib uni yangicha yondashuv asosida oboektiv hal qilish lozim.

ne o'zga sulolalar hukmronlik qilmagan, deysiz. Bir so'z bilan aytganda, ming yillar davomida yurtimizga kelib-ketganlar ozmi? Erondan Ahmoniylar, Yunonistondan Aleksandr keldi, Arabistondan Qutayba, Mo'g'ulistondan Chingizxon, keyinchalik rus istilochilari keldi. Lekin xalq qoldi-ku. Xo'sh, bunda qanday sir-sinoat bor? Xalq qanday ichki kuch-qudratga tayanib o'zligini saqlab qoldi? Qadim-qadim zamonlardan o'troq yashagani, ilm-mahrifatga intilgani, buyuk madaniyatga ega bo'lgani, o'z urf-odatlarini muqaddas bilgani uchun emasmi? O'zbek nomi qachon paydo bo'lgan? Sovet tarixshunoslarining yozishicha, go'yo XVI asrda bizning zaminimizni Dashti Qi'choq xonlari ishg'ol qilgandan keyin o'zbek nomi paydo bo'lgan emish. Axir, biz Movarounnahr deb ataladigan ikki daryo oralig'ida ungacha ham xalq yashagan-ku! Yoki xalq boshqa millat bo'lganmi? Mantiq qani bu yerda. Biz sovet zamonidan qolgan bu aqidani qabul qilsak, millatimiz tarixi mana shu navbatdagi bosqinchilar davridan boshlangan, degan noto'g'ri xulosa kelib chiqmaydimi? Unda bizning necha ming yillik tariximiz qaerga qoladi? Samarqand ham, Buxoro ham, Xiva ham o'zbeklarniki ekan, bu yerlarda o'zbek davlati bo'lgan ekan, nega endi o'z tariximizni XVI asrdan, kimdir kelib-ketib, nomini qoldirib ketgan davrdan boshlashimiz kerak? Ungacha ham bu yerda o'troq xalq yashagan-ku! Bu yerda ana shu o'troq xalqning madaniyati bo'lgan-ku! Bu yerda XIII asrning 20-yillaridan XIV asrning 70-yillariga qadar mo'g'ullar hukmronlik qilganlar va ularning madaniyati mahalliy madaniyatga singib ketgan. Bunda mahalliy xalqning madaniyati, albatta, asos bo'lgan, ustunlik qilgan.

Biz xalqni nomi bilan emas, balki madaniyati, ma'naviyati orqali bilamiz, tarixining tag-tomirigacha nazar tashlaymiz.

Yana bir bor qaytaraman: men tarixchi emasman. Ammo, umuman, dunyo xalqlari va xususan yurtimiz tarixiy taraqqiyot yo'lining asosiy qonuniyatlarini mantiqiy tahlil qilsak, shu narsa ayon bo'ladi, Aleksandr ham (uni SHarqda ko'proq Iskandar Zulqarnayn degan nom bilan bilishadi). Qutayba ham, Chingizxon ham, general CHernyaev ham, umuman, kim bo'lmasin, yurtimizga bir necha o'n ming yo bir necha yuz ming lashkari bilan kelgan, ishg'ol qilgan va bu yerdagi siyosiy hokimiyatni qo'lga olgan. Yana takrorlayman: siyosiy hokimiyatni. Tamom. To'g'ri, hukmronliklari mobaynida ular mamlakatimizning iqtisodiy, savdo, ilmiy, madaniy imkoniyatlaridan o'z manfaatlarini yo'lida foydalanishga zo'r berganlar. Biroq, shu yerda asrlar davomida yashab kelayotgan mahalliy aholini, uning ko'p ming yillik madaniyatini yo'q qilolmaganlar, qilolmasdilar ham".

Muammoni yechish uchun nimalarga ahamiyat qilish kerak:

Ushbu muammoni ilmiy tadqiq qilishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» nomli asari metodologik asar bo'lib xizmat qiladi.

O'zbek xalqining ibtidosini, dastlabki asosini tariximiz qahridan qidiramiz. 700 ming - bir million yil muqaddam Sel-Ungurda yashagan ibtidoiy odamlar, 100 ming yillar ilgari Teshiktoshda yashagan odamlar bizlarning, Markaziy Osiyo xalqlarining (o'zbeklar, tojiklar, turkmanlar, qozoqlar, qirg'izlar va qaraqal'oqlarning) ajdodlaridirlar. Biz o'shalardan tarqalgan tubjoyli xalqlarmiz.

Aziz o'quvchim, muallif tariximizda ko'chmanchi xalqlar va davlatlar rolini inkor qilayotir deb, xulosa

chiqarishga shoshilmang. Alhazar! Ularning roli bor, albatta. 3000 yil davomida sharqdan ko'chib kelgan yoki bosib kelgan ko'chmanchilarning o'zbek xalqining etnik jihatdan shakllanishida "xizmati", "hissasi" katta. Bu haqiqatga qarshi so'z bo'lishi mumkin emas.

Markaziy Osiyoda miloddan avvalgi III ming yillik o'rtalarida SHarqdan kelib o'rnasha boshlagan ko'chmanchi turklarning ayrim guruhlar yashar edilar. Miloddan avvalgi II asrlarda ularning ko'chib kelishi kuchaydi, milodning V asridan boshlab avj oldi. VII asrga kelib, hatto, ular o'z Hoqonliklarini bar'o etdilar va Vatanimiz hududini bo'ysundirdilar. Natijada Markaziy Osiyodagi xalqlarning turkiylashuvi yuzaga keldi. Keyin qorluqlar, o'g'izlar va boshqalar bu jarayonni kuchaytirdilar. X-XI asrlarga kelib turkiyzabon o'zbek xalqi etnik jihatdan asosan tarkib to'ib bo'ldi. Bu jarayon keyin ham davom etdi. Masalan, XVI asrda Dashti Qi'choqdagi "o'zbek" deb ataluvchi ko'chmanchi qabilalar kelib qo'shildilar. Xalqimiz "o'zbeklar" deb atala boshlandi. Aslida ular xalq bo'lib shakllanishimizda bir element sifatida rol o'ynagan elatlar - XVI asrda bizga nomini o'tkazgan SHayboniy o'zbeklari ham, X-XII asrda kelib qo'shilgan turli ko'chmanchi turkiy qabilalar ham, qadimdan ko'chib kelgan va keyinchalik o'z xoqonliklarini tuzgan turklar ham o'zbek xalqining, millatining ibtidosi emas, o'zbek xalqining etnik shakllanishida asos bo'lganlar, bular-xorazmiylar, baqtriylar, so'g'diylar, 'arkan (Davon) lilardir, ya'ni dehqonchilik va o'troq chorvachilik bilan shug'ullanuvchi tubjoy xalqlardirlar. Ular Eron tilining shimoliy shahobchasiga mansub tilda so'zlashardilar. SHuning uchun ham I.A.Karimov o'zining "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida" degan katobida: "... madaniy, tarixiy va antro'ologik ildizlarimiz bizni tojik xalqi bilan ham tutashtiradi" (143-bet) deganda to'la haq edi.

Hozir turklarni "mahalliyashtirish" va "o'troqlash-tirish"ga intilish kuchli. Jon kuydirib, ular miloddan avvalgi II asrdan boshlab kelgan emas, III ming yillikning boshlarida ham bor edi, demoqdalar. Masala ularning qachon kelganligi ustidan emas, balki aslida tubjoy bo'lmay ko'chib kelganliklari ustida borishi kerak. Axir, Amir Temurning "Temur tuzuklari"da (Toshkent, 1991 yil, 39-bet) "Turonzaminning o'zbeklar toifasi qoldiqlaridan tozalash" degan sarlavhada o'zbeklarni qalhalardan haydaganligini yozib, "Movarounnahr tu'rog'i meni o'ldirishga qasd qilgan o'sha zolimlardan tozalandi va mamlakat tamoman mening qo'limga o'tdi" deb hursand bo'ladi.

Demak, hali XIV asrning 60 yillarida Movarounnahrda ko'chmanchi o'zbek guruhlar bor ekan. Lekin biz ko'chmanchi o'zbeklar Vatanimizga XVI asr boshlarida bosib keldi, deb yozamiz. SHundan mantiqan kelib chiqadiki, miloddan avvalgi III ming yillik o'rtalarida yoki undan ham oldin deylik, turklarning ayrim guruhlar Sirdaryo havzasida yashagan bo'lsa, "bizning kelib chiqishimiz asli turk" deyishga ilmiy asos bo'lolmaydi, bizlar keyinchalik turklashgan, turkiyzabon bo'lgan, aslida esa tubjoy bo'lgan xalqmiz.

SHuning uchun ham prezidentimiz uchrashuvdagi suhbatlarida bu masalaga qayta-qayta to'xtadilar "Bizning ajdodlarimiz, halqimiz qadim-qadimdan o'troq yashagan, millatimizning iligi o'troq madaniyat sharoitida qotgan ... Milliy borlig'imiz, madaniyatimiz ildizi, tomiri o'troq bo'lgan...

Demoqchimanki, tariximiz kabi, qadim madaniyatimizning yaratilishida ham unga ko'plab etnik guruhlar, el-elatlar o'z ulushini qo'shgan. Bu - tabiiy hol. CHunki, hech qachon, hech qaerda faqat bitta millatga mansub madaniyat bo'lmaydi. Har qanday sivilizatsiya ko'pdan-

ko'p xalqlar, millatlar, elatlar faoliyatining va samarali tahsirining mahsulidar. Bir so'z bilan aytganda, ko'chmanchilar, bosqinchilar kelib ketaveradi, lekin xalq boqiy qoladi, uning madaniyati abadiy yashaydi".

Yodda tuting!

O'zbek xalqining etnik shakllanishida turkiy xalqlar xal qiluvchi asos bo'lmasalarda muhim rol o'ynaganlar.

2.

XIX asr oxirlari - XX asr boshlarida tatar mahrifat'arvari Hasan Ato Abushiy o'zining 1907 yil yozib tugatilgan mashhur asari "Turkiy qavmlar tarixi" da shunday deb yozadi: "Avlodi Yofas (Nuh Payg'ambar o'g'li) dan mo'ng'il qiyofatli bir odam (muarrixlar qovlincha turk) qavm va qabilasi ila Osiyo o'rtalarida Issiqko'l va Oltoy tog'lari tegrasina kelub yerlashmishdir. Zamon kub o'tuvchi ham albatta ko'baymishlar. Tabiiy avvalgi o'rinlarini sig'may turli tarafga sochilurg'a majbur o'lmishdirlar" (Ko'rsatilgan asar. T., CHo'l'on, 1995 yil, 20-bet).

Akademik A.R.Muhammadjonovning "O'zbekiston tarixi" (T., "O'qituvchi" 1994) kitobida yozilishicha, V asrning ikkinchi va VI asrning birinchi yarmida Oltoy va Janubiy Sibirda ashina qabilasining yabgulari Asanshod, Tuu va Buminlar (460-553) boshlig'ida turkiy qabilalarning ittifoqi vujudga keladi. Qadimgi turk manbalarida bu ittifoq turk, turkel va turk bhdun kabi nomlar bilan tilga olinadi. VI asr o'rtalarida Bumin boshliq bu turk ittifoqi tele qabilasini o'ziga bo'ysundirgach, Markaziy Osiyodagi eng kuchli Jujan hoqonligiga qaqshatqich zarba beradi. 551 yilda Bumin "Xoqon", ya'ni hukmdor unvoniga muyassar bo'lib, Markaziy Osiyoda yangi im'eriya - Turk hoqonligiga asos soladi. Oltoy Xoqonlikning markazi bo'lib qoladi.

Bumin va uning ukasi Istemi Markaziy Osiyo va Janubiy Sibirda hukmronlikni mustahkamlab olgach, xoqonlik chegaralarini kengaytirishga kirishadilar. Qisqa vaqt ichida Yenisey daryosi bo'ylarida yashovchi qirg'izlar, janubiy-G'arbiy Manjuriyaning mo'ng'il qabilasidan bo'lgan kidanlar bo'ysundiriladi. SHimoliy Xitoy viloyatlari bosib olinib, Xitoy im'eratori turklar bilan sulh tuzishga, keyinchalik esa, hatto, u yiliga yuz ming to' i'ak mato hisobida hoqonlikka o'l'on to'lab turishga majbur bo'ladi.

Turklar G'arbga tomon muvaffaqiyatli yurishlar olib boradilar. G'arbiy harakatlarga Istema boshchilik qiladi. Unga "yabg'u hoqon" degan unvon beriladi. Tez orada Yettisuv va SHarqiy Turkistonga tutashgan yurtlarda yashovchi turkiy qabilalar bo'ysundiriladi. 555 yildayoq turklar SHarqiy Turkistonning obod dehqonchilik viloyatlarining kattagina qismini va boy hunarmandchilik shaharlarini hamda O'rta Osiyoning Sirdaryo va Orol dengizi bo'ylarigacha cho'zilgan keng dasht mintaqasini butunlay egallab oladilar. Turklar hokimligi shu 'aytlarda, shubhasiz, Xorazmga ham yoyilib, hoqonlik chegarasi Eftalitlar davlati hududlariga borib yondashadi.

SHuni ehtirol etish kerakki, ko'chmanchi chorvadorlarning g'arbga tomon yurishi oddiygina istilo emas edi. Balki bu Markaziy Osiyoda yashovchi turkiy qabilalarning SHarqiy Turkiston shimoli va O'rta Osiyoning sharqidagi ulkan dashtli va tog'li o'lkalarga navbatdagi ko'chib kelib o'nashishi edi. Qadimdan bu hududlarda yashab kelgan va til jihatidan turkiyzabon mahalliy ko'chmanchilarning bir qismi turklarning harbiy boshqaruv tizimigina birikib, qolganlari esa qochib avarlarga borib qo'shildi, ularning harbiy qudratini oshirib, turk nomi bilan SHarqiy Ovru'o dashtlariga borib o'nashdi.

558 yilga borganda turklar Yoyiq (Ural) va Itil (Volga) bo'ylarini zabt etib, undan g'arbda va SHimoliy Kavkazda bepoyon yerlarni olgan avarlar bilan to'qnashdilar. G'arbdagi bu ikki dushmanga uzil-kesil zarba berish maqsadida turklar Eron va Vizantiya bilan do'stona aloqa o'rnatishga intiladi. Turklar tazyiqi oqibatida bu davrda yuzaga kelgan qulay vaziyatdan foydalangan sosoniylar Toxariston, Zabuliston, Qobuliston va CHag'oniyonni eftalitlardan tortib oladi.

Keyin ularning uchalasini ham yengib, VI asrning 60-70 yillarida o'zlarining Buyuk Turk hoqonligini tuzdilar. Ammo o'zaro urushlar natijasida 603 yil ular ikki davlatga - G'arbiy Turk

hoqonligi va SHarqiy Turk hoqonligiga bo'linib ketdilar. SHarqiy hoqonlik markazi Oltoy, G'arbiy hoqonlik Markazi Yettisuv bo'lib, unga O'rta Osiyo, Jung'oriya va SHarqiy Turkiston kirar edi.

G'arbiy hoqonlikning markazi Yettisuv edi. Hoqonning yozgi qarorgohi Isfijob yaqinidagi Mingbuloqda, qishkisi Suyob shahrida edi. Suyobning sharqiy tomonida dulu qabilasining besh o'q eli yaylovlari joylashgan edi. G'arbiy hoqonlik ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan SHarqiy hoqonlikdan mutlaqo ajralib turardi. SHarqiy hoqonlik aholisining asosiy qismi chorvador ko'chmanchilardan iborat edi. G'arbiy hoqonlik aholisining kattagina qismi esa o'troq dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan mashg'ul edi. Biroq hoqonlikning harbiy-mahmuriy tayanchi hisoblangan dulu va nushibi kabi qabila ittifoqlari zodagonlari o'rtasida hokimiyat uchun tobora kuchayib borgan kurash oqibatida G'arbiy turk hoqonligi zaiflashib, bo'linib ketadi. Bunday vaziyatdan foydalangan Xitoyning Tan imperiyasi qo'shinlari 657-679 yillarda Yettisuvga bostirib kiradi. Natijada hoqonlik xitoylarga qaram bo'lib qoladi. Tan imperiyasi tazyiqi va uning yerli gumashtalariga qarshi g'arbiy turklarning mutassil olib borgan kurashi natijasida VII asrning oxiriga kelib hoqonlik mustaqillikni tiklab oladi. Xitoy gumashtasi Xusrav Bo'rishod mamlakatdan quvib chiqariladi. CHochdan to Beshbaliq va Turfanchagacha bo'lgan viloyatlarda dulu qabila ittifoqidagi turkashlar hukmronligi o'rnatiladi. Yangidan tiklangan bu turklar davlati tarixda Turkashlar hoqonligi nomi bilan shuhrat to'adi. Keyinchalik Turkashlar hoqonligi SHarqda yarim asrdan oshiqroq vaqt davomida Tan imperiyasining bosqinchilarini daf etib, Xitoy qo'shinlarining O'rta Osiyo va SHarqiy Turkiston yerlariga bostirib kirishlariga yo'l qo'ymaydi. G'arbga esa Movarounnahr tomon bosib kelayotgan yangi dushman - Arab xalifaligi lashkarlariga qarshi Buxoro, So'g'd va SHosh aholisi bilan bir safda turib shiddatli janglarda qatnashadi.

Akademik A.Muxammadjonov biz yuqorida keltirilgan darsligida yozishicha O'rta Osiyo xalqlarining, jumladan o'zbek xalqining shaklanishida qorluqlar va o'g'uzlar kabi turkiy qabilalarning roli ham kattadir.

Qadimdan Oltoyning g'arbida, so'ngra Irtish daryosining o'rta oqimida yashagan qorluqlar qadimiy turkiy qabilalardan hisoblangan. VI-VII asr o'rtalarida qorluqlar Yettisuv o'lkasiga kelib joylashgan. Ularning katta guruhi Talas va CHu daryolarining bo'ylarida va Issiqko'lgacha bo'lgan hududda yashagan. VIII asr oxirida bu hududda Qorluqlar davlati tashkil to'gan. podshohlari "yabg'u" yoki "jabg'u" deb yuritilgan. Bu davlat G'arbiy va SHarqiy tomonlardan, Issiqko'l sohillaridan to ilk daryosi vodiysigacha turklarning jikil qabilasi, g'arbdan o'g'uzlar yurti va Farg'ona vodiysi, janubdan esa SHarqiy Turkiston bilan chegaradosh bo'lgan. X asr arab geografi Ibn Havqalning Ma'lumoti bo'yicha, qorluqlar yurti Farg'ona vodiysi hududlaridan sharqqa tomon o'ttiz kunlik masofaga cho'zilgan. Bu davlatning 'oytaxti CHu daryosidan shimolroqda joylashgan Suyob shahrida bo'lgan.

Qorluqlar davlati bir tomondan SHarqiy Turkiston va ikkinchi tomondan Movarounnahr aholisi bilan yaqindan savdo-sotiq aloqalari olib borgan. U ayniqsa otar-otar qo'ylar, teri, jun va hokazo chorva mahsulotlari bilan savdo qilgan. O'zaro savdoda ayniqsa Movarounnahr savdogarlari va Yettisuvda so'g'diylarning qadim zamonlardayoq bunyod etilgan savdo mavzelari muhim rol o'ynagan. Qo'shni o'lkalar va davlatlar bilan olib borilgan tashqi savdo aloqalarining kengayishi tufayli qorluklar Tibet aholisi hamda Yeniseyning yuqori oqimida yashab turgan qirg'izlar bilan yaqin munosabatda bo'ladilar.

Movarounnahrning o'troq dehqonchilik vohalari va hunarmandchilik shaharlari bilan muttassil olib borilgan savdo aloqalari Yettisuvda qadimdan yashab kelayotgan aholining ijtimoiy va iqtisodiy hayotigagina emas, balki uning madaniy turmushiga ham tahsir etadi. Hech qanday harbiy kuch ishlatmasdan, tinchlik yo'li bilan bu hududga avval moniy va xristian dinlari, so'ngra musulmonchilik kirib kelgan. Ayrim Ma'lumotlarga qaraganda, IX asr oxirlaridayoq qorluqlar jabg'usi islom dinini qabul etgan. X asr o'rtalariga borganda qorluqlarning kattagina qismi musulmon bo'lgan. Bu davrda Talosdan sharqda joylashgan bir qancha qorluq shaharlarida jome masjidleri bino qilingan. X asr oxirida Qoraxoniylar Movarounnahrni egallagach, qorluqlar SHosh vohasiga hamda Farg'ona va Zarafshon

vodiylariga ko'chib kelib o'r'nashdilar. Keyinchalik ular asta-sekin Movarounnahrning mahalliy o'troq dehqon va chorvador aholisi tarkibiga singib ketadilar.

VI asrning birinchi yarmida Xitoydan to Qora dengiz bo'ylarigacha cho'zilgan juda keng maydonda ko'chmanchi chorvachilik bilan kun kechirgan turkiy qabilalarning yana bir jangovor ittifoqi yuzaga keladi. Tarix sahifalarida u to'quzo'g'uzlar nomi bilan tilga olinadi. VI asrning ikkinchi yarmi va VII asrda ular Turk hoqonligi tarkibida bo'lib, uning ijtimoiy va iqtisodiy hayotida, ayniqsa g'arbga tomon qilgan harbiy yurishlarida faol qatnashdilar. Turk hoqonligi yemirilgach, To'quzo'g'uzlarning kattagina qismi g'uz yoki o'g'uz nomi ostida Sirdaryo havzasi hamda Orol dengizi bo'yiga muqim o'r'nashib, bu hududda ular IX asr oxiri va X asr boshida turklarning yana bir yangi ittifoqi - O'g'uzlar davlatiga asos soladilar. O'g'uzlarning asosiy qismi Sirdaryoning adog'i va uning o'rta oqimi hamda sharqiy va shimoliy-sharqiy Orol bo'yiga yondoshgan keng yaylovlarda yashagan.

O'g'uzlar asosan chorvachilik, xususan qo'ychilik bilan shug'ullanganlar. Ayrim o'g'uz qo'ychivonlarining 100 ming boshgacha qo'yi bo'lgan. O'g'uz dashtining quyi oqimida joylashgan Xorazm hududlariga qishu-yoz otar-otar qo'ylar haydab borilgan. 'uxta yasalgan Sig'noq kamoni va o'qlari juda obro'li bo'lib, turli viloyatlarga olib ketilgan. O'troq aholidan o'g'uzlar qimmatbaho i' va i'ak matolar, uy-ro'zg'or buyumlari, qurol va yaroqlar harid qilganlar. Natijada dehqonchilik viloyatlaridan Sirdaryo bo'ylab o'g'uz shaharlariga g'alla olib borilgan. Ammo o'g'uzlar o'troq qo'shni aholi bilan hamma vaqt ham tinch-totuv yashamaganlar. Kezi kelganda ular dehqonchilik viloyatlariga, ayniqsa SHosh va Xorazm yerlariga hujumlar qilib, aholiga omonlik bermaganlar. Obod dehqonchilik vohalarini 'oymol etib, shahar va qishloqlarni talaganlar, aholining bir qismini asir qilib olib ketganlar.

O'g'uzlar ham shomonlik diniga sig'inganlar. Tabiatning ajoyibotlari, sirli voqea va ashyolari ular uchun muqaddas hisoblangan va ularga ham sig'inar edilar. O'g'uzlar urug' va qabila oqsoqollari yoki davlatmand urug'doshlarining marhumlarini chuqur, to'la shaklida kovlangan va usti gumbazli dahmalarga kiyim-kechagi, qurol-yarog'lari bilan dafn etardilar. Agar marhum hayotlik chog'ida yovgarchilik yoki harbiy yurishlarda qatnashib o'z raqibini nobud etgan bo'lsa, ularning soniga qarab qabr ustiga tosh haykallar o'rnatilgan. O'g'uzlar tushunchasi bo'yicha, u dunyoda ular marhum g'ozilariga xizmat qilmog'i lozim edi. Osoyishtalik davrida o'troq dehqonchilik vohalari aholisi bilan olib borilgan doimiy ayirbosh, savdoning asrlar osha gavjumlashuvi oqibatida o'g'uzlar dashtiga asta-sekin islom dini kirib, o'troq aholining madaniy tahsiri kuchayadi. X asrdan boshlab o'g'uzlar islom dinini qabul qiladilar.

X asrning birinchi choragida O'g'uzlar davlati shimoli-sharqdan qo'zg'algan qi'choqlar tomonidan qaqshatg'ich zarbaga uchrab, bo'linib ketadi. O'g'uzlar o'z yurtini tark etib, ularning bir qismi g'arbga tomon siljiydi. Umumiy turk nomi ostida Janubiy Rusiya dashtlariga borib o'r'nashadi. Ularning ikkinchi qismi esa avval Movarounnahrda kirib boradi va undan janubi-g'arbga siljib, yangi sulola - saljuqlar boshchiligida Old Osiyo mamlakatlarini istilo qilishga kirishadi.

SHunday qilib, VIII asr oxiri va IX asr boshlarida Movarounnahrning shimoliy va shimoli-sharqiy hududlarida tashkil to'gan va bir yarim asr hukm surgan ikki mustaqil turkiy davlat: qorluqlar hamda O'g'uzlar davlati faqat Movarounnahrning emas, balki butun O'rta SHarq hamda Old Osiyo aholisining siyosiy hayotiga kuchli tahsir ko'rsatdi. SHu bilan birga, ularning jangovor aholisi o'z turmush tarzi va anhanalari bilan bu hududlarda yashovchi ko'pgina xalqlarning etnik tarixida ham sezilarli iz qoldirdi. Masalan, qorluqlar qardosh o'zbek va tojiklarning, o'g'uzlar esa turkman, ozarbayjon, qoraqal'oq, turk, shuningdek gagauzlarning etnogenezida muhim rol o'ynaydilar.

X asr o'rtalarida Issiqko'lning janubi va Qoshg'arda yashagan yag'mo qabilalari kuchayib, avval o'zlaridan shimoli-sharqroqda yashovchi jikil qabilalari bilan yagona ittifoqqa birlashadi. So'ngra ular Yettisuvga xuruj qilib, qorluqlarni bo'ysundiradi va bu ulkan hududda Qoraxoniylar davlatini tashkil qiladilar.

Yozma manbalarda yag'molar turk qavmlari ichida madaniy jihatdan eng qolog'i deb ta'riflanadi. Ular asosan yilqichilik va qo'ychivonlik bilan shug'ullangan edi. Mo'ynali hayvonlar hamda ov qushlarini ovlardi. Dehqonchilik bilan kam shug'ullanardi. Yag'molar turk qabilalari orasida eng jangovori hisoblangan. Jikillar esa yag'molarga nisbatan birmuncha madaniyroq va boy qabila bo'lgan. Ular qoramol, qo'y va yilqi 'odalariga ega bo'lishgan. Qora uylarda yashasa ham, qorluqlarniki singari shahar va qishloqlari bo'lgan. Yag'mo va jikillarga nisbatan qorluqlar ancha madaniyatli aholi hisoblangan. Turk qabilalariga tegishli yurtlar orasida ular eng obod joylarga ega bo'lishgan. Ularning mamlakatida qishloqlar bilan bir qatorda shaharlar ham bo'lgan. Qorluqlarning ayrimlari mo'ynali hayvonlar ovlash, qolganlari chorvachilik hamda dehqonchilik bilan shug'ullangan.

Qorahoniylar davlatining tashkil topishida jikil va qorluqlar g'oyat katta rol o'ynaydilar. Davlatning yuqori mansablari va qo'shinda ular muhim o'rinlarni egallasalar-da, biroq honlik taxtiga yag'mo boylari minganlar. Bu yangi turk davlatining podsholari "arslonxon" va "bug'roxon" unvonlari bilan yuritilgan. Bu ikki oliy daraja buyuk hukmdor mahnosini anglatgan. Buyuklik yoki ulug'lik esa qadimdan turkiy xaqlarda "qora" so'zi bilan sifatlangan. SHu boisdan taxtga o'tirgan arslonxon yoki bug'roxonlar "qoraxon", ya'ni ulug' xon hisoblangan. Ular hukmronlik qilgan davlat esa tirixda "Qoraxoniylar davlati" nomi bilan shuhrat to'gan. Aslida "arslon" jikil qabilasining totemi ajdodi ibtidosi hisoblangan. "Bug'ra" esa yag'molarning totemasi bo'lgan. U og'ir yuk ko'taradigan bichilgan tuya mahnosini anglatgan. podsholik darajasiga qabila totemlarining nomlari bilan nisbat berilishiga qaraganda, Qoraxoniylar davlatining asosini jikillar bilan yag'molar tashkil etgan. Davlatni boshqarishda Qoraxoniylar qabilaviy udumining og'alik tartibiga qathiy rioya qilingan. Bu udumga muvofiq qabila boshliqlari orasida eng yoshi ulug'ini "arslonxon" yoki "bug'roxon" darajasiga ko'tarib, hukmdor, ya'ni qoraxon qilib saylashgan. Odatda u "tamg'achxon", ya'ni xonlar xoni deb yuritilgan.

X asr oxirida (992 yil) ular Movarounnahrda hujum boshlab, uni bosib oladi. SHunday qilib, X asr oxirida Somoniylar davlati o'rnida ikkita yangi davlat tashkil to'di: biri - Qoshg'ardan Amudaryogacha cho'zilgan SHarqiy Turkistonning bir qismini, Yettisuv, SHosh, Farg'ona va qadimgi So'g'dni o'z ichiga olgan -- Qoraxoniylar davlati, ikkinchisi esa shimoliy Hindiston chegarasidan tortib Kas'iy dengizining janubiy qirg'oqlarigacha bo'lgan viloyatlarni qamrab olgan G'aznaviylar davlati edi. Garchi Amudaryo bu ikki turk davlatlari o'rtasidagi chegara deb belgilangan bo'lsa-da, ammo Qoraxoniylar Xurosonni zabt etilgan yurtning ajralmas qismi deb hisoblab, uni o'z davlatiga qo'shib olish uchun harakat qiladilar. Oradan ko'p vaqt o'tmay Qoraxoniylar bilan G'aznaviylar o'rtasida shiddatli urushlar boshlanadi. 1006 va 1008 yillarda Qoraxoniylar Xuroson ustiga ikki marta qo'shin tortadilar. Balx, Tus va Nisho'ur shaharlari zabt etiladi. Ularning harbiy yurishini Sulton Mahmudga qarshi bo'lgan Xurosonning mulkdor feodallari qo'llab-quvvatlaydilar. Lekin Mahmud G'aznaviy Qoraxoniylarga zarba berib, Xurosonni o'z davlati tasarrufida saqlab qolishga muvaffaq bo'ladi. 1017 yilda Mahmud Xorazm ustiga lashkar tortib, uni bosib oladi. SHunday qilib, Xorazm davlati barham to'adi.

Bu davrda Sirdaryo etaklarida yashovchi o'g'uzlardan ajralib chiqqan saljuqiylar kuchayib, o'z vaqtida ularga yer berib homiylik qilgan g'aznaviylarga qarshi tazyiq ko'rsatdilar. Natijada saljuqiylar bilan jiddiy kurash boshlanadi.

1040 yilda Marv bilan Saraks (Seraxs) oralig'idagi Dandaqxon degan joyda g'aznaviylar bilan saljuqiylar qo'shinlari to'qnashadilar. Bo'lib o'tgan shiddatli jangda Mahmud G'aznaviy qaqshatqich zarbaga uchraydi. Saljuqiylar G'aznaviylar davlatining asosiy qismi hisoblangan shimoliy va g'arbiy viloyatlarini egallab oladilar. Ular tasarrufida G'azna, Qobul, Qandahor va 'anjob viloyatlarigina qolib, u kichik feodal davlatga aylanadi. Sarkarda va hukmdor To'g'rulbek zamonida (1038-1063) Xorazm, Iroq Ajami (Iroqning Eron hududidagi qismi), Ozarbayjon, Kurdiston va Ko'histon zabt etiladi. 1055 yilda saljuqiylar Bag'dodda o'z siyosiy hukmronliklarini o'rnatadilar. Xalifa esa faqat diniy ishlardagina mutasaddi bo'lib qoladi. Ray shahri Saljuqiylar davlatining 'oytaxtiga aylantiriladi. Saljuqiylar bilan Qoraxoniylar o'rtasidagi munosabatlar dastavval yaxshi bo'lsa-da, ammo keyinchalik keskinlashib ketadi. Xorazm

tomondan ular Xuttalon, CHag'oniyon, Jand va Savronga yurish qilib, Qoraxoniylar bilan bir necha bor to'qnashadilar. Bu ikki turk davlatlari o'rtasida shiddatli janglar bo'lib o'tadi. Hatto, 1130 yilda saljuqiylar sultoni Sanjar Movarounnahrda lashkar tortib Qoraxoniylar davlatining 'oytaxti Samarqandni ishg'ol etadi. Natijada Qoraxoniylar Sulton Sanjarga tobe bo'lib qoladilar.

Saljuqlar butun Xurosonni, Xorazmni, G'arbiy Eronni, Ozarbayjon va Iroqni, Armanistonni egalladilar. 1071 yili Vizantiyani yengib butun Kichik Osiyoni, keyinchalik Suriya va Falastinni, Gruziya, SHirvon va Movarounnahrni egallab, dunyoning qudratli davlatiga aylanadilar. Keyin inqiroz boshlandi. Avval Xorazm kuchayib ularga zarba berdi. Undan so'ng qoraxitoylardan yengildilar. SHundan keyin Saljuqiylar davlati maydalanib ketdi. Mo'g'ullar hukumronligi davrida qayig' urug'i Kichik Osiyoning shimoli-g'arbga ko'chadi. Keyin mo'g'ullar saltanati inqirozga uchrab shu yerdagi o'g'uz-qayig' turklari Usmonli sulton deb e'lon etildilar va Usmonli Turkiyaga asos soldilar (1281 yilda). Bu sulola 1924-yilgacha, Turkiya res'ubikasi e'lon qilingunga qadar yashadi. 1924 yil Mustafo Kamol Otaturk Turkiya Respublikasining birinchi prezidenti bo'ldi.

SHimoliy G'arbda turkiy xalqlar hozirgi Moldaviya (gagauzlar) gacha, Ukraina janubida Qrimgacha bordilar. SHimolda Boshqirdiston, Tatariston, SHimoliy Kavkazda CHEcheniston, Dog'iston, G'arbiy Xitoyda (SHarqiy Turkiston) Sinjon Muxtor viloyati-turkiy davlatlardir, ya'ni bu xalqlarning shakllanishida turkiy qavmlar o'z "hissalari"ni qo'shganlar. SHuningdek, Kichik Osiyoning o'zida mahalliy xalqlar bilan turkiy xalqlarning qo'shilishi natijasida hozirgi turk xalqi paydo bo'ldi.

Turkiy xalqlar tarixida, ularning siyosiy tuzumida urug'chilik anhanalari hal qiluvchi rol o'ynagan. SHuning uchun ham ular tarqoq yashadilar, uzoq davom etgan ittifoq tuza olmadilar. Bu esa ularni 'arokandalikda ushlab turish va ko'pincha, bosib olish imkoniyatini berdi. Hozirgi zamonda turkiyzabon xalqlar hamkorligi, ittifoqi umumjahon ahamiyatiga ega.

Xalqning kelib chiqishi murakkab dolzarb muammo va umuman tarix fanining yutuqlari bilan chambarchas bog'liq. SHu kunlarga qadar xalqning kelib chiqishi yoki etnogenezi alohida fan sifatida shakllanib yetgani yo'q, ammo yaqin kelajakda o'zida qator ijtimoiy va tabiiy fanlar yutuqlarini mujassamlashtirgan etnogenez fani yuzaga kelishi shubha tug'dirmaydi. Keyingi yillarda dunyo olimlari hamkorligida "Jahon xalqlarining etnik tarixi" nomli ko'p jildlik zalvorli (fundamental) asar ustida ilmiy tadqiqotlar olib borilishi fikrimizning isbotidir. Bu borada O'zbekiston Respublikasi olimlari ham o'z hissasini qo'shishi zarur.

Xalqlarning kelib chiqishi muammosi ustida ilmiy tadqiqot olib boruvchi mutaxassislar bir necha shartlarga rioya qilishi maqsadga muvofiqdir. Xalqning kelib chiqishi uzoq davom etgan murakkab jarayon ekanligini hamisha ko'zda tutib, ilmiy tadqiqotlarni kom'leks tarzda olib borish kerak. Sababi, ayrim fan sohasi yutuqlari (tarix, arxeologiya, etnografiya, antropologiya, tarixiy tilshunoslik va yozma manbaalar) ko'p qirrali etnogenez muammosining bir tomoninigina ochib berishga qodir. Bu esa yana bir bor xalqning kelib chiqishi muammosi nihoyatda murakkabligidan dalolat beradi.

Markaziy Osiyo xalqlarining kelib chiqish tarixiga bag'ishlangan qator ilmiy anjumanlar o'tkazilishiga qaramasdan, bu sohada ko'pgina yechilmagan masalalar mavjud. Keyingi 25 yil davomida O'zbekistonda keng miqyosda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida o'zbek xalqi etnogenezi sohasida muhim Ma'lumotlarni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'lindi. Bu esa Markaziy Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbek xalqining kelib chiqish tarixiga oid yangi fikr va mulohazalar yuritish imkonini bermoqda. Quyida biz o'zbek xalqining kelib chiqish tarixiga katta hissa qo'shayotgan ijtimoiy va tabiiy fanlarga chegaradosh antropologiya (odam haqidagi fan) natijalari asosida o'zbek xalqining etnik tarixiga oid fikrlar va mulohazalar to'g'risida gap yuritamiz.

Markaziy Osiyo hududida qadimgi tosh (paleolit) davridan to hozirgi zamonga qadar 270 nafar qadimiy yodgorlik to'limlari va hozirgi davrda yashovchi 51 etnografik guruh (30 ming kishi)ning antropologik o'rganilishi bu mulohazalarning asosini tashkil etadi.

Fanda o'zbek xalqining kelib chiqishi tarixini o'rganishni qaysi davrdan boshlash kerakligi haqida umumiy fikr yo'q. Qator olimlar etnogenezni yozma manbalarda xalq nomi

(etnonimi) tilga olingan davrdan boshlashni maqsadga muvofiq deb biladilar. Ikkinchi guruh olimlar esa bu jarayonni mumkin qadar qadimiy davrlardan boshlash kerak, deb hisoblaydilar. Birinchi fikr tarafdorlari o'zbek xalqining kelib chiqish tarixini bundan ikki yarim ming yil oldindan, ya'ni Erondagi Behistun qoya toshida, mixxat yozuvlarida, Markaziy Osiyoda yashovchi sak, massaget, so'g'd, xorazmiy va hakoza qadimiy xalqlar haqidagi Ma'lumotlar uchragan davrdan boshlashni aytadi. SHaxsan biz ikkinchi guruh tadqiqotchilar nuqtai nazari tarafdorimiz. CHunki bu masalada fan hozirgi kunda qator yutuqlarni qo'lga kiritdi. Farg'ona vodiysidagi Selungur va Surxondaryodagi Teshiktoshdan topilgan qadimgi ajdodlarimiz qoldiqlari O'zbekistonning Afrika va Old Osiyo hududlari bilan bir qatorda, hozirgi zamon odamlarining paydo bo'lishi jarayoni yuz bergan hudud tarkibiga kirishi fanda uzil-kesil isbotlandi. Ayrim olimlar tomonidan bildirilgan Markaziy Osiyo, jumladan O'zbekiston, qadimiy davrlardagi mongoloid irq shakllangan hududga kiradi, degan fikrning ilmiy asossizligini antro'ologik Ma'lumotlar tasdiqladi. Bizning fikrimizcha, o'zbek xalqining kelib chiqishi tarixini o'rganishni qancha erta davrlardan boshlasak, uning tarkibida hozirgi kunlarga saqlanib kelinayotgan irqiy va etnik unsurlarning mahalliy xalq tarkibiga kirgan davri uning nisbiy miqdori to'g'risida shunchalik keng fikr yurita olamiz.

O'zbek xalqiga xos Markaziy Osiyo ikki daryo oralig'idagi irqning shakllanish davri, makoni va tarixi masalalarida fanda yaqingacha yagona fikr yo'q edi. Bir guruh olimlar bu irq bundan 6-8 ming yil ilgari, ikkinchi guruh mutahassilar 3 ming yil ilgari shakllangan desa, uchinchi bir guruh olimlari esa XVI asrda shakllandi deb hisoblar edilar. Antro'ologik izlanishlar natijasida mualliflar ikki daryo oralig'i irqining shakllanishi, juda boy antro'ologik Ma'lumotlar asosida, bundan 2200-2300 yil ilgari boshlanganini isbotladilar. Qator ilmiy asarlarda o'zbek xalqining shakllanishida sakkiz muxim davr sanab o'tilardi. Bular qatorida Ahmoniyar, Makedoniyalik Iskandar, Arab Xalifaligi va Mo'g'ullar istilosi tilga olinadi. Haqiqatdan, bu zabt etishlar Markaziy Osiyo, jumladan, O'zbekiston xalqlari madaniyatiga, tiliga, turmush tarziga, albatta o'z tahsirini o'tkazgan. Ammo bu yurishlarning mahalliy xalqlarni irqiy va etnik tarixiga bo'lgan tahsiri kam bo'lganini alohida ta'kidlab o'tmoqchimiz. Antro'ologik nuqtai nazardan qaraganda, ular mahalliy xalq "qonini" yoki genetikasini tubdan o'zgartira olmadilar. Ular son jihatidan ko'pchilikni tashkil etgan mahalliy aholi tarkibiga singib ketgan. Bu o'rinda mahalliy (substrat) va kelgindi (su'erstrat) aholisi orasidagi o'zaro munosabatlarni eslatib o'tish joiz. Ko'p sonli mahalliy aholi tarkibiga kelgindi guruhlarining singib ketishi, kelgindi guruhlarining mahalliy aholidan ustun bo'lishi; kelgindi xalqlar teng sonli bo'lishi va nihoyat, mahalliy va kelgindi xalqlar aralashuvi natijasida ikkalasiga ham o'xshash yangi xalq, guruh, elat paydo bo'lish holarini kuzatish mumkin. O'zbekiston hududida, barcha tarixiy davrlarda maxsus antro'ologik tadqiqotlarning ko'rsatishicha, mahalliy xalq kelgindi aholidan hamisha ustun bo'lgan.

Antro'ologik izlanishlar orasida o'zbek xalqining kelib chiqishi tarixida muhim ahamiyat kasb etgan uch tarixiy davrga alohida to'xtalib o'tmoqchimiz. Birinchidan, miloddan avvalgi III-II asrlarda O'rta Osiyoning dasht mintaqalarida hozirgi o'zbek xalqiga xos antro'ologik qiyofa shakllana boshlagan. Bu esa fanda yangicha keng tarqalgan fikrlar, ya'ni o'zbeklarga xos Markaziy Osiyodagi ikki daryo oralig'i irqi Volga daryosi bo'ylarida va Uralda sarmat qabilalari tarkibida shakllanib tarqaldi, degan yoki bir irq Baykal ko'li atrofiga va Mo'g'uliston cho'llarida shakllanib tayyor holda mahalliy aholiga o'z irqini tarqatdi, degan fikrlardan voz kechishni taqozo etadi.

Olib borilgan tadqiqotlar o'zbeklarga xos antro'ologik qiyofa dastavval, Sirdaryoning o'rta havzasi tumanlarida, ya'ni Toshkent vohasi, Farg'ona vodiysi, qisman Xorazmda va Janubiy Qozog'istonning CHimkent viloyatlarida, Yettisuv mintaqasida miloddan avvalgi I ming yillik oxirida shakllana boshlaganligi aniqlandi. Miloddan avvalgi III-II asrlarda bu aholi bir necha yo'nalishda Markaziy Osiyoning markaziy va janubiy viloyatlariga kirib borgan. Bu antro'ologik tadqiqot natijalari yozma holda ma'lum bo'lgan xalqlarning janubga yurishi va Yunon-Baqtriya davlatining istilo etilishi va Buyuk Kushon saltanatining bar'o

bo'lishi davriga mos keladi. Antro'logiya bu yurish haqida quyidagi Ma'lumotlarni beradi. Ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi cho'l aholisi Sirdaryo quyi oqimidan Markaziy Qizilqum orqali (Uchquduq, Tomdi, Yuzquduq, Ko'kchatosh) Samarqand atroflariga (Kattaqo'rg'on, Orlat), so'ngra Qashqadaryoning Qarshi shahri atroflariga (Erqo'rg'on) orqali Surxondaryo viloyatidagi (Ko'hna Termiz, Dalvarzin, SHohte'a, Ayritom) qadimiy shahar va qishloqlariga kirib joylashganlar. Keyinchalik ular janubiy Turkistonga o'tib ketganlar. Ularning ikkinchi guruhi qadimiy Buxoro vohasi orqali Turkmanistonning janubiy viloyatlariga, bir qismi esa hozirgi SHimoliy Afg'onistonning SHibirg'on shahri atoflarigacha yetib borgan (Tillate'a). Natijada o'zbeklar va tekisliklarda yashovchi tojiklarga xos 'omir-farg'ona antro'ologik unsur Markaziy Osiyoda keng tarqalgan.

O'zbek xalqining shakllanishidagi ikkinchi muhim davr bu IX-XII asrlar hisoblanadi. Bu davrda Markaziy Osiyoda, jumladan, O'zbekistonda hozirgi o'zbeklarga xos qiyofa mahalliy

Yodda tuting!

IX-X asrlarda o'zbek xalqining etnik shakllanishida quyidagi turkiy elatlar muhim rol o'ynaganlar: o'g'izlar, qarluqlar, chigillar, yag'molar, to'xsilar, turgashlar, arg'ular, yabakular, qipchoqlar,...

aholining asosiy qismini tashkil etadi. Ilgari biz bu jarayonni XI-XII asr etnik jarayonlari bilan bog'lar edik. Keyingi yillarda shu davr materiallarini ikki tarixiy davrga IX-X va XI-XII asrlarga ajratish muvaffaq bo'lindi. Natijada O'zbekiston hududida IX asrda, bizning tadqiqotlar bo'yicha, aholining antro'ologik qiyofasida keskin o'zgarishlar yuz berganligini kuzatdik. Bu o'zgarishlar arxeologik izlanishlarda ham yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Jumladan, murdalarni astadonlarda ko'mish marosimlari, aholi orasida keng tarqalgan bosh shaklni sunhiy o'zgartirish odatlari yo'qoladi. O'zbeklarning elat sifatida shakllanish davri fanda XI-XII asrlar bilan izohlab kelinmoqda. Yuqorida qayd etilgan antro'ologik tadqiqot natijalarimiz bu jarayonga ko'chish davrini IX-X asrlarga oid deyishga asos beradi.

Fanda mo'g'ul istilosi Markaziy Osiyo aholisini keskin mo'g'ullashtirib, o'zgartirib yubordi, degan fikr keng tarqalgan. Lekin maxsus tadqiqotlarimiz bu masalaga ham oydinlik kiritdi. Mo'g'ul istilosi o'zbek aholisining tashqi qiyofasiga sezilarli iz qoldirmaganligini ham tahkidlab o'tamiz. CHunki, Chingizxon XII asr oxirida tashkil etgan yirik Mo'g'ul davlatida mo'g'ullar soni taxminan 0,7 million kishidan iborat bo'lgan. Agar har 6 kishidan bittasi askarlikka olingan bo'lsa, unda uning qo'shinlari soni 100-110 ming kishidan iborat bo'lgan. Lekin o'sha davrdagi 80 million aholisi bo'lgan Xitoyga yurishi davrida mo'g'ul qo'shinlarining ko'p qismini yo'qotganlar. Ular O'rta Osiyoga bostirib kelganida qo'shinlarning ko'pchiligi turkiy xalqlardan tashkil to'gani ma'lum. Bu davrda Muhammad Xorazmshoh davlatida 20 million aholi yashagan. Mo'g'ul qo'shinlari ko'p sonli mahalliy aholi tarkibiga o'z asoratini o'tkaza olmagan. SHuning uchun ham mahalliy aholida mo'g'ul irqi alomatlari deyarli namoyon bo'lmaganligini ko'rish mumkin.

O'zbek xalqining shakllanishida uchinchi muhim davr XV asr oxiri va XVI asr hisoblanadi. Bu davrda Markaziy Osiyoga Dashti Qipchoq o'zbeklari kirib keladi va ular mahalliy aholiga o'z nomini beradi. SHu bilan birga IX-X asrlarda elat, xalq sifatida shakllangan hozirgi o'zbek etnik qiyofasidagi mo'g'uliy belgilarning bir oz faollashuviga olib keladi.

SHunday qilib, o'zbek xalqining etnik shakllanishi uzoq davom etgan murakkab jarayon ekanligining guvohi bo'ldik. O'zbek xalqining asosini hozirgi O'zbekiston hududida bir necha ming yillar davomida yashab kelgan mahalliy so'g'diylar, baxtarlar, xorazmiylar, saklar, masagetlar, kang'lar va dovonliklar tashkil etadi. Turli davrlarda kelgan qabilalar, elatlar va xalqlar davr o'tishi bilan mahalliy aholiga o'z tahsirini qisman o'tkazgan. O'zbek xalqining shakllanishi jarayonining barcha bosqichlarida mahalliy aholi tashqaridan kelgan aholiga nisbatan ustun bo'lgan. Ammo kelgindi aholiga mahalliy aholigi o'z tilini berdi. Lekin antro'ologik nuqtai nazardan mahalliy aholining etnik qiyofasini va tashqi ko'rinishini tubdan o'zgartira olmadi. Bu fikrimizni isbotlovchi dalillardan biri keyingi ikki ming yil davomida

Markaziy Osiyoda, jumladan, O'zbekistonda mahalliy aholining tili uch marta o'zgardi SHarqiy eron tillari o'rniga g'arbiy eron tillari (fors tili) va eramizning birinchi asrlaridan turkiy tillar keng tarqala boshladi. Ammo mahalliy xalqning "qoni", ya'ni genetikasi aytarli o'zgarmadi va qadimiy xalqlarga xos antro'ologik xususiyatlar shu kunlarga qadar saqlanib kelmoqda, o'zbek xalqining kelib chiqishi asosini qadimiy davrlardan boshlab, shu hududda yashab kelgan xalqlar tashkil etgan. Ular ikki yarim ming yil davomida mahalliy aholiga kelib qo'shilgan asosiy tarkibiy qismni tashkil etgan. SHuning uchun ham prezidentimiz I.Karimov "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" degan risolasida qayta-qayta o'zbek xalqining shakllanish asosini o'troq xalqlar, tubjoy xalqlar tashkil etganlar, deb ko'rsatdilar.

4.

O'zbek xonliklari davrida, keyin, Rossiya mastamlakachiligi va SHo'rolarning Qizil Imperiyasi davrida o'zbek xalqi 'arokanda bo'lib ketdi. Milliylik yo'qoldi. Ayniqsa, SHo'rolar davrida "yagona sovet xalqi"ni shakllantirmoqchi bo'lgan noilmiy shovinistik siyosat davri qiyin kechdi. SHuning uchun ham o'zbek xalqining millat bo'lib rivojlanish yangi davri 1991 yildan-Respublikamiz mustaqillikka erishgan kundan boshlandi.

Xalqimiz siyosiy mustaqillik va ozodlikni qo'lga kiritgach, o'z taqdirini chinakam egasi, o'z tarixining ijodkori, o'ziga xos milliy madaniyatining sohibiga aylandi.

Tarix xotirasi, xalqning, jonajon o'lkaning, davlatimiz hududining holis va haqqoniy tarixini tiklashi milliy o'zlikni anglashi, milliy iftixorni tiklash milliy g'oya va milliy mafkurani shakllantirish va jarayonida g'oyat muhim o'rin tutadi.

Tarix millatni haqiqiy tarbiyachisiga aylanib bormoqda. Buyuk ajdodlarimizning ajoyib jasoratlari tarixiy xotiramizni jonlantirib, yangi fuqarolik ongini shakllantirmoqda. Ahloqiy tarbiya va ibrat manbaiga aylanmoqda.

Hurmatli prezidentimiz o'zlarining "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" degan risolada tahkidlaganlaridek, xalqimizning etnik, madaniy va diniy sabr-bardoshi ma'naviy uyg'onishning yana bir bitmas-tuganmas manbaidir. Ming yillar mobaynida Markaziy Osiyo g'oyat xilma-xil dinlar, madaniyatlar va turmush tarzleri tutashgan va tinch-totuv yashagan markaz bo'lib keldi. Etnik sabr-toqat, bag'rikenglik hayot bo'ronlaridan omon qolish va rivojlanish uchun zarur tabiiy mehyorlarga aylandi. Hatto, bu hududlarni bosib olganlar ham Markaziy Osiyo halqlarinnng madaniyati oldida bosh egibgina qolmay, uning eng qimmatbaho anhanalarini, shu hududda mavjud bo'lgan davlatchilik anhanalarini avaylab qabul qilganlar.

Ayni shu zaminda ko'p asrlar mobaynida jahon madaniyatlari dunyo miqyosida bir-birini boyitgan. Bu yerda ko'chmanchi xalqlar o'troq xalqlar bilan, eronlik qabilalar turk qabilalari bilan, musulmonlar, nasroniylar va yahudiylar bilan ko'p asarlar birga yashab kelganlar. So'nggi ikki asr davomida ham o'zlarini "madaniyatli" va "mahrifatli" hisoblab kelgan davlatlar ommaviy qirg'inlar va diniy tahqiblar bilan o'zlariga dog' tushirgan bir 'aytda, O'zbekiston zamini xalqlar va madaniyatlar tinch birlashgan joygina bo'lib qolmay, balki quvg'in qilingan xalqlarga bosh'ana ham berdi.

Istiqlolimiz 11 yilligining eng muhim yakuni, barcha xalqlar uchun "Umumiy uy"ga asos solinganligi, yangi ko'p elatli birlik vujudga kelganligi bo'ldi. O'zbek madaniyatining umuminsoniy mohiyati, ma'naviy ruhiy qadriyatlarining va milliy o'zlikni anglashning tiklanishi bu birlikning negizini tashkil etdi.

O'zbek xalqi ruhining tiklanishi, millat ma'naviy-axloqiy ideallarining shakllanishi chuqur milliylik bilan umuminsoniylik chambarchas bog'liq bo'lgan hodisadir. O'zbekistonda yashayotgan xalqlar, o'ziga xoslikni yo'qotmagan holda, umumiy ruhiyatga, xulq-atvor falsafasiga ega bo'lmoqdalar. Bu esa mustaqillik yillari mobaynida millatlararo totuvlik manbai bo'lib kelgan yagona ma'naviy-ruhiy negizni vujudga keltirdi.

prezidentimiz "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" asarida aytadilar: Xalqimiz tarixan turkiy xalqlar oilasiga mansub bo'lishiga qaramay, 'anturkizmni va "Buyuk Turon"shovinistik g'oyasini qathiyan rad etdi. Biz uchun Turon - mintaqadagi turkiy tilda so'zlashuvchi xalqlarning o'ta siyosiy emas, balki madaniy birligining ramzidir. Bundan tashqari, umumiy madaniy, tarixiy va antro'ologik ildizlarimiz bizni tojik xalqi bilan ham tutashtiradi. Bu hol bizga o'z

madaniyatimizni Markaziy Osiyo uchun ma'lum darajada noyob bo'lgan turk va fors madaniyatlarining sintezi deb hisoblashga to'la huquq beradi.

Biz o'zbeklarni ulug', bunyodkor xalq deb dunyoga tarannum etayapmiz va aslida ham shunday.

O'zbekning fehl-avtori ayon. U yerni, tabiatni sevadi. Do'ppisida suv tashib bo'lsa ham, daraxt ko'kartiradi. O'zbek tom mahnoda bunyodkordir. Unga birovning yeri kerak emas. Mobodo qo'lga qurol olguday bo'lsa, faqat o'zini himoya qilish uchungina oladi.

O'zbek xalqining iligi to'q, baquvvat demoqchiman. Yana tilimizda "tagli-tugli", "alagi toza" degan iboralar ham bor. Bu bir joyda muqim yashagan, o'z turmush tarziga, axloq-odob mezonlariga, aqidalari va tafakkur tarziga ega bo'lgan xonadonlarga nisbatan aytiladi. Butun ommani, bir necha yuz minglab, millionlab aholini birlashtirgan aqidalarga, mezon va qoidalarga ega bo'lgan xalqni qanday izohlash, tahriflash mumkin?! Ana shu hayotiy va ijtimoiy mantiqdan kelib chiqsak, tahrif va izoh bitta - bo'ladi - milliy borlig'imiz, madaniyatimiz ildizi, tomiri o'troq bo'lgan.

O'zbek xalqi o'zini dunyoga ko'rsatmoqda. CHet ellarda o'qiyotgan yoshlarimizning yutuqlari, s'ortchilarimizning hayratomuz g'alabalari, ilm-fan va texnikadagi yangiliklar o'zbek xalqining Uchinchi Uyg'onish davriga kirganligiga dalolatdir.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Prezidentimiz I.A.Karimov tarixchi olimlar oldiga o'zbek xalqining etnik shakllanishi borasida qanday masalalarni qo'ydilar?
2. **Ko'chmanchi turkiy xalqlar qayoqdan kelib chiqqan va qanday tarqalgan?**
3. O'zbek xalqining shakllanishida turkiylar kelgangacha b'lgan eng qadimgi etnik jarayonlar qanday kechgan?
4. O'zbek xalqning shakllanishida ikkinchi davr qachon kechgan va qaysi elatlar rol o'ynagan?
5. O'zbek xalqining shakllanishidagi uchinchi davr qachon kechgan va qaysi elatlar ishtirok etgan?
6. Mustaqillik davrida o'zbek xalqining yagona millat bo'lib rivojlanishi qanday

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T. «O'zbekiston». 1998 y.
Abdulg'oziy. SHajarai Turk. T. «CHO'l'on». 1992.
Axmedov B. O'zbek ulusi. T. «Nur». 1992 y.
Jabborov I. O'zbek xalqining etnografiyasi. T. «O'zbekiston». 1994.
Zaki Validiy. O'zbek urug'lari. T.1992.
Ziyo Ukukaldi. Turkchilik asoslari. T.1994.
Usmon. Turon. Turkiy xalqlar mafkurasi. T.CHul'on. 1995.
Xasan Ato Abdushiy. Turkiy qavmlar tarixi. T.»CHul'on». 1994.
O'zbekiston tarixi. T.Universtitet. 1996.

3-MA'RUZA:

V-XII asrlarda o'zbek davlatchiligi va ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayot. IX-XII asrlarda O'rta Osiyo halqlari hayotida yuz bergan uyg'onish (renessans) davri. Fan va madaniyatning yuksak ravnaqi.

REJA:

1. Eftaliylar, turk xoqonligi davrida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayot.
2. Arab xalifaligi. Islom dininig O'rta Osiyoga tarqalishi. Somoniylar, qoraxoniylar, g'aznaviylar, saljuqiylar va Xorazmshoxlar sulolalarining xokimiyat tepasiga kelishi.
3. IX – XII asrlarda moddiy va ma'naviy madaniyatning yuksalishi.

4. Ajdodlarimizning qoldirgan ilmiy va madaniy me'roslari.

TAYANCH IBORALAR

Davlatchilik, dastlabki davlat tuzilmalari, davlatchilik rivojlanishdagi bosqichlar, Katta Xorazm, Baqtriya, kurash, S'itamen, Grek-Baqtriya, 'arfiya, Kanga, Devon, CHoch, Toxariston, Kushon, Turk xoqonligi, Samoniylar davlati, Xorazmshoxlar davlati, Temur davlati, dono siyosatdon, istehdodli sarkarda, xonliklarga bo'linish, Rossiya istilosi, general-gubernatorlik, vassal davlat, "Turkiston muxtoriyati", milliy ozodlik xarakati, istiqlolchilik, mustaqil, demokratik, xuquqiy davlat. Renesans (uyg'onish) davri, sivilizatsiya, islom dini, samoniylar, arab xalifaligi, Bayt ul-hikma (bilimlar uyi), al-Mahmun akademiyasi, Algebra, algoritm, muallim as-Soniy, SHayhur rais, "SHohnoma", SHayx ul-islom, Hadis, muxaddis, Naqshbandiya tariqati, tasavvuf, ikkinchi uyg'onish davri, fiqh, uchinchi uyg'onish davri.

Milodiy IV asrdan boshlab Vatanimizga ko'plab ko'chmanchilar bosib kirdilar, ular Markaziy Osiyo, asosan hududimizdan tashqarida tarkib to'gan ko'chmanchilar davlati tarkibiga kirib qoldi. Ammo bu davrda tubjoy davlat - Xorazmning yana tiklanganligini ham ko'ramiz.

III asrda tobora zaiflashib borayotgan Kang davlati tasarrufidan birinchilardan bo'lib Xorazm ajralib chiqdi. Uni mahalliy afrigiylar sulolasiga mansub xorazmshoxlar idora qila boshladi. O'z mustaqilligini tiklab olgan Xorazm davlatining 'oytaxti dastlab Qoraqal'og'istonning hozirgi Ellikqalha tumani hududida joylashgan qadimgi Tu'roqqalha shahar harobasining o'rnida bo'lgan. Beruniyning yozishicha, 305 yilda xorazmshox Afrig o'z qarorgohini Xorazmning qadimgi 'oytaxti Kat shahriga ko'chiradi. Qayta tiklanib uning yonida joylashgan Alfir qasri ichida shox o'ziga yangi saroy qurdiradi. SHu vaqtlardan boshlab Xorazmning Afrigiy podshohlari betiga shox va orqasiga suvoriy tasvirlari tushirilgan kumush tangalar zarb etib, mamlakatning ichki va tashqi savdo munosabatlarida mustaqil bo'lib oladilar. Keyin Markaziy Osiyoga Yettisuv va SHarqiy Turkistondagi ko'chmanchi xion qabilalari hujum qilib, xioniylar davlatini tuzdilar. Bu davlat 120 yildan oshiqroq yashadi. So'ng SHarqdan Sirdaryo va Orol bo'ylari orqali toxarlar kirib keldilar. V asrning 20-yillarida kelgan bu ko'chmanchilarga Kidar ismli hukmron yo'lboshchi edi. SHuning uchun bu davlat Kidariylar davlati ham deyiladi. U Eronga qarshi uzoq kurashb, V asr o'rtalarida inqirozga uchradilar va o'z navbatida shimoldan kelgan ko'chmanchi eftalitlar bilan to'qnashadilar va SHimoliy Hindistonga chekinadilar. Eftalitlar (eftalitlar nomi Eftalon qabilasi nomidan olingan) davlati Eronni yengib, VI asr boshlarida Markaziy Osiyo, SHarqiy Eron, SHimoliy Hindiston va SHarqiy Turkistonni birlashtirgan yirik davlatga aylanadi. V asrning ikkinchi va VI asrning birinchi yarmida Oltoy va Janubiy Sibirda yashovchi turk qabilalari birlashdilar. 551 yil ular Bumin bosh bo'lgan buyuk im'eriya - Turk hoqonligini tuzdilar. Ular VI asrning 60-yillarida eftalitlarni yengib, Markaziy Osiyoni egalladilar.

VI asr oxirlarida boshlangan o'zaro qabilaviy urushlar va sulolaviy kurashlar oqibatida Turk hoqonligi 603 yilda ikki mustaqil davlatga ajralib ketadi. Ulardan biri Mo'g'ulistonda tashkil to'gan SHarqiy Turk davlati, ikkinchisi esa O'rta Osiyo, Jung'oriya va SHarqiy Turkistonning bir qismini o'z tasarrufiga olgan G'arbiy turk hoqonligi edi.

SHuni tahkidlash kerakki, VI-VIII asrlarda Markaziy Osiyo oldin eftalitlar, so'ng Turk hoqonligiga bo'ysungan bo'lsa ham u yerda 15 ga yaqin davlatlar tashkil to'gan bo'lib, ularning yiriklari: So'g'd, Toxariston, Xorazm, CHoch, Farg'ona edi. Bu davlatlar ichki siyosatda mustaqil bo'lib, hoqonlikka xiroj to'lab turganlar.

VII asr boshida Arabiston yarim orolida yashovchi arab qabilalari Islom dini asosida birlashdilar va atrof yerlarni istilo qila boshladilar. Bu vaqtda Turk hoqonligi ichki qabilaviy nizolar oqibatida siyosiy inqirozga yuz tutib, 'archalanib ketgan. Bundan foydalangan arablar VII asr ikkinchi yarmi - VIII asr boshlarida Markaziy Osiyoni bosib oldilarki, natijada davlatchiligimizga barham berildi.

Saltanatni idora qilish va davlat tizimining takomillashuvida IX-XII asrlar uchinchi bosqichni tashkil etadi.

Tahkidlash kerakki, bu davrdagi bir qator qo'shni ko'chmanchilar davlatlari Vatanimizga bosib keladilar, ma'lum davrda Vatanimiz hududlari bu davlatlar tarkibiga kirdi. Ular Vatanimiz tarixida ma'lum iz qoldirsalarda, davlatchiligimiz rivojida ko'zga tashlanadigan rol o'ynamadilar. Bular Qorluqlar (VIII-IX asr), O'g'uzlar (IX asr oxiri XI asr boshlari), Toxiriylar (822-873 yillar), Safforiylar davlati (873-875), Qoraxoniylar davlati (X asr o'rtalari), G'aznaviylar (X asr oxiri), Saljuqiylar davlati (XI-asr) edi.

Ammo bu davrda tashkil to'gan - somoniylar va Xorazmshohlar davlati davlatchiligimiz rivojida alohida o'rin egallagan tubjoy davlatlar bo'lib, ular davlat tizimining shakllanishida muhim rol o'ynaganlar.

VIII asr oxiri IX asr boshida xalifalikni larzaga keltirgan og'ir siyosiy vaziyat abbosiylarning Movvarounnahr va Xurosonda olib borayotgan siyosatini o'zgartirishga majbur etdi. Endilikda ular sharqiy viloyatlarni boshqarishda davlat ishlariga mahalliy zodagonlarni jalb qilish va ular qo'li bilan bu viloyatlarni xalifalik tasarrufida tutib turishga harakat qiladilar. Natija abbosiylar o'ylagandek bo'lib chiqmadi. Mahalliy zodagonlar Movarounnahr va Hurosonni asta-sekin o'z tasarrufiga olibgina qolmadilar, balki xalifalik markazida hamda hokimiyatni boshqarishda tobora ko'proq rol o'ynaydigan bo'lib qoldilar.

Ular masalan, 813 yilda Mahmunning xalifa bo'lishida katta rol o'ynadilar. Bular orasida Movarounnahrlik Somonxudot ham bor edi. Mahmud uning yordamini unutmad. Uning nabiralari Nux - Samarqandga. Ahmad - Farg'onaga, Yahyo SHosh va Ustrosonga, Ilyos - Xirotda noib etib tayinlandi. O'zaro kurashlarda yengib chiqqan Ismoil Somoniy (Ahmadning nabirasi, 874-907 yillar hukmronlik qilgan) Movarounnahrni, Xurosonni birlashtirib yagona hukmron bo'lib oldi va Somoniylar davlatiga asos soldi (888 yil). Bu saltanat X asr oxirigacha davom etdi. Ismoil Somoniy o'rta asrlarning qobiliyatli, serg'ayrat va zukko davlat arbobi edi. U Movarounnahrni birlashtirgach, mustahkam feodal davlat tuzishga intiladi. U o'z Vatanida barqaror tinchlikni tahminlab, uni mustaxkamlashda hukmronlik qobiliyatining hamma nozik xususiyatlarini ishga soldi. Avvalo katta qo'shin to'lab, ko'chmanchilar dashtiga askar tortadi. 893 yilda Tarozi shahrini fatx etib, dashtliklarga qaqshatqich zarba beradi. Movarounnahr mustaqilligining barqarorligi, avvalombor, markazlashgan mustahkam hokimiyatning qaror topishiga bog'liq edi. SHuning uchun ular buni yaxshigina anglagan ixcham davlat mahmuriyatini tashkil etadilar. Bu mahmuriyat podsho dargohi va devonlar hokimiyatidan iborat edi.

Dargohda amir xarami hamda saroy ahyonlari navkar va xizmatchilar turar joylari bo'lgan. N.Narshaxiyning Ma'lumoti bo'yicha Somoniylar davlatini devoni vazir, devoni mustafiy, devoni amid al-mulk, devoni sohibi shurat, devoni sohibi muayyid yoki barid, devoni mushrif, devoni muallikayi xos, devoni muxtasib, devoni avkof va devoni kazo nomlari bilan yuritiladigan devonlar boshqaruvi idora etgan. Ular orasida vazir devoni bosh boshqaruv mahkamasi hisoblangan va davlatning mahmuriy, siyosiy va xo'jalik tartiboti uning bevosita nazorati ostida bo'lgan. Barcha devon boshliqlari vazirga tobe edi. Mustavfiy devoni xazina (moliya), kirim-chiqimlar, amid al-mulk devoni-davlat xujjatlari va elchilik aloqalari, sohibi shurat devoni-harbiy, xususan amirning turkiy gvardiyasi va uning tahminoti. Sohibi muayyid devoni - maktubot va axborot, ya'ni 'ochta, mushrif - saroy ish boshqaruvchisi, muallikayi xos devoni - davlat mulklari, muxtagisb devoni - bozorlardagi toshu-tarozilar, narxu-navo hamda fuqarolarning mafkurasi, kazo devoni - adliya, avkod devoni masjid va madrasalarning vaqf xo'jaliklari bilan shug'ullanar edi.

Nasr Ibn Ahmad (914-943) davrida Buxoroning Registon maydonida podsho qasri qarshisida devonlar uchun saroy qurilib, davlat mahkamasi man shu maxsus binoga joylashgan. Mahkama xizmatchilari saroy ahli, ruhoniylar va zodagon dehqonlardan iborat bo'lib, ular muayyan bilimlarga ega bo'lishi shart edi. Odatda, ular arab va fors tillarini 'uxta egallaganlar. Ular Qurhonni va shariatning asosiy qoidalarini yaxshi biladigan, turli fanlardan birmuncha xabardor bo'lgan savodli aslzodalardan tanlab olingan. SHubxasiz, bu o'rta asrlarning o'ziga xos

feodal-amaldorlik madaniyati edi. Qadimiy anhanalarga asoslangan bu madaniyat somoniylar davrida ancha-muncha boyitilgan.

Markaziy mahkama viloyatlardagi mahalliy boshqarmalar bilan doimiy aloqada bo'lgan. Viloyatlarda, matbuot va axborot ('ochta) devonidan tashqari, barcha devonlarning vakillari bo'lgan. Viloyat devonlari, bir tomondan, mahalliy hokimga, ikkinchi tomondan markaziy mahkamaning tegishli devoniga bo'ysunar edi. Viloyat hokimlari bahzan vazir deb yuritilgan. Ular sulolaviy xonadonga tegishli amirzodalar yoki sobiq mahalliy hukmdorlar hamda zodagon dehqonlardan tayin etilgan, bulardan tashqari, har bir shaharda rais - shahar boshlig'i hamda muxtasib-nazoratchi bo'lgan. Ularni hokimning bevosita o'zi mahalliy aslzodalar yoki ko'pincha oliy tabaqa ruhoniylarning nufuzli vakillaridan tayinlagan. Mansabdorlarning xizmat xaqi uchun davlatning yillik daromad byurolari (byudjeti)ning deyarli yarmi sarf etilgan.

Mustaqillikni birlik, o'zaro inoqlik va bir maqsad yo'lida kurashishni natijasida qo'lga kiritilishi va saqlab qolinishi mumkinligini tarix bir necha bor isbotlagan. Mustaqillik ilm-fan, mahrifatga tayansagina, ijtimoiy-madaniy taraqqiyotda yuksak yutuqlarga erishishi mumkin. prezidentimiz I.A.Karimov o'zining "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" kitobida tahkidlaganlaridek:- "... jamiyat taraqqiyotining asosi, uni muqarrar halokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch-mahrifatdir". IX-XII,XIIY-XY asrlarda Markaziy Osiyoda ilm-fan va madaniyat, falsafa, tarix katta qadamlar bilan olg'a tomon rivojlana boshladi. Bu taraqqiyot uzoq davom etdi. O'lkamizda yuz bergan ilm-fan, madaniyat va sanhat sohalaridagi o'zgarishlarning asosiy hislatlaridan biri inson'arvarlik g'oyasini doimo ustun bo'lganligidir. Ho'sh, bu inson'arvar , boy ma'naviy g'oya ijodkorlari kimlar, ular jaxon tarixida qanday o'rin tutadilar? Bu haqda prezidentimiz I.A.Karimov qator asarlarida, shuningdek, M.Hayrullaevning "O'rta Osiyoda ilk uyg'onish davri madaniyati". "Fan", 1994, F,Sulaymonovanning "SHarq va G'arb". "O'zbekiston",1997, J.To'lanovning "Qadriyatlar falsafasi". "O'zbekiston",1998, shuningdek, "Buyuk siymolar, allomalar". "Meros", 1995,1996 to'lamalarida boy Ma'lumotlar keltirilgan. Bu nashrlarda nafaqat al-Xorazmiy, al-Farg'oni, Farobiy, Beruniy va Ibn Sinolarning ko'p qirrali faoliyatlari hususida, ularning yuzlab izdoshlari va shogirdlari haqida ham qimmatli Ma'lumotlar berildi.

Movarounnahrda islom dinining tarqalishi yaqin SHarqda arab halfaligining shakllanishi va rivoji bilan uzviy bog'liqdir. Bu xalifalik islom bayrog'i ostida asta-sekin Arabiston chegarasidan chiqib, O'rta SHarq tomon yurish boshlab, u yerdagi mamlakatlarni bosib ola boshladi. Bu jarayon islomni tarqatish bilan uzviy bog'liq holda olib borildi.

Arablar Movarounnahrda o'rnatilgan siyosiy hokimiyatni mustahkamlash, uning barqarorligini tahminlash uchun islom dinining targ'iboti va uni yerli aholi o'rtasida, ijtimoiy tabaqalaridan qathiy nazar, kengroq yoyishga alohida ahamiyat berdilar. Ular yerli aholining ma'naviy hayotida muhim o'rin tutgan otash'arastlik, moniy, budda kabi dinlarni xurofiy soxta dinlar deb e'lon qiladilar.

Islom dinini qabul qilib, musulmon bo'lgan maxalliy axoli vakillari dastlabki yillarda xiroj va juzya soliqlaridan ozod etilib, ancha-muncha imtiyozlar beriladi. SHu bilan birga Movarounnaxrda musulmonchilikning mahalliy odat, udumlar bilan uyg'unlashuvi ro'y berdi.

Keskin kurashlar, qarshiliklarga qaramay yerli xalq bosqinchilarga qaram bo'lib qoldi. Buyuk olim Beruniy va tarixshunos Narshaxiy tafsiricha bosqinchilar yerli xalqlarga ham moddiy, ham ma'naviy jihatdan katta zarar keltirdi - yerli hokimiyat tugatildi, shaharlar qadimgi madaniyat yodgorliklari, mavjud yozuvlar yo'q qilindi, kitoblar yondirilib yuborildi, sanhat namunalari barbod bo'ldi.

Bu davrda Movarounnahr va Xurosonda sodir bo'lgan murakkab siyosiy vaziyatning tadrijiy rivoji va u bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlar mamlakat aholisining madaniy hayotiga ham tahsir etdi. Movarounnahrda arab tilining davlat va fan tili sifatida joriy etilishi bilan uni o'zlashtirishga bo'lgan intilish ham ortdi. Ayniqsa, mahalliy zodagonlar arab tilini xalifalik mahmurlari bilan yaqinlashish, mamlakatda o'z siyosiy mavqelarini tiklab, uni mustahkamlashning garovi deb bildilar va uni o'zlashtirishga astoydil kirishdilar. Natijada ko'p vaqt o'tmay Movarounnahrda arab tili va yozuvini o'z ona tillaridek

o'zlashtirib olgan bilimdonlar paydo bo'ldi. Bu vaqtda arablar orasida hokimiyatni boshqarishga yaroqli bilimdon mahmurlar juda oz bo'lgan. CHegarlari tobora kengayib borayotgan Abbosiylar xalifaligi uchun ikki tilni biluvchilar juda zarur edi. Dastlabki Ma'lumotlarni o'z ona yurtlari Movarounnahr, Xorazm va Xurosondagi madrasalarda olgan O'rta Osiyolik olimlar xalifalikning markaziy shaharlari: Bag'dod, Damashq, Qohira, Kufa va Basraga borib bilimlarini oshirdilar va asarlarini o'sha davrda ilm tiliga aylantirilgan arab tilida yozishga majbur bo'ldilar.

SHunday qilib, arab tili va falsafasining rivojlanishi, islom dinining keng yoyilishi vositasida Markaziy Osiyoga antik dunyoning 'rogressiv qarashlari kirib keldi.

Xalqning mustaqillik uchun kurashi natijasida IX asrning oxirlarida O'rta Osiyoda yerli Samoniylar davlati vujudga keldi, bu - arab xalifaligiga qaramlikdan qutulish, mustaqillikni qo'lga kiritish edi. 3-4 asr davomida Samoniylardan tashqari yana Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Xorazmshohlar davlatlari vujudga keldi.

Samoniylar davrida qudratli markazlashgan davlatning vujudga kelishi natijasida Movarounnahr va Xurosonda ma'lum barqarorlik qaror to'di. Bu xolat mamlakat iqtisodiy va madaniy hayotiga katta tahsir ko'rsatdi.

Samoniylar sulolasining ko'pgina namoyondalari adabiyotga, ilm-fanga, mehmorchilikka homiylik qildilar.

Xuddi shu davrda ulkanlashib borayotgan Arab xalifaligi uchun ham ilm va ilm ahli suv va havodek zarur edi. Davlatni boshqarishda abbosiy xalifalar mahmuriyati ko'plab bilimdon samoniylarga muhtoj edi. O'rta Osiyodagi mamlakatlarning ko'pgina tolibi ilmlari xalifalikning markaziy shaharlari - Damashq, Qoxira, Bog'dod, Kufa va Basriga borib ilm oldilar va arab tilida ijod qildilar. Bu davrda ayniqsa Bog'dod shahri SHarqning yirik ilm va madaniyat markazi edi.

Al-Mansur sulolasidan bo'lmish beshinchi xalifa Xorun ar-Rashid (879-809) davrida xalifalik rivojlanib, 'oytaxt Bog'dod yanada kengaydi. Ayniqsa Xorun ar-Rashidning fors xotinidan bo'lgan o'g'li Abdulloh al-Mahmun 813 yilda Bog'dod xalifasi deb e'lon qilingandan keyin Bog'dodga alohida ahamiyat beradi.

Al-Mahmun tarixda davlat arbobi sifatidagina emas, balki ilmu fanning homiysi sifatida shuhrat qozondi. U Marvga kelgan 'aytida saroyga Xuroson va Movarounnahrning eng buyuk olimlarini to'lay boshlaydi. So'ngra ulari Bog'dodga olib keladi. Al-Mahmun bilan birga Bog'dodga kelgan olimlar fan tarixida "al- Marviza" ya'ni "Marvliklar" nomini olgan edi. Lekin shungacha Bag'dodda olimlar bo'lmagan deyish noto'g'ri. Ummaviylar davrida Damashqqa ko'plab tarjimonlar yig'ilib, tabobatga oid kitoblarni yunon va suryon tillaridan tarjima qildira boshlagan edilar. Keyinchalik bu tarjimonlar Bog'dodga keltirilgan.

Mustaqillikni birlik, o'zaro inoqlik va bir maqsad yo'lida kurashishni natijasida qo'lga kiritilishi va saqlab qolinishi mumkinligini tarix bir necha bor isbotlagan. Mustaqillik ilm-fan, mahrifatga tayansagina, ijtimoiy-madaniy taraqqiyotda yuksak yutuqlarga erishishi mumkin. prezidentimiz I.A.Karimov o'zining "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" kitobida tahkidlaganlaridek:- "... jamiyat taraqqiyotining asosi, uni muqarrar halokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch-mahrifatdir".

IX-XII,XIIY-XY asrlarda Markaziy Osiyoda ilm-fan va madaniyat, falsafa, tarix katta qadamlar bilan olg'a tomon rivojlana boshladi. Bu taraqqiyot uzoq davom etdi. O'lkamizda yuz bergan ilm-fan, madaniyat va sanhat sohalaridagi o'zgarishlarning asosiy hislatlaridan biri inson'arvarlik g'oyasini doimo ustun bo'lganligidir. Ho'sh, bu inson'arvar, boy ma'naviy g'oya ijodkorlari kimlar, ular jaxon tarixida qanday o'rin tutadilar? Bu haqda prezidentimiz I.A.Karimov qator asarlarida, shuningdek, M.Hayrullaevning "O'rta Osiyoda ilk uyg'onish davri madaniyati". "Fan", 1994, F.Sulaymonovning "SHarq va G'arb". "O'zbekiston",1997, J.To'lanovning "Qadriyatlar falsafasi". "O'zbekiston",1998, shuningdek, "Buyuk siymolar, allomalar". "Meros", 1995,1996 to'lamalarida boy Ma'lumotlar keltirilgan. Bu nashrlarda

nafaqat al-Xorazmiy, al-Farg'oni, Farobiy, Beruniy va Ibn Sinolarning ko'p qirrali faoliyatlari hususida, ularning yuzlab izdoshlari va shogirdlari haqida ham qimmatli Ma'lumotlar berildi.

Movarounnahrda islom dinining tarqalishi yaqin SHarqda arab halfaligining shakllanishi va rivoji bilan uzviy bog'liqdir. Bu xalifalik islom bayrog'i ostida asta-sekin Arabiston chegarasidan chiqib, O'rta SHarq tomon yurish boshlab, u yerdagi mamlakatlarni bosib ola boshladi. Bu jarayon islomni tarqatish bilan uzviy bog'liq holda olib borildi.

Arablar Movarounnahrda o'rnatilgan siyosiy hokimiyatni mustahkamlash, uning barqarorligini tahminlash uchun islom dinining targ'iboti va uni yerli aholi o'rtasida, ijtimoiy tabaqalaridan qathiy nazar, kengroq yoyishga alohida ahamiyat berdilar. Ular yerli aholining ma'naviy hayotida muhim o'rin tutgan otash'arastlik, moniy, budda kabi dinlarni xurofiy soxta dinlar deb e'lon qiladilar.

Islom dinini qabul qilib, musulmon bo'lgan maxalliy axoli vakillari dastlabki yillarda xiroj va juzya soliqlaridan ozod etilib, ancha-muncha imtiyozlar beriladi. SHu bilan birga Movarounnaxrda musulmonchilikning mahalliy odat, udumlar bilan uyg'unlashuvi ro'y berdi.

Keskin kurashlar, qarshiliklarga qaramay yerli xalq bosqinchilarga qaram bo'lib qoldi. Buyuk olim Beruniy va tarixshunos Narshaxiy tafsiricha bosqinchilar yerli xalqlarga ham moddiy, ham ma'naviy jihatdan katta zarar keltirdi - yerli hokimiyat tugatildi, shaharlar qadimgi madaniyat yodgorliklari, mavjud yozuvlar yo'q qilindi, kitoblar yondirilib yuborildi, sanhat namunalari barbod bo'ldi.

Bu davrda Movarounnahr va Xurosonda sodir bo'lgan murakkab siyosiy vaziyatning tadrijiy rivoji va u bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlar mamlakat aholisining madaniy hayotiga ham tahsir etdi. Movarounnahrda arab tilining davlat va fan tili sifatida joriy etilishi bilan uni o'zlashtirishga bo'lgan intilish ham ortdi. Ayniqsa, mahalliy zodagonlar arab tilini xalifalik mahmurlari bilan yaqinlashish, mamlakatda o'z siyosiy mavqelarini tiklab, uni mustahkamlashning garovi deb bildilar va uni o'zlashtirishga astoydil kirishdilar. Natijada ko'p vaqt o'tmay Movarounnahrda arab tili va yozuvini o'z ona tillaridek o'zlashtirib olgan bilimdonlar paydo bo'ldi. Bu vaqtda arablar orasida hokimiyatni boshqarishga yaroqli bilimdon mahmurlar juda oz bo'lgan. CHegaralari tobora kengayib borayotgan Abbosiylar xalifaligi uchun ikki tilni biluvchilar juda zarur edi. Dastlabki Ma'lumotlarni o'z ona yurtlari Movarounnahr, Xorazm va Xurosondagi madrasalarda olgan O'rta Osiyolik olimlar xalifalikning markaziy shaharlari: Bag'dod, Damashq, Qohira, Kufa va Basraga borib bilimlarini oshirdilar va asarlarini o'sha davrda ilm tiliga aylantirilgan arab tilida yozishga majbur bo'ldilar.

SHunday qilib, arab tili va falsafasining rivojlanishi, islom dinining keng yoyilishi vositasida Markaziy Osiyoga antik dunyoning 'rogressiv qarashlari kirib keldi.

Xalqning mustaqillik uchun kurashi natijasida IX asrning oxirlarida O'rta Osiyoda yerli Samoniylar davlati vujudga keldi, bu - arab xalifaligiga qaramlikdan qutulish, mustaqillikni qo'lga kiritish edi. 3-4 asr davomida Samoniylardan tashqari yana Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Xorazmshohlar davlatlari vujudga keldi.

Samoniylar davrida qudratli markazlashgan davlatning vujudga kelishi natijasida Movarounnahr va Xurosonda ma'lum barqarorlik qaror to'di. Bu xolat mamlakat iqtisodiy va madaniy hayotiga katta tahsir ko'rsatdi.

Samoniylar sulolasining ko'pgina namoyondalari adabiyotga, ilm-fanga, mehmorchilikka homiylik qildilar.

Xuddi shu davrda ulkanlashib borayotgan Arab xalifaligi uchun ham ilm va ilm ahli suv va havodek zarur edi. Davlatni boshqarishda abbosiy xalifalar mahmuriyati ko'plab bilimdon samoniylarga muhtoj edi. O'rta Osiyodagi mamlakatlarning ko'pgina tolibi ilmlari xalifalikning markaziy shaharlari - Damashq, Qoxira, Bog'dod, Kufa va Basriga borib ilm oldilar va arab tilida ijod qildilar. Bu davrda ayniqsa Bog'dod shahri SHarqning yirik ilm va madaniyat markazi edi.

Al-Mansur sulolasidan bo'lmish beshinchi xalifa Xorun ar-Rashid (879-809) davrida xalifalik rivojlanib, 'oytaxt Bog'dod yanada kengaydi. Ayniqsa Xorun ar-Rashidning fors

xotinidan bo'lgan o'g'li Abdulloh al-Mahmun 813 yilda Bog'dod xalifasi deb e'lon qilingandan keyin Bog'dodga alohida ahamiyat beradi.

Al-Mahmun tarixda davlat arbobi sifatidagina emas, balki ilmu fanning homiysi sifatida shuhrat qozondi. U Marvga kelgan 'aytida saroyga Xuroson va Movarounnahrning eng buyuk olimlarini to'lay boshlaydi. So'ngra ulari Bog'dodga olib keladi. Al-Mahmun bilan birga Bog'dodga kelgan olimlar fan tarixida "al-Marviza" ya'ni "Marvliklar" nomini olgan edi. Lekin shungacha Bag'dodda olimlar bo'lmagan deyish noto'g'ri. Ummaviylar davrida Damashqqa ko'plab tarjimonlar yig'ilib, tabobatga oid kitoblarni yunon va suryon tillaridan tarjima qildira boshlagan edilar. Keyinchalik bu tarjimonlar Bog'dodga keltirilgan.

Xalifa al-Mahmun Bog'dodga kelgach, "marvlik" va "damashqlik" olimlarni yirik va yagona ilmiy muassasa - "Bayt ul-hikma", ya'ni "Bilimlar uyi" yoki "donishmandlik uyi"ga birlashtirdi. Keyinchalik bu muassasani yevropalik olimlar "al-Mahmun akademiyasi" deb ataydilar.

Al-Mahmun "Bayt ul-hikma"ning faoliyatiga katta ahamiyat beradi. Avvalo, u Bog'dodning nasroniylar yashaydigan SHamossiya mahallasida astronomik kuzatishlarni yo'lga qo'yadi. Bog'dod tekis yerda joylashgani uchun hududida rasadxona qurish befoyda edi. SHuning uchun xristian cherkovidan foydalanadi. Bu ishga xalifa al-Mahmun bilan Marvdan kelgan olimlar orasida Muhammad al-Xorazmiylar mutasaddilik qiladi, yosh Ahmad al-Farg'oniylar ham ularga yordam beradi.

O'sha davrda "Bayt ul-hikma"ning eng yirik kutubxonasi mavjud bo'lib, unga vatandoshimiz Muhammad al-Xorazmiy mudirlik qilardi. Kutubxonada 400 ming jild xind, yunon, suryoniy, arabiy, forsiy tillarda yozilgan qo'lyozma kitoblar saqlanardi. Al-Xorazmiy o'sha kitoblardan foydalanib, sind-xind usuli bilan "Ziji al-Xorazmiy" nomli astronomik asarini yozgan.

Xalifa al-Mahmun taklifi bilan Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy shayx ul baytul donish - "Donishmandlar uyi"ning boshlig'i etib tayinlandi.

Aynan xalifa Mahmunning SHarq olimlariga nisbatan chuqur hurmat bilan qaraganligi sababli O'rta Osiyoning eng yirik olimlari Bog'dodga jamlandi.

Xuddi shu vaqtlarda arablar orasida "Ilm daraxtining asosiysi Makkada-yu, hosili Xurosonda 'ishadur" degan ajoyib maqol tarqalgan edi. Nemis olimi Yu.Rushka IX-X asrlarda arab tilida yozilgan asarlar ro'yxati bilan tanishib chiqib shunday xulosaga kelgan. "Deyarli barcha olimlar Xuroson, Movarounnahr va Farg'onada yetishib chiqqan edilar. Ularning har birlari ismlari oxirida vatanlari nomini qo'shib aytishni odat qilgan edilar". Bog'doddagi ilmiy markaz haqida akademik V.V.Bartol'd shunday fikr aytadi. "Mahmunning xizmatlari evaziga Bog'dod o'ziga musulmon olamida ma'lum bo'lgan va qaysi burchagida bo'lmasin eng kuchli adabiyotchi va olimlarni o'z bag'riga chaqirib oldi. Bunda O'rta Osiyoning ulushi buyuk edi". SHunday qilib, xalifa Mahmun davrida Bog'dodda kutubxonalar ochilib, G'arb va SHarqning qadimgi dunyosi, merosi o'rganila boshlagan edi. U "Bayt ul-hikma"da aytilgan koinot va yer yuzidagi muammolarni bajarish uchun 70-dan ortiq yetuk olimlarni jalb etgan. Ahmad al-Farg'oniylar ham bu topshiriqni bajarishga kirishib, yer yuzi xaritasini tuzishda faol ishtirok etgan. Ushbu xarita "Mahmunning Dunyo xaritasi" nomi bilan yuritilib, 840 yillarda tugallangan. Lekin bu xarita saqlanib qolmagan bo'lsa ham, Ahmad al-Farg'oniylar asarlari orqali dunyo xalqlari mazkur xarita bilan tanishishga muyassar bo'lganlar.

Turonning jahonga mashhur olimlaridan biri Muhammad ibn Muso Xorazmiy bo'lib, u taxminan 783 yilda tug'ilgan va 850 yilda Bog'dodda vafot etgan.

Xorazmiy xalifa Mahmun rahnamoligida islom SHarqining fanlar akademiyasi - "Bayt ul-hikma" ("Donishmandlar uyi")da ishladi. Bu ilm dargohida u juda ko'plab astronomik kuzatishlar olib bordi. Uning nomini tarixda abadiy qoldirgan asarlaridan biri - "Al-Jabr val muqobala"dir. Bu asar G'arb va SHarq olimlariga algebra fani bo'yicha dasturiy amal bo'lib xizmat qildi. "Algoritmi" va "Algebra" degan atamalar Xorazmiy nomi bilan bog'liqdir. Al-Xorazmiyning arifmetikaga bag'ishlangan bu kitobi XII asrdayoq Is'aniyada lotin tiliga tarjima qilingan. O'sha 'aytlarda ko'chirilgan nushasi hozir ham Kembrijda saqlanmoqda. Bu asar bir

necha asrlar davomida Yevropa universitetlarida “Algoritm kitobi” nomi bilan mashhur bo’lgan. Rim ‘a’asi Sil’vestro rim raqamlari o’rniga Xorazmiy ishlab chiqqan arab raqamlarini Yevropada istehmolga kiritish to’g’risida farmon berdi.

Xorazmiy shuningdek “Kitob surat al-az” (“Er surati”) degan risola ham yozdi. Asarda ‘tolomeyning “Geografiya” nomli kitobini butunlay qayta ishlab, SHarq mamlakatlari to’g’risida qimmatli Ma’lumotlar berdi.

Bu kitobda Orol dengizining tasviri ham berilib, 637 ta muhim joylar, 209 ta tog’ning geografik tafsiloti berilgandi. Olimning bu kitobi SHarqda geografiya fanining rivojlanishiga katta hissa qo’shdi. Xorazmiy o’zining matematika, geografiya, tarix, musiqa, astronomiya va boshqa fanlarga taalluqli asarlari bilan jahon fani taraqqiyotiga keng yo’l ochib berdi. Jahon ahlining 1983 yili Muhammad Muso Xorazmiyning 1200 yilligini zo’r tantana bilan nishonlaganligi buyuk vatandoshimizga ko’rsatilgan cheksiz hurmatidir. SHunday qilib, buyuk alloma Muhammad Muso Xorazmiyning nodir asarlari, yaratgan tahlimoti, ijtimoiy-falsafiy qarashlari hozirgi avlod uchun bitmas-tuganmas xazina, mustaqilligimiz uchun xizmat qiladigan bebaho ma’naviy boylikdir.

Entsiklo’edist allomalardan yana biri al-Farg’oniy taxminan 780 yilda Farg’ona vodiysining Quva shahrida tug’ilib, 861 yilda Qohirada vafot etgan. Ahmad Farg’oniyning ilmiy faoliyati Bog’dod bilan, ulug’ mutafakkir olim Muhammad Muso Xorazmiy rahbarligida faoliyat ko’rsatgan “Bayt ul-hikma” bilan bog’liqdir. U Bog’dod va Damashqdagi rasadxonalar qurilishiga qatnashib Bog’doddagi falakshunoslik maktabiga rahbarlik qiladi. Keyinroq Misrda yashagan chog’ida Nil daryosida joylashgan Ravz orolida suv sathini o’lchaydigan nilometr asbobini takomillashtirdi. Bu asbob, hozirgacha saqlanmoqda. Uning atrofidagi qurilmalarga granit toshlarga oyat, hadis so’zlari bitilganini, tabiatga bo’lgan muhabbat ramzi deb bilsa bo’ladi.

Markaziy Osiyoda taraqqiy etgan islomiy fan va madaniyatning dastlabki atoqli vakillaridan biri olamshumul alloma Ahmad ibn Muhammad Farg’oniyni, arab dunyosida “Hisob” (matematik), Ovro’da esa “Alfraganus” deb atashgan. Ahmad al-Farg’oniy 25 yoshida Xo’jand orqali Samarqandga, so’ng Buxoro orqali xalifa Mahmun ibn Xorun ar-Rashid huzuriga borib ilm-fan xizmatida bo’lgan. Uning nomini jahonga mashhur qilgan asari “Astronomiya negizlari” bo’lib unda buyuk mutafakkir o’zi yashagan davrdagi falakiyotga oid bilimlarni tartibga soldi va uni yangi xulosa va natijalar bilan boyitdi. “Astronomiya negizlari” asari Ovro’da Ko’ernikkacha bo’lgan falakiyot ilmidan asosiy qo’llanma bo’lib xizmat qildi. SHuning uchun allomaning asarlari XII asrda lotin tiliga ikki marta va XIII asrda boshqa Yevropa tillariga tarjima etilgandan so’ng uning lotinlashtirilgan nomi “Alfraganus” shaklida G’arbda bir necha asr davomida keng tarqaldi.

Allomaning ilm-fan va jahon ma’naviyatida tutgan o’rni va roliga o’rta asr SHarq tarixchilari Abul Faraj, al-Kiftiy ibn Nazimlarning asarlarida alohida to’xtalib o’tgan. SHuningdek, so’nggi yillarda nashr etilgan ilm va madaniyat tarixiga bag’ishlangan kitoblarda ham al-Farg’oniy buyuk olim sifatida qayd etiladi. SHu hususda prezidentimiz I.A.Karimov shunday degan edilar: “Tariximiz necha-necha ming yilliklarga borib taqaladi. Gapning indollosini aytishimiz kerak: ayrim odamlar hali lungi tutib yurgan davrlarda bizning otabobolarimiz yulduzlar jadvalini tuzganlar”.

Abu Nasr Farobiy (873-950) nafaqat Markaziy Osiyo va SHarqning, balki butun dunyoning asrlar osha ehtiroy etib, katta hurmatga sazovor bo’lib kelayotgan buyuk mutafakkir va qomusiy olimi, mashhur faylasufidir.

SHarq uyg’onish davrining ulug’ namoyondasi bo’lgan Farobiy 873 yilda Aris daryosining Sirdaryoga quyiladigan joyidagi Forob qishlog’ida tug’ilgan. U dastlabki bilimni Farobda olgach, Toshkent, Samarqand, Buxoro va Markaziy Osiyoning boshqa o’lkalarida tahsil oladi, lekin u o’zining bu yerlarda ilmga ehtiyojini qondira olmaydi. Ilmga katta hayotiy ehtiyoj sezgan Farobiy jahon ilm markazlaridan biri Bog’dodda qo’nim to’di. Bu yerda u tinmay o’qib o’rganadi, arab tili va adabiyotini mukammal egalladi, SHom, Misr o’lkalarida o’qidi, mudarrislik qildi.

Farobiy ilmning barcha sohalarida ijod qilib, buyuk asarlar yozdi. XII-XIII asrlarning yirik olimi Zahiriddin al-Bayhaqiy fikricha, islom o'lkalari olimlari orasida unga teng keladigan odam dunyoga kelgan emas.

Farobiy yirik faylasuf, tilshunos, mantiqchi, riyoatchigina emas, shu bilan birga, sotsiolog, tibbiyotchi, siholog, musiqa ilmining nazariyotchisi va amaliyotchisi hamdir. "Falsafani o'rganishda nimalarni bilish kerak?", "Falsafiy savollar va ularga javoblar", "Mantiqqa kirish", "Shehr sanhati", "SHoirarning shehr yozish sanhati va qonunlari haqida", "Ilmlarning kelib chiqishi to'g'risida", "Aql to'g'risida", "Inson a'zolari haqida risola", "Fozil shahar odamlari qarashlari", "Davlat haqida" kabi 160 dan ortiq qimmatli asarlar yozdi.

Qadimgi yunon falsafasini, hususan Aristotel asarlarini chuqur va mukammal bilish, tarjima qilish, ilmiy sharhlar yozish, targ'ib tashviq ishlarida Farobiyga tenglashadigan donishmand bo'lmagan.

Farobiy jaxon fani taraqqiyotiga qo'shgan bebaho hissasi bilan shu darajada katta shuhratga erishganki, uni hayotligidayoq, Aristoteldan keyingi yirik mutafakkir Muallim as-Soniy "Ikkinchi muallim", "SHarqning Aristoteli" nomlari bilan atashdi.

Farobiy ilk o'rta asr sharoitida aql va ilm tantanasi, ma'naviy ozodlik, inson takomili va adolatli jamiyat uchun kurashgan siymo edi. SHu o'rinda Farobiyning ijtimoiy hayot, jamiyat, masalalaridagi muhim falsafiy qarashlari katta ahamiyatga egadir. U o'zining "Fozil shahar odamlarining qarashlari" kitobida davlatni har tomonlama yetuk, o'zida eng yaxshi insoniy fazilatlarni namoyon qilgan kishilar yordamida boshqarish zarurligini qayd etadi. SHuningdek, u har tomonlama yetuk, aholini ilmiy-mahrifatga olib boruvchi ideal jamiyat haqidagi fikrni olg'a suradi. Farobiy "Fozil shahar odamlarining qarashlari" kitobida davlatni boshqaruvchi hokim Ollohdan boshqa hech kimga bo'ysunmasligi kerak, u tabiatan o'n ikkita xislat fazilatni o'zida mujassamlashtirgan bo'lishi zarur deydi. SHu bilan birga uning fikricha shahar hokimi bilimli, mahrifatga havasli, taom yeyishda, ichkilikda o'zini tiya biladigan, haq va haqiqatni sevadigan, yomonlardan jirkanadigan kishi bo'lishi lozim.

Allomaning bu asaridagi dono fikrlari hozirgi mustaqillik sharoitida yashab, faoliyat ko'rsatayotgan shahar, tuman, viloyat rahbarlariga, olimlari, ziyolilari, talabalari, kattayu kichik barcha kishilariga bevosita taalluqlidir.

O'zbekiston prezidenti I.A.Karimov "Fozil shahar odamlarining fikrlari" asariga yuqori baho berib shunday degan edi, "Masalan, Farobiyning o'sha mashhur "Fozil odamlar shahri" asarini esga olaylik. Bundan ming yil muqaddam yaratilganiga qaramasdan, bugungi o'quvchi ham bu asarni hozirgi murakkab muammolarini hal qilishda asqatadigan muhim fikr va yo'l-yo'riqlarini to'a oladi".

Insoniyat Abu Ali ibn Sino (980-1037)ni jahon fanining ulug' arbobi, uyg'onish davri madaniyatining yirik namoyondalaridan biri sifatida biladi Buyuk alloma ellik yetti yil umr ko'rgan bo'lsa, buning 18 yilini ilm-taxsiliga sarf qildi. SHu yillar davomida uch yuzdan ortiq asar yozdi. Uning bu asarlari ilm-fanning barcha sohalariga taalluqlidir. Ana shu asarlari bilan Ibn Sino Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatini dunyo madaniyatining oldingi qatoriga olib chiqdi. SHuning uchun uni "SHayh ur-ra'is" - "Olimlar olimi" deb atashgan edi.

Ibn Sino asarlarining 40 dan ko'prog'i tibbiyotga, 30 dan ortig'i tabiiy fanlar va musiqaga oid bo'lib, qolganlari falsafa, mantiq, ahloq, ilohiyot, ijtimoiy-siyosiy mavzularda edi. Bizga 160 ga yaqin asari yetib kelgan. "Kitob ush-shifo" ("SHifo kitobi"), "Donishnoma", "Kitob ul-koinot" ("Koinot kitobi") kabi ilmiy asarlari, 5 jildli "Kitob al-qonun fit-tib" ("Tib qonunlari kitobi")ko'p asrlar davomida tibbiyotdan asosiy dastur qilib kelindi, hozir ham birqancha dorilfununlarda o'rganiladi.

SHunday qilib, Ibn Sino o'z asarlarida tabiat, jamiyat rivojlanish qonuniyatlari to'g'risida qimmatli xulosalar berib, kishi aqlini nimalarga qodir ekanligini ko'rsatdi. Tabiat sirlari va haqiqatni bilish mumkinligiga qattiq ishonadi. SHuning uchun ham olim odamlarni bir-biri bilan do'st, inoq bo'lib yashashga chorlaydi. Odamlar sofdil, samimiy do'st bo'lib yashasa, bir yoqadan bosh chiqarsa, har qanday mushkul oson bo'lishiga qattiq ishonadi. Olimning bu g'oyalari hozirgi kunda Respublikamiz mustaqilligini saqlashda va mustahkamlashda katta

ahamiyatga ega ekanligini, prezidentimiz I.A.Karimovning quyidagi so'zlari bilan isbotlash mumkin. "Yangi ming yillikka yo'l ochib borar ekanmiz, hammaga do'stlik va hamkorlik qo'lini cho'zamiz".

Xorazmlik buyuk olim Abu Rayhon Beruniy (973-1048) jahon fani va madaniyati taraqqiyotiga muhim hissa qo'shgan siymolardan hisoblanadi. Beruniy bilan G'aznada yashagan mashhur tarixchi Abul Fayz Bayhaqiy (1077 yilda vafot etgan) olimga baho berib, bu odam ilmi adabda, narsalarning mohiyatini aniqlashda, handasa va falsafada shu qadar bilimdon ediki, uning zamonida unga tenglashadigan hech kim yo'q edi. XIII asrda yashagan yirik olim Yoqut Xamaviy tahbiri bilan aytganda, zamona ilm va aqlda unga teng keladigan boshqa olimni ko'rmadi. Beruniy 16 yoshidan astronomik kuzatishlar olib borganligi ma'lum. Ustozi xorazmlik atoqli olim Abu Nasr ibn Iroq al-Mansur (1035 yilda vafot etgan). 12 ta asarini Beruniyga bag'ishlagan. Dunyoda birinchi globus (diametri 5 m li yarim shar) yasagan. Beruniy Xorazmdagi "Mahmun akademiyasi"ga rahbarlik qilib bir qancha shogirdlar chiqargan. Beruniy butun kuchi, hayoti, aql-idroki va tafakkurini ilm-fanga bag'ishlagan allomalardan biri edi. Beruniyning ilmiy merosi 150 dan ortiq kitob va risoladan iborat. "Al-qonun al-Mahsudiy", "Hindiston", "Geodeziya", "Xronologiya", "Minerologiya", "Saydona" ("Dorivor o'simliklar haqida kitob") asarlarida insoniyat uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan g'oyalarni o'rta tashlagan. Ayniqsa, buyuk mutafakkir "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Hindiston" kabi tarixiy asarlarida tabiat, jamiyat taraqqiyoti va uning istiqboli haqida fikr berib, unda mehnatning, ilm-fanning roli beqiyos ekanligini uqtirib o'tadi.

Beruniy jamiyat taraqqiyotini fan taraqqiyotida ko'radi, ilm diniy va hududiy chegaralarga qaramay inson va jamiyatga xizmat qilishi kerak deb hisoblaydi. "Mening butun fikri-yodim, qalbim, bilimlarni targ'ib qilishga qaratilgan, chunki men bilim orttirish lazzatidan bahramand bo'ldim, buni men o'zim uchun katta baxt deb hisoblayman", - deb yozgan edi olim. Allomaning bunday 'irnamo so'zlari hozirgi kunda prezidentimiz I.A.Karimovning "Kuch bilim va tafakkurda" degan bo'lardim" degan so'zlari bilan hamohangdir.

IX-XII asrlarda Markaziy Osiyoda O'rta asr tarixshunosligi rivoj to'ib, arab va fors tillarida bir qancha yirik tarixiy va geografik asarlar bitilgan. Bu borada Abu Bakr Narshahiyning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. U 899 yilda Buxoroda tug'ilib, 959-960 yillarda vafot etgan. Undan meros tariqasida yagona asari "Buxoro tarixi" bugungacha yetib kelgan. Uni 1128 yilda quvalik (Farg'ona) tarixchi Abu Nasr al-Kuboviy qisqartirib, voqealar bayonini davom ettirib fors tiliga tarjima qilgan. Bu tarjimaning qayta ko'chirilgan va voqealari bayoni (1220 yillargacha yetkazilgan nushasi) bizgacha yetib kelgan. "Buxoro tarixi" O'rta Osiyoda islomgacha bo'lgan diniy ehtiqlik va urf-odatlar, islom dinining tarqalishi, Muqanna voqeasi haqida Ma'lumot beruvchi asosiy manbaa hisoblanadi. Unda somoniylar davridagi voqealar, ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayot keng yoritilgan. SHunday qilib, Narshahiy merosi xalqimizning ma'naviy boyligi sifatida avlodlarga xizmat qilib kelmoqda.

IX-XII asrlarda Movarounnahr va Xorazmda adabiyot, shehriyat rivoj to'di. Uning rivojiga Rudakiy (860-941), Abu Mansur Daqiqiy, Abdulxasan Balxiy va ko'pgina boshqa shoirlar katta hissa qo'shdilar.

Rudakiy IX asr oxirida 'anjikent yaqinida 'anjrudak qishlog'ida tug'ildi. Yoshlik chog'idayoq u rud (chang) chalishni yaxshi o'rgangan, shehr yozib kuy bastalagan va hofizlik qilgan. Xalq orasida katta obro'ga ega bo'lib, hatto Somoniylar hukmdori Nasri ibn Ahmad (914-943) tomonidan sozanda va shoir sifatida saroyga chaqirtirib olingan.

Rudakiy o'z shehrlarida ona Vatanini, uning tabiati va aholisini, insoniy his-tuyg'ularini tarannum etadi. SHoir haqsizlik va adolatsizlikni qoralaydi. Bu davrning zakovatli shoirlaridan yana biri Daqiqiy edi. Avval u CHag'oniylar hukmdorlari, so'ngra samoniylar saroyiga taklif etiladi. Daqiqiy anhanaviy saroy shehriyatidan farqli o'laroq, xalq rivoyatlari va e'ik dostonlar asosida yangi 'oetik yo'nalishda ijod qiladi. U Abu Mansurning nasriy "SHoxnoma"si asosida birinchi bo'lib, shehriy "SHohnoma" asarini yaratishga kirishadi. Biroq ming bayt yozib bo'lgach, shoir o'z g'ulomi tomonidan fojiona o'ldiriladi. Daqiqiyning "Gushtas'noma" deb nomlangan ming baytini keyinchalik Abul Qosim Firdavsiy o'z "SHohnoma"sining kirish

qismiga qo'shgan. Abul Qosim Firdavsiy (934-1020) fors-tojik adabiyotining mumtoz shoiri. U dunyoga mashhur "SHohnoma" asarini yaratdi. Bu doston Eron va Turon xalqlarining o'tmishiga bag'ishlangan bo'lib, vatanparvarlik ruhida yozilgan. "SHohnoma" jahon adabiyoti xazinasining noyob durdonalaridan biri hisoblanadi. Asar juda ko'p tillarga, jumladan o'zbek tiliga ham tarjima qilingan.

XI asrda yashab ijod qilgan Mahmud Qoshg'ariyning hayoti va ijodiy faoliyati to'g'risida kam Ma'lumotlar yetib kelgan. Bobosi Muhammad va otasi Xusayn Qoshqardagi Beregon shahridan bo'lgan. Qoshg'ariylar oilasi Bolasog'unga (Qirg'izistonning hozirgi To'qmoq shahri) ko'chib kelishganda Maxmud hali yosh bola edi. Bo'lajak olim bu shaharda o'z ilmini oshirib, arab, fors tillarini o'rgandi. U

yoshlik chog'idayoq xalq jonli tilidan so'z va iboralarni qunt bilan yozib bordi, har bir so'z, iborani sharhlash va mahnosini aniqlashga intildi. Qoshg'ariy turkiy xalqlar tarixi, tili, madaniyati, urf-odatlarini 'uxta o'rganish maqsadida butun Markaziy Osiyoni kezib chiqdi. Ana shu to'lagan boy dalillar asosida xalqimizning buyuk olimi "Javohirun naxv fi Lug'ati turk" (Turkiy tillarning sintaksisi durdonalari) va "Devonu lug'oti turk" ("Turk tilining lug'ati") asarini yaratdi. Olimning bu asari 1074-1075 yillarda yozilgan bo'lib, hozir bu nodir qo'lyozma asar Istambulda saqlanmoqda. Asar katta ahamiyatga ega bo'lib, unga dunyo xaritasini ilova qiladi va rus (kichik Osiyo)dan to Xitoy hududlarigacha cho'zilib ketgan yerlarda yashovchi turkiy xalqlar tahriri, geografiyasi, urf-odatlari, turmush tarzi, madaniyati to'g'risida boy Ma'lumotlar beradi. SHuningdek asarda olim turkiy yozuv to'g'risida g'oyatda qimmatli fikrlarni bayon qiladi va 18 harfdan iborat turk (uyg'ur) alifbosini keltiradi. Asarda imlo masalasida ham muhim Ma'lumotlar bor.

Xullas, shehriy usulda yozilgan buyuk mutafakkir Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asarida yuksak ezgulik g'oyalari, mehnatsevarlik, shaxsiy qahramonlik, g'animg'larga nafrat kabi qarashlar o'z ifodasini to'gan. SHuning uchun bu asar hamon o'zining ilmiy, tarixiy, mahrifiy qimmatini saqlab kelmoqda.

Qorahoniylar saltanati davrining buyuk siymolaridan biri bolasog'unlik adib Yusuf Xos Hojib bo'lib, hozirgacha bizga ma'lum bo'lgan yagona didaktik badiiy-falsafiy "Qutadg'u bilig" ("Saodatga boshlovchi bilim") asari bilan jahonga mashhur va ma'lum. Bu asarda ahloq-odob, ilm-mahrifat, bola tarbiyasi, jamoat joylarida o'zini tutish, so'zning ahamiyati va qadri, mehmondorchilik qoidasi, turmush tarzi va inson ma'naviy olamining ko'p masalalari yoritilgan. Mahrifat jarchisi bo'lgan Yusuf Xos Hojib markazlashgan kuchli davlat bar'o etish uchun kurashuvchi donishmand, adolatli hukmdor qiyofasini ham chizadi. U xalq va davlat, davlat boshlig'i va fuqaro, olimlar, hokim, qo'shni davlatlar bilan iqtisodiy, madaniy aloqalar, hukmron tabaqalarning hokimiyat, xalq oldidagi burchi haqida g'oyatda zarur muammolarni ilgari suradi. SHu bilan birga ulug' olim o'ta ziyraklik va donishmandlik bilan turli tabaqadagi kishilarning dunyoqarashlari, hayot tarzlari, odatlari, ahloqlari haqida falsafiy mulohazalar silsilasini yaratdi. U kishilarni dunyoviy fanlarni chuqur o'rganishga, yuqori darajada Ma'lumotli bo'lishga chaqiradi. Ana shunday falsafiy g'oyalar ilgari surilgan "Qutadg'u bilig" asari xalqaro maydonda tan olingan asardir. Olimning mazkur asari xalqimiz ma'naviy boyligining eng muhim durdonalaridan hisoblanadi.

Turkiy adabiyotning yirik va zabardast vakillaridan biri Ahmad Yugnakiydir. Uning hayoti va ijodiy faoliyati haqida Ma'lumot juda kam bo'lib, adibning yagona merosi "Hibbat ul-haqoyiq" ("Haqiqatlar arg'umoni")dir.

Ahmad Yugnakiyning "Xibat ul-haqoyiq" asari o'zbek adabiy merosining buyuk namunasi sifatida uning keyingi taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi. Doston dunyoning bir necha tillariga tarjima qilingan.

IX-XII asrlarda Movarounnahr va Xorazmda mehmorchilik va sanhat yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarildi. Bunga, albatta, o'rta asr jamiyatining ijtimoiy-siyosiy tuzumi va bu davrda to'la g'alaba qozongan islom dini mafkurasi madaniy hayotning bu sohasiga ham kuchli tahsir qildi.

Bu davrga kelib, Samarqand, Buxoro, Urganch, Termiz, O'zgan va Marv kabi shaharlarda ko'plab saroy, machit, madrasa, minora, xonaqah, maqbara, tim va karvonsaroylar qurildi. Buxoro shahridagi Ismoil Samoniy, Zarbuloq yaqinida joylashgan Tim qishlog'idagi Arabota, Karmenadagi Mirsayyid Bahrom maqbaralari, Buxorodagi Nomozgoh, Minorai Kalon, Vobkent va Jarqo'rg'on minoralari o'sha davr mehmorchiligining nahmunalaridir. Bu yodgorliklar X-XII asrlarda Movarounnahrda o'ziga xos mehmorchilik g'oyat rivoj to'ganligidan dalolat beradi.

IX-XII asrlarda mehmorchilik bilan birga naqqoshlik va o'ymakorlik sanhati ham ancha rivojlandi. Bu davrga kelib naqqoshlik va tasviriy sanhat o'zga tus oldi. Endilikda jonli mavjudotlarni tasvirlashda murakkab geometrik va islami gulli naqshlar ishlashga o'tiladi.

Ayniqsa, bu davrlarda Samarqand, Toshkent va boshqa shaharlar qulolchilik, misgarlik, zargarlik rivojlangan markazga aylandi.

SHunday qilib, IX-XII asr mehmorchiligi va unda ishlangan mehmoriy naqsh uslublari o'z navbatida mehnatkash aholining did, nafosat va binokorlik g'oyalari bilan chambarchas bog'langan xalq mehmorchiligining sermazmun ijodini namoyish etadi. IX-XII asrlarda musiqa sanhati ham g'oyat taraqqiy qiladi. Manbalarda Abu Bakr Rubobiy, Bunasr, Buamir, CHanchi Lo'kariy kabi sozandalarning nomlari saqlanib qolgan. Rudakiy rud va tanbur kabi sozlarni chaladigan va hushovoz hofiz bo'lgan. Bu davrda xalq kuylari asosida "Rost", "Xusravoniy", "Boda", "Ushshoq", "Buslik", "Si'ohon", "Navo", "Bastag", "Tarona" kabi yangi-yangi kuylar ijod qilindi. Bu davrlarda ulug' allomalarimiz Farobiy va Abu Ali ibn Sinolar musiqa va musiqashunoslikka katta e'tibor beradilar va nodir asarlar yaratadilar.

IX-XII asrlarda Markaziy Osiyo hududida dunyoviy fan va madaniyat bilan bir qatorda islom madaniyati ham rivojlandi va taraqqiy etdi. Ayniqsa Movarounnahrda samoniylar davlatini qaror topishi va uning ravnaqida islom ruhoniylarining hissasi katta bo'ldi. SHu boisdan ularning obro'si oshib, Buxoro sharqda islom dinining eng nufuzli markazlaridan biriga aylandi. Mamlakat ma'naviy hayotining tayanchi bo'lgan islom mafkurasiga bu davrda "ustod" - din va ilm 'eshvolari rahnamolik qilardilar. Keyinchalik din 'eshvolari va islom ulamolarining rahnamosi shayx ul-islom deb yanada ulug'landi. SHayx ul-islomdan keyin xatiblar turardi. Islom mafkurasini somoniylar, Qoraxoniylar, g'aznaviylar, saljuqiylar va xorazmshohlar hukmdorlarining tashqi va ichki siyosatlarida bosh yo'naltiruvchi g'oyaviy kuch bo'lib xizmat qildi. Asta-sekin jamiyat a'zolari o'rtasida ham islom diniga, Qurhoni karimga ehtiyoj kuchaydi. Natijada o'lkamizda Qurhoni karimni sharhlovchi va tafsirini bayon qiluvchi asarlar yozgan ulug' islomshunos allomalar yetishib chiqdi. Imom Abu Mansur Moturidiy, imom Abu Lays ibn Muhammad Samarqandiy, imom Zamahshariy, imom Nasafiylar ana shular jumlasidandir.

Islom madaniyatining Qurhoni karimdan keyin ikkinchi o'rinda turadigan nodir manbaalardan biri hadislar, ya'ni Muhammad alayhissalomning diniy va axloqiy ko'rsatmalari, hikmatli so'zlarining majmuyidir. Hadischilikning rivojlanishida IX asr oltin davr hisoblanadi. Buning sababi butun islom dunyosida eng nufuzli deb tan olingan oltita ishonchli hadislar to'lamining mualliflari shu asrda yashaganlar. Yana shu narsa diqqatga sazovorki, mazkur olti Muxadising deyarli hammasi Markaziy Osiyo tu'rog'ida yetishib chiqqanlar.

"Hadis ilmidagi Amir ul-mo'miniyn" degan sharaflil nomga sazovor bo'lgan imom Ismoil al-Buxoriy bo'lib, 810 yil 20 iyulda Buxoroda tavallud to'di. Favqulodda qobiliyat hotiraga ega bo'lib, 10 yoshdan hadislarini o'rgana boshlagan va butun umrini hadis ilmiga bag'ishlagan. Hijoz, Misr, Iroq, Huroson va boshqa o'lkalarda yashab 600 mingdan ortiq xadis to'lagan. Ulardan eng ishonchlilarini saralab 4 jildli "Al-jomih as-sahih" ("Sahihi Buxoriy") to'lamini tuzadi. Bu asar islom dunyosida Qurhondan keyin ikkinchi manbaa sanaladi, islom dorilfununlarida asosiy darslik sifatida o'rganiladi. Imom Buxoriy "Al-adab ul-mufrad" ("Adab durdonalari"), "Kitob asmoh as-sahobi" ("Sahobalar ismlari kitobi"), "Tarixiy Buxoro" ("Buxoro tarixi") va boshqa ko'plab asarlar yozib qoldirgan.

Ulug' bobolarimiz qatorida Al-Buxoriy tavvalludi 1225 yilligining "YuNESKO" xomiyligida dunyo miqyosida nishonlanganligi katta tarixiy voqea bo'ldi.

Islom dunyosida nom qozongan buyuk muhaddis olimlardan biri Abu Iso Muxammad bin Iso bin savri bin Muso bin ad-Zaxxok az Zarir al-termiziy al-Bug'iy, 824 yilda Termiz shahrida tug'iladi. 1990 yilda bu ulug' muhandis tavalludining 1200 yilligini Turkiston musulmonlari keng nishonladilar. U kishi Samarqand, Buxoro, Marv va boshqa shaharlarda mashhur ulamo va Muxadislar asarlarini o'rganib, islom dunyosining boshqa shahar va mamlakatlariga safar qiladi. Xususan, Hijoz, Makka, Iroq, Xuroson va boshqa joylardagi buyuk hadisshunoslar bilan muloqotda bo'ladi. Ayniqsa, uning kamolotga yetishida Ismoil Buxoriyning o'rni katta bo'lgan. Nisho'ur shahrida istiqomat qilgan Imom Buxoriy atrofida to'langan ko'p shogirdlarining eng mashhuri ham Imom Termiziy edi.

Ulug' Muxadis olim at-Termiziy hadislar to'lab, bir qancha asarlar yaratgan. "Jom' us-sahiq" yoki "Sunnani Termiziy", "Kitob ilal", "Kitob at-tarix", "Kitob at-SHomil an-Nabaviya", "Kitob az-suhd" va boshqalardir.

prezidentimiz bu alloma haqida shunday yozadilar: "Bugungi kunda Termiziyning ma'naviy meroslari nafaqat ahli din orasida balki dunyoviy bilim sohiblari, keng miqyosdagi ahli jamoa orasida ham o'z qadrini to'ayotir. U kishining shoh asarlaridan "Kitob al-jomeh as-saxiq" hozirga qadar hadis ilmining asosiy manbaalaridan biri hisoblanadi. Allomaning asrlar davomida fozilu fuzalolarga dastur bo'lib kelgan aqlu-odob, insofu-diyonat, adolatu inson'arvarlikni targ'ib qiluvchi g'oyalari serdolg'a davrimizning murakkab va ziddiyatli ahloqiy ma'naviy masalalarini hal etishda zamonaviy ahamiyat kasb etadi".

Turkiy islom dunyosidagi buyuk mutasavvuf olim, sharq tasavvufida iz qoldirgan "Yassaviya" tariqatining asoschisi va turkiy klassik shehriyatining ulug' vakillaridan biri bo'lmish Xoja Ahmad Yassaviy 1096 yili Sayramda tug'ilgan. Ilmiy adabiyotlarda vafoti 1165-1167 yillar deb qo'rsatilgan. Yassaviy tariqatining birinchi va asosiy fazilati uning xalqchilligidir. Unda ham Olloh, ham inson madh etiladi. Yassaviy o'z "Hikmat"larida insonni ulug'laydi, uni adolatsizlikdan, zulmdan himoya etishga chiqaradi. Bu haqda u "qayda ko'rsang ko'ngli sinuq maxram bo'lgil, andog' mazlum yo'lda qolsa, hamdam bo'lgil" deydi. Ahmad Yassaviy Buxoroga borib, Yusuf Xamadoniydan tahlim oladi. Buyuk mutafakkirning asosiy maqsadi odamlarni Ollohn tanishga, uning yaqini bo'lishiga dahvat etadi. Ahmad Yassaviy inson o'z 'okligini saqlashi, gunoh orttirmasligi uchun nima ish qilish kerak, degan savolga o'zicha javob beradi. U dunyodan yuz o'girishi, umrini odamlardan uzoqda, yolg'izlikda, uzlatda toat-ibodat bilan o'tkazishi lozim deb hisoblaydi. Buni u Ollohga yaqin bo'lishning, o'ziga u dunyoda saodat tahmin etishning shartlaridan biri deb hisoblaydi. Agar inson jonini qiynab bo'lsada, ibodat qilsa, nafsiga bardosh bersa, o'shanda hudoning diydoriga yetadi, deydi. SHunday qilib, diniy ulamolarimizning falsafiy ta'limotlarida mehnatkash xalqning azob-uqubatlari va orzu-umidlari o'z ifodasini to'gan.

Tasavvuf tahlimotining buyuk siymolaridan biri xorazmlik Najmiddin Kubro (1145-1221) edi. Tasavvufdagi maxsus Kubraviya tariqati uning nomi bilan bog'liq. U zamonasining yirik olimlaridan hisoblanib "Favoix al-jamol va favotix al-jalol" ("Jamolining muattarlari va kamolatning egalari") "Al-usul al-amara" ("O'nta qonun va qoidalar") nomli asar va risolalar yozgan.

Najmiddin Qubro tariqati buyuk Xorazm davlati asta-sekin inqirozga yuz tutayotgan davrda yuzaga keldi. Odamlarni 'oklanishga, hayotga ishonch bilan qarashda, dunyoviy muhabbatni ulug'lashda Qubraviya tariqati katta o'rin tutdi. Unda tarkidunyochilik emas, balki mehnat asosida Alloh vasliga yetish g'oyalari ilgari suriladi. KQbraviya tariqatida xalq va Vatan uchun xizmat qilish, Vatan mustaqilligi uchun k urashish g'oyasi ustivorlik qiladi. Uning tahlimoti shunchaki quruq so'z, shior, g'oya bo'lib qolmasdan, amaliy ahamiyatga ega tahlimotdir. Najmiddin Qubro Xorazm himoyasi uchun mo'g'ullarga qarshi jangga kiradi va shahid bo'ladi.

XIV asrda Markaziy Osiyo hududida tasavvuf ilmi Bahovuddin Naqshband (1318-1389) nomi bilan mashhur bo'lib, u Buxoro yaqinidagi Xinduyon qishlog'ida tug'ilgan. Bahovuddin dastlabki ilmni Xoja Muhammad Samosidan, so'ngra Said Amir Kuloldan olgan.

Naqshbandiya tariqati mehnat qilish va o'zining halol mehnati bilan kun ko'rish vazifasini yuklaydi: "Dil Olloh yodi bilan, qo'l mehnat bilan band bo'lsin" ("Dil ba yoru dast ba kor") degan so'zlar Naqshbandiya tahlilotining bosh naqlidir. Insonni mahnatga chorlash har bir jamiyatda ham, tabiiyki, umumtaraqqiyotga ijobiy tahsir etgan.

Naqshbandiya tahliloti taraqqiyotiga keyingi asrlarda Alisher Navoiy, Abduraxmon Jomiy, Xoja Ahror kabi allomalar katta hissa qo'shdilar.

O'tmishimizni ziyraklik bilan kuzatayotgan prezidentimiz Islom Karimov: "Markaziy Osiyo tarixida siyosiy aql-idrok bilan ma'naviy jasoratni, diniy dunyoqarash bilan qomusiy bilimdonlikni o'zida mujassam etgan buyuk arboblarni ko'p bo'lgan", deb ta'kidlaydilar. Ularning jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo'shgan hissalarini o'sha 'aytlardan buyon butun dunyo tan olmoqda.

XIII asr boshlaridagi mo'g'ullar bosqini natijasida o'lkamizda madaniyat o'choqlari barbod bo'ldi, sanhat obidalarini vayron etildi, mamlakat og'ir tushkunlikka uchradi. Aholining ko'p qismi qirildi, hunarmand ahli qul etildi. Asrlar davomida Xitoy va Hindiston O'rta Osiyo orqali Kichik Osiyo (Rum) va Yevropaga boruvchi mashhur i'ak yo'li mo'g'ullar bosqini davrida yo'qolib ketdi. Bu davrda ilm va mahrifatga ham katta zarar yetdi.

XIII asrning ikkinchi yarmi va XIV asr boshlarida shahar va qishloqlarda xo'jalik hayotining jonlanishi bilan, shubhasiz mo'g'ullar bosqini davrida inqirozga yuz tutgan fan, adabiyot, mahrifat va madaniyatning ayrim tarmoqlari ham tiklana boshlandi. Bu davrda fan va adabiyot asosan mo'g'ullar hukmronligi o'rnatilmagan - Kichik Osiyo, Janubiy Eron va Hindistonda taraqqiy etadi. Faqat XIV asr boshlariga kelgandagina adabiy muhit markazlari Movarounnahr va Xurosonga ko'chdi. Bu jarayon Amir Temur hokimiyat te'asiga kelib markazlashgan davlat tashkil etgan davrda kuchaydi va sivilizatsiya yangi bosqichga ko'tarildi. Avvalo, davlatchilik qonun-qoidalari 'uxta shakllandi. Sohibqiron fan, madaniyat, sanhat, mehmorchilikning ibratli homiysi bo'lgan. Temuriylar sulolasi madaniy yuksalishga katta hissa qo'shib ketgan.

Tarix Temurning ilm-fan va madaniyat, adabiyot, sanhat, mehmorchilik, shaharsozlik ishining ustasi, siyosiy va hayotga nisbatan mushohada doirasi keng bo'lgan sinchkov va qiziquvchan suhbatdosh sifatidagi qiyofasini ham qoldirgan.

O'z sohasida kamolotga intilish temuriylar davri hunarmandchiligining asosiy xususiyatiga aylandi. Bu ayniqsa mehmorchilikda yaqqol namoyon bo'ldi.

Temur uchun uning topshirig'iga ko'ra bar'o etilgan inshootlarning ulug'vorligi siyosiy sohadagi vazifalardan biri edi. U Oqsaroy 'eshtoqiga bitilgan "Qudratimizni ko'rmoq istasang - binolarimizga boq!" degan yozuvda aniq ifodasini to'gan.

Ijtimoiy-diniy ahamiyatga ega bo'lgan masjid, madrasa, maqbara yoki dunyoviy hokimiyatga aylangan hukmdorlarning saroylari va aslzodalarning qarorgohlari singari inshootlarda temuriylar davri mehmorchiligining eng yuksak yutuqlari yorqin namoyon bo'ladi.

Temur davrida Samarqandda faqat ikkita madrasa qurilgan edi, holos. Ulug'bek va SHohrux davrida esa madrasalar safi ancha kengaydi. Ulug'bek topshirig'iga binoan Buxoroda (1417), Samarqandda (1420) va G'ijduvonda (1443) madrasalar qurildi.

Temur oromgohlar bar'o qilishga nihoyatda ishqiboz edi, uning istagi bilan Samarqand atrofida o'n ikkita beqiyos bog' yaratilgan. SHarq mamlakatlari bu bog'larning nomlarini ko'rsatishadi. Ayrimlarini Klavixov ham eslab o'tgan:

Dastlab - XIV asrning 70-yillarida Kuxaktog'i etagida "Bog'i Naqsh jahon" qurilgan. 1378 yili Temur xotini Tuman og'a uchun "Bog'i Bexisht" bar'o qildi. "Bog'i Amirzoda", SHohrux, "Bog'i Bo'ldi", "Bog'i Dilkusho", "Bog'i SHamol", "Bog'i Zog'on", "Bog'i baland", va boshqa bir qancha bog'lar bar'o etilgan.

Ayniqsa, SHohizinda majmuasi Temur va temuriylar davrining umumiy mehmorchilik uslubini aks ettiradi. Mazkur yodgorlik nafaqat mehmuriy sanhat, balki bezak sanhatining ham shoh asaridir.

SHunday qilib, Temur va temuriylar davridagi O'rta Osiyo mehmorchiligi naqadar ulug'vor hamda hashamatli bo'lmasin, baribir insonga qaratilgan edi. Saroylar va xususiy

qarorgohlar xalq ko'zidan 'ana bo'lsa ham shahar maydonlarini bezagan yodgorliklar, katta-katta masjid, karvonsaroylar-u timlar, mozorlaru maqbaralar xalq uchun ochiq edi. SHu tariqa mehmorchilik xalqni go'zallikka jalb etib, didni tarbiyalay boshladi.

Umuman olganda, Temur va temuriylar davridagi moddiy va ma'naviyat yodgorliklarining bizgacha yetib kelgan ayrim namunalarining o'zi ham mamlakatda barqarorlik vaziyatida xalq hunarmandlari bu sohalarida naqadar buyuk yutuqlarga erisha olish imkoniyatlari mavjudligini yaqqol namoyon etdi.

Amir Temur vafotidan keyin temuriy shaxzodalar o'rtasida boshlangan kurashlar va harbiy yurishlar mamlakatning ichki hayotiga salbiy tahsir etsa-da, biroq SHohrux (1405-1447), Ulug'bek (1409-1449) va Sulton Xusayn (1469-1506) hukmronlik qilgan davrlarda mamlakatda ma'lum darajada qaror to'gan tinchlik tufayli ilgari davom etib kelayotgan anhanalar asosida ilm-fan va madaniyat yanada jonlandi. Bu davrda Samarqandda ham, Xirotda ham Temur anhanalari davom ettirilib, bu 'oytaxt shaharlarda olimu fuzalolar, shoir-u bastakorlar, mehmoru binokorlar va mohir hunarmandlarning kattagina guruhi to'langan edi. Movarounnahrda, xususan, Samarqandda ilm-fan va sanhatning taraqqiyotida zamonasining madaniy muhitida tarbiyalanib, yoshligidayoq mashhur olim sifatida shuhrat qozongan Ulug'bekning roli va hissasi nihoyatda buyuk bo'ldi. Movarounnahr va Xurosonning boy va serqirra madaniyati va islom dunyosining ma'naviy anhanalariga suyangan Ulug'bek mamlakatining ravnaqi, ayniqsa uning kamolotida ilm-fanning naqadar muhimligini yaxshi tushunardi. Manbaalarda keltirilgan Ma'lumotlarga qaraganda, Ulug'bek buyuk mutafakkirlardan Ahmad Farg'oniy, Farobiy, Muso Xorazmiy, Beruniy va Ibn Sinolarni o'rganadi. Ularning asarlari orqali qadimgi yunon olimlari: Aflotun ('laton), Arastu (Aristotel'), Gi'okrat, 'tolemeylarning klassik asarlari bilan ham tanishadi.

Ulug'bekning farmoni bilan, yuqorida ham qayd qilganimizdek, 1417 yilda Buxoroda, 1417-20 yillarda Samarqandda va 1433 yilda G'ijduvonda madrasalar qurildi. Bu madrasalarda ilohiyot ilmlari: Qurhon, hadis, tafsir, fikh (din va shariat qonun-qoidolari) bilan birga riyoziyot (matematika), handasa (geometriya), ilmi hayhat (astronomiya), tibbiyot (meditsina), tarix, geografiya, ilmi aruz ('oetika), arab tili va morfologiyasi kabi dunyoviy ilmlar ham o'qitilardi. Samarqanddagi madrasada Mavlono SHamsuddin Havofiy yetakchi mudarris bo'lgan. Mashhur olimlardan Qozizoda Rumi, G'iyosiddin Jamshid Koshiy ham Mirzo Ulug'bekning o'zi va uning shogirdi Alouddin Ali Qushchilar turli fanlardan dars berganlar. Madrasada ilmi hayhat (astronomiya) darsini Qozizoda Rumi o'tgan. Hatto Abdurahmon Jomiy yoshlik chog'ida Samarqandga kelib, Qozizoda Rumiyan bir necha marta saboq olganligi ma'lum. Ulug'bek 1424-28 yillarda Samarqandda Obirahmat anxori bo'yida rasadxona qurdirgan. Ulug'bek rasadxonasi Movarounnahrda o'z zamonasiga nisbatan mukammal astronomik asbob uskunalar bilan jihozlangan oliy darajadagi ilmgohga aylangan edi. Rasadxonada Ulug'bek bilan birga mashhur matematik va astronomlardan - zamondoshlari o'rtasida "Aflotuni zamon" faxriy nomini olgan Salohidin Muso Ibn Muhammad Qozizoda Rumi, G'iyosiddin Jamshid Koshiy, o'z davrining 'tolemeyi nomi bilan shuhrat qozongan Alouddin Ali ibn Muhammad Ali Qushchi va boshqa olimlar ilmiy kuzatish olib bordilar. Xullas, Ulug'bek Samarqandda astronomiya maktabini yaratdi.

Bu maktabning ko'zga qo'ringan namoyondalaridan biri G'iyosiddin Jamshid bo'lib, astronomiyaga oid "Ziji hoqoni", "Bog'lar sayri" va "Osmon narvoni", matematikaga oid "Xorda va sinuslar haqida risola", "Hisob kaliti" va "Doira haqida risola" kabi asarlarni yozdi. Bu borada Qozizoda Rumiyaning "Arifmetikaga oid risola", "Astronomiyaning mohiyatiga izohlar", "Sinus haqida risola" kabi asarlari jahonga mashhurdir. Ushbu maktabning istehdodli namoyondasi Ali Qushchi bo'lib, u ham matematika, astronomiyaga oid 6 ta risolaning avtoridir.

Yuqorida nomlari zikr etilgan asarlarga o'sha davr olimlaridan Qozizoda Rumi nabirasi Miram CHalabiy va Abul Ali Birjandiylar tomonidan yozilgan sharhlar muhim ilmiy ahamiyatga egadir. Ayniqsa, sharq klassik astronomiyasining nazariy va amaliy masalalarini o'zida mujassamlashtirgan shoh asar Ulug'bekning "Ziji jadidi Kuragoniy" ("Kuragoniyaning yangi astronomik jadvali") nomli kitobidir. Bu asar 1437 yil yozilib tugallangan bo'lsa ham, unga

muallif umrining oxiriga qadar bajargan ilmiy tadqiqot natijasida tuzatishlar va qo'shimchalar kiritib bordi.

“Ziji Jadidi Kuragoniy”dan tashqari Ulug'bek “Tarixi arbah ulus” (“To'rt ulus tarixi”) nomli tarixiy asar hamda musiqa ilmiga oid 5 ta risola yozgan. Ulug'bekning ilmiy faoliyatiga G'iyosiddin Jamshid, Miram CHalabiy, Davlatshoh Samarqandiy, Alisher Navoiylar yuksak baho berganlar. SHuningdek, prezidentimiz Mirzo Ulug'bek tavalludiga bag'ishlangan tantanali marosimda (1994 yil 15 oktyabr') so'zlagan nutqida quyidagi so'zlarni iftixor bilan qayd etgan edi: “Taqqdir bu ulug' zotning zimmasiga behad ulkan va mashaqqatli vazifalar yukladi. Buyuk sarkarda Amir Temur bunyod etgan saltanatning vorisi bo'lishdek mislsiz sinov aynan unga nasib etdi”².

Mirzo Ulug'bek o'zining cheksiz aql-idroki, ilmiy salohiyati, odilona siyosati bilan qariyb qirq yil mobaynida Movarounnahrning donishmand hukmdori bo'lib, xalqimizning azaliy orzusi - tinchlik, totuvlik, har tomonlama taraqqiyotni qaror to'tirish yo'lida mislsiz shijoat va matonat ko'rsatdi. Uning umumbashariy qadriyatlarga qo'shgan hissasi beqiyos bo'lib, bugungi kunda ham ulkan ahamiyat kasb etmoqda va O'zbekistonning xalqaro obro'sini oshirish yo'lida katta xizmat qilmoqda.

“Ulug'bek tavalludining 600 yilligi, deydi I.A.Karimov, dunyoning ko'plab mamlakatlarida nishonlanayotgani biz uchun g'oyat quvonchlidir. Biz bu voqealarni dunyo afkor ommasining Mirzo Ulug'bekka va uni voyaga yetkazgan yurtga, xalqqa va uning tarixiga samimiy hurmat deb bilamiz”. XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asr O'rta Osiyo xalqlari adabiyoti taraqqiyotida yangi va juda sermahsul davr bo'ldi.

Bu davrda zamonasining istehdodli va yetuk shoirlari va adiblari Kutb, Sayfi Saroiy, Haydar Xorazmiy, Durbek., Amiriy, Yaqiniy, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy va boshqalar yashab ijod qiladilar.

Durbek tomonidan qayta ishlangan “Yusuf va Zulayho” dostoni, toshkentlik shoir Atoiyning devoni, Lutfiyning “Zafarnoma” va “Gul va Navro'z” asarlari shu davr badiiy adabiyotining durdonalaridir. Bu davr o'zbek shoirlari ichida Lutfiy (1366-1465) alohida o'rin tutadi. Navoiyga qadar o'zbek shehriyatida Lutfiy darajasiga yetadigan shoir o'tmagan. U birgina o'zbek tilida asarlar yaratib, qolmadi, balki tojik tilida ham qasidalar yozdi. Lutfiy ijodida haqiqat va adolatni sevish, shafqat va muruvvatli bo'lishni targ'ib qilish, ilm va sanhatni sevish kabi fikrlar katta joy olgan. Bu davr badiiy adabiyoti taraqqiyotida buyuk tojik shoiri Abdurahmon Jomiy (1414-1492), hamda o'zbek klassik adabiy tilining asoschisi va o'zbek klassik adabiyotining sardori Alisher Navoiylarning hissasi kattadir. Lirik sohasida Sahdiy, Xofiz va Kamol Xujandiy qatorida turgan Jomiy juda sermahsul olim va istehdodli adib edi. U 99 ta kitob yozib XV asr adabiyotida mavjud bo'lgan deyarli barcha janrlarda asarlar yaratdi. Jomiyning eng yirik va mashhur asari yettita katta dostonidan iborat. “Haft avron” “Bahoriston” va “Xirodnomai Iskandar” nomli falsafiy didaktik doston va axloqiy-tahlim asarlar bo'lib, “Xirodnomasida” u zulm, ochko'zlik qizg'anchilikni qoralaydi.

Abdurahmon Jomiy XV asr mutafakkiri bo'lib, uning ijodiy faoliyati qardosh tojik halqining madaniyati taraqqiyotidagina emas, balki butun O'rta SHarq madaniy hayotida katta voqea bo'ldi. Ayni 'aytda, temuriylar, xususan, Xusayn Boyqaro davrida turkga rag'bat kuchaydi. Bunda shubhasiz, Alisher Navoiyning xizmati buyuk bo'ldi. Adabiy davrlar, anjumanlar Navoiy ishtirokisiz o'tmas edi. Nizomiddin Alisher ibn G'iyosiddin Bahodir Navoiy shoir, mutafakkir, davlat arbobi, o'zbek adabiy tili va mumtoz adabiyotining asoschisi bo'lib, u 1441 yil 9 fevralda Xirot shahrida tug'ilib, 1501 yil 3 yanvarda vafot etgan. 15 yoshligidayoq shoir sifatida tanilgan. Xirot, Mashhad, Samarqandda o'qigan Abdurahmon Jomiydan tasavvuf tahlimoti bo'yicha tahlim olgan. Alisher Navoiy (1472-1487 yillarda Xusayn Boyqaroning vaziri) davlatni mustahkamlash, adolat va xalq farovonligi uchun kurashadi, mamlakat obodonchiligiga katta ahamiyat berib, ilm va sanhat ahliga homiylik qiladi. Navoiy til, adabiyot, musiqa, tarix, falsafa, astronomiya, tarbiya negizlari sohasida ko'plab ilmiy asarlar yozdi. “Xamsa”, “Xazoyin ul-maoniy”, “Mahbub ul-kulub”, “Lison ut-tayr” shular jumlasidandir.

Navoiy asarlarida muhabbat va sadoqat, do'stlik va qardoshlik, adolat va tinchlik zo'r mahorat bilan tarannum etiladi.

Navoiy tarixni bilishning ahamiyati ayniqsa katta ekanini aytib, odamlarni tarixni o'rganishga dahvat etdi. Uning fikricha tarix fani shohlar, hukmdorlarning tarjimai holini emas, balki mamlakat tarixini o'rganish kerak, qanday sabablar mamlakatni halokatga, qanday ishlar xalqqa farog'at va baxt keltirishini tarix ko'rsatib berishi lozim deb hisobladi.

Bu borada hozirgi kunda tarix fanini o'rganishni davlat ahamiyati darajasiga ko'tarilayotganligi, Vatan tarixini o'qitish va o'rganishga prezidentimiz I.A.Karimovning g'oyat katta e'tibor berib, "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" degani bejiz emas, albatta.

XV asrda Movarounnahr va Xurosonda tarix fani ham keng rivoj to'di. Hofizi Abru, Abdurazzoq Samarqandiy, Mirxond, Xondamir, Izfizoriy, Davlatshoh va boshqa ko'plab tarixchilar temuriylar davlatining ikki 'oytaxti Samarqand va Hirotida yashab ijod etdilar.

SHunday qilib, XV asrda Movarounnahrning 'oytaxti Samarqandda ilm-fan sohasidagi buyuk kashfiyotlar, noyob asarlar bilan ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan hissalar salmog'iga qarab fikr yuritilsa, Ulug'bek astronomiya maktabini o'z davrining akademiyasi deyish mumkin. Ulug'bek tevaragiga 100 dan ortiq olimni o'z bag'rida yetishtirgan, ismi jahonga mashhur Samarqand rasadxonasi shu vazifani o'tagan. "Samarqand akademiyasi" dastavval bundan 225 yil muqaddam mashhur frantsuz faylasuf, yozuvchi va tarixchi olimi Val'ter (1694-1773) tomonidan ehtirol etilgan. Bu 1010 yilda Xorazmning qadimiy 'oytaxti Gurganchda tashkil etilgan o'ziga xos akademiya "Donishmandlar uyi" ("Mahmun akademiyasi")dan keyingi ikkinchi "Dor ul-ilm" edi. Bu dor ul- ilmning poydevori bo'lgan Ulug'bekning astronomiya maktabi o'rta asrlar musulmon SHarqi va endigina uyg'onayotgan Yevropa astronomiyasining rivojiga katta tahsir ko'rsatdi.

SHuning uchun Amir Temur va temuriylar davridagi moddiy va ma'naviy yuksalishning ahamiyatini inobatga olib ko'pchilik tarixchi va adabiyotchi olimlar bu jarayon ikkinchi renesans (uyg'onish) davri deb talqin etmoqdalar.

I.A.Karimov "Tafakkur" jurnali muharriri savollariga javob berar ekan, IX-XV asrlarda mahrifatli dunyo yurtimiz donishmandlarini qanchalik izzat-ikrom qilgan bo'lsa, XXI asrni biz xalqimiz, millatimizga ana shu ehtiromni qaytadan qo'lga kiritishimiz kerak, deb ulkan vazifani olg'a surdi. Bu boradagi

astoydil harakat, intilish Mustaqil O'zbekiston uchun uchinchi uyg'onish (renesans)ga aylansa ajab emas. Xulosa qilib, shuni aytishimiz mumkinki, istiqlol tufayli biz yurtimizning ulug' farzandlari, buyuk siymolarining nomlarini fahru iftihor bilan tilga olishga, tavalludlarini umumxalq tantanasi sifatida keng nishonlashga, ularning asarlarini ona tilimizda cho' etib, xalqimiz ma'naviy kamolotini tahminlash uchun qulay imkoniyatlarga ega bo'lmoqdamiz. SHuningdek, mustaqillik sobiq ijtimoiy-siyosiy tuzum hukmronlik qilgan yillardagi xalqimiz tarixiga, madaniyatiga biryoqlama yondoshishdek ijtimoiy illatdan ongimizni holi etdi.

Mustaqillik bizning milliy, ma'naviy ildizlarimiz naqadar teran, naqadar baquvvat ekanligini ochiq-oydin ko'rsatib berdi. "Biz - deydi I.Karimov, - boshqalarni kamsitish niyatidan yiroqmiz. Ammo bugungi ayrim saltanatlar ahli qabila-qabila bo'lib yashagan zamonlarda bizning muborak zaminimizda ilmu fan barq urib yashagan, tabiiy ilmlar, xususan, tibbiyot, matematika, astronomiya kabi fanlar madrasalarda o'qitilgan, ilmiy akademiyalar tashkil etilib, mag'rib-u mashriqqa nom taratganini eslasak va bundan har qancha g'ururlansak arziydi".

Respublikamizda islohotlarning birinchi bosqichida ko'rsatib o'tilganidek, "... Xalqlarning ma'naviy - ruhiy holatini tiklash" uni yangilash, o'tmish avlodlarimizdan meros bo'lib qolgan madaniy boyligimizga ijodiy yondoshish, milliy xususiyatlarimizga mos keladigan zamonaviy rang-baranglikni, milliy g'oyani joriy qilish mustaqilligimizning va zamonamizning talabidir.

Bizga ma'lum ki, boy madaniy meros o'z-o'zidan yuzaga kelgan emas. U o'tmish jahon sivilizatsiyasi madaniyatining ko'plab nafis qirralarini o'zida mujassamlashtira olganini tarixdan bilamiz.

Mamlakatimizda, o'tmish avlodlarimizning madaniy merosini asos qilib olgan holda, ma'naviy yangilanish sari sobitqadamlik bilan borayotganligimizning boisi ham shunda. Bugungi kunda buyuk davltimiz poydevorini qurishda al-Beruniy, Ibn Sino, Muxammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, al-Buxoriy, at-Termiziy, Amir Temur, Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi bobolarimizning bebaho merosi katta ahamiyatga egadir. SHuningdek, ularning g'oyalari, qarashlari mustaqil O'zbekistonning milliy mafkurasini shakllantirishda beqiyos muhimdir. CHunki yurtboshimiz tahkidlaganidek: "mana shu o'zimiz tanlagan mustaqil taraqqiyot yo'lida aniq marralarni ko'zlab yashashimizda, pirovard maqsadimiz bo'lgan ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot qurish borasidagi intilishlarimizda biz uchun ruhiy ma'naviy kuch-quvvat manbai, ilmiy asos bu milliy g'oya, milliy mafkura bo'lishi shart".

prezidentimiz "Milliy mafkura millatni birlashtiruvchi bayroqdir" - deb bekorga aytmagan. SHunday qilib, Islom Karimov aytganidek," Milliy mafkuramiz, birinchi navbatda xalqimizning azaliy anhanalariga, udumlariga, tiliga, diniga, ruhiyatiga, bir so'z bilan aytganda, milliy qadriyatlarimizga, xalqimizning dunyoqarashi va tafakkuriga asoslanib, shu bilan zamonaviy, umumbashariy, umuminsoniy yutuqlardan oziqlangan, ularni o'zida qamrab olgan holda yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq manfaati va farovonligi yo'lida xizmat qilmog'i darkor". SHu bois ushbu mavzuni o'rganish yoshlarimizda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, soxta g'oyalarga ergashib ketmaslikda katta ahamiyatga egadir.

NAZORAT SAVOLLARI

-
1. Prezidentimiz I.A.Karimov o'zbek tarixchilari oldiga o'zbek davlatchilari oldiga o'zbek davlatchiligi borasida qanday vazifalarni qo'ydi.
 2. Davlatchilik tushunchasi nima?
 3. O'zbek davlatchiligi necha bosqichga ega?
 4. Ilk davlatchiligimiz xaqida nima bilasiz?
 5. Feodalizm davridagi davlatchiligimiz bering.
 6. Mustamlakachilik va sho'rolar davrida davlatchiligimiz taqdiri nima bo'ldi?
 7. Mustaqil davlatchiligimiz qachon va qanday tiklani qanday rivojlanmoqda?
 8. Markaziy Osiyodagi ilk uyg'onish davri qaysi davrlarni o'z ichiga oladi?
 9. "Bayt ul-hikma" madrasasida tahlim olgan Markaziy Osiyodagi olimlarni ayting.
 10. Markaziy Osiyolik allomalarning davlat to'g'risidagi qaysi asarlarini bilasiz?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T. O'zbekiston. 1998.
 2. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T.O'zbekiston.1994.
 3. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin.. Tafakkur jurnali. 1998y.
 4. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T.O'zbekiston. 1998.
 5. Abu Rayxon beruniy. Qadimgi ajdodlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. 1-jild. T.Fan. 1968.
 6. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. T. 1993.
 7. Asqarov A. O'zbekiston tarixi. (Eng qadimgi davrlardan milrdning Y asrigacha)
 8. T. O'qituvchi. 1994.
 9. G'ulomov Ya. Qadimgi madaniyatimiz izlaridan. T.Fan. 1960.
Narshaxiy M. Buxoro tarixi. Meros turkumi. T.Kamalak. 1991. Bidaev M. Sirli Kushon saltanati. T.Fan. 1990.
-

10. SHoniyozov K. Kang davlati va kangliklar. T.Fan. 1990.
 11. Qilichev T. Qo'xna qalhalari diyori. T.Fan. 1993. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. T.: O'zbekiston. 1993.
 12. Buyuk siymolar, allomalar. "Meros". 1995.
 13. T.J.Tulenov. Qadriyatlar falsafasi. O'zbekiston. 1998y.
 14. M.Xayrullaev. O'rta Osiyoda ilk uyg'onish davri madaniyati. Fan. 1994.
 15. F.Sulaymonova. SHarq va G'arb. O'zbekiston. 1997.
 16. O'zbekiston xalqlari tarixi. 2-Jild. T.Fan. 1994 y.
-

4-MA'RUZA:

Amir Temur va temuriylar davrida o'zbek davlatchiligining yuksalishi. Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot

REJA:

1. Chigizxonning Xorazmshohlar davlatiga yurishi.
2. Amur Temurning siyosiy kurash maydoniga kirib kelishi.
3. Amur Temurning harbiy yurishlari.
4. Temuriyzodalar o'rtasidagi kurash. Temuriylar davlatining inqirozgi yuz tutishi, va uning sabablari.

TAYANCH IBORALAR

Temur Malik, Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi jasorati. Maxmud Torobiy qo'zgoni, Soxibqiron, O'tror, tuzuklar, tuman, ulufa, amr, tarxon, suyurg'ol, Oq O'rda, Oltin O'rda, SHarafiddin ali Yazdiy, "Zafarnoma", tuman, xazora, xo'shun, ayl.

Davlatchiligimiz tarixida katta rol o'ynagan davlatlardan yana biri Xorazmshohlar davlatidir. Xorazm Somoniylar davrida ularga tobe edi. X asr oxiri va XI asrning boshlariga kelib, Xorazm hokimi Mahmud va uning o'g'li Ali Somoniylar davlati tugaganidan so'ng mustaqil davlat tuzishga harakat qilib qo'rdilar. Lekin Movarounnahrda Qoraxoniylar, Xurosondagi G'aznaviylar davlati oldida Xorazm davlati juda kuchsiz bo'lib, ko'p hollarda Mahmud G'aznaviy va uning o'g'li Mahsudga qaram edi. G'aznaviylar davlatining inqirozi va Xurosonda Saljuqiylarning hukmronligi o'rnatilgandan keyin Xorazm davlati dastlabki yillarda mustaqil siyosat olib borishga harakat qilgan bo'lsa-da, tez orada Saljuqiylarga qaram davlatga aylandi. Xorazmning mustaqil davlat sifatida shakllanishida ko'p xizmat qilgan hukmdor Qutbiddin Muhammad Otsiz (1127-1156) edi. Saljuqiy Sulton Malikshox davrida Xorazmda hukmdor bo'lgan Anushteginning nabirasi Otsiz o'zi tobe bo'lgan Saljuqiy sultonlarning har bir xatosidan ustalik bilan foydalandi. Ayyor, di'lomat va mohir sarkarda bo'lgan Otsiz mustaqil tashqi siyosat olib bordi. U Xorazm yerlarini ancha kengaytirib, Sirdaryoning quyi oqimidagi yerlarni, Mangishloqni bosib oladi. SHundan so'ng u bir necha bor (1138, 1141-1142, 1147-1148 yy) Sulton Sanjarga qarshi isyon qildi va mag'lubiyatga uchrab Saljuqiylarga butunlay tobe bo'lib qoldi. Lekin shunga qaramasdan u Xorazmning mustaqilligi uchun mustahkam asos yarata oldi. Sulton Sanjarning o'limidan so'ng (1157y) Saljuqiylar davlati deyarli yo'q bo'ldi va Xorazmni mustaqil davlat sifatida siyosat olib borishi uchun keng yo'l ochildi. Bunday siyosiy vaziyatda, shubxasiz, Xorazmning hukmronlik doirasi kengaytirilib, uning mustaqilligi yanada mustahkamlandi. Xorazm davlati ayniqsa Otsizning nabirasi Takash davrida juda kengayadi. 1187-1193 yillarda u Nisho'ur, Ray va Marv shaharlarini bosib oladi. 1194 yilda esa saljuqiylar sultoni Tugrulga qaqshatqich zarba berib, Eronni Xorazmga kiritdi. Oradan bir yil o'tgach Takash xalifa askarlariga zarba berib, Iroqqa bostirib kirishga muvaffaq bo'ladi. SHunday qilib, o'rta asrlarning istehdodi davlat arboblardan hisoblangan Takash Old va O'rta Osiyoda

Xorazmshoxlar davlatidek yirik va qudratli feodal hokimligini bar' o etadi. Uning zamonida Xorazm davlatining hududlari ikki barobar kengaydi. Uning shimoli-g'arbiy va g'arbiy chegarasi Orol va Kas'iy dengizi sohillaridan anubi-garbda Iroqqa qadar borar, janubi-sharqiy hududlarda G'azna viloyatidan, shimoliy-sharqiy chegarasi esa Yettisuv va dashti Qi'choqdan o'tar edi.

Musulmon SHarqidagi bu ulkan davlatning 'oytaxti Urganch shahri edi. Xorazmshox saroyida 27 hukmdor va ularning vakilari itoat kamarini bog'lab, oltin nog'ora chalar va bu buyuk davlatning tojdorini "Iskandari Soniy" ("Ikkinchi Iskandar") deb atardilar. Ammo bu dabdabali hokimiyat o'rta asrlardagi barcha feodal davlatlarga xos xususiyatga ega edi. Ichki nizo, boshboshdoqlik va fuqarolarning noroziligi kuchayib, mamlakat siyosiy hayoti inqirozga yuz tutgan bir 'aytda Xorazmshoxlar davlati jangari mang'ul qabilalarining Chingizxon boshliq bosqiniga duchor bo'ladi.

XIII asr boshlaridayoq CHig'atoy tasarrufiga berilgan Movarounnahr, Yettisuv va SHarqiy Turkistonda CHig'atoy ulusi tashkil to'ib, uning 'oytaxti Beshbaliq shahri edi. Bu yerda xazinachi va si'ohlari bor edi. Bu feodal davlat XIV asrning 40-yillariga qadar yashaydi.

Mangullar katta va madaniy viloyatlarni idora qilishda mutlaqo tajribaga ega emas edilar. Buning ustiga bunday viloyatlarni boshqara oladigan mahmurlar ham yo'q edi. Chingizxon va xonzodalar, mungul harbiy zodagonlari istilo qilingan mamlakatlardan asosan o'l'on undirib, muttasil daromad olib turishga qiziqardilar. SHuning uchun ham sertarmoq va boy xo'jalikka ega bo'lgan Movarounnahr viloyatlarini va hunarmandchilik shaharlarini boshqarishda davlatni idora qilish anhanalariga ega bo'lmagan mungul hoqonlari, shuningdek, CHig'atoy ham o'ziga bo'ysundirilgan madaniyroq xalqlarning zodagon tabaqa vakillari xizmatidan foydalanadi.

Movarounnahrni bevosita idora etish ishlari xali O'rta Osiyo zabt etilmasdan ilgari Chingizxon xuzurida xizmat qilgan xorazmlik savdogar Mahmud Yalavochga beriladi. U Xujand shahrini o'ziga 'oytaxt qilib oladi va shu yerda turib Movarounnahrni idora qila boshlaydi. Bu yerda Vatanimizda mashhur allomalarning butun bir avlodi yashab ijod qildilar, mehmorchilik, sanhat va musiqa gullab-yashnadi, bu haqda boshqa mavzularda so'z yuritamiz.

SHunday qilib, mungullarning 150 yillik hukmronligi davrida mustaqil davlatchiligimizga barham berildi. Davlatchiligimiz tarixida muhim rol' o'ynagan, davlat tuzumi va boshqarish tizimining takomillashuvida Temur davlati alohida ahamiyat kasb etadi.

Avvalo, Amir Temur shaxsi xususida ikki og'iz so'z.

Buyuk tarixiy shaxs, shavkatli harbiy sarkarda, adolatli davlat arbobi Amir Temur nasl-nasabi xususida turli xil fikrlar mavjud. Bu esa mavzuga adolat nuqtai nazaridan yondoshishni taqozo etadi.

Muhtaram prezidentimiz Islom Karimovning "Amir Temur shaxsini idrok etish - tarixni idrok etish demakdir.

Amir Temurni anglash - o'zligimizni anglash demakdir.

Amir Temurni ulug'lash - tarix qahriga chuqur ildiz otgan tomirlarimizga, madaniyatimizga. qudratimizga asoslanib, buyuk kelajagimizga ishonchimizni mustahkamlash demakdir", - degan so'zlari o'tmishmizdagi tarixiy shaxslarni, allomalarni naqadar ulug'lanishini har birimiz uchun farz qilib qo'yganlaridir.

Sohibqiron Amir Temur va temuriylar davrida yashab, yetarli darajada bilim olishga muyassar bo'lgan tarixchi olim Ibn Arabshoh asarlaridagi manbaalar Amir Temur tarixini o'rganuvchi ayrim g'anim tarixchilarga dastak bo'lib, haqiqat esa, ilm e'tibordan chetga qolib keldi.

Ibn Arabshohning "Ajoib al-makdur fi tarixi Taymur" asarida, "Temur va uning otasi hayqiroq cho'onlardan bo'lib, na aqliyu na dini bo'lmagan avom kishilar toifasidan ekanlar. Yana aytadilarki, u mulozim odamlardan, 'ast tabaqa tamballardan bo'lgan" degan fikrlari haqiqatdan olisda turibdi.

Ibn Arabshohning shaxsiyatiga tegmagan holda shuni aytish mumkinki, asardagi manbaalarning ko'pchiligi biron bir tarixiy Ma'lumotlarga asoslanmagan qandaydir g'animlarning aytgan-deganlari asos qilib olingan. Mojar olimi Herman Vamberi o'zining "Buxoro yohud Movarounnahr tarixi" risolasida "Temurning otasi, Tarag'ay barlos urug'ining boshlig'i edi. SHu munosabat bilan Amir Qozog'ondan Kesh va Naxshab viloyatlarini oldi, deb yozadi. H.Vamberining fikriga qo'shilish bilan quyidagilarni qo'shimcha qilish mumkin: birinchidan, 1334 yilda Amir Temurning onalari Tegin Begim Mohni Sohibqironning otalari Amir Muhammad Tarag'ay o'z nikohiga olgan. SHu nikohdan Amir Temur 1336 yilning 9 a'relida SHahrisabzning Xo'ja Ilg'or qishlog'ida tavallud to'gan. Amir Temurning onalari Tegin Begim Moh Buxoroning taniqli olimi Sadr ash-shariha Ubaydulloh ibn Toj ash-shariha Mahmud ibn Ahmad al-Mahbubiy al-Buxoriyning qizi bo'lganlar. Avvalo shuni eslatish o'rinliki, shariatning eng mo'tabar zoti, ulug'i va tojdori o'z qizini Buxoroi sharifday azim shahardan Keshga "aqlsiz, dinsiz cho''onga" berishi mutlaqo aql bovar qilmaydigan fikrdir. Fikrimizcha, Ibn Arabshoh Amir Temurga zamondosh bo'lsa-da, uning dalillari haqli ehtirozga munosib. Ayniqsa, u davrda "teng tengi bilan, tezak qo'i bilan" aqida kuchli hukm surgan zamonda Amir Temurning onalari Tegin Begim Moh ekanligi tarixiy haqiqat, Ibn Arabshohning "aytishlaricha", "yana aytadilarki" so'zlarining o'zi uning dalillarini qandaydir mish-mish, cho''chakli asoslar qatoriga qo'shishga olib keladi.

Fikrimizcha, Amir Temurning otalarining o'zi Amir Muhammad Tarag'ay e'tiborli amaldorlardan, uning xonadoni esa o'z davrining o'qimishli kishilardan iborat bo'lgan. Ibn Arabshoh Amir Temur "Mening buvim falonchi, folbin va qohinlaridan edi", - degan fikrini keltiradi. (1,72-bet). Olimning yana bir fikri, "U yoshligidan aqlli, ochiq ko'ngil jurhatli, qathiy kuchli va qobiliyatli bo'lib o'sib, tengqurlari - vazirlarning o'g'illari bilan suhbat qurib va amirlarning o'g'illaridan o'ziga o'xshashlari bilan vaqtini o'tkazardi" degan fikrlarining o'zi Amir Temurning cho''on bo'lmay, balki din-ehtiqodli, e'tiborli tabaqadan ekanligini asoslaydi.

H.Vamberining tahkidlashicha, "Temur o'zi tiniq va ochiq turk shevasida yozar edi". Olimning bu fikri haqiqatga yaqinligi shundaki, avvalo - ulkan mamlakatni boshqargan shaxsning savodsiz bo'lishi kamdan-kam bir hodisadir. Qolaversa, o'qimishli ota-ona o'z farzandini, eng muhimi o'z vorisini savodsiz qoldirishi mumkin emasligi hammaga ayon. Xalqimizning udumlarini e'tiborsiz qoldirmaydigan har bir kishi H.Vamberining fikrlarini manbaa sifatida muborak o'rniga qo'yadi.

Mojar olimining yana bir qimmatli fikri Amir Temurni vahshiy, marhamatsiz, zolim deb baholab yurgan barcha olimlarga o'rinli javob bo'lishi mumkin. Olim o'zining risolasida "Temurni CHingiz ila bir safga qo'yib, uni vahshiy, zolim,, qaroqchi deb atagan kishilarning fikrlari ikki marotaba xatodir", - deb yozishi ajdodlarimiz tarixini holisona baholanishiga ishoratdir.

Amir Temur ajdodlari haqida fikr yuritadigan bo'lsak, ulug' amirlar, nomdor sultonlar, ulug' hoqonlar, bahodirlar xonadoniga mansub kishilar haqida so'z yuritishga to'g'ri keladi. Mavzuimizning asosiy qismi "Amir Temur davlatining tashkil topishi va Movarounnahr yerlarini siyosiy jihatdan birlashtirishdagi roli" mavzusiga kelsak, Amir Temur hokimiyat te'asiga 1370 yilda Amir Xusaynni yenggandan keyin chiqdi. Amir Temur bilan Amir Xusayn o'rtasidagi siyosiy hokimiyat uchun kurash Amir Temur uchun juda og'ir, mashaqqatli kechdi. Buning bir qator sabablari bor.

Birinchidan, Amir Temur avvalo hali yetarli kuch - qudratga ega bo'lmagan holda mo'g'ullarga qarshi kurash olib bordi.

Ikkinchidan, Movarounnahr mo'g'ullarning siyosiy tizimi bo'yicha ko'rinishdan ulkan ulus ko'rinsa-da, amalda mayda bekliklarga bo'lib tashlangandi. Bu siyosiy boshqaruv sistemasi mo'g'ullarga qo'l kelardi.

Uchinchidan, bu 'orokanda mamlakatni birlashtirdi, uni umumiy dushmanga qarshi kurashga barcha kuchlarni o'zining ketidan ergashtirdi.

To'rtinchidan, Amir Temur uchun hokimiyatni qo'lga kiritishning murakkab tomoni yana shunda bo'lganki, Amir Xusaynning singlisi Uljoy Turkon og'o Amir Temurga suyukli xotin bo'lgan.

Beshinchidan, Amir Temur xotini hurmati yuzasidan hokimiyatni sheriklikda boshqarishga rozi bo'lsa-da, Amir Xusayn unga rozi emas edi. Ikki o'rtada bir necha bor katta-kichik janglar kelib chiqdi, Amir Xusaynning mag'lubiyati bilan yakunlandi.

Amir Xusayn mag'lub etilgandan so'ng, Movarounnahrda Amir Temur uchun kuchli raqib qolmagan edi. O'sha yili Balxda qo'shin boshliqlari quriltoida qadimgi odatga ko'ra Amir Temur oq kigizga o'tkazilib, yuqori ko'tariladi. Amir Temurning 'iri Sayid Baraka duoi fotiha qilgach, u Movarounnahr hukmdori - ulug' amiri deb e'lon qilinadi.

SHunday qilib, Amir Temur davlati tashkil to'adi, lekin siyosiy jihatdan 'arokanda, mayda, o'zboshimcha beklarni tugatib, o'rnida qudratli markazlashgan davlat bar'o qilish kerak edi.

Avvalo, davlatning yuragi hisoblangan markaz shahar qilib Samarqand tanlandi. Samarqandning qalha devorlari mustahkamlanib, muhtasham saroy va qasrlar bunyod qilina boshlandi. Ular mo'g'ullar istilosidan keyingi 150 yil davomida vayron etilgan qadimgi So'g'd 'oytaxti o'rnida boshlangan dastlabki yirik inshootlar edi. SHuningdek, uzluksiz talonchiliklar, o'zaro nizolar oqibatida holdan toygan, boshboshdoqlik avjiga mingan mamlakatda qat'iy qonunlar va tartib intizom joriy qilindi. Bu albatta, Movarounnahrda va uning atrofiga Amir Temurning obro'-e'tiborining ortishiga olib keldi.

Amir Temur dastlab o'ziga mustahkam tayanch bar'o qilish maqsadida barloslar qabilasidan mahsus qo'shin tashkil qildi. Qo'shinlarga va barlos qabilasiga katta imtiyoz berildi. Kuchli qo'shin tashkil qilib olgandan so'ng o'z davlat chegaralarini kengaytirishga kirishdi. Avvaliga Amudaryo va Sirdaryo oralig'idagi yerlarni, shuningdek Farg'ona va SHosh viloyatlarini o'z tasarrufiga oladi.

Amir Temur davlati bilan Oltin O'rda xonligi oralig'ida bu davrga kelib mustaqil bo'lib olgan Xorazm yerlarida Qo'ng'iro't so'fiylarining davlati qaror to'adi. Qadimdan Movarounnahr bilan ko'p jihatlaridan umumiy bo'lgan Xorazm mo'g'ullar davrida ikki qismga bo'linib, markazi Urganch shahri bo'lgan SHimoliy Xorazm Oltin O'rdaga, markazi Kat qalhasi bo'lgan Janubiy Xorazm CHig'atoy ulusiga qaragan. XIV asrning 60-yillari oxirida Qo'ng'iro't so'fiylari Kat va Xiva shaharlarini qo'lga kiritib, SHimoliy Xorazm bilan Janubiy Xorazm yerlarini birlashtiradilar. Ayni 'aytda Xorazm iqtisodiy va siyosiy jihatdan Oltin O'rdaga bog'liq edi. Amir Temur esa butun Xorazmni CHig'atoy ulusining ajralmas qismi deb hisoblar edi. SHuning uchun Xorazmni qo'lga kiritish maqsadida 1372, 1373, 1375, 1379, 1388 yillar davomida besh marta yurish qilib, butunlay qo'lga kiritadi. Oxirgi yurishida Urgench shahri vayron etildi, shahar aholisi Samarqandga ko'chirib yuborildi.

SHunday qilib, Movarounnahr va Xorazmda tarqoq va o'zaro nizoli bekliliklar barham to'di. Sirdaryo bo'ylaridan Orol dengizigacha bo'lgan yerlarda yashovchi xalqlar yagona Amir Temur davlati tasarrufiga o'tdi.

1389 yilda Amir Temur ikkinchi bir yo'nalishda urush harakatlari olib bordi. Bu yurish Jo'ji ulusida qad ko'targan Oltin O'rda davlatiga qarshi qaratildi. Yurishga asosli sabablar bor edi. 1379 yilda Amir Temurning yordamida xonzodalardan To'xtamish o'g'lon Oq O'rda taxtini egallab, Oltin O'rdani ham unga qo'shib olish, Jo'ji ulusining har ikki qismini birlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. To'xtamishxon ulkan g'alabalardan sarmast bo'lib, Amir Temurning xizmatlarini tezda unutdi. Hatto 1387-1388 yillarda Amir Temurning harbiy yurishlarda ekanligidan foydalanib, Movarounnahrda ham hujum qildi.

Amir Temur Samara bilan CHisto'ol' oralig'ida joylashgan Kunduzcha degan joyda 1391 yilning 18 iyunida, Kavkazdagi Terek vodiysida 1395 yilning 16-17 a'relida bo'lib o'tgan janglar oqibatida To'xtamishxonni batamom tor-mor qilib tashladi. CHEkingan To'xtamishxonni tahqib qilib, Rusning ichkarisidagi shaharlarga borgani, Moskvani ham olganligi haqida manbaalar bor. Masalan, SHarofuddin Ali Yazdiy o'zining "Zafarnoma"sida shunday deb yozadi - "Sohibqiron Moskvaga sorikim, rusning shaharlaridin erdi, tavajjuh qildi. Ada yetkonda

nursatishhor cheriki ul viloyatni (shahar va atrofi) chobtilar va andagi hokimlarni tobeh qildi” (179-bet). Qaytishda Ryazan’ knyazligi orqali o’tib, quyi Volga va uning Markaziy shaharlari Saroy Botu va Xojitarxon (Astraxan) shaharlarini egallaydi.

To’xtamishxon ustidan qozonilgan g’alaba faqatgina O’rta Osiyo uchun emas, balki butun SHarqiy Yevropa, shuningdek, Rus knyazliklari uchun ham buyuk ahamiyat kasb etdi. Yana muhim bir natija, SHarq mamlakatlarining Oltin O’rda orqali o’tadigan shimoliy tarmoq savdo yo’li barham to’ib, Movarounnahr shaharlari: O’ror, Toshkent, Samarqand va Buxoro orqali Balx, Xirot va Sultoniya tomon yo’naltirildi.

Amir Temur hali To’xtamishxonni yengmasdan ilgari Xuroson va Eronni fath etishni boshlagan edi. Endilikda Amir Temur Eron, Iroq, Suriya, Kichik Osiyo yarim oroli, Hindistonni butunlay bo’ysundirish siyosatini amalga oshirishga kirishdi. Butun Xurosonni Amir Temur o’z davlatining tasarrufiga o’tkazadi. Amir Temur Eronga 1385-1387 yillarda “uch yillik” 1392-1396 yillarda

“besh yillik” va 1399-1404 yillarda “etti yillik” yurish nomlari bilan mashhur yurishlar qiladi. Bu yurishlar oqibatida Amir Temur davlati xududi janubda Fors ko’rfazi va Arab dengizigacha, G’arbda Qora dengiz va O’rta dengiz sohillarigacha kengaytirildi. Eronga yurishlar oralig’ida Amir Temur 1398-1399 yillarda Hindistonga yurish qildi va uni zabt etdi. Amerikalik olim Richard Nel’sonning iborasi bilan aytganla, “Uning farosati va iymoni shunchalik kuchli ediki, hatto u yurishlarining eng zarur nuqtalarida to’xtatib qo’yib, undan ham yangiroq yurishlarni boshlab qo’yar edi, lekin shu vaqtda avval qo’yilgan maqsadlarni esdan chiqarmasdi”.

Amir Temur harbiy tarixini yanada shon-shuxratlarga bezagan hodisa Anqara jangidir. Jang 1402 yilning 20 iyulida sodir bo’ldi. Amir Temurning Rumga yurishi sulton Boyazid Yildirimning mag’lubiyati bilan tugadi.

1404 yilning oxirlarida hamma Ma’lumotlar olinib bo’lgandan keyin, katta tayyorgarlik ko’rilib 1405 yilning 3 martida Xitoyga yurish boshlashga qaror qilindi. 200 minglik qo’shin bilan 1404 yilning 27 noyabr’ kuni qo’shinlar Samarqanddan yurishga chiqadi. Qahraton qish, sovuqning qattiqligi va Amir Temurning betob bo’lib, og’irlashib qolganligi sababli O’trorda to’xtashga majbur bo’ladilar. 1405 yil 18 fevralda Amir Temur O’trorda vafot etadi. Amir Temur 35 yillik hukmronlik davrida Xitoydan Qora dengizning g’arbiy sohillarigacha, Orol dengizidan Fors qo’ltig’igacha Kichik Osiyo, Suriya, Misr va shimoli-g’arbda Quyi Volga, Don daryosi bo’ylari, shimoli-sharqdan Hindiston, Balxash ko’li va Ili daryosi bo’yidagi xalqlarning o’ziga bo’ysundirishga muvaffaq bo’ldi. Oltin O’rda yerlarining deyarli barcha yerlari Amir Temur davlatiga vassal bo’lib, qoldi. Mullo Salohiddin Toshkandiyning “Temurnoma”si (1908 yilda cho’ etilgan)dagi Ma’lumotlarga qaraganda, Amir Temur Moskvani qo’lga oladi, rus yerlarida yurishni davom ettirib, zulmat chizig’iga qadar yurishni davom ettiradi. Asarda Moskva Amir Temur davrida Turonga boj to’lab turganligi, undan keyin faqat SHohrux Mirzo vafotidan keyingi boj kelishi to’xtab qolganligi tahkidlanadi.

Amir Temur Movarounnahr yerlarini siyosiy jihatdan birlashtiribgina qolmay, balki Xitoydan Qora dengizning g’arbiy sohillarigacha, Arab dengizi va O’rta dengiz sohillaridan Moskva ichkarisidagi yerlarni bo’ysundirish bilan bu yerlar va yo’llar osoyishtaligini tahminladi. Qadimgi I’ak yo’li taklandi. Amir Temurning tarix oldidagi buyuk xizmatlari shundaki, bosib olgan, tobe etgan mamlakatlarida mayda bekliklar, knyazliklar, feodal tarqoqliklarga barham berdi. Yirik markazlashgan feodal davlatlarning tashkil topishini tezlashtirdi. Natijada Markaziy Osiyoda qudratli siyosiy davlatlarning shakllanishiga iqtisodiy-siyosiy shart-sharoitlarni yaratib berdi.

Masalaning ikkinchi qismi “Markazlashgan davlat boshqaruv tizimi, chuqur ijtimoiy-siyosiy islohotlar”.

Siyosiy hokimiyat ishini yuritadigan, boshqaradigan tashkilot davlat organi har bir mamlakat uchun ijtimoiy-siyosiy zaruriyatdir. Har qanday ijtimoiy tuzum yashashi va taraqqiy

etishi uchun o'z davlatiga tayanadi. Davlat esa, o'zining idora usuli orqali mamlakatdagi xalqning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini hol-baqudrat qondiradi, osoyishtaligini saqlaydi, hududiy dahlisizligini tahminlovchi mahmuriy organ hisoblanadi.

O'rta asr Osiyosi davlatlari tarixi xilma-xil va rang-barang taraqqiyot yo'lidan borib, ray, qaysar, fag'fur, xon, hoqon, shoh, shaxanshoh singari setakalluf laqablar bilan ataluvchi saltanat sohiblari odillik yo'li bilan adolatli hukmdorlik qilayotganliklarini ko'klarga ko'tarib ko'rsatishga harakat qilganlar.

Ayni bir vaqtda mamlakatni adolat bilan boshqargan, e'tiborga molik odil shohlar ham tarixda ko'p bo'lgan. Amir Temur hokimiyat te'asiga kelganidan keyin mamlakatda aql-idrok bilan boshqariladigan qudratli va adolatli, mustahkam qonun-qoidalarga asoslangan, intizomli davlat hokimiyatini bar'o etish choralari ko'rdi.

Amir Temur davlat boshqarishidagi uch tartibot, ya'ni mamlakatda xonlik masnadi, hokimiyatni boshqarish usuli va federativ shakli masalalarini talqin qilish bugungi kunda eng dolzarb mavzulardan biri bo'lib turibdi.

Uzoq yillar olib borilgan kurash oqibatida Movarounnahrda siyosiy hokimiyat Amir Temur qo'lga o'tgach, u o'zining butun bilimi va kuch-qudratini davlatni mustahkamlash, uning qudratini oshirish ishiga sarfladi. O'tmish davlatchilik tarixining yutug'i-yu, zavoli sabablarini o'rganib chiqdi. Halokat sabablaridan tegishli xulosa chiqardi.

Siyosiy hokimiyat boshqaruv tizimida sekin-asta tub islohotlarni amalga oshira boshladi. Islohotlarning mazmun-shakllarini uning tuzuklaridan ko'rish mumkin.

Avvalo, qisqacha tuzuk va tuzuklar to'g'risida tushuncha berib o'tsak. Tuzuk - tarixiy so'z tushunchasi bo'lib, to'ra va tuzuk shaklida ham kelishi mumkin. Mahnosi qonun-qoida, qonunlar, urf-odatlar to'lami, Nizom mahnomalarini anglatadi.

"Tuzuk" yozish odati qadim zamonlarga borib qadalladi. Masalan, eng qadimda, ya'ni miloddan avvalgi 2000 yilning oxirlari 1000 yilning boshlarida Turkiston zaminida yaratilgan "Avesto", turk hoqonlaridan qolgan "Qonunnoma", Chingizxondan qolgan "Bilik". Xondamir (1474-1535) yozgan "Qonuni Xumoyun", Ro'zbixon (1438-1621 yoki 1630)ning qalamiga mansub bo'lgan va shayboniylardan bo'lgan Ubaydulloxonning topshirig'i bilan yozilgan "Suluk al-mulk" (podsholarga yo'l-yo'riq) va boshqalar shular jumlasidandir.

Amir Temur "Odam atodan boshlab Hotam un-anbiyogacha, ulardan hozirgi damgacha o'tgan sultonlarning qonunlari va turish-turmushlarini donolardan so'rab-surishtirdim. Har qaysilarining yo'l-yo'riqlari, turish-turmushlari, qilish-qilmishlari, aytgan gaplarini xotiramda saqlash va yaxshi axloqlari, mahqul sifatlaridan namuna olib, unga amal qildim", - deb yozadi o'zining "Tuzuklari"da. Amir Temur yozib qoldirgan Qonunlar to'lami - "Tuzuklar"i o'zigacha bo'lgan qonunlarning eng sarasi, har tomonlama uhta asoslar zaminida yaratilgan qonunlar to'lami deyish mumkin.

Muhtaram prezidentimiz Islom Karimovning "Davlat, saltanat, jamiyat boshqaruviga oid mumtoz asar - "Temur tuzuklar"ini yozgan kim? Umuman, kishilik tarixida ana shunday yo'nalishda asar bitib qoldirgan boshqa hukmdor bormi o'zi?". - degan so'zlari Amir Temurning davlatchiligimiz tarixida o'rni buyuk ekanligini ko'rsatadi.

Haqiqatdan ham, ustivor qonunlarga asoslangan adolatli ijtimoiy tuzum bar'o qilish yo'lida Amir Temur juda ko'p qonunlar, tartib-qoidalarni o'qib o'rganganligi, so'rab-surishtirganligi qolaversa, o'zidagi mavjud adolat'arvar xislatlar Qonunlar to'lamida mujassam bo'lganligini ko'ramiz.

Qudratli davlatchilik boshqaruvini shakllantirish va uni mustahkamlash uchun Amir Temur chuqur siyosiy-ijtimoiy islohotlar qildiki, haqli ravishda jahon tarixi sahifalarida prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek, "Buyuk strateg, mohir siyosatchi, eskirgan ijtimoiy munosabatlarning qathiy islohotchisi, savdo-sotiq, hunarmandchilik va madaniyatning homiysi bo'lgan Amir Temur "Qonunlar va urf-odatlarga asoslangan" davlatni bar'o etdi, degan mo'htabar so'zlarning sohibi bo'ldi.

Amir Temur davlat qurilishidagi islohotlarni avvalo harbiy-tashkiliy sohadan boshladi. Qo'shin tuzilish tarkibini o'ntalik bo'linmalardan iborat tuzilgan lashkar tashkil etdi. Lashkar

“tuman” - o‘n minglik, “xazora” - minglik, “xo‘shun” - yuzlik va “ayl” - o‘nlik bo‘linmalaridan iborat edi. Tumanlarda askarlarning soni 10 ming, qo‘shinda 100 ming nafardan ortiq lashkar bo‘lgan. O‘n ming kishilik lashkarni boshqargan harbiy mansabdorga “tuman og‘asi”, minglik bo‘linmalari uchun “amirixazora”, yuzliklar uchun “xo‘shunboshi”, o‘nliklar uchun esa, “aylboshi” kabi harbiy lavozimlar joriy etildi. Oddiy nafar (askar)dan tortib amir ul-umarogacha ularning haq-huquqlari, oylik maoshlari belgilab qo‘yilgan.

Amir Temurning harbiy sohada buyuk strategligini yana shundan bilish mumkinki, har bir harbiy qism turli rangda - qizil yoki oq, ko‘k, jigarrang va hokazo ranglarda bo‘lgan. Qismning rangi qanday bo‘lsa, qurollari-tirkash, kamar, nayza, o‘q uzuvchi qurol-aslaha qinlari va va hokazolarning rangi ham o‘sha xilda bo‘lgan. Qo‘shinning jangovar tayyorgarligini tekshirish va sadoqatini aniqlash maqsadida harbiy ‘arad-ko‘rik o‘tkazilib turilgan. Ko‘rik ko‘proq raqib tomonlarning elchilari kelganda, yurish oldidan va ulkan g‘alabadan so‘ng o‘tkazilgan.

Har bir mamlakatga yurish oldidan o‘sha yurtning geografik holati, aholisining kayfiyati, qo‘shining ahvoli, harbiy sarkardalarning harbiy mahorati to‘g‘risida to‘liq Ma‘lumot olingan. Buning uchun butun bir hufiya mahkamasi va maktabi ish olib borgan.

Amir Temurning harbiy sohadagi islohotlaridan yana bir eng muhim jihati urush harakatlarini olamon shaklidan farqli o‘laroq tartibli harakat, yetarli zaruriy qo‘shimcha qismlarni saqlab turish va kutilmagan joydan zarba berish yoki to‘satdan paydo bo‘lib dushmani sarosimaga solib qo‘yish taktikasi kuchli bo‘lgan. U harbiy sanhat ustasi bo‘lgan. Amerikalik olim Richard Nel’son Amir Temurning harbiy strategiyasiga yuksak baho berib, “Uning shaxsiy jasorati ham afsonaviydir. Temurning janglarda ko‘rsatgan mardligi uning do‘stlari va dushmanlari orasida ham katta obro‘ qozonishga olib kelgan. Uning kuch-qudrati va chidamliligi ham kishini lol qoldiradi. U amalga oshirgan uzoq muddatli harbiy yurishlar (ayrimlari to‘rt yilgacha cho‘zilgan) bunga yaqqol misol bo‘la oladi”, degan edi.

Amir Temurning nomi harbiy qurilishning buyuk nazariyotchisi va amalda ustamonlik bilan qo‘llay biladigan katta strategik sezgiga ega bo‘lgan harbiy sarkarda sifatida tarixda qoldi.

Amir Temurni Movarounnahrda va umuman saltanatda davlat boshqaruv sistemasida tub islohotlarni amalga oshirish, bugungi kun iborasi bilan aytganda demokratik davlat qurilishi darakchisi deyish o‘rinli bo‘lardi.

Movarounnahrda tashqari butun saltanat to‘rt ulusga bo‘lib boshqarilgan. Amir Temurning to‘ng‘ich o‘g‘li ‘irmuhammad Jahongirga 12 ming lashkarga ulufa berib Balx viloyati; ikkinchi o‘g‘li Umar SHayxga 10 ming lashkarga ulufa berib Fors viloyati; uchinchi o‘g‘li Mironshohga 9 ming lashkarga ulufa bilan G‘arbiy Eron, Ozarbayjon, Iroq va Armaniston, markazi Tabriz; kenja o‘g‘li SHohruxga 7 ming lashkarga ulufa bilan Xuroson, Jo‘rjon, Mozandaron va Seyiston viloyatlari, markazi Xirot belgilanib, ulus sifatida berildi.

Amir Temur davlat boshqaruvi va uning qonunlarini amalga oshirishda quyidagi ijtimoiy toifalarga: 1. Sayiidlar, ulamo, shayxlar, fozil kishilar; 2. Donishmand, tajribali odamlar; 3. Duogo‘y kishilar; 4. Amirlar, sarxanglar, si‘ohsolorlar; 5. Si‘oh va raiyat; 6. Aqlli, tajribali, eng ishonchli kishilar; 7. Vazirlar, sarkotiblar; 8. Hakimlar, tabiblar, munajjimlar, muhaddislar; 9. Muxandislar, tafsir va xadisch olimlar; 10. Mashoiyxlar, so‘fiylar, xudojo‘y mahrifatli, bilimdon olimlar; 11. Kasbu hunar egalari; 12. Sayohatchilar, musofirlar, savdogarlarga tayangan holda ish tutdi.

“Tuzuklar”da keltirilgan Ma‘lumotlarga qaraganda, mamlakat va unga tobe o‘lka va viloyatlar uchun yettita vazirlik boshqaruv tizimining asosi tashkil etilib, bosh devonga bo‘ysundirildi. SHundan to‘rt vazir markaziy hokimiyatda va ayni bir vaqtda barcha tobe o‘lkalarga mashul hisoblangan. Eng muhimi shundaki, uch vazirdan iborat tobe o‘lkalar sarhadlari masalalari bilan shug‘ullanib boruvchi davlat hayhati tashkil qilingan. Bularning hammasi davlat siyosiy hayotini takomillashtirish yo‘lidagi islohotlar tufayli yuzaga keldi.

XV asrning ikkinchi yarmidan boshlab esa vorislar o‘rtasida olib borilgan to‘xtovsiz feodal urushlar temuriylar davlatining kuchsizlanishiga olib keldi va XVI asrning boshlariga kelib, Movarounnahr hududi bir necha mustaqil davlatlar va mulklarga ajralib ketdi. Albatta, ular

hali bir-birlari bilan iqtisodiy, savdo-sotiq va madaniy aloqalarda mustahkam bog'liq bo'lsalarda, ayrim viloyat va yerlarning, hokimlari ko'pincha o'zaro kelisha olmas edi. Movarounnahrning sug'orma dehqonchilikka asoslangan vohalarining o'troq aholisi qadim-qadimdan buyon qo'shni dashtlarning ko'chmanchi chorvador aholisi bilan iqtisodiy va siyosiy jihatdan muttasil muloqotda bo'lib kelardi. Vaqti-vaqti bilan kuchli va yirik o'rdalarga birlasha oladigan ko'chmanchilar Movarounnahrning dehqonchilik vohalariga hujum qilib turardi. Albatta, bu hujumlardan so'ng bir qism ko'chmanchi aholi o'troqlashish jarayonini boshdan kechirib, o'troq aholining turmush tarzi va madaniyatini qabul qilardi. SHuningdek, ular o'zlarining azaliy urf-odat va marosimlarini ham vohalarga olib kirib, yangi etnik guruh sifatida o'troq aholining jismoniy qiyofasini o'zgarishiga tahsir qilardi. Ko'chib kelib o'rtnashgan aholining tili bahzan ayrim voha aholisining qadimiy tili va shevalarini siqib chiqarardi.

Ulug'bekning o'limidan so'ng temuriylar saltanatidagi o'zaro ichki kurashlar mamlakatni tobora inqiroz girdobi tomon yetakladi. O'z otasining qotili Abdulatifning 1450 yil 8-mayda fitna qurboni bo'lishi ichki kurashlarning yuqori cho'qqisi bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Bundan keyingi siyosiy voqealarga nazar tashlasak, Movarounnahr va Xurosonda hokimiyat uchun kurashning yana davom etganligi, tarqoqlikning chuqur ildiz otib borganligini ko'rish mumkin. Samarqand taxtiga Mirzo Ibroxim Sultonning o'g'li Abdulla ega bo'ldi. U Ulug'bek kabi siyosiy va madaniy hayotni qayta ravojlantirishga intildi, butun kuch-qudratini sarfladi, turk zodagonlariga tayandi. Biroq nosog'lom kuchlar Abdullaga ham keskin to'sqinlik qildilar. Ko'chmanchi o'zbeklar xoni Abulxairxonning bergan yordami natijasida 1451 yilning yozida Samarqand yaqinidagi SHeroz qishlog'i yonida bo'lib o'tgan asosiy jangdan so'ng Movarounnahr saltanati Mironshoh nabirasi Sulton Abusaid qo'liga o'tdi. SHoxruhning nabirasi Abulqosim Bobur 1452 yilda Xirotni egallab, temuriylar davlatining Huroson qismini o'z tasarufiga kiritdi. Tarixchi Xondamirning guvohlik berishicha, Movarounnahr bilan Xuroson o'rtasida nizolar davom etadi. Xurosonda feodal tarqoqlik avj oladi. Masalan, birgina Xurosonning o'zi o'n bir bo'lakka bo'linib ketadi.

1469 yilning erta baxorida Abusaid Ozarbayjon, G'arbiy Eron va Iroqqacha bo'lgan viloyatlarni egallab turgan Oqquyunli turkmanlarga qarshi yurish qiladi. U bungacha Hirotni ham egallab, qisqa vaqt davlatning har ikki qismini birlashtirishga erishgan edi. Abusaid Ozarbayjondagi Mugon cho'lida bo'lgan jangda halok bo'ldi. Uning vorislari Hurosonga dahvogarlik qilgan Sulton Xusayn bilan to'qnashishga jurhat eta olmay, Movarounnahrqa qaytadilar. Oqibatda saltanat yana ikki qism Sulton Mahmud hukmronlik qilgan Xorazm va Xurosonga hamda Abusaid vorislariga o'tgan Movarounnahrqa bo'linib ketadi.

Movarounnahrda Abusaidning o'g'illaridan dastlab Sulton Axmad (1469-1493), keyin Sulton Mahmud (1493-1494) va nihoyat Maxmudning o'g'li Sulton Ali (1494-1501) mustaqil hokimlik qiladi. Biroq Movarounnahr hukmdorlari, xususan Sulton Ahmadning uquvsizligi va sustkashligi tufayli mamlakatda feodal tarqoqlik yanada avj oladi. Bu vaqtda Movarounnahr deyarlik mustaqil bo'lib olib, o'zaro nizolashayotgan sha'zodalar yoki mulkdor feodal zodagonlar boshchilik qilib turgan ko'pdan-ko'p viloyatlarga bo'linib ketgan edi. Mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy hayotida bu davrda so'fiylik tahlimoti yirik namoyondalarning tahsiri bexad kuchayib, uning siyosiy turmushida ham ular muhim rol o'ynay boshlagan edilar. Jumladan, mamlakat urush xavfi ostida qolib, el-yurt boshiga katta tashvishlar tushgan 'aytlarda so'fiylik tariqatining yirik namoyondalaridan biri Xo'ja Ubaydullo Ahror (1404-1492) yurt boshiga tushgan musibatlarni daf qilish yo'lida bir necha bor jonbozlik ko'rsatgan edi.

prezidentimiz I.Karimov "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" asarida, "Bu mutafakkir zot o'z davrida 25-30 yil mobaynida Markaziy Osiyodagi halqlarni birlashtirish, siyosatchilarning boshini qovushtirish orqali har xil to'qnashuvlarning oldini olish uchun bor kuch-g'ayratini sarflagan, uning yuksak obro'-e'tibori bunda hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. "SHayxlar shayxi" deb nom olgan bu ulug' zotning gapini biror hukmdor, hokim, sha'zoda ikki qilmagan. Nega deganda, xalq uni boshiga ko'targan. Biz ham bunday aziz ajdodlarimizni boshimizga ko'tirishga tayyormiz" - degan fikrlari bu zotga berilgan yuksak bahodir.

Yirik hukmdorlardan Sulton Xusaynning hukmronlik qilgan vaqtida jahon ma'naviyatining buyuk siymosi Alisher Navoiy qo'lidan kelgancha adolat o'rnatib, halqqa g'amxo'rlik ko'rsatadi, mamlakatning siyosiy hayotida katta rol o'ynaydi. U Movarounnahrda kuchli, markazlashgan feodal davlatning vujudga kelishi, viloyatlar sug'orilib obod etilishi, qishloqlarda dehqonchilik, shaharlarda hunarmandchilik va savdoning taraqqiy qilishi, adabiyot, sanhat va ilm-mahrifatning ravnaqi, davlatning ichki barqarorligi va tashqi munosabatlarni yaxshilanishi, aholining tinch va osoyishta yashashi uchun barcha imkoniyatlardan foydalandi. Lekin sulton Xusayn davlati Navoiy kutganicha bo'lib chiqmaydi.

Mamlakatning siyosiy hayotida hukm surgan tanglik, ko'chmanchi o'zbeklarning Movarounnahrda hokimiyatni qo'lga olishini, mahalliy xalq ustidan hukmronlik o'rnatishga erishishini tahminladi.

Ko'chmanchi chorvadorlarning mavjud davlatlari markazi Dashti Qi'choqda bo'lib, u urug'-qabilachilik munosabatlari asosida bar'o etilgan edi. Abulxayrhon davlatini qayta tiklashga erishgan uning nabirasi Muhammad SHayboniyhon edi. Bu chorvador turk-mo'g'ul qabilalari etnik va til jihatidan Movarounnahr o'troq aholisi bilan juda yaqin edilar.

Davlat hayotida iqtisodiy islohotlar mamlakat ijtimoiy taraqqiyotiga, iqtisodiy rivojiga, shahar va qishloqlarning obodonlashtirishiga ijobiy tahsirini o'tkazdi.

Davlat qonunlarining hayotiy lashuvida, adolatlashuvida islom dinining roli va o'rniga Amir Temur tomonidan katta e'tibor berildi. Yer egaligi, savdo, dehqonchilik va hunarmandchilik, mehmorchilik, ilm, fan, madaniyat va sanhat sohaları shunday rivojlanish darajasiga ko'tarildiki, hanuzgacha jahon iqtisodiyoti uning sir-asrorini o'rganmoqda.

Uchinchi masalamiz, "Amir Temur davlatchiligi tarixini tadqiq qilinishi va uning bugungi kundagi ahamiyati".

Tarix - har bir xalq o'tmishining ko'zgusi. Ko'zgusi yo'q odam o'zini qandayligini bilmaganidek, tarixni bilmagan xalq ajdodini ham bilmaydi. Har bir xalq o'z o'tmishini chuqur bilishi va moziyga munosib tarixni yaratmog'i lozim. Muhtaram prezidentimiz Islom Karimov mamlakatimiz tarixchi olimlari bilan o'tkazgan suhbatlari chog'ida, "Sovet davrida yozilgan tarixni men tarix sanamayman. O'zgalar yozib bergan tarixni o'qitishga mutlaqo qarshiman. Mustamlakachi o'ziga qaram bo'lgan xalq haqida qachon holis, adolatli fikr aytgan?", degan fikrlari bizning o'zbek sobiq sovet davri tarixchiligiga ham to'la taalluqlidir.

Bizning tariximiz uzoq o'tmishdan shonli va zavol tafsilotlarga boy, lekin chuqur o'rganishga muhtoj tarixdir. Sababi mustamlakachilik siyosati oqibatida, sovet davri ideologiyasi "talablari" qaram xalqlar tarixini haqqoniy o'rganishga yo'l qo'ymadi, o'z xalqi jurhat eta olmadi, jurhat etganlari esa osongina qatag'onga uchradilar.

Misol uchun, "Temur tuzuklari"ni oladigan bo'lsak, bu nodir asardan Zahiriddin Muhammad Boburning avlodi SHox Jahon (1628-1657), Qo'qon xoni Muhammad Alixon (1826-1842) va Buxoro amiri Abdullaxon (1885-1910) kotiblariga buyurib, o'zlari uchun nusxa ko'chirtirganlar. 1637-38 yillar Mir Abu Tolib al-Xusayniy at-Turbatiy SHoh Jahonga "Tuzukiya Temuriy"ning forsiyga tarjimasini taqdim etgan. podsho tarjima bilan tanishib chiqib, uni Dekan favjdori (Qozi kaloni), istehdodli yozuvchi Muhammad Afzal Buxoriyning (1651 yoki 1652 yili vafot etgan) qo'lga tutqazib, SHarafuddin Ali Yazdiyning (1454 yil vafot etgan) mashhur "Zafarnoma" asariga solishtirib kamchiliklari bo'lsa, tuzatib, hattot va muarrihlari o'zidan qo'shgan ortiqcha joylari bo'lsa o'chirib tashlashni buyurgan. "Temur tuzuklari"ning bizgacha yetib kelgan qo'lyozma va toshbosma nusxalari o'sha Mir Abu Tolib al-Xusayniy at-Turbatiy tarjimasini asosida yaratilgan.

"Temur tuzuklari" ning matni, tadqiqot va zarur ilmiy izohlar bilan 1783 yilda Angliyada, 1785 va 1891 yilda Hindistonda, 1868 yilda Eronda cho' etilgan. Asar jahon tillaridan: frantsuz (1787), ingliz (1830), urdu (1845), rus (1849,1834) va eski o'zbek (1835,1857 lekin to'liq bo'lmagan holda) tillariga tarjima qilinib nashr qilingan.

"Temur tuzuklari" da mamlakatni adolatli boshqarish vazirlar, hokimlar, amirlar va davlatning katta-kichik barcha mansabdorlari ma'naviy qiyofasi, ish yuritish tartibi halqqa

munosabati qanday bo'lishi kerakligi oynadek qilib belgilab qo'yilgan. "Tuzuklar"da shunday fikrlar bor: "davlat ishlarini saltanat qonun-qoidalariga asoslangan holda boshqardim. To'ra va tuzukka tayanib, saltanatda o'z martaba va maqomini mustahkam saqlab turdim. Amirlar, vazirlar, si'oh, raiyat har biri o'z lavozim va martabasidan mamnun holda xizmatimda bo'lib, undan ortig'iga davogarlik qila olmadi".

Yana eng muhim fikr: "Hech kimga g'azab bilan qattiq muomala qilmadim va hech bir ishda tanglik qilmadim, toki Tangri taoloning g'azabiga duchor bo'lmayin va ishimni buzib, holimni tang qilmasin deb". Har ikkala fikrdan Amir Temur davlati qanday qonunlar asosida idora qilinganligini bilib olish qiyin emas. Amir Temurning davlat idora usuli "Kuch adolatdadir" shiori asosida olib borilgan. Muhtaram prezidentimiz Islom Karimov, "Adolat kuchda emas, kuch adolatdadir", degan shior Amir Temur saltanatining barcha hududlarida birday amal qilib, ahloqiy ma'naviy mezonga aylandi" - degan edilar. (1996 yil 18 oktyabrda) Temuriylar tarixi davlat muzeyining ochilishi marosimida so'zlagan nutqlarida.

Amir Temur o'zining "Tuzuklari"da, "Qay bir joydan bir g'isht olsam, o'rniga o'n g'isht qo'ydirdim, bir daraxt kestirsam, o'rniga o'nta ko'chat ektirdim deb yozishining o'zi naqadar adolat bilan boshqarganligidan dalolat beradi.

Amir Temurning buyuk tarixiy shaxs sifatida hamda uning davlatchiligi tarixi o'tmish tarixchi olimlari tomonidan chuqur o'rganilgan, bugungi kunda ham o'rganilmoqda, bundan buyon ham turli fanlarga o'rganish ilmiy maydoni bo'lib xizmat qiladi. Sababi, hali o'rganilmagan tarixiy ildizlari hisobsizdir.

"Temur tuzuklari" xususida, uning tadqiq qilinishi haqida qisqacha to'xtab o'tdik. Endi uning davlatchiligi tarixi jahon tarixchi olimlari tomonidan qanday o'rganilganligi to'g'risida fikrlarimiz quyidagicha.

SHaxsan prezidentimiz Islom Karimovning tashabbuslari bilan xalqimiz o'zining ulug' allomalari, davlat arboblari, tariximizda shonli iz qoldirgan ajdodlarimizga hurmat bajo keltirilmoqda.

1996 yilning "Amir Temur yili" deb e'lon qilinishi, o'sha yili 23-26 oktyabr kunlari xalqaro nufuzli tashkilot YuNESKO tomonidan "Amir Temur va uning jahon tarixidagi o'rni" mavzuidagi xalqaro konferentsiyaning tashkil qilinishi hamda o'tkazilishi fikrimizning dalilidir. Konferentsiya ishiga Amerika, Angliya, Frantsiya, Germaniya, Xitoy, Misr, 'okiston, Eron, Afg'oniston, Turkiya va yana dunyoning qator mamlakatlaridan olimlar, mehmonlar tashrif buyurishib, bobomiz Amir Temurga o'z ehtiromlarini izhor etdilar. O'zbek xalqi qatori butun dunyo xalqlari tomonidan Sohibqiron Amir Temur tavalludining 660 yilligini keng nishonlashlari xalqimiz fan va madaniyatiga, tarixiga chuqur ehtiromidir. Mavzumizni Muhtaram prezidentimiz Islom Karimovning Amir Temur bobomiz haqida aytgan quyidagi ajoyib fikrlari bilan muhtasar qilmoqchimiz: "Davlatchiligimiz asoslarini yaratib ketgan Temur bobomiz g'ayrat-shijoati, yuksak aql-zakovati, tadbirkorligi, el'arvarligi bilan bizga hamisha ibrat namunasi bo'lib qolgusidir. Biz u zoti oliydan hamisha ruhiy madad olamiz".

NAZORAT SAVOLLARI

1. Prezident Islom Karimov tarix faniga qanday baho berdilar, va uning milliy mafkuramizda tutgan o'rni qanday?
2. Movarounnahr yerlarini siyosiy jihatdan birlashtirish zaruriyati qanday paydo bo'ldi?
3. Mavarounnahr yerlarini kim, qanday sharoitda va qanday qilib birlashtirdi?
4. Amir Temur siyosiy xokimiyatni qanday bar'o etdi, uning davlat boshqaruvida qanday islohotlar qildi?
5. Siyosiy hokimiyatda boshqarishning qanday yangi shakllarini ko'ramiz?
6. Amir Temur davri tarixi sovet davri tarixchiligidan qanday o'rganilgan, aslida qanday edi?
7. Amir Temur davlatchiligi tarixi bugungi kunda qanday ahamiyatga ega?
8. prezident Islom Karimov ushbu davr davlatchiligiga qanday baho berdilar?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Amir Temur xaqida so'z. Toshkent. "O'zbekiston" 1996 y.
2. Karimov I.A. Donishmand xalqimning mustahkam irodasiga ishonaman. "Fidokor" gazetasi, 8 iyun' 2000 yil.
3. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. Toshkent. "O'zbekiston", 1998 yil.
4. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Toshkent "SHarq" nashriyot-matbaa kontserni Bosh tahririyati. 1998 yil.
5. O'zbekiston xalqlari tarixi. 2-Jild. T.Fan. 1994 y.
6. "Amir Temur va uning jahon tarixidagi o'rni" mavzuidagi xalqaro konferentsiya Tezislari. Toshkent. "O'zbekiston", 1996 yil.
7. Ahmedov B. Amir Temur. Toshkent. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1996 yil.
8. Ahmedov N. Amir Temur. Rivoyat va haqiqat. Toshkent. Qomuslar Bosh taxririayati. 1996 yil.
9. Vamberi X. Buxoro yoki Movarounnaxr tarixi. Toshkent. G'ofur G'ulom nomidagi \
10. Adabiyot va sanhat nashriyoti. 1990 yil.
11. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. Toshkent. "Mehnat". 1992 yil.
12. Karimov SH. SHamsutdinov R. Vatan tarixi. Andijon "Meros". 1995 yil.
13. Mo'minov I. Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli. Toshkent. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi "Fan" nashriyoti. 1993 yil.
14. Temur va Ulug'bek davri tarixi. Toshkent. Qomuslar Bosh tahririayati. 1996 yil.
15. Temur tuzuklari. Toshkent. G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi. 1991 yil.
16. SHarafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. Toshkent. "SHarq" nashriyot-matbaa kontsernining Bosh tahririayati. 1997 yil.
17. Shomiy Nizomiddin. Zafarnoma. Toshkent. "O'zbekiston". 1996 yil.

5-MA'RUZA:

O'zbekiston xududlarining xonliklarga bo'linib ketishi, uning sabablari va oqibatlari. O'zbek xonliklarining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi. Mustamlakachilik zulmiga qarshi milliy ozodlik harakati. Jadidchilik.

REJA:

1. Muhammad Shayboniyxon. Buxoro xonligining tashqil topishi va ijtimoiy siyosiy va iqtisodiy holat.
2. Qo'qon va Xiva xonligining va ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli.
3. Chor Rossiyasining O'rta Osiyo bosib olishi va mustamlakachilik tartiblari.
4. Turkiston xalqlarining chorizmning mustamlakachilik zulmiga qarshi milliy ozodlik xarakati. Jadidchilik.

TAYaNH IBORALARI

Oqquyunli turkmanlar, sufiylik, Dashti Qi'choq, ko'chmanchi o'zbeklar, geografik kashifiyotlar, Ye'isko', Abdullaxon II, Buxoro xonligi, Xiva xonligi, Qo'qon xonligi, Elbarsxon, SHohruxbiy, mang'itlar, qo'ng'irot inoqlari. Raim, Avliyoota, vassal, Gandmiyon, gazovot, Mahram qalhasi, general-gubenatorlik, 'rotektorat, "Beshbosh", Mustamlakachilik, Turkiston general-gubernatorligi, 'o'latxon qo'zg'oloni, Qurbonjon dodxox, "Bobo isyoni", Dukchi eshon, Andijon, qo'zg'oloni, Jizzax g'o'zg'oloni, "Sotsial-demokratilar", "Sotsial-revolyutsionerlar", "Ittifoq guruxi", Nomoz 'irimqulov, "O'zbek Dubrovskiy", jadidlar, Ismoil Gas'irinskiy, Muzaffariya maktabi, "Sadoyi Turkiston", Taraqqiy'arvar fiqasi, 'adarkush.

Ma'lum ki, Temur va temuriylar davrida o'lkamizda iqtisodiy yuksalishga erishildi, barqaror ijtimoiy-siyosiy hayot hukm surdi, fan va madaniyat rivojlandi va kamol to'di.

XV asr oxiri XVI asr boshlarida temuriylarning o'zaro urushlari kuchaygan kezlarda Shayboniyxon yetakchiligidagi ko'chmanchi o'zbeklar dastlab Dashti Qi'choqning Janubiy qismidagi shahar va qishloqlarni egallagan bo'lsalar, 1499 yildan Movarounnahrni istilo qilishga kirishadilar. Jizzax va Samarqand orqali Qarshi va SHahrisabzgacha yetib borgan lashkar katta o'ljalar bilan qaytadi. Samarqand tor-mor etiladi, natijada Buxoro va Qorako'l atroflari bilan birga egallandi.

Ko'chmanchilar tajovuziga Samarqand hukmdori Sulton Ali Mirzo, keksayib qolgan Xirotda hukmdori Sulton Xusain, Toshkent hokimi Maxmudhon ham bardosh bera olmadi. Qisqa muddat ichida temuriylar saltanati hududini qo'lga kiritgan shayboniylar bu diyorda o'z davlatini bar'o etishga muyassar bo'ldilar. Bizga ma'lum ki, Farg'onaning yosh hokimi Zahiriddin Muhammad Bobur temuriylar saltanatini himoya qilish va uni saqlab qolish uchun birmuncha harakatlar olib bordi. Mamlakatda hukm surgan iqtisodiy tanglik va siyosiy 'arokandalik sharoitida u ham o'z maqsadlarini amalga oshira olmadi.

Vatanni tark etishga majbur bo'lgan Bobur 1526 yilda 'oytaxt shaharlar - Dehli va Agrani ishg'ol qildi va hozirgi Bangladesh, 'okiston, Hindistonning shimoliy yerlari hamda Afg'oniston hududida Buyuk Boburiylar saltanatiga asos soldi, bu davlat uch yuz yildan ortiqroq (XVI-XIX asrlar) yashadi.

Muhammad Shayboniyxondan so'ng Movarounnahrda markaziy hokimiyat ancha zaiflashdi. Amirlar va sultonlar markaziy hokimiyatga bo'ysunmay qo'ydi. Ko'chmanchi qabila boshliqlari (boylar) ham davlatni idora etishda o'z maqsadlari yo'lida faol qatnashdilar. Jumladan, Toshkentda Suyunchixo'jaxon, Turkistonda Kuchkunchixon, Xirotda Jonvafobiy, Buxoroda Mahmud Sulton va uning o'g'li Muhammad Temur Sultonlar davrini eslash kifoyadir. G'arb va SHarq iqtisodiy, siyosiy, savdo va madaniy aloqalarning markazida joylashgan o'lkamizda feodal tarqoqlik va o'zaro feodal urushlar davom etgan davrda dunyoning boshqa xalqlari yangi savdo yo'llarini izlab to'dilar, buyuk geografik kashfiyotlarni amalga oshirdilar, boshqa hududlar bilan iqtisodiy va madaniy sohalarda aloqalar o'rnatdilar, hunarmandchilik, dehqonchilik, savdo-sotiqni rivojlantirib, ye'isko' va feodallar zulmidan ozod bo'lishga erishdilar. Bu mamlakatlarda jamiyatning ilg'or, sog'lom fikrli ijtimoiy kuchlari miliy birlikka intilib, mustaqil Respublikalarga erishdilar va milliy davlatlar tuzib rivojlandilar.

Movarounnahrda ijtimoiy-siyosiy vaziyat esa quyidagicha davom etdi:

1. Sohibqiron vafotidan keyin boshlangan toju-taxt uchun kurash tobora kuchayib bordi;
2. Davlat tayangan asosiy ijtimoiy kuchlar-beklar, amirlar, tarxonlar, sarkardalar, yirik savdogarlar, viloyat boshliqlari o'zaro birlasha olmadilar, oqibatda halokatning bosh sababchilari bo'ldilar;
3. Ichki iqtisodiy aloqalar buzilib, yagona ichki bozor rivojlanmadi: Buxoro, Urganch, Samarqand, Toshkent, O'tror Marv, O'zgan, O'sh va boshqa shaharlar o'zining avvalgi ahamiyatini, iqtisodiy va madaniy shuhratini yo'qotib bordi;
4. Ayrim hollardan tashqari islom dini ilg'or vakillari ham mamlakatning hududiy yaxlitligini saqlab qolishga intilmadi, aholi turli qatlami vakillarini ularning diniy mashablariga ko'ra bir-biriga qarama-qarshi qilib qo'ydilar, o'z manfaatlari yo'lida foydalandilar;
5. Ko'chmanchi chorvador elatlarning kirib kelishi yangi urushlarni keltirib chiqardi. Hududiy 'archalanishni davom ettirdi, inqirozni chuqurlashtirdi;
6. Buyuk i'ak yo'lida savdo-sotiqning deyarli to'xtab qolishi oqibatida esa hunarmandchilik, ishlab chiqarishning yetakchi sohalari hamda dehqonchilik mahsulotlari yetishtirish inqirozga uchradi.

II. Muhammad Shayboniyxon vafotidan keyin Movarounnahrda markaziy hokimiyat yanada zaiflashdi. Amirlar va sultonlar markaziy hukumatga ko'p ham bo'ysunmay qo'ydi. 1512 yildan Buxoro hukmdori Ubuydulla sulton bo'ldi, 1534 u butun markazlashgan o'zbek davlatining Oliy hukmdori etib saylandi hamda 'oytaxt Buxoroga ko'chirildi.

XVI asrning 40-yillaridan boshlab feodallar va sulolar o'rtasida shaharlar va yerlar uchun kurash kuchaydi. Ayniqsa Buxoro bilan Samarqand o'rtasida kurash keskin bo'ldi. Samarqand hukmdori Abdulatifxon (1541-1542 yy.) bilan Buxoro xoni Ubaydullaxonning o'g'li Abdulazizxon (1540-1550 yy.) o'rtasidagi kurashni Toshkent va Sirdaryo bo'yidagi shaharlarning hukmdori Baroqxon kuchaytirdi. U tez-tez shaharlarga hujum uyushtirib, o'z hukmronligini o'rnatmoqchi bo'ldi. 1551 yilda Samarqandni bosib oldi va besh yil idora etib, o'z nomidan pul chiqardi.

XVI asr mobaynida davlat 'oytaxti sifatida Samar-qandning roli asta-sekin kamayib bordi. Asrning so'nggi choragida Abdullaxon II (1557-1598) taxtga davogar bo'lib chiqdi. U kuchli SHayboniylar davlatini qayta tiklashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan edi. Toshkent hokimlari, Hisor amirlari, Samarqand sultonlari bilan to'xtovsiz urushlar olib bordilar. Abdullaxon 11 davrida Buxoro uzil-kesil 'oytaxtga aylandi, hunarmandchilik va savdo-sotiq ishlari jonlandi, biroq tinimsiz urushlar davom etaverdi. Jumladan, 1573 yilda Farg'ona, 1574 yilda SHahrisabz, Qarshi, Hisor viloyatlari, 1578 yilda Samarqand bosib olindi. 1582 yili Toshkent shahri va SHohruxiya. Sayram, Ohangaron kabi qalhalari taslim bo'ldi. 1583 yili Balx egallandi. Xuroson bo'ysundirildi. XVI asrning 60-yillaridan Buxoro xonligi deb atalgan davlatning chegaralari Qashqardan Orol va Kas'iy dengiz sohillarigacha, Turkiston va Sayramdan sharqiy qismigacha bo'lgan yerlarni tashkil etardi.

Umrining so'nggi yillarida u Xorazm hukmdorlari bilan olib borilgan qiyin urushlardan keyin 1595 yilda muvaffaqiyat qozonishga erishdi. Uning vafotidan keyin o'g'li Abdulmo'min uzoq vaqt hokimiyatni saqlab qololmadi. Undan keyin hokimiyatga kelgan 'irmuhammad II ham 1601 yili taxtdan ag'darildi. SHu bilan qariyb 100 yil hukm surgan SHayboniylar sulolasi barham to'di va Movarounnahrda Joniylar (Ashtarxoniylar sulolasi) davri boshlandi. Bu sulola davrida ham xonlikda siyosiy kurash va 'arokandalik deyarli to'xtamadi. Feodal tarqoqlik davom etdi, mamlakat hududan 'archalanib bordi va oqibatda XVII asr va XVIII asr birinchi yarmida uchta xonlikka ajraldi. Dastlab asli ashtarxonlik, Buxoroda qo'nim to'gan sha'zoda Boki Muhammad (1601-05), so'ngra Vali Muhammad (1605-11) taxtga o'tqazildi. Imomqulixon davrida (1611-42) Sirdaryo o'ng sohili-qozoq boylari va boshqa ko'chmanchi chorvador qavmlarning Buxoro xonligi yerlariga talonchilik yurishlari kuchaydi.

Ashtarxoniylar hukmronligi yillarida Xiva xoni Abdulg'oziyxon Bahodir va undan keyin o'g'li Anushxon Buxoro va Samarqand atroflariga tez-tez hujum qilib turdi. SHu 'aytda Buxoro xoni bo'lgan Subxonqulixon (1681-1702) o'z raqiblariga qarshi shafqatsiz kurash olib bordi. Uning o'g'li Ubaydulloxon (1702-1711) hukmronligi davrida Balx, Termiz, SHahrisabz hokimlari mustaqil bo'lib olishga harakat qildilar. Xon ularga qarshi harbiy yurishlar qilishga majbur bo'ldi. SHu bilan birga, bosh ko'targan Samarqand va Hisor aholisini qattiq qirg'inga muhtalo qildi, soliq va boshqa to'lovlarni orttirdi. O'zaro beto'xtov urushlar, harbiy yurishlardan keyin xazina bo'shab, xalqning iqtisodiy ahvoli og'irlashib bordi. Mamlakat ichkarisida va tashqarisida doimo harbiy harakatlar olib borish uchun mablag'lar kerak edi. Mahalliy hokimlarning qarshiligini yenga olmadi.

Ubaydulloxon markaziy hokimiyatni kuchaytirishga va yirik yer egalari imtiyozlarini qisqartirishga qaratilgan boshqa bir qator tadbirlarni ham ko'rdi. U hatto ruhoniylar feodallar-Juybor shayxlari bo'lgan katta yer egalari soliq imtiyozlaridan mahrum qilishgacha borib yetdi. Uning davlat faoliyatida 1708-09 yillarida o'tkazilgan pul islohoti alohida o'rin egallasa-da, pul qimmatini to'rt marta tushib ketdi. Islohotdan zarar ko'rgan aholi g'alayonlari kuchayib, o'rta tabaqalar orasida tahsiri ancha 'asaydi.

Fitna qurboni bo'lgan Ubaydulloxonning o'rniga ukasi Abdulfayizxon (1711-1747) nomigagina xon qilib o'tqazildi. Uning davrida mamlakat o'zini mustaqil hisoblovchi viloyatlarga bo'lina boshladi. Mamlakatni boshqarish mang'it urug'lari tomonidan qo'llab-quvvatlangan va feodallar orasida obro'ga ega bo'lgan Muhammad Hakimbiy qo'lga o'ta boshladi.

Muhammad Hakimbiy mansub bo'lmish mang'itlarning hokimiyat uchun kurash maydoniga kirib kelishiga Eron shohi Nodirshohning (1740-47) tahsiri katta bo'lib,

Ashtarxoniylar deyarli hokimiyatdan chetlatilgan edilar. Abdulfayizxonning o'limidan so'ng viloyat hokimlari isyon ko'tardilar. Qo'zg'olon bostirilgach, 1753 yilda Xakimbiyning o'g'li Muhammad Rahimbiy arkoni davlat va ruhoniylar fatvosi bilan Buxoro taxtini egalladi. (Bu sulola vakillari 1920 yilgacha hukm surganligi ma'lum).

Xiva xonligining tashkil topishi ham "XVI asr boshlariga to'g'ri keladi. 1511yilda SHayboniylar xonadoniga mansub bo'lmagan Dashti Qi'choq ko'chmanchilari tub aholining yordami bilan eronliklarga zarba berib Horazm mustaqilligini tikladilar. O'sha ko'chmanchilar sardori Elbars Xiva xoni deb e'lon qilindi. SHu tarzda mustaqil Xiva xonligiga asos solindi. Xonlik chegarasiga Qadimgi Xorazm, Mangishloq voxasi, Dexiston, Bolxon O'zboy, Hurosonning shimoliy qismi kirgan. 'oytaxti dastlab Vazirsh., keyin Qo'hna Urganch va Xiva bo'lgan.

1538 yilda Elbars o'limidan keyin taxtga o'tirgan Avaneshton vaqtida Buxoro xoni Ubaydulloxon bilan qattiq janglar bo'ldi. Avaneshton mag'lubiyatga uchradi va o'ldirildi. SHundan keyin Xorazm Buxoro xonligining qo'lga o'tadi. Ubaydulloxonning o'g'li Abdulazizxon uning hokimi etib tayinlandi. Ammo, ko'p etmay Xorazm o'z mustaqilligini tiklashga erishdi. 1592 yilda Abdulloxon Xorazmni bo'ysundirdi, lekin 1598 yilda uning o'limidan keyin Xorazm mustaqilligi yana tiklandi.

Elbars sulolasining vakili Xojimxon (1558-1602), so'ngra Arab Muhammad (1602-1623) taxtni egalladi. Bu vaqtda xonlikka qalmlar va qozoqlar, keyinroq Ataman Nechay boshchiligida Urol kazaklari bostirib kirdi. Bosqinchilar daf qilingach, taxt uchun kurash yana qizg'in tus oldi. Bunda Turkman qabila boshliqlari ham faol qatnashdilar. Asfandiyorxon turkmanlar yordami bilan raqiblarini yengib hokimiyatni (1623-1643) qo'lga oldi. Xon buning evaziga turkmanlarga imtiyozlar berganligi uchun uyg'ur va nayman qabilalari norozi bo'lib bosh ko'tardilar. Xon ularni jazolab mol-mulkini talashni buyurdi.

1643 yil Orol o'zbeklari yordamida taxtni egallagan Abulg'oziy Baxodirxon (1645 yildan Xivada) turkmanlarni qattiq nazorat ostiga olgach, tub aholining mavqei ko'tarildi. Mamlakatda boshboshdoqlikka chek qo'yib, markaziy davlat hokimiyatini mustahkamlashga erishdi. U qalmlarga va Buxoroga harbiy yurishlar qildi.

Keyingi xon Anusha Abul Muzaffar (1663-1687) otasi siyosatini davom ettirib, Buxoroga yurish qildi va oz muhlat Samarqandni egallab turishga muvaffaq bo'ldi.

Buxoro xoni Subxonqulixon Anushaxonga muxolifatdagi kuchlarga tayanib, Xivada fitna uyushtirdi. Anushaxon taxtdan tushirilib, ko'ziga nil tortildi. Taxtga SHohniyoz (1688-1702) o'tqazildi. Undan keyin taxtni Arab Muhammadxon II (1702-1714) egalladi. Bu vaqtda sultonlar o'rtasida taxt uchun kurash to'xtamadi. 1715 yilda taxtga SHerg'ozii o'tirdi. Uning Mashhadga yurishi muvaffaqiyatli bo'ldi. Ayni vaqtda mamlakatga tashqaridan bo'lgan xavf-xatar kuchaydi. Rus im'eratori pyotr I Xiva xonligini bosib olish maqsadida 1715-1717 yillarda Bekovich-CHerkasskiy boshchiligida zamonaviy harbiy qurollar bilan shaylangan katta qo'shinni yubordi. Ammo SHerg'oziiyxon ustalik bilan harakat qilib rus qo'shinlarini mag'lubiyatga uchratdi. Ammo Rossiya imperiyasi Xiva xonligini bosib olish niyatidan qaytmadi. Buxoro xoni dushmanga qarshi birgalikda kurash o'rniga SHerg'ozixonga muxolif bo'lib, Rossiyaga hushomadgo'ylik qiladi va xayrixohlik bildiradi. Vaholanki, 'etr I Xiva xonligidan so'ng Buxoroni ham bo'ysundirmoqchi edi.

Buxoro xoni Abdulfayzxon Orolbo'yi qabilalarini SHerg'ozixonga qarshi qo'zg'atdi. SHerg'ozixon 1728 yilda mashhadlik qullar tomonidan o'ldirilgach, Xivada yana alg'ov-dalg'ov va urushlar boshlanib ketdi. Xivaning nufuzli kishilari qozoqlarni o'z atrofiga tortish uchun qozoq sultonlaridan biri Elbarsni taxtga (1728-1740) o'tqazdilar. Elbarsxon II ning davrida Xuroson, Afg'oniston va Hindistonga harbiy yurishlar qilindi. Ayni vaqtda Eron shohi Nodir Xivaga qarshi urush boshladi. Elbarsxon II jangda o'ldirildi. Xiva xonligi Eronga bo'ysundirildi. 1741 yilda Xivaliklar qo'zg'olon ko'tarib xonlikning mustaqilligi tiklandi. Yana qozoq sultonlaridan biri Qoyim (1747- 1757) xon deb e'lon qilindi. Nihoyat, 1763 yilga kelib Xiva xonligida yangi sulola qo'ng'irot qabilasi vakllarining hukmronligi boshlandi. Muhammadamin Inoq (1763-1790) vaqtida turkman va buxoroliklarning hujumi qaytarildi.

Muhammad Rahim I (1806-1825) xonligi vaqtida markaziy hokimiyat ancha mustahkamalanib, iqtisodiy hayot ham barqarorlashdi. Oliy kengash tuzildi, soliq islohoti o'tkazildi. Orolbo'yi qabilalari va qoraqal'oqlar bo'ysundirildi. Turkmanlarning chavdor (chudur) qabilasi ham xonlik tarkibiga kiritildi. Olloqulixon (1825-42) va Muhammad Amin (1845-55) vaqtida Xiva qo'shinlari bir necha marta Xurosonni egallashga harakat qildi.

Sayyid Muhammad (1856-63) hukmdorligi 'aytida turkmanlar va qisman qoraqal'oqlar bilan to'qnashishga to'g'ri keldi. Xonlik taxtida eng ko'p o'tirgan xonlardan biri Sayyid Muhammad Rahim II (1863-1910) bo'ldi.

Movarounnahr hududlarida tashkil to'gan uchinchi mustaqil davlat bu Qo'qon xonligidir. XVII asr oxirida Buxoro xonligida kuchaygan ichki nizolar markaziy hokimiyatni zaiflashtirdi. Xonlik tasarrufiga kiritilgan yerlarda mustaqillikka intilish kuchayib ketdi. XVIII asr boshida Farg'ona vodiysida Qo'qon xonligi vujudga kelib, Farg'onaning mustaqilligi tiklandi. Farg'onani dastlab (1709 yilgacha) CHodak xo'jalari, keyin ming (ok bugro) qabilasiga mansub xonlar idora etdi. Bu qabila vakillari XVIII asr boshidan Farg'ona vodiysida hukmron mavqeini egallab keldi. Sulola asoschisi SHohruxbiy shahar yaqinidagi CHodak xo'jalari hokimiyatini yiqitib, 1710 yildan Farg'ona vodiysining mustaqil hukmdori sifatida mulkni boshqardi. Honlik dastlab "Farg'ona" deb atalgan. SHohruxbiyning katta o'g'li Muhammad Rahimbiy (hukmdorlik davri 1712-1740) 1725 yilda Xo'jand, 1726 yilda O'rate'a va 1729 yilda Samarqand Buxoro xonligi tomonidan qayta egallandi. Abduraximbiyning qarorgohi CHilmahramdan 7 chaqirim naridagi Dehqonto'da qishlog'i edi. Nihoyat 1732 yilda Abdurahimbiy 'oytaxtni Te'aqo'rg'on qalhasidan hozirgi Qo'qon shahri o'rniga ko'chirib birinchi 'oytaxt poydevorini qurirdi. Qo'qon 1740 yilda 'oytaxt sifatida to'la shakllandi. Abdurahimbiy Samarqandni qayta egallab, Kattaqo'rg'onni ham qo'lga kiritdi. SHahrisabzni o'z tahsir doirasiga oldi. Xonlik yerlari kengayib, Farg'ona vodiysida kuchli davlat yuzaga keldi. 1758 yilda Qo'qon xonligiga Buxoroda davlat sifatida qaraldi. SHohruxbiyning ikkinchi o'g'li Abdulkarimboy davrida Farg'ona yanada ilg'orlashdi. Qo'qonda madrasa va boshqa jamoat binolari qurildi. 'oytaxt mudofaa devori bilan o'rab olindi. 1745 yilda qalmlqlarning Farg'ona vodiysiga qilgan hujumi o'rate'aliklar yordamida qaytarildi. Qalmoqlar davlati barham to'gach, Qo'qon honligiga Xitoy SHarqiy Turkiston orqali tahdid sola boshladi. XVIII asr yarmida Erdolnabiy va Norbo'tabiylar davrida Farg'onani birlashtirish yakunlandi. XVIII asr oxirida Toshkent xonligi o'rtasida to'qnashuvlar buldi. Toshkent xonligi 1748 yilda SHayxontaxur daxasi hokimi Yunusxo'ja tomonidan shaharning to'rtta mustaqil hokimligi birlashtirilishi natijasida vujudga kelgan edi. Toshkent xonligiga Sayram, CHimkent, Turkiston, Qurama va ularning atrofidagi joylar kirgan. Qozoq dashtlariga chiquvchi karvon yo'li Toshkent xonligi yerlaridan o'tardi. Toshkentni va savdo yo'llarini egallash maqsadida 1749 yilda Qo'qon hukmdori Norbo'tabiy katta qo'shin bilan Toshkentga qarashli yerlarga bostirib kirdi, biroq mag'lubiyatga uchradi. 1799 yilda Xonxo'ja boshliq Qo'qon qo'shini Toshkentga takror hujum qilib, yana yengildi. Norbo'tabiy vafotidan keyin taxtga o'tirgan o'g'li Olimbek vaqtida (1800-1809) xonlik yerlari kengayib xonlikning siyosiy va iqtisodiy mavqei o'sdi. Harbiy islohot o'tkazildi. Ohangaron vohasi, Toshkent, CHimkent va Turkiston viloyatlari xonlikka qo'shib olindi. Qozoq dashti orqali Rossiyaga savdo yo'li ochildi. Farg'ona davlati 1805 yilda rasman Qo'qon xonligi deb e'lon qilindi. Olimbek esa o'ziga "xon" unvonini oldi. Olimxonning qattiqqo'llik bilan markazlashgan kuchli davlat tuzishga intilishi ayrim o'zboshimcha bek va amirlar manfaatiga zid edi. 1807 yilda Olimxon Toshkent xonligini bo'ysundirish uchun ukasi Umarxon boshchiligidagi 12 minglik qo'shin yuboradi. Toshkent xonligi Qo'qonga tobelikni shunchaki tan olishga majbur bo'ldi. 1808 yilda Olimxon Toshkentni tamomila bo'ysundirdi. Olimxon Toshkentdaligidagi Qo'qonda fitna qo'zg'alib xonlik taxtiga 1809 yilda uning ukasi Umarxon o'tqazildi. Umarxon davrida (1810-22) ham o'zaro ichki urushlar davom etdi. U xonlikka bo'ysunmay qo'ygan Turkiston, CHimkent, Sayram va Avliyootani qayta egallab, xonlik yerlarini yana kengaytirishga erishdi. Uning vaqtida O'rate'a va boshqa joylar uchun Buxoro xonligi bilan ko'p marotaba urishildi. 1817 yilda Sirdaryo bo'yidagi karvon yo'liga Oqmachit qalhasi qurildi. Umarxon va uning o'g'li Madalixon hukmdorligi yillari xonlikning eng kuchaygan davri bo'ldi.

Muhammad Alixon davri (1822-42) da SHarqiy Turkiston bilan iqtisodiy va siyosiy aloqalar kuchaydi. U 1826-31 yillarda SHarqiy Turkistonda xitoylarga qarshi kurashayotgan mahalliy aholiga yordam ko'rsatish uchun qo'shin tortdi. Muhammad Alixon otasi siyosatini davom ettirib, 1834 yilgacha Qorategin, Ko'lob, Xisor, Badaxshon, Darvoz va Matcho viloyatlarini Qo'qon xonligiga qo'shib oldi. XIX asrning 20-30-yillarida Xitoy hukumati Qo'qon xonligiga vaqtincha bir oz yon bosib SHarqiy Turkistonning 6 ta shahridagi bozorlardan boj yig'ish huquqini xonlikka berishga majbur bo'ldi. Xitoy mahmuriyati Qo'qonga har oyda sovg'alar yuborib turishni o'z zimmasiga oldi. Qo'qon xonligi sovg'alar evaziga o'z yerlaridagi Qashqar taxtiga dahvogar, Ofoqxo'ja avlodlarini nazorat ostida ushlab turgan. Xon 79 ming SHarqiy turkistonlikni o'zi bilan olib kelib Farg'ona (SHahrixon va uning atrofiga) va qisman Toshkentga (Beklarbegi O'rdasi yoniga) joylashtirdi. 'ish'ak, To'qmoq, Kushka, Avliyoota va boshqa harbiy istexkomlar qurildi. Xonlikning, sarhadlari g'arbda Orol dengizidan sharqqa Ili daryosi vodiysigacha yetdi. Bu viloyatlarni Toshkent beklarbegi boshqarar edi.

Qo'qondagi fitna va g'alayonlardan foydalangan Buxoro amiri Nasrullo 1839 va 1841-42 yillarda Qo'qon xonligiga bostirib kirib, bir qancha joylarni, jumladan Toshkent, Xo'jand, O'rate'a va boshqa joylarni egallab oldi. 1842 yillarda Nasrulloxon Qo'qonga hujum qilib Muhammad Alixon, Mohlaroyim (Nodirabegim) va boshqa ko'p odamlarni qatl ettiradi. SHahar talon-taroj qilingach, Qo'qonga Buxoro tarafdin noib tayinlandi. O'sha yili qo'qonliklar qo'zg'olon ko'tarib, buxoroliklar hukmronini ag'darib tashladi. Xonlik taxtiga o'tirgan SHerali hokimiyatni boshqardi. (1842-45). SHeralixon Nasrulloning yangidan qilgan hujumini daf qilishga muvaffaq bo'ldi. Bu vaqtda qo'ldan chiqib ketgan Toshkent beklarbegi boshqaruvidagi yerlar, Qurama, Xo'jand va boshqa viloyatlar qaytadan xonlik tasarrufiga kiritildi. SHeralixonidan keyin xonlikda taxt uchun kurashlar avjiga mindi. Mehnatkash aholining ahvoli og'irlashdi. 1847 yilda Toshkentda qo'zg'olon ko'tarilib, Qo'qon xoni noibi Aziz 'arvonachi ag'darib tashlandi. Qo'qon hukumati qo'zg'olonchilar bilan hisoblashishga majbur bo'lib, Toshkentga hokim etib Normuhammadni tayinladi. Xonlikda Xudoyorxon uch marotaba (1852-58, 1862-63, 1865-75) taxtda o'tirdi. SHu orada Madalixon (1858-62) va uning o'g'li Sulton Saidxon (1863-65) ham hukmdorlik qildilar. Xudoyorxonning yoshligidan foydalanib SHeralixon davrida mingboshi saylangan Musulmonqul boshliq qi'choqlar xonlikda hokimiyatni egallab oldi. Qi'choqlar qirg'inidan keyin Musulmonqul qatl etildi. 1865 yilda Buxoro amiri Muzaffar Qo'qon xonligidagi ichki nizolardan foydalanib, Qo'qonni bosib oldi. Xudoyorxon amir yordamida yana Qo'qon taxtini egallashga muvaffaq bo'ldi. SHu vaqtda Toshkent shahri va undan shimoldagi viloyatlarni Rossiya imperiyasi bosib olishga ulgurgan edi. Tinimsiz ichki kurashlar va xalq g'alayonlari, tashqaridan bo'lgan hujumlar Qo'qon xonligini inqirozga olib keldi.

III. XVI-XIX asr o'rtalari mobaynida Turkistonning har uchala xonliklarida deyarli bir xil ijtimoiy kuchlarning harakatini, siyosiy voqealar tizimini, iqtisodiy va savdo-sotiq aloqalarini, shuningdek, madaniy hayotni kuzatish mumkin. Buxoro davlatida hamma sulolalar davrida (Mangitlar sulolasi davrida ham) mustabid hokimiyat shakli mavjud bo'lib, amir huquqi chegaralanmagan oliy hukmdor edi. Ijro atuvchi hokimiyatni bosh vazir-qushbegi boshqarardi. U xon bilan bemaslaxat ish yuritgan. Jamiyat hayoti shariat qonunlariga asoslangan. Mamlakat murakkab davlat a'rati orqali idora qilingan. Mas., moliya ishlari dehqonbegi kalonga, davlat xavfsizligi ko'kaldoshga, ichki tartibni saqlash va nazorat qilib turish raisga topshirilgan. Buxoro qozikaloni xuzurida ahlam va 12 muftiydan iborat rivoyatlar tuzuvchi muftiylar devoni bo'lgan. Amirlikda musulmon ruhoniylari yuqori mavqeiga ega edi. Ular katta yerlarga egalik qilardi. SHayh ul-islom bosh ruhoniy va adliya ishlarining sardori hisoblangan. U jamiyat ma'naviy hayotini boshqarardi. Sud hokimiyati ruhoniilar qo'lida bo'lgan. Barcha qozilar qozikalonga bo'ysungan. Davlat boshqaruvida u yoki bu lavozim vazifasiga qarab o'zgarib turgan. Xonlikda o'rta asrchilik boshqaruv tizimining uzoq saqlanishi taraqqiyot va qo'shin kuch-qudratiga salbiy tahsir ko'rsatdi. Qo'shinda dastlab misdan, XIX asr boshlarida cho'yandan quyilgan bir necha to'' bo'lgan. Sarbozlar o'q-yoy, nayza, qilich, oybolta kabi ibtidoiy qurollar bilan qurollangan. Xonlikda qo'shin asosan otliqlardan tashkil to'gan. XVIII asr oxiridagi Ma'lumotga ko'ra xon

10 ming kishilik qo'shin to'lash imkoniga ega bo'lgan. XIX asr 30-yillarida yollanma askarlar soni 19 ming kishi bo'lib, ular xizmatni turli shahar va harbiy istexkomlarda o'taganlar. XIX asr o'rtalarida harbiy qismlar, shuningdek to' va miltiqlar soni ortdi. Umumiy qo'mondonlik lashkarboshi (amiri lashkar) zimmasida bo'lgan. Umuman xonlikda qo'shin har jihatdan zamon talabidan ancha orqada edi.

Mamlakat iqtisodiy hayotida dehqonchilik, hunarmandchilik, ichki va tashqi savdo asosiy o'rinni egallagan. Ichki nizolar bo'lib, turishiga qaramay xonlik rivojlanishda davom etdi. Dehqonchilik sug'orish bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Sug'orish tarmoqlari Zarafshon va Amudaryodan chiqarilgan. Abdullaxon II tomonidan 1583 yilda Nurota tog'lari suv yonbag'irlaridagi Eski Okchob qishlog'i yaqinida qurdirgan suv ombori qoldiqlari hozirgacha saqlangan. SHuningdek Zarafshon daryosida puli- Karmana, puli-Mextar Qosim va puli-CHaxorminor kabi suv taqsimlagichlar qurilgan. Zarafshondan Jizzaxga Tuyaortar arig'i chiqarilgan. Sug'orish tarmoqlari Amir SHohmurod va Amir Haydar davrlarida ham ancha ko'paydi, ko'chmanchilarning o'troqlashuvi kuchaydi.

Xonlikda feodal yer egaligining asosan uch turi-amlok (amir boshchiligidagi feodallar guruhi ixtiyoridagi yerlar), mulk (xususiy yer egalari qarashli) va vaqf (musulmon ruhoniylari, madrasa, masjid va mozorlarga qarashli) yerlari mavjud bo'lgan. Xonlikda dehqonlar yerni asosan, ijaraga olib ishlar edi. Soliq turi va to'lovlarning ko'pligi, beglar majburiyatidan bezor bo'lgan mehnatkash xalq tez-tez g'alayon qilib turardi.

Xiva Honligida davlat boshqaruvi va qo'shin tuzilishi Buxoronikidan deyarli farq qilmagan. Xondan keyingi eng nufuzli lavozim-vaziri ahzam yoki kushbegi bo'lib, ular soliqlarni to'lash, harbiy ishlar va umuman xonning barcha topshiriqlarini bajarish bilan shug'ullangan. U ko'proq xonlikning janubdagi o'troq aholini, mehtar mansabidagi kishi esa shimoldagilarni boshqargan. Kanallar qazish va ariqlarni tozalashni uyushtirish ham ular zimmasiga yuklangan. SHuningdek qozi, rais, yasovul va boshqa mansablar mavjud edi. SHaharlarni hokimlar va ularning yordamchilari bo'lmish yuzboshilar va oqsoqollar idora qilganlar. Xonlikda shayx ul-islom (oxun) va muftiy yuqori mavqeini egallaganlar. Martabali shaxslar va ruhoniylarga belgilangan muddatlarda oziq-ovqat va boshqa mahsulotlar berib turilardi.

Xonlikning qo'shini asosan, otliqlardan tashkil to'gan bo'lib unga lashkarboshi, yuzboshilar qo'mondonlik qilgan. Askarlar tinchlik 'aytlarda dehqonchilik va boshqa kasblar bilan shug'ullangan. XIX asr 30-yillarida qo'shin soni qariyb 40 ming kishi edi. Askar xizmatidagilar soliq va jamoa ishlaridan ozod qilinib, har bir harbiy yurishda qatnashganligi uchun 5 oltin tanga, jangda jasoratlari uchun ko'rsatganlar 10-100 tangagacha olgan.

Xon saroyida yaxshi qurollangan 1000 kishilik muntazam askar xizmat qilgan. Qo'shinning asosiy qismi qilich, o'q-yoy, nayza bilan qurollangan. SHuningdek oz miqdorda 'ilta miltiq va to'lar bor edi. Umuman qo'shin harbiy qurol va taktika jihatidan ancha orqada edi. Xonlikning iqtisodiy hayotida sug'orishga asoslangan dehqonchilik muhim o'rin egallagan. Toshli Yormish, 1602 yilda esa Arab Muhammad kanallari qazilgan. XVII asrning 60-80 yillarida SHohobod va Yormish kanallari, keyinroq Goziobod va 1815 yilda Qilichniyozboy kanallarining qurilishi bilan yangi yerlar o'zlashtirildi. Sug'orish tarmoqlari va inshootlari Amudaryo toshqinlaridan ko'p talafot ko'rardi. Kanal va ariqlarni hashar yo'li bilan tozalashga yiliga o'n minglab odamlar jalb qilingan.

Erlar davlat va xususiy kishilar qo'lida bo'lib, uning ma'lum qismi vaqfga berilgan. Dehqonchilikda 'axta, poliz ekinlari ekilgan, bog'dorchilik rivojlangan. I'akchilik bilan ham shug'ullanilgan.

SHunday qilib, XVI-XVII asrlar mobaynida Turkiston mamlakati hududlarida feodal tarqoqlik chuqur ildiz otib bordi va oqibatda uchta mustaqil davlatlar - Xiva, Buxoro va Qo'qon xonliklari tashkil to'di. Yuqorida tahkidlab o'tilganidek, xonliklarda deyarli bir xil mahmuriy boshqaruv shakllandi, bir-biriga yaqin siyosiy hayot hukmronlik qildi. XVI-XVIII asrlar mobaynida qishloq xo'jaligi va hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarish va qisman savdo-sotiq davlat xazinasini to'ldirib borishning amaliy manbai bo'lib qoldi. Lekin bu bilan xon va boshqa juda ko'plab amir-amaldorlarning ehtiyojlari qondirilmadi. Davlat yerlarining katta-katta

qismlarini sotish kuchayib bordi. O'rta feodal yer egalarining iqtisodiy quvvati oshib bordi. Ular o'rtasida o'zaro kurash keskinlashib ketdi.

Ancha bo'shab qolgan xazinani to'ldirish uchun xonlar xalqni yanada ko'proq talashga tushdi. Muddatidan oldin soliq undirishlar oddiy holga aylandi. Mehnatkash xalq asosiy faoliyatidan tashqari turli majburiyatlarni bajarishga jalb etilaverdi.

Ayrim yirik shaharlarni hisobga olmaganda Turkistonning aksariyatida ichki va tashqi savdo uzviy aloqada rivojlanmadi: bahzan halq hunarmandlari ishlab chiqarilgan mahsulot uchun xaridor to'lmagan bo'lsalar, bazi hollarda ishlab chiqarishni o'stirish, kengaytirish va jahon tajribasidan foydalanish uchun zaruriy shart-sharoitlar umuman yetishmas edi.

Bu 'aytgacha kelib savdo-iqtisodiy aloqalar bir tomonlama ko'rinishga ega bo'la boshladi. CHunonchi, XVII asr oxiri - XVIII asr boshlarida Markaziy Osiyo (Turkiston)ning sharq mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalari susaya bordi.

Mamlakatdagi va qo'shni viloyatlardagi feodal mojarolarning kuchayishi, chet elliklarning bosqinlari karvon yo'llari xavfsizligini tahminlash imkoniyatidan mahrum qildi. Natijada, qo'shni davlatlar bilan savdo-di'lomatik munosabatlar ham buzildi.

Turli hukmdorlarning o'z manfaatlari yo'lida zarb etgan pullari muomaladagi pullarning hilma-xilligiga olib keldi va oqibatida pul muomalasini chalkashtirib yubordi.

Uzluksiz davom etgan urushlar natijasida mehnatkash ommaning ekin yerlari 'oymol qilindi, xo'jaliklari talandi, mamlakatning turli o'lkalari iqtisodiy hayoti izdan chiqdi. Bu ahvol xalq ommasini xonlar va feodallarga qarshi bosh ko'tarishga majbur qildi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston xalqlari XVI-XIX asrning birinchi yarmidagi qariyb uch yuz ellik yil mobaynida qanchalik og'ir va murakkab yo'lni bosib o'tganligini bilish mumkin.

Iqtisoddagi yuksalish va inqirozlar, siyosiy ixtiloflar madaniy hayot, xususan, adabiyot tarixiy va tabiiy fanlar taraqqiyotiga salbiy tahsir ko'rsatadi.

Mehmorchilik inshootlarining qurilishi, musiqa, miniatyura, rassomchilik, amaliy sanhatning taraqqiyoti ham hayot sharoitlari bilan o'zaro bog'liq holda notekis rivojlandi.

Moskva va G'arb podsholarining O'rta Osiyo, aniqrog'i, Xiva va Buxoro bilan muntazam aloqalari SHayboniylar davridan boshlanadi. Bu aloqalarni ingliz savdogari Jenkinsonning 1558-1559 yillardagi sayohati boshlab berdi. 1565 yildan boshlab 1619 yilgacha rus davlati shaharlarida erkin savdo olib borishga erishish maqsadida Xiva va Buxorodan Moskvaga bir qancha elchilar yuborilgan. 1619 yilda rus podshosi Mixail Fyodorovich Buxoro xoni Imom Qulixon (1611-1642) ning Moskvaga kelgan birinchi rasmiy elchilarini qabul qildi. Bunga javoban dvoryan Ivan Danilovich Xoxlov boshchiligida rus elchilari jo'natildi, ular 1621 yilda Xiva, Buxoro va Samarqandda bo'lib qaytdilar. Butun XVII asr davomida elchilar ayrboshlab turilgan bo'lsa-da, rasmiy ravishda aloqalar o'rnatib bo'lmagan.

Rossiya davlati bilan O'rta Osiyo xonliklari o'rtasida aloqalar pyotr I taxtga o'tirishi bilan yangi bosqichga ko'tarildi. 1700 yilda Xiva xoni SHohniyoz (1688-1702) elchilari pyotr I huzuriga borganidan boshlab, ruslarning O'rta Osiyo yerlarini istilo qilish niyatlari kuchaya boradi.

pyotr I O'rta Osiyo oltin konlariga ega bo'lish va Hindistonga olib boradigan savdo yo'lini ochish maqsadida 1717 yili knyaz Bekovich - CHerkasskiy boshchiligida Xivaga 7 ming kishilik eks'editsiya yuboradi. Eks'editsiyaning bir qismi Astraxandan kemalarda sharqiy sohil bo'ylab jo'natiladi hamda Tub Qaragan burnidagi Muqaddas pyotr va Aleksandrboy ko'rfazidagi Aleksandrovsk va Krasnovodsk qalhalariga asos solinadi. Eks'editsiyaning ikkinchi bir qismi Astraxandan Gur'ev orqali Xivaga yuborilgan. Bu yurishdan asosiy maqsad Bekovich - CHerkasskiy Xivaga tinchlik elchisi niqobi ostida, qurollangan otryadning qo'mondoni bo'lib, Xiva xonligi mustaqilligiga tajovuz qiluvchi raqib, dushman sifatida yo'lga chiqqan edi. Xiva xonligini Rossianing vassaliga aylantirishga mo'ljallangan yo'l-yo'riq olgan edi. Xiva yaqinida otryad qo'shinlari bilan bo'lgan jangda xivaliklar ularni qirib tashlaydilar, tirik qolganlari asir olinadi, bir necha kishigina vataniga qochib qolishga ulguradi, xolos.

Ikkinchi bir otryadi 1717 yilning yozida uch ming kishilik esa turli kasallikka uchrab halok bo'ladilar va 700 kishi qoladi, ulardan 200 tasi sog'lom edi holos. SHundan boshlab Rossiyaning O'rta Osiyo xonliklariga nisbatan dushmanlik kayfiyati orta bordi.

Rossiya o'z imperiyasi chegaralarini asosan uch yo'nalishda muttasil kengaytirib bordi. Bu yo'nalishlar orqali Sibir, Zakavkaz'e va O'rta Osiyoga qarab siljiy boshladi. Rus qo'shinlari birinchi marta 1847 yilda O'rta Osiyoda paydo bo'ladi va Sirdaryoning quyi oqimida Raim (hozirgi Orol) da mustahkam manzilgoh qurdilar.

Qozog'istonning shimoli-sharqida pyotr I zamonidayoq bir necha qalhalari qurilgan bo'lib, Omi daryosi bo'yida 1717 yilda Omsk, 1718 yilda qurilgan Semi'alatinsk, 1720 yilda qurilgan Ust'-Kamenagorsk qalhalari shular jumlasiga kiradi. Omsk qalhasidan Orenburg qalhasigacha 'etro'avlovsk qalhasi orqali qalhalarning tutash chizig'i bar'o etilgan bo'lib, unda 11 ta qalha, 33 ta handaqli istehkom, 42 ta mashhala bor edi. Taxminan 4 ming kishi yashardi. Ana shu tariqa O'rta Osiyo va Qozog'iston shimolida Irtish daryosining yuqori oqimidan Ural daryosigacha cho'zilib ketgan yarim xalqa harbiy chiziqlari vujudga keltirilib, O'rta Osiyoni zabt etishga katta va uzoq tayyorgarlik ko'rildi.

Birinchi masalamiz "CHor Rossiyasining O'rta Osiyoni bosib olishi va uning mustamlakachilik tartiblari".

Rus qo'shinlari O'rta Osiyoga qarshi uning shimolida kuchli harbiy 'ladarmni uzoq muddat, ya'ni 200 yildan ortiqroq vaqt davomida tayyorladi. Ikkinchi tomondan ingliz burjuaziyasi ham O'rta Osiyoni yirik savdo bozori hisoblab, uni turli yo'llar bilan qo'lga kiritish choralari ko'rmoqda edi. Buning ustiga O'rta Osiyo xonliklari o'rtasidagi o'zaro kelishmovchiliklar ruslar uchun ham, inglizlar uchun ham qulay vaziyat vujudga keltirib turgan edi.

Rus qo'shinlari 1853 yilda Qo'qon xonligining qalhasi - Oqmaschitni bosib olishi bilan O'rta Osiyoni istilo qilishi boshlandi. Uning nomi 'erovsk deb o'zgartirildi, keyin Qizil O'rda shahriga aylantirildi. Oqmaschitning bosib olinishi Rossiyaga 1-qo'rg'on - hozirgi Kazalinsk, Qarmoqchi botqog'idagi 2-qo'rg'on, Quvon daryosidagi 3-qo'rg'on va 'erovsk qo'rg'onidan iborat O'rta Osiyoga hujum qilishning yangi Sirdaryo harbiy istehkomlar chizig'ini vujudga keltirish imkonini berdi. Ayni vaqtda O'rta Osiyoning sharqiy tomonlaridan bosqinchilik harakatlarini boshlab yubordi. 1860 yilda To'qmoq va 'ish'ak (hozirgi Bishkek), 1861 yili Sirdaryodagi Jo'lak va Yangi qo'rg'onni bosib oldi. Rus qo'shinlari urush harakatlarini ikki tomondan: biri sharqdan general Verevkin, ikkinchi tomonda g'arbdan general CHernyaev qo'mondonligida olib borilib, CHernyaev 1864 yilda Turkiston bilan CHimkentni, Verevkin esa Avliyoota (hozirgi Jambul) ni qo'lga kiritish bilan amalda rus qo'shinlari CHimkentda tutashdilar. Istilo qilingan va tashkil etilgan Orenburg general-gubernatorligi tarkibida 1865 yilda Turkiston viloyati tashkil etilib, uning te'asiga CHernyaev qo'yildi. 1865 yili 15 mayga o'tar kechasi Toshkent shahriga CHernyaev qo'shinlari hujum boshlaydilar. SHiddatli janglardan so'ng, 17 may kuni toshkentliklar sulh tuzishga rozi bo'ladilar (G. Xidoyatov. "Mening jonajon tarixim" kitobida 25-27-iyun' kunlari deb yozilgan - 281-bet). Vaholanki, podsho Aleksandr II Toshkent shahrini olishni man etuvchi qathiy buyruq berishiga qaramasdan, uni CHernyaev qo'shinlari bosib oladi. SHuning uchun, CHernyaev qattiq tazyiq ostida, Yevropa afkor ommasini chalg'itish maqsadida "toshkentliklar o'z ihtiyorlari bilan Rossiya im'eratorligi tasarrufiga o'tganligi to'g'risida hujjat"ga majburan imzo qo'ydirib, muhr bostirib oladi.

Orenburg general-gubernatori M. Krijanovskiy 1865 yili sentyabrda Toshkentni, Qo'qon va Buxoro xonliklarining tahsiridan holi bo'lgan mustaqil deb e'lon qiladi. SHu asnoda, 1865 yilning oktyabrida Toshkentni Rossiya imperiyasi tarkibiga qo'shib olinganligini rasmiy ravishda e'lon qiladi.

CHor Rossiyasi o'z mustamlaka yerlarini kengaytirishni davom ettirib, 1866 yil 10 fevralda Samarqand sari yurish qilib, 13 mayda Erjar yaqinida bo'lgan jangda Buxoro qo'shinlarini yengadi. O'sha yili Xo'jand, O'rate'a va Jizzax hujum bilan bosib olinadi.

Samarqanddan Buxoroga boraverishda Yangiqo'rg'on yaqinida Buxoro amirining qo'shinlari yana yengiladi.

1867 yilda Turkiston viloyatiga ilgari Buxoro amirligi tarkibiga kirgan anchagina yerlar qo'shib olindi va Rossiyaning markaziy hokimiyatiga bo'ysunuvchi Turkiston general-gubernatorligi tuzildi. 1867 yil 14 iyulda baron fon Kaufman K.'. Turkistonning birinchi general-gubernatori etib tayinlandi.

1868 yil 23 iyunda rus qo'shinlari Samarqandni so'ngra Kattaqo'rg'onni Buxorodan ajratib olib, Zarafshon okrugini tashkil qiladilar. Buxoro amiri Muzaffariddinni (1860-1885) asoratli shartnomani imzolashga majbur etdilar. SHartnomaga muvofiq Buxoro amalda Rossiyaning vassaliga aylanib qoldi, harbiy chiqimlar uchun 500 ming so'm tovon puli to'lashga majbur etdi.

1873 yili may oyida 13 ming kishilik qo'shin bilan Xivaga qarshi yurish boshladi. Xiva qo'shinlari 27-28 maydagi teng bo'lmagan janglardan so'ng yengilgach, 1873 yil 25 avgustda Gandimien shartnomasi imzolaniib, Xiva xoni o'zini "Butunrossiya im'eratorining itoatkor xizmatchisi" deb tan oldi. SHartnomaga asosan Turkistondagi rus oliy hokimiyatining ijozatisiz qo'shni mulkdorlar va xonlar bilan bevosita aloqa o'rnatish, savdo shartnomalari tuzish tahqiqlab qo'yildi. Amudaryo rus mulklari bilan Xiva xonligi o'rtasidagi chegara etib belgilandi, uning butun sohili Rossiyaga o'tdi. Xiva xoni harbiy chiqimlar uchun juda katta tovon, ya'ni 2,2 mln. so'm to'lash majburiyatini oldi. Rossiya savdogarlari zakot (40/1) to'lashdan ozod qilindi va o'z tovarlarini Xiva orqali olib o'tishda boj to'lashdan ham ozod qilindi.

Kaufman Xeva yurishini yakunlagandan keyin Qo'qon xonligini bosib olishga tayyorgarlik ko'ra boshladi. Bu davrda Qo'qon xonligida ichki ziddiyatlar juda kuchayib ketgan edi. Xon mahmuriyatining o'zboshimchaliklari xalq qo'zg'olonlariga olib keldi. Qo'zg'olonga Xudoyorxon qatl qildirgan Musulmonqulning o'g'li Abdurahmon oftobachi boshchilik qilardi. Unga qi'choqlar, qirg'izlar, shaharning barcha aholisi, shuningdek, musulmon ruhoniylari ham qo'shildilar. Xudoyorxon (1845-1858), (1862-1863), (1865-1875 yillarda xon sifatida taxtda o'tirgan) qochadi, uning katta o'g'li Nasriddin xon (1875-1876) deb e'lon qilinadi. Ruslarga qarshi g'azovot e'lon qilindi. Qo'zg'olon Farg'onanigina emas, balki rus mulklarini ham qamrab olgan edi.

1875 yil avgustda rus qo'shinlari bilan Qo'qon xonligi qo'shinlari o'rtasida jang natijasida xon qo'shinlari Angren daryosi vodiysi, Xo'jand, Qurama uezdidan Mahram qalhasigacha chekinishga majbur bo'ladi. SHiddatli janglardan keyin Mahram qalhasini ham tashlab chiqishga majbur bo'ldi. Qo'qon armiyasi mag'lubiyatga uchradi. Qo'qon xoni Nasriddin taslim bo'ldi. General M.D. Skobelev qo'mondonligidagi rus qo'shinlari Qo'qonni jiddiy qarshiliksiz egalladi. 1876 yil 19 fevralda Qo'qon xonligi territoriyasi Rossiyaga qo'shib olinganligi va uning o'rnida Farg'ona viloyati tashkil etilganligi e'lon qilindi. Skobelev harbiy gubernator etib tayinlandi. Qirg'izlarga qarashli Oloy vodiysi ham Rossiya imperiyasiga qo'shib olindi.

Qo'qon xonligini qo'shib olinishi bilan SHarqda Tyanshon tog'laridan boshlab, G'arbda Amudaryogacha, Janubda 'omir etaklarigacha cho'zilgan Turkiston general-gubernatorligi tuzildi.

Rus qo'shinlari og'ir janglar bilan turkmanlarning yerlariga kirib bordilar. 1877 yilda Axaltekin vohasidagi birinchi yirik manzilgoh - Qizil Arvotni qo'lga kiritdi, lekin uning dashti ichkarisiga kirishga birinchi urinish muvaffaqiyatsiz chiqdi. General Lazarev qo'mondonligidagi qo'shinlar Goekte'a (hozirgi Ashxobod)ni shturm qilishda 200 kishi qurbon berib, qattiq mag'lubiyatga uchradi. Goekte'a faqat 1881 yilda bo'ysundirildi. O'shanda rus qo'shinlariga Skobelev qomondonlik qilgan edi. 1884 yilda Marv vohasidagi turkmanlar rus fuqaroligini ko'ngilli ravishda qabul qildilar. SHu bilan amalda ruslar O'rta Osiyoni bosib olishni yakunlagan edilar.

Endi chor Rossiyasining Turkiston mustamlakasini boshqarishi tartibiga kelsak, O'rta Osiyo xalqlarining iqtisodiy va milliy manfaatlariga zid tartib-qoidalar, boshqaruv tizimi joriy

qilindiki, bularning barchasi to'la mustamlakachilik majmuasini tashkil etdi. Mustamlakachilik tartiblari hammasi bir yo'la emas, balki birin-ketin joriy qilib borildi.

1865 yilda yangi tashkil qilingan Turkiston oblastini boshqarishning vaqtincha Nizomi e'lon qilindi. Unda ruslar qo'l ostiga o'tgan yerlarda dastlabki boshqaruv jarayonida osoyishtalik, xavfsizlikni tahminlash maqsadida mo'tadil qonunlar joriy qilindi. Masalan, barcha mahmuriy organlarga mahalliy aholining turmushi, ichki ishlari, yerga egalik - huquqiy munosabatlariga aralashmay tartibni umumiy tarzda kuzatib borish belgilangan.

1867 yilda rus podshosi Turkistonni boshqarishning yangi loyihasini tasdiqladi. Yangi loyihaga binoan, Turkiston viloyati o'rnida mustaqil Turkiston general-gubernatorligi tashkil qilindi. Uning mahmuriy va harbiy bo'linmalari umumiy harbiy rahbarlikka birlashtirildi. SHuningdek, o'lka general-gubernatorligiga ulkan hokimiyat vakolati berildi. Unga mustaqil, podsho xukumatining ijozati yoki aralashuviz qo'shni davlatlar bilan di'lomatik munosabatlar o'rnatish, aholiga solinadigan soliqlarning miqdorini belgilash, rus fuqaroligini berish, davlat kirim-chiqimlarini belgilash, o'linga hukm qilish yoki avf etish masalalarni o'zi hal qilish huquqi berildi.

1873 yilda general Kaufman Turkistonni boshqarishning "hokimiyatni ichkariga suqilib kirish g'oyasi", yangi loyihasini taqdim etdi. Lekin bu loyiha davlatning yuqori idoralari tomonidan tasdiqlanishi cho'zilib ketdi.

1882-1883 yillarda Turkiston general-gubernatorligi mahmuriy boshqarish sistemasining Rossiya senatining mahfiy maslahatchisi F.K. Girs (1842-1891) tomonidan taftish qilindi. Taftish xulosasiga ko'ra, Sirdaryo viloyati 1867 yildagi, Zarafshon okrugi Kaufman 1868 yilda tasdiqlagan vaqtincha boshqarish Nizomlari asosida ish yuritayotganligi ma'lum bo'ldi. Amudaryo bo'limi general-gubernator tomonidan 1874 yilda tasdiqlangan Turkistonni vaqtincha boshqarish Nizomi va Farg'ona viloyati esa, 1873 yilda Kaufman tomonidan taqdim etilgan, lekin hali senat tomonidan tasdiqlanmagan loyiha asosida boshqarilayotgani aniqlandi. Girs taqdim etgan Ma'lumotnomasi asosida mahsus komissiya tuzilib, 1886 yilda "Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risida Nizom" ishlab chiqariladi va podsho tomonidan tasdiqlanadi. 1886 yilgi Nizom bo'yicha sud qurilishi, o'troq va ko'chmanchi aholi yer boshqaruvi tartibi, soliqlarning ma'lum bir miqdori, umumdavlat majburiyatlari, o'lka tabiiy boyliklaridan foydalanish tartiblari belgilab qo'yildi. SHunday qilib, Turkistonda mustamlakachilik tartibini yangi qonunlari vujudga keltirildi.

Rossiya gubernya va viloyatlaridan Turkiston mahmuriyatini boshqarish farqi shunda ediki, Turkiston Rossiya Ichki ishlar ministrligiga emas, balki harbiy ministrlikka itoat etardi. Turkiston general-gubernatori harbiy va fuqarolar boshqarish vakolati juda keng berilgan hokim edi. Uning Ijroiya organi Turkiston general-gubernatorining kantselyariyasi edi. Kantselyariya uch bo'limdan iborat bo'lib, biri boshqarish va o'lka mahmuriy boshqarish shaxsiy tarkibi bilan; ikkinchisi - yer va uning majburiyatlari, shuningdek, qurilish, aloqa, o'quv va sanitariya masalalari bilan; uchinchi esa moliya va yer taqsimlash masalalari bilan shug'ullangan. SHuningdek, uchinchi bo'linga vaqf mulklari, statistika yuritish va Turkistondagi chet el fuqarolarini nazorat qilib turish vakolati ham yuklatilgan.

Kantselyariyaning maxsus bo'limi - di'lomatiya qismi 1899 yilda Tashqi ishlar ministrli - di'lomatik amaldorlar bilan almashtirildi. Bu bo'limning vazifasi qaram ('rotektorat) Buxoro va Xiva xonliklariga bog'liq barcha masalalarni yechishdan iborat ham bo'lgan. SHunday qilib, O'rta Osiyoda mustamlakachilik tartiblarini o'rnatilishi bilan O'rta Osiyo xonliklarining siyosiy mustaqilligi batamom tugatildi.

Ikkinchi masalamiz "Mustamlakachilik siyosatining iqtisodiy jihatlar". O'rta Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishi yuqorida ta'kidlaganimizdek, xonliklar o'zlarining mustaqilliklarini butunlay yo'qotdi. SHuning uchun ham xonliklarning hech qanday aralashuviz 1881 yilda Rossiya-Eron chegara konventsiyasi, 1885-1887 yillardagi muzokaralar bilan rus va britan hukumatlari tomonidan Afg'oniston bilan bo'lgan chegara, 1895 yilgi muzokaralar bilan 'omir chegaralari hozirgi O'rta Osiyoning uzil-kesil chegarasi belgilandi. SHu bilan amalda Rossiya O'rta Osiyo ustidan iqtisodiy-siyosiy jihatdan tasarruf qilish huquqini qo'lga qiritgan edi.

CHunki, chegara konventsiyasining imzolanishi Rossiyaning O'rta Osiyo yerlarini bosib olinishini amalda xalqaro miqyosda tan olinishi edi.

Avvalo, shuni ham aytish o'rinli, bu istilo oqibatida o'lkada iqtisodiy turmush tartibga solindi, savdo yo'llari xavfsizligi tahminlandi, muayyan tartib qaror to'di, bu esa butun territoriyani yagona xo'jalik bozori, yagona ishlab chiqarish sistemasiga birlashtirish imkonini berdi. SHuningdek, ichki nizolar va mahalliy hokimlarning muttasil janjallariga, tartibsizliklariga barham berildi.

CHor Rossiyasi mahmurlari O'rta Osiyoning xom-ashyo boyliklarini tashib ketish, o'lkaga rus ka'italining kirib kelishi, bozorlarini rus mollari bilan to'ldirish hamda iqtisodiy jihatdan im'eriyaning bog'lashda asosiy vosita temir yo'l deb bilardi. Temir yo'l o'z davrining zamonaviy aloqa vositasi ham edi. Rus mahmurlari qurgan temir yo'llar O'rta Osiyoning iqtisodiy jihatdan eng muhim rayonlarini kesib o'tishi va birlashtirishi lozim edi. 1880 yil noyabrda Zakas'iy temir yo'l qurilishi boshlandi. Bu temir yo'l Qizil Arvot orqali Ashxobod va Samarqandga yetkazildi. 1888 yil 15 mayda bu yerga birinchi 'oezd keldi. Yo'lning boshlang'ich nuqtasi Uzun-Adadan Krasnovodskiyga olindi, bu 126 verstni tashkil etdi. 1898 yili bir uchi Marvdan janubga Kushkaga yetkazildi. Temir yo'lning davomi Toshkent va Andijonga 1895 yili boshlanib, 1899 yili nixoyasiga yetkazildi, 1915 yilda Jalolobodga yetkazildi. SHu tariqa O'rta Osiyo temir yo'lining umumiy uzunligi 1748 verstga yetkazildi.

Rus mustamlakachilik siyosatining ikkinchi bir jihati O'rta Osiyo yerlariga rus qishloqlaridan dehqonlarni ko'chirish bo'ldi. 1868 yildan 1882 yillar davomida Yettisuvda 25 ming aholisi bo'lgan 29 qishloq, Sirdaryo viloyatida 1300 kishilik 19 qishloq tashkil etildi. 1891 yilda Rossiyaning Yevropa qismidagi kattagina yerlarni qamrab olgan qurg'oqchilik ruslarni O'rta Osiyoga ommaviy tarzda ko'chib kelishga sabab bo'ldi. Xonavayron bo'lgan, yarim och yurgan kechagi rus dehqonlari XX asr boshlariga kelib, sotib olgan yerlarida dehqonchilik bilan shug'ullanmay yerlarni mahalliy aholiga ijaraga bera boshladi.

1910 yilda Turkiston general-gubernatorligining hozirgi O'zbekiston hududidagi Sirdaryo, Samarqand va Farg'ona viloyatlarida 124 ta rus qishlog'i bo'lib, bularda 70 mingga yaqin aholi yashagan. Rus aholisi shahar aholisi bilan birga 200 mingdan ko'proq kishini tashkil etgan.

Rossiya to'qimachiligi ishlab chiqarishining o'sib borayotgan talablarini Amerika 'axtasi qondira olmayotgandi, shuningdek olisdan xom-ashyo olib kelish juda qimmatga tushmoqda edi. Istilochilik harakatlarining birdan-bir maqsadi arzon qishloq xo'jalik xom-ashyosini yetishtiradigan yerlarni qo'lga kiritish edi. O'rta Osiyo yerlarini qo'lga kiritishlari bilanoq rus mustamlakachilarining asosiy vazifasi o'lkada 'axtachilikni rivojlantirish bo'ldi. Rus mustamlakachilari i'aksimon va ingichka tolali amerika 'axtasini ektira boshladilar. Toshkent yaqinida urug'chilik - tajriba bazasi tashkil etilib, unda 1884 yilda mahalliy va amerika 'axta navlari chatishtirilib, shunday bir nav yaratildiki, har ikkala navdan ham yaxshiroq nav vujudga keldi. Yangi nav 'axta chigiti 1884 yili 300 botmon (1 botmon taxminan 1 gektar yerga to'g'ri keladigan o'lchov birligi) yerga, 1886 yili 12 ming, 1890 yili 59 ming, 1909 yili 191 ming 1910 yilda esa 350 ming botmon yerga ekildi. Turkiston Rossiyaning 'axta mustaqilligini tahminlab berdi. 1907 yilning o'zida 5 million 'ud (1 'ud 16 kilogrammga teng og'irlik o'lchov birligi) 'axta tolasi rus to'qimachilik sanoati uchun olib ketildi.

Masalaning ikkinchi tomoni arzon 'axta xom-ashyosi jazavasi savdogarlar, mansabdorlar, harbiy boshliqlar, hokimiyatga dahldor mahmurlarni, kimniki puli ko'p bo'lsa, o'shani 'axta ekishga, yerlarni sotib olib 'axta ektirishga undadi.

Toshkent yaqinida rus ishbilarmon va savdo firmalarining dastlabki 'axta 'lantatsiyalari paydo bo'ldi. Belyakovning 620 desyatina (1 desyatina bir gektarga yaqin yer o'lchov birligi), Yaroslavl' katta manufakturasi - 400, Tarsin - 200, aka-uka Nikiforovlarning 300 desyatina yerda 'axta 'lantatsiyalari bor edi. Samarqand oblastida eng yirik shirkatchi Meyerkortning 200 desyatina yaqin, Farg'ona oblastida Tomich, Qudrin firmasi, Yaroslavl' katta manufakturasi uchun 'axta yetishtirardi. Turkistonda umumiy hajmi 4800 desyatina bo'lgan maydondagi yirik 'lantatsiyada 'axta yetishtirib katta daromad olishayotgan edi.

‘axta rus ka’italini ham O’rta Osiyoga jalb etdi. ‘axtani yetishtirish va xarid qilish bilan kamida 30 ta savdo shahobchalari shug’ullanardi. Rossiyadagi eng yirik banklar - Rus-Osiyo banki, Moskva savdogarlar banki va Davlat banki asosiy qarz beruvchi banklar edi. Bundan tashqari ‘oltava, Nijegorod - Samarskiy yer banklari ham Turkistonda o’z bo’limlarini ochdilar.

Mustamlakachilik iqtisodiy siyosatining muhim jihatlaridan yana biri rus ka’italining kirib kelishidir. Turkistonga ka’ital ‘axta yetishtirish va sotish bo’yicha yirik savdo - ishlab chiqarish kom’aniyalari orqali ham kirib keldi. 1913 yilda “Beshbosh” degan juda katta ‘axta-yog’ shirkati tuzilib, u Turkistonda yetishtiriladigan ‘axtaning 30 foizidan ko’prog’ini xarid qilar va sotar, 80 ming tonna ‘axta tolasini tashib ketar hamda 160 tonna chigit tayyorlardi. Uning 29 ta ‘axta zavodi bor edi. Bu shirkat bilan 30 ta ‘axta zavodi bo’lib, Farg’ona vodiysining o’zidagina 7-8 million ‘ud ‘axta xarid qilib turgan Vod’yaevlar savdo uyigina bellasha olardi holos. Vod’yaevlar 1916 yilda Ivanovo-Voznesensk manufakturasini qo’lga kiritib, to’qimachilik buyumlari ishlab chiqaradigan g’oyat katta kombinatni yaratib, Farg’ona ‘axta dalalari, temir yo’llari, ‘axta tozalash zavodlari va Ivanovo to’qimachilik zavodlari uning tarkibiy qismi bo’lib qoldi. Bu xususida avvalo shuni ta’kidlash o’rinliki, Turkistonga savdo-sanoatni kirib kelishi yaxshi, achinarli tomoni xalqning milliy boyligi Turkistonda qolmasdan Rossiyaga oqib ketmoqda edi. Mahalliy aholi tobora qashshoqlashib, yerdan, mulkdan ajralib, non to’ib yeyishi uchun boshi og’gan tomonga ketayotganlarning soni ko’payib bormoqda edi. Bu O’rta Osiyo xalqining fojiasi edi. Bunday holatni “rogressiv”likka yoygan har bir kishi mutlaqo adashadi. Agarda o’lkaning milliy boyligi o’zida qolib, moddiy farovonligiga, turmush sharoitini yaxshilash manfaatlariga xizmat qilsa, unda bu masalaga boshqacharoq yondoshish mumkin.

Ruslarning O’rta Osiyoni bosib olishi, ularning iqtisodiy-siyosati avvalo mahalliy boylarda mavjud bo’lgan insof va diyonatni batamom ko’tarib yubordi. Eks’luatatsiyani, yulg’ichlikni eng jirkanch shakllarini ruslar mahalliy boylarga ham o’rgatdilar. Natija nima bo’ldi? Rusning mustamlakachilik tartibi O’rta Osiyo xalqlariga nima berdi? Birinchidan, ruslarning O’rta Osiyoni bosib olgan dastlabki davriga nisbatan XIX asrning 80-90-yillariga kelib, dehqonlar ommasining aksariyat qismi qashshoqlashdi. Ikkinchidan, aniqroq aytadigan bo’lsak, rus va mahalliy boylar, savdo-sanoatchilari 1889-1890 yillarda Samarqand uездidagi kambag’allarning 15 ming desyatina, Jizzax uездida 5 ming desyatina yerini turli yo’llar bilan tortib olgan. Bu jarayon Farg’ona viloyatida bundan ham fojialiroq kechgan. A.F.Middendorfning ta’kidlashicha, Farg’onada yersiz qolgan dehqonlarning soni 60 foizga yetgan. Uchinchidan, asrlar davomida ota-bobolaridan qolgan yerlarni shu darajada ko’p sotish faqat chorizmning iqtisodiy mustamlakachilik siyosati oqibatida yuzaga keldi. To’rtinchidan, yersiz, nonsiz, sarson-sargardon mahalliy xalq oqimi mustamlakachilik zulmining mahsuli. Beshinchidan, hech qachon xalq bu darajada o’z hukmdorlariga nafrat bilan qaramagan. Bunday dalillarni ko’plab keltirishga rusning bosqinchilik siyosati va uning oqibatlari sababchidir.

Uchinchi mavzumiz, “Mustamlakachilikning madaniyat sohalarida namoyon bo’lishi” .Bugungi kunda jahon fani va madaniyatini rivojlantirish uchun Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning nufuzli xalqaro YuNESKO tashkiloti tomonidan 2000 yilni “Xalqaro jahon tinchlik va madaniyati yili” deb e’lon qilinishi, “Insoniyatning ilmiy va madaniy merosi - uchinchi ming yillikka” shiori asosida insoniyatning shu davrgacha yaratgan boy madaniy merosini to’la o’rganish hamda shu zaminda kelgusi asrda uni yanada yuksaltirishdan iboratdir.

Yuqoridagi fikrlarning mavzumizga dahldorligi shundaki, biz chorizm davrida ham, sovet davrida ham O’rta Osiyo xalqlarini savodsiz, madaniy saviyasi ‘ast xalq, madaniyatni ruslar olib kirdi degan o’zlarining soxta g’oyalarini tinimsiz singdirishga harakat qilardilar. SHu o’rinda Muhtaram prezidentimiz Islom Karimovning YuNESKO Ijroiya Kengashi 155-sessiyasining yakuniy yig’ilishida so’zlagan nutqlarida quyidagi ajoyib fikrlar bor : “Faqat mustaqilligimiz sharofati o’laroq, Imom Buxoriy, Imom at-Termiziy, Bahovuddin Naqshband, Xo’ja Ahmad Yassaviy, Muhammad al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Ahmad al-Farg’oniy, Amir Temur, Mirzo Ulug’bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab, Burxoniddin Marg’inoniy, Mahdumi Ahzam Kasoniy kabi ko’plab, nafaqat bizning milliy madaniyatimiz,

balki butun jahon sivilizatsiyasi xazinasiga salmoqli xissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning nomlari va xayrli ishlari butun bo'y-basti bilan namoyon bo'ldi".

O'z-o'zidan savol tug'iladi, "Savodsiz o'lkada jahonni hayratga soladigan fan olimlari qanday paydo bo'ldi?" Bu savolga ham prezidentimizning fikrlari bilan javob qilamiz: "o'zingizga ma'lum, sho'rolar zamonida tarixiy haqiqatni bilishga intilish rag'batlantirilmas edi, hukmron mafkura manfaatlariga xizmat qilmaydigan manbalar xalq ko'zidan iloji boricha yiroq saqlanardi.

Ahvol shu darajaga borgan ediki, o'z tariximizni o'zimiz yozish huquqidan mahrum bo'lib qoldik. Birovlar tomonidan yaratilgan tarix darsliklarini o'qir edik". Ana shuning uchun Mustaqillikka qadar ham o'tmishimiz savodxonligi to'g'risida gap ketganda O'rta Osiyo xalqlarining "98 foiz aholisi savodsiz", "hatto undan ham ortiqroq" deb qo'shib qo'yar edik. Lekin mavjud maktab va madrasalar hisobga olinmay, mahalliy aholi "savodsiz"likda ayblanar, "madaniyatsiz"likda kamsitilar, "til bilmas"likda ustidan kulishardi.

Qisqacha o'tmishimiz mahrifati to'g'risida. Ruslar O'rta Osiyoni istilo qilgunga qadar bu yerda oliy maktab - Madrasa, o'rta maktab hajmida - Maktab ishlab turgan Maschitlarda, ayrim domlalar xususiy tarzda o'z uylarida, har bir bilimli, o'qimishli, xonada o'z uyida farzandlarini boshlang'ich bilim bilan qurrollantirib borganlar. Bu maktablarda faqat diniy bilimlar berilgan deb uzuluksiz tarzda uqtirib kelingan. Agarda shunday bo'lsa, prezidentimiz tomonidan nomlari eslatilgan buyuk allomalar falsafiy, dunyoviy, fazoviy bilimlarni qaerdan olganlar? Yana bir fikr, ko'proq allomalarimizni o'zga yurtlarda ana shunday yuksak bilim sohibi bo'lgan degan fikrlar ham uchrab qoladi. Bu fikrga bizning mulohazamiz quyidagicha; birinchidan, o'z ona yurtida mavjud bilimlarni yoshligidayoq egallab olib ulguradi, ulg'aygan sari dunyodagi barcha bilimlarni ham o'zlashtirishni istaydi; ikkinchidan, o'zga yurtlardagi bilimlar katta-kichikligidan qathiy nazar olim uchun hamisha qiziqarli tuyuladi; uchinchidan, egallagan bilimni ro'yobga chiqarish uchun muhim bir sharoit va imkoniyatlar yuzaga kelib qoladi.

O'zga yurtlarda tug'ilib, Movarounnahrda yetarli bilim olib, shuhrat to'gan allomalar ham juda ko'p. Masalan, Bursalik ulkan matematik va astronom - Saloxiddin Muso ibn Muxammad ibn Mahmud - Qozizoda Rumiy (XIV asr oxiri - XV asr boshi), Damashqlik tarixchi, shoir, olim SHahobiddin Ahmad ibn Muhammad ibn Abdulloh ibn Ibrohim - Ibn Arabshoh (1389-1450), Nisho'urlik fors-tojik adabiyotining yirik nomoyondasi Abdurahmon Jomiy (1414-1492), Xiroflik taniqli alloma Fosih Ahmad Jaloliddin Muhammad Havofiy - Fosiq Havofiy (1375-1442), Tabrizlik mohir tarixchi - Nizomiddin SHomiy (XIV asr oxiri - XV asrning boshi), Eronning Yazdidan taniqli tarixchi olim - SHarafuddin Ali Yazdiy (vafoti 1454 yil), Balxlik tarix fanining namoyondalaridan Mir Muhammad ibn Sayyid Burxonuddin Xovandshoh ibn Kamoluddin Mahmud al-Balxiy - Mirxond (1433-1498) va ko'plab boshqa allomalarni ismlarini keltirish mumkin. Aytmoqchi bo'lgan asosiy fikrimiz ana shunday buyuk faylasuf, tarixchi, astronom, matematik, tibbiyot, xadis ilmining shoh asarlarini yaratgan olimlarni yetishtirgan Turonzaminning savodsiz qoldi deyishning o'zi tarixshunoslik etikasiga sig'maydigan qarashdir.

Faktlarga murojaat qilsak, manbalarda, ruslarning bostirib kelishiga qadar Xiva shahrining ichki va tashqi qismida 17 ta masjid, 22 ta madrasa bo'lganligi, Buxoroda 60 ta madrasa va ularda rasmiy 9 mingdan 10 mingtagacha kishi tahlim olganligi haqida yoziladi. G. Hidoyatov o'zining "Mening jonajon tarixim" risolasida bunday Maktab va Madrasalarni Movarounnahrning har bir shahrida uchratish mumkin edi, deb yozadi. Ruslarning O'rta Osiyoni istilo qilishi bilan mahalliy aholining milliy manfaatlariga, urf-odatlariga, turmush tarziga zid bo'lgan hayot tarzi ham kirib keldi. Talonchilik, zo'ravonlik, yuzsizlik alomatlari mahalliy aholiga tahsir qilmay qolmadi.

CHor hukumatining Turkistonda olib borayotgan mustamlakachilik siyosati mahalliy halqlarning haqli ravishda noroziliklariga sabab bo'la boshladi. CHunki prezident I.Karimov tahktidlaganlaridek, «... SHO'rolar xukmronligi yillarida, xalqimiz tashqi dunyodan butunlay uzib qo'yildi». O'lkada mustamlakachilik zulmiga qarshi kurash 1870 yillardayoq shiddatli

tusga kirdi. Bu davrda xalq qo'zg'olonlarining markazi asosan Farg'ona vodiysi, Qo'qon xonligi va xonlikdan tortib olib tashkil qilingan viloyat, uezd viloyatlar hisoblanadi. 1968 yil fevralda imzolangan shartnomaga ko'ra rus savdogarlariga katta imtiyozlar berildi. Ularga Qo'qon xonligining barcha hududlarida erkin savdo qilish, xohlagan karvonsaroyga ega bo'lish va savdo agentlarini tayinlash huquqi berildi. Mahalliy savdogarlarga esa faqatgina Turkiston general-gubernatorligi tasarrufidagi shahar va qishloqlardagina shunday huquq g'erildi. Bu mahalliy savdogarlarning noroziligiga sabab bo'ldi. Umuman, 1868 yilgi shartnoma og'ir va noqulay ahvolga solib qo'ydi. Xonlik chegarasi ancha qisqardi, xazinaga tushadigan daromad kamaydi, yangi soliq va majburiyatlar joriy qilina boshlandi. Xalq ikki tomonlama zulm ostida qoldi. Butun Farg'ona vodiysida ikki xil tartib qoidaga amal qilina boshlandi. Xonlikdan tortib olib tashkil qilingan viloyat, uezd va volostlardagi xalqlar mustamlakachilar tomonidan joriy qilingan qoidalarga rioya qilishga majbur edi. Bu esa mahalliy xalqlarning asrlardan beri shakllanib kelgan turmush tarzi, urf odati va anhanalariga zid edi. Ular o'z haq-huquqlarini himoya qila olmas, dardu hasratini o'z tilida tushuntira olmas edilar. Tilmochlar esa yetarli emas va ular ham ko'pincha mustamlakachilarga yon bosar edilar. SHuning uchun ham xalqning noroziligi kundan-kunga ortib bordi. 1873 yildan 1877 yilgacha Qo'qon honligida mustamlakachilik va zulmga qarshi xalq harakatlari bo'lib o'tdi. Unda dehqonlar, hunarmandlar va mayda savdogarlar asosiy harakatlantiruvchi kuch hisblandi. Bu harakatlarda ayrim feodal va ruhoniylar ham xalq tomonidan turib ishtirok qildilar. Qo'zg'olon boshliqlaridan biri Marg'ilon yaqinida tug'ilgan Mulla Ishoq Mulla Hasan o'g'li bo'lib tarixda 'o'latxon nomi bilan xalq qo'zg'oloniga boshchilik qildi. Qo'zg'olon dastlab Jalolobod va Xonobod qishloqlarida qirg'iz aholisi o'rtasida boshlanib, ular xonning soliq yig'uvchilarini o'ldirdilar. Tez orada qo'zg'olonchilar soni 10000 kishiga yetdi. To'raqo'rg'on atrofida xon qo'shinlari bilan bo'lgan jangda qo'zg'olonchilar yengilib, 'o'latxon yashirindi. 1874 yil bahorida Qo'qon xonligining turli viloyatlarida g'alayonlar yana boshlandi. 'o'latxon tarafdorlari ular bilan aloqa o'rnatishga urindilar: rus di'lomati Veyonberg yozgan hisobotga ko'ra bu qo'zg'olonga olov yoqayotgan kishi mashhur mingboshi Musulmonqulning o'g'li Abduraxmon oftobachi edi. 1874 yilga "Sankt 'eterburgskie vedomosti" gazetasi (268-son) habariga ko'ra, qo'zg'olon umumiy tus olib, qirg'iz va qi'choqlarni birlashtirdi, hatto xon qaramog'idagi o'troq xalq ham qo'zg'olonchilar tomoniga o'ta boshladi. 1874 yil qo'zg'oloni ham noyabr oyi oxirlariga borib to'xtadi. Qo'zg'olonning bahorda boshlanib kuzda tugashining asosiy sababi, Qo'qon xonligi agrar mamlakat bo'lganligi tafayli dalalardagi hosilni yig'ib olish zaruriyati tug'iladi. 1875 yil qo'zg'olon yana boshlandi.

Unga 'o'latxon bilan birga Xudoyorxonning nabirasi Nazarbek boshchilik qildilar. Iyul oyida qo'zg'olonchilar safariga Abduraxmon Oftobachcha, Iso Avliyolar o'z qo'shinari bilan, Xonning o'g'li asriddikbek, ukasi Sulton Murodbek o'tib ketdi. 22 iyunda xonning ikkinchi o'g'li Muhammad Aminbek ham qo'zg'olonchilar safiga qo'shilgach Xudoyorxonning ahvoli ancha og'irlashdi. U Turkiston general-gubernatoriga yordam so'rab murojaat qildi. Lekin yordam yetib kelishiga ko'zi yetmagach, Toshkentga qochdi. U bilan biga o'sha 'aytda Qo'qonda bo'lgan 'olkovnik Skobelev, Veynbergalar boshchiligidagi kazaklar ham ketdilar. Qo'zg'olonchilar ularni Xo'jandgacha tahqib qilib bordilar va 30 aravani qo'lga tushirib qaytib keldilar. Aravalardan birida topilgan xon arxivi yoqib yuborildi.

Qo'zg'olon avjiga chiqqan 'aytda ko'plab yuqori tabaqa vakillarining qo'zg'olonchilar tomoniga o'tishining asl sababi shunda ediki, agar Xudoyorxon yengilsa, ular qo'zg'olonni o'z manfaatlariga burib yubormoqchi bo'lganlar. Oddiy xalq 'o'latxonning "soxta xon" ekanligini bilmagan. Xudoyorxon qochib ketgandan so'ng taxtga uning o'g'li Nasriddinbek o'tirdi. Bundan g'azablangan 'o'latxon Nasridinbekka qarshi kurashga bel bog'laydi. Xalq Nasriddinbekni tan olmaydi. 'o'latxon xalqni o'z tomoniga og'dirish uchun Nasriddinbek va Abdurahmon oftobachilarning yerlarini, mulklarini mehnatkash halqqa bo'lib berdi. Ozodlik harakati kuchayib borib Turkiston general-gubernatorligi chegaralarigacha kela boshladi. Qo'zg'olonchilar Obliy qishlog'i Quramani qurshab olib, Ohangaron daryosi vodiysidan Telov istehqomiga hujum qilib, Xo'jand tomon yurdilar. Bir vaqtni o'zida 5000 kishilik qo'shin Sirdaryo bo'ylab yurib, 7-8 avgustda CHilmaxram va Samg'ar qishlog'ini egalladi. Nov qishlog'ini ishg'ol qilib Xo'jand va

O'rate'a o'rtasidagi aloqani uzib tashladi. Toshkentdan 40 km masofadagi 'arkentni ozod qidi.

Turkiston general-gubernatori yordam so'rab Sankt-'eterburgga murojaat qilgach, podsho Turkiston harbiy okrugini kuchaytirish uchun katta mablag' va harbiy kuchlar ajratishga farmon berdi. 1875 yil 9 avgustda Kaufman xalq-ozodlik kurashini bostirish uchun urush e'lon qiladi. Avgust oyida qo'zg'olonchilar soni 50000 ga yetgan edi. Turkiston general-gubernatori qo'zg'olonchilarga qarshi kurashda millatchilik va shovinizmdan intilik bilan foydalandi. 1875 yil 13 avgustda Qo'qon ahliga qilgan murojaatida tubjoy aholi hamda qirg'izlar va qi'choqlar o'rtasiga millatchilik urug'ini sochdi. Lekin shahar va qishloqlarning asosiy aholisi qo'zg'olonchilar tomonida turdi. Avgustdagi shiddatli janglardan so'ng Abdurahmon oftobachi omon qolgan 25-30 yigiti bilan O'zganga qochishga majbur bo'ldi. 1875 yil 22 sentyabrda Nasriddinbek Marg'ilon shahrida Kaufman bilan shartnoma tuzdi. Unga ko'ra, u o'zini Rossiya im'eratorining sodiq quli deb tan oldi. Qo'shni davlatlar bilan aloqa qilish, shartnoma, bitim tuzish huquqidan mahrum bo'ldi. CHor hukumatining ruxsatisiz urush olib borishdan voz kechdi. Sirdaryoning o'ng sohili Namangan va CHust shaharlari Rossiya ixtiyoriga o'tdi. Sirdaryoning o'ng tomonida Turkiston general-gubernatorligining Namangan bo'limi tashkil qilinib, unga general Skobelev boshliq qilib tayinlandi. 1876 yil boshlarida qo'zg'olonchilarga qarshi general Skobelev katta qo'shin bilan hujum qildi. 8 yanvar kuni Andijon shahri ostonalarga yetib kelib shaharni o'qqa tutdi. Abdurahmon oftobachi va uning safdoshlari dushmanga taslim bo'ldilar va qo'shini tarqatib yuborildi. Asakada turgan 'o'latxon jangda mag'lubiyatga uchragach Uchqo'rg'onga chekindi. 18 fevraldan 19 fevralgacha o'tar kechasi 'o'latxon xon tomonidan ushlanib rus qo'mondonligiga topshirildi. U 1876 yil 1 martda Marg'ilondagi bozor maydonida dorga osildi. SHunday qilib 1873 yilda boshlangan 'o'latxon boshchiligidagi qo'zg'olon tor-mor etildi. Qo'qon xonligi tugatildi va Farg'ona viloyati tashkil qilindi. SHundan so'ng ham o'zbek, tojik, qirg'iz xalqlari kurashni davom ettiraverdilar. Ozodlik harakati Farg'onadan Oloyga ko'chirildi. Qurbonjon dodxoxTurkiy xalqlarning jasur o'g'illari bilan general Skobelev qo'shinlariga qarshi kurash olib bordi. 1876 yil 31 iyulda Mung'ish va adig'ina urug'i vakillari taslim bo'lsalarda, Qurbonjon dodho to'xtamadi. General Skobelev tinchlik shartnomasi tuzish uchun o'z vakilini dodhox xuzuriga yuborganda, u faqat mavqei o'zi bilan teng bo'lgan sarkarda bilan muzokara olib borishi mumkinligini bildirdi. SHundan so'ng Skobelev o'zi ayol qo'mondon bilan uchrashib, muzokara olib borishga va u qo'ygan takliflarga rozi bo'lishga majbur bo'ldi. Bu esa ayol qo'mondon Qurbonjon dodhohning Skobelev ustidan qozongan ma'naviy va ruhiy g'alabasi bo'lib hisoblanadi. SHunday qilib, faqatgina 1877 yil yanvardagina Farg'ona vodiysida nisbatan tinchlik o'rnatildi. Qo'zg'olon bostirildi, lekin u yo'qolib ketmadi.

XIX asr oxirlariga kelganda Turkistonda vaziyat yanada keskinlasha boshladi. 'axtachilik rivojlantirilib, o'lkaning xom ashyo manbai va tayyor mahsulotlar bozoriga aylantirilishining salbiy oqibatlari shaharlar aholisiga ham tahsir etmay qolmadi. CHunki, 'axta xomashyo sifatida olib ketilib tayyor gazlama sifatida Turkistonga olib kelinar edi. Mahalliy hunarmandlar to'qigan gazlamalar esa raqobatga bardosh bera omay hunarmandlar xonavayron bo'la boshladi. Qishloqlarda esa bir 'archa yeridan ajralgan dehqon tirikchilik dardida shaharlarga kelib izg'ib yurar, mardikorchilik qilar edilar. Bunday ahvol Toshkentda ham yuzaga keldi. Buning ustiga 1892 yil 7 iyulda Toshkentda vabo kasalligi tarqalganligi aniqlandi. CHor hukumati tomonidan vaboga qarshi qo'llanilgan kurash choralarida mahalliy sharoit, diniy urfodat aqidalar hisobga olinmagani vaziyatni keskinlashtiridi. Buning ustiga rus vrachlari kasalxonadagi bemorlarni o'ldirish uchun zaharli kukun dorisi beraya'ti degan mish-mish tarqaldi. Va nihoyat mahalliy oqsoqollardan Yoqubbek va uning tarafdorlarini hukumatga qilgan laganbardorligi aholi g'azabini nihoyatda kuchaytirdi. Toshkentda "Vabo isyoni" nomini olgan harakat boshlandi. Aholi CHor hukumat maxkamasini o'rab olib toshbo'ron qildi. Soldatlar bian to'qnashuv bo'ldi. Qo'zg'olonchilardan bir necha kishi o'ldirilgach qo'zg'olon to'xtadi. 60 kishi hibsga olindi. Rus mahmuriyati qo'zg'olonning aybini birinchi navbatda bir guruh yuqori tabaqa vakillari bo'yniga qo'yishga harakat qilib, uning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy zaminlarini

berkitmoqchi bo'ldi. Garchi bu qo'zg'olon ham yengilgan bo'lsada, u mustamlakachilik siyosati va milliy zulmga qaratilgan kurash sifatida o'chmas iz qoldirdi.

Mustamlakachilik siyosati bir tomondan halq hayotining og'irlashuviga, ikkinchi tomondan mahalliy yuqori tabaqa vakillarining manfaatlariga zarba berishga olib keldi. Jamiyat ma'naviy hayotining asosiy yo'naltiruvchi bo'limi islom dinining kamsitilishi va uning moddiy asoslarini cheklab qo'yilishi, din 'eshvolarining ham bosh ko'tarishiga olib keldi. Vatan va din ozodligi uchun kurash bir-biri bilan uzviy bog'lanib, umummillat harakati sifatida gavdalandi. 1898 yilgi qo'zg'olon Mingte'a, Tojik, Qashqar singari qishloqlardan boshlandi. Bu yerlarda halqning chuqur hurmatiga sazovor bo'lgan Muhammadali Xalfa Sobir o'g'li - Dukchi Eshon obro'li din 'eshvolaridan hisoblangan.

Dukchi Eshon rus hukumati tomonidan olib borilayotgan mustamlakachilik siyosatini milliy zulm va dinning siqib qo'yilganligining jonli guvoh bo'lgan. Umuman olganda, Dukchi Eshon bir 'archa yerdan mahrum bo'lgan kambag'al dehqonlar, shahar kambag'allari uchun umid va ishonch ramziga aylangan. 1898 yil 17 may kechqurun Dukchi Eshon boshchiligidagi olomon Andijon tomonga yo'l oldi. Yo'lda Qutchi, Barxon, Rabot, Darxon, Sariqo'y, Ko'kcha singari qishloqlardan o'tdilar. Bu qishloq odamlari ham qo'zg'olonchilariga qo'shildi. Ular orasida Susamir va Norindan kelgan qirg'izlar ham bor edi. Dukchi Eshon ming nafar 'iyoda va ming nafar otliq olomon bilan shahar harbiy garnizoniga hujum qildi. Ular kazarmada 30 ga yaqin miltiqni o'lja qilib, uxlab yotgan soldatlar ustiga tanshlandilar. 22 soldat o'ldirildi, 24 kishi jarohatlandi. Jang maydonida qo'zg'olonchilardan 15 kishini jasad qoldi. Qo'zg'olonchilar ko'plab yaradorlar va halok bo'lganlarning jasadini olib ketib yashirindilar. Qo'zg'olonning tahsiri butun o'lkani, ayniqsa, Farg'ona vodiysini qo'lab oldi. Qo'zg'olonida Andijon, Namangan, O'sh uezdlariga qarashli Mingte'a, Asaka, Qorate'a, Quva, SHahrixon, Novqat, Oqbura, Buloqboshi, Aravon, Segao'in, Yozevon, Yakkatut, Kogat, Susamir, Kengqo'l, Qorag'ir singari qishloq va bo'lislarning aholisi faol qatnashdi. Lekin qo'zg'olon yengildi. Qo'zg'olonchilardan 777 kishi hibsga olinib tergov qilindi, 415 kishi sud qilindi. 380 kishi dastlab o'lim jazosiga mahkum qilinsada, im'erator "marxamati" bilan 18 kishi osib o'ldirildi 362 kishi turli jazolarga tortildi. Qushchi, Tojik, Qashqar qishloqlaridan 680 xonadon Qaqir dashtiga ko'chirildi. Keyinchalik bu yer Marxamat nomini oldi.

1898 yil 12 iyun kuni Andijonning yangi shaharidagi Tu'roqqo'rg'onda Dukchi Eshon boshchiligidagi qo'zg'olonning yirik vakillari dorga osildi.

XX asr boshlarida, ayniqsa, 1914 yilda boshlangan birinchi jahon urushi natijasida Turkiston xalqlariga qilinayotgan zulm yanada kuchaydi. Front ehtiyojlari uchun xalqni talash avjiga chiqdi. SHunday bir og'ir 'aytda 1916 yil 25 iyunda podsho Nikolay II farmon chiqardi. Unga ko'ra front orqasidagi xizmatlar uchun Turkiston, Sibir, Kavkazdan 19 yoshdan 43 yoshgacha bo'lgan erkaklarni safarbar qilish ko'zda tutilgan edi. Bu farmonga ko'ra, joylarda mardikorlik ro'yxati tuzila boshlandi. Ro'yxatga asosan kambag'allar kiritildi. Bazi oilalardan 2-3 erkak ro'yxatga olingan bo'lsa, bazi oilalardan yagona bo'lgan erkak ham ro'yxatga tirkaldi. Bu narsa uning oilasi, xotin bola chaqalari boquvchisiz qoldi degan gap edi. Bularning hammasi usiz ham sabr kosasi to'lgan xalqni qo'zg'olonga boshladi. Qo'zg'olon 4 iyul kuni Xo'jandda boshlandi. U yerda 6000 kishi namoyishga chiqdi. 'olitsiya va soldatlar o'qidan 3 kishi o'ldirildi, 4 kishi yarador bo'ldi. Qo'zg'olon Farg'ona vodiysida ham avjiga chiqdi. Qo'qon shahri va uning atrofidagi qishloqlarda qo'zg'olon ayovsiz bostirildi. Marg'ilondagi chiqishlarda 2500 odam qatnashgan. Olomon bozor maydoniga sig'magach, qo'shni ko'chalarni ham to'ldirgan. Halqqa zulm qilgan boylardan anchasi o'ldirilib mahmuriy binolarga o't qo'yilgan. Qo'zg'olonchilardan 8 kishi o'ldirilgan 63 kishi qamoqqa olingan. Qo'zg'olon Andijon va Namanganning ko'plab shahar qishloqlarini qamrab olgan. Vaziyat Toshkentda ham keskinlashdi. 11 iyulda Toshkent shahrida g'alayon boshlanib ketdi. Ishchilar, shahar kambag'allari, hunarmandlar, atrofda kelgan dehqonlar Beshyog'och 'olitsiya mahkamasi oldida to'lanib, bolalarimizni bermaymiz., deb qichqirdilar. Toshkent qo'zg'olonida ayollar ham faol qatnashganlar. Qo'zg'olonchilarga qarshi katta qo'shin tashlandi. To'qnashuvda 11 kishi o'ldirildi, 15 kishi jarohatlandi.

Xalq qo'zg'oloni, ayniqsa, Jizzax shahrida nihoyatda kuchli bo'ldi. Bu yerda 13 iyulda Nazir Xo'ja va mulla Maxamat Raim boshchiligida xalq bosh ko'tarib chiqdi. Ular 13-17 iyul kunlari shahar va uning atrofidagi harbiy qismlarga, mahmuriyat vakillariga qarshi hujum qilganlar Temir yo'l izlarini ko'chirganlar, ko'priklar va uylarni yondirganlar, telefon simlarini uzganlar, temir yo'l kazarmalarini ostin-ustun qilganlar. Qo'zg'olinchilar Jizzax uездining boshlig'i 'olkovnik Rukin, 'olitsiya shtabs ka'itani Zotoglev, tarjimon Mirza Hamdam Zokirjonov, oqsoqol Mirzayor Xudoyorov va boshqalarni o'ldiradilar. CHor mahmuriyati Jizzax qo'zg'oloni qatnashchilarini yaxshiylarcha jazoladi. SHahar, ko'plab qishloqlar yer bilan yakson qilindi. SHahar aholisi cho'lga haydaldi. Hatto Jizzax fojeasi 'eterburgdagi yig'ilishda muxokama qilindi. Bu ishni tekshirgan Duma a'zosi Kerenskiy xulosasiga ko'ra CHor mahmuriyati o'ta shafqatsizlik qilgan. Jazo eks'editsiyasi faqat erkaklarni emas, balki ayollar va bolalarni ham qirib tashlagan. Aholi turar joylarini shu qadar vayron qilganki, bunaqasi urush maydonlarida ham bo'lmagan. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, 1916 yil qo'zg'oloni milliy zulmga, o'lkani xomashyo manbai va tayyor mahsulotlar bozoriga aylantirishga qarshi qaratilgan edi. Unda ayollarning ham qatnashishi muhim voqeadir. Qo'zg'olon shahar kambag'allari, dehqonlar ommasi, ayrim yuqori tabaqa vakillarini qamrab oldi. Qo'zg'olon o'zbek va o'lkadagi boshqa xalqlarning mustaqillik, ozodlik uchun olib borgan kurashlari tarixida o'chmas iz qoldirdi.

XX asr boshlarida 'axtachilik Turkiston sanoati va qishloq xo'jaligi yal'i mahsulotning 40 foizini tashkil etgan bo'lsa, don - 34 foiz, chorvachilik 15,8 foiz, boshqa sohalar 1,2 foizni tashkil qilardi.

Turkistonda temir yo'l qurilishi va sanoat korxonalarining vujudga kelishi tufayli asta-sekinlik bilan mahalliy ishchilar sinfi ham shakllana boshladi. Ularni asosan yeridan ajralgan dehqonlar va xonavayron bo'lgan hunarmandlar tashkil qilar edi. Turkiston ishchilar sinfining ahvoli ham jiddiy edi. Zotan uning shakllanish jarayoni ham mustamlakachilik sharoitida o'ziga xos bo'lgan. XX asr boshlarida Rossiya markazidagi inqilobiy harakatlar, ish tashlashlar, sotsial demokratik harakatlar Turkistonga ham yetib kela boshladi. 1904 yilda Toshkentda sotsial - demokratlar va sotsial revolyutsioner (eserlar)ning "Ittifoq guruhi" tashkil to'di. Bu ittifoq a'zolari ishchilar o'rtasida bir nechta to'garaklar tuzdi, hitobnoma va varaqalar chiqardi. 1905 yil fevralida "Ittifoq guruhi" Toshkent ishchilarining birinchi ish tashlashini uyushtirdi. Orenburg - Toshkent temir yo'li ustaxonalari ishchilari 19 fevral kuni ishga chiqmay, mahmuriyatga o'z talabnomalarini jo'natdilar. Bu guruh bir necha siyosiy chiqishlar ham tashkil qildilar. 1905 yil martida undan sotsial-demokratlar ajralib chiqib, RSDR' ning Toshkent guruhini tashkil etdilar. Bu guruh 1 may voqealarini tashkil qildi, 3 ta varaqa chiqardi. Sotsial-demokratik tashkilotlar, guruhlar Samarqand, Qo'qon, Marg'ilon, Namangan shaharlarida ham tashkil to'gan edi. O'zbek ishchilaridan Sultonxo'ja Akbarxo'ja Qosimjo'jaevlar, Nizomiddin Xo'jaev, Mirzaahmad Mirxodiev va boshqalar Turkiston milliy ozodlik va inqilobiy harakatlarida salmoqli o'rin egallaganlar.

1905 yilda boshlangan 1-rus inqilobi yillarida Turkistonda ham ishchilar, dehqonlar harakati avj oldi. RSDR' ning Toshkent guruhi va eerlar 15 oktyabrda Toshkent va Qo'qon temiryo'lichilarining, 16 oktyabrda Andijon, CHorjo'y, 17 oktyabrda Samarqand ishchilarining harakatiga boshchilik qildilar.

Birinchi rus inqilobi ravrida qishloqlarda ham sinfiy kurash kuchaydi. Dehqon g'alayonlari, ayniqsa, 1905 yil fevral'-aprel oylarida o'tkazilgan saylovlar 'aytida avj oldi. Bunday g'alayonlar Samarqand, Andijon, Farg'ona va Sirdaryo viloyatlarida avj oldi. Dehqonlar oqsoqollar saylovida hukumat tomonidan ko'rsatilgan kishilarni saylashdan bosh tortdilar. Natijada ba'zi joylarda to'qnashuvlar kelib chiqdi. Qishloqlardagi sinfiy kurashlar natijasida Namoz 'irimqulov kabi kurashchilar yetishib chiqdi. Namoz 'irimqulov 1904-1907 yillarda Samarqand atrofidagi qishloqlarda, tog'larda o'z yigitlari bilan birga qasoskorona kurash olib bordi. U birinchi navbatda xalqqa zulm o'tkazgan boylar, savdogarlar, sudxo'r va yirik mulkdorlarning mol-mulkini torib olib, xalqqa bo'lib berdi. Uning guruhi goh kechasi goh kunduzi to'satdan paydo bo'lib mingboshi, yuzboshi, qishloq oqsoqoli va boylarning uylari,

qo'rg'onlariga hujum uyushtirib, ularning mol mulkini musodara qilar edi. U Og'aliq qishlog'idan oqsoqol Nazar Muxammad. Arabxona qishlog'idan mingboshi Xidirboev, mingboshi Lutfulla Xo'jaev va boshqa juda ko'plab chor mahmulariga sidqidildan xizmat qilganlarni jazosini bergan.

Namoz 'irimqulovning "jinoiy ishlari" haqidagi Ma'lumotlar 12 jildni tashkil qilganligi u olib borgan ishlarning ko'lamini bildiradi. Namoz 'irimqulovning "jasorati", qo'lga tushmasligini Samarqand harbiy gubernatori Gesket ham tan olgan. Namoz har qancha tahqibdan ham qochib qutilishini, uni aholi qo'llab-quvvatlashi, Samarqand va Toshkent mahmuriyatida ham odamlari bo'lib, zarur axborotlar, qurol-yarog'lar bilan tahminlab turganligini yozgan. 1905 yil kuzida volost' boshlig'i sotqin L.Xo'jaev xabaridan so'ng Namoz va uning safdoshlari qo'lga olinadi. Lekin u 50 yigiti bilan turma ostidan laxm kavlab qochib ketadi. Namoz otryadiga qarshi jangovor kazak diviziyasi yuboriladi. "O'zbek Dubrovskiysi" nomini olgan Namoz 'irimqulovga qarshi kurash oson kechmadi. "Namoz o'eratsiyasi" uchun Samarqand viloyat harbiy gubernatori yordamchisi 'olkovnik Susanin javobgar qilib tayinlandi. Unga rus armiyasining kavelariya generali Said Abdulaxadxon ham jalb qilindi. Buxoro chegarasida 12 ta, Samarqand va Kattaqo'rg'on tumanlarida 10 ta kuzatuv 'osti tashkil qilindi. 1907 yil iyunda Namoz o'ldirildi. Turkiston general-gubernatori Namoz o'limidan juda xursand bo'ladi. Bu kurashda "o'rnak ko'rsatgan"larni oltin, kumush nishonlar bilan mukofotlaydi. Namozning o'limidan keyin ham qishloqlarda uning safdoshlari kurashni davom ettirdilar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, XX asr boshlarida Turkiston shahar va qishloqlaridagi kurashlar mahalliy aholining mustamlakachilar zulmiga, siyosatiga qarshi qaratilgan ozodlik kurashlarining davomi edi.

3. CHor Rossiyasi O'rta Osiyoni mustamlakaga aylantirib, uni ka'italistik ishlab chiqarish munosabatlariga tortgandan so'ng, Turkistonda milliy burjuaziya, savdo-sanoat egalari shakllana boshladi. Lekin chorizm milliy burjuaziyaning paydo bo'lishidan manfaatdor emas edi. CHunki qulay fursat kelishi bilan milliy burjuaziya vakillarini o'z xalqi bilan birlashib, chorizmga qarshi chiqishidan cho'chir edi. SHuning uchun o'sib kelayotgan o'zbek mahalliy burjuaziyasining iqtisodiy va siyosiy huquqlarini cheklashga intilar edi. CHor hukumati Turkiston xalqlarini har tomonlama ezib, mustamlakachilik zulmini kuchaytirayotgan bir 'aytda o'lkada millat manfaatini o'ylydigan taraqqiy'arvar kuchlar ham bo'lib, ular turli tabaqalarga: hunarmand, dehqon, burjuaziya va ruhoniylarga mansub edilar. Ular xalqning milliy ongini o'stirish, o'zligini anglatishni mahrifatdan qidiradilar.

Bunday kishilar - jadidlar deb nomlandi. Jadidchilik harakatining turk dunyosidagi g'oyaviy otasi Qrim tatar farzandi Ismoil Gas'irali (Gas'irinskiy) hisoblanadi. U turli ilmlardan xabardor, bir necha chet tillarni mukammal bilgan, ilm-fan yutuqlari bilan tanishgan. Musulmon turkiy olamini jahon mahrifati, ilmiy darajasiga ko'tarish maqsadini qo'yadi. Rossiya mustamlakasida bo'lgan musulmon hududlarida maorifni isloh qilish, ularda diniy tahlim bilan birga dunyoviy bilimlarni o'qitish masalasini ko'taradi. 1884 yilda Qrimdagi Boqchasaroyda jadid maktabini ochib, o'zi tuzgan dastur va darslik asosida 40 kunda 12 o'quchining savodini chiqardi. Bu usul - xarf tovush usuli, "usuli jadid" nomi bilan tez shuhrat qozonadi. Ismoil Gas'irinskiy o'z g'oyalarini "Tarjimon" gazetasi orqali targ'ib qiladi. 1888 yilda "Rahbari muallimin" yoki muallimlarga yo'ldosh" kitobini nashrdan chiqardi. Unda jadid maktablarini qurish, dars tashkil qilish, o'tish mazmuni, jihozlanishi, dars jadvali, tahtillar, imtihonlarni tashkil qilish ko'rsatib berilgan. 1893 yilda Ismoliy Gas'irinskiy Turkistonga keldi. Ziyolilar vakillari bilan uchrashdi. Buxoro amiri xuzurida bo'lib, uni zo'rg'a 1 ta jadid maktabi ochishga ko'ndiradi. Biroq ruhoniylar qutqusiga uchgan amir Buxorodagi yangi fikr tarafdorlarini zindonga tashlaydi. I.Gas'irinskiy 1904 yilda Buxoroga yana kelib, amir bilan muzokaralar olib boradi va uning otasi nomi bilan ataluvchi "Muzaffariya" jadid maktabini ochishga ruxsat oldi. Gas'irinskiyning Turkistonga safari o'lkada jadidchilik xarakatini rivojlanishi va keng yoyilishiga ta'sir qildi. 1903 yilda Turkiston o'lkasida 102 ta boshlang'ich va 2 ta o'rta jadid maktabi bor edi. XX asr boshlarida jadidlardan Maxmudxo'ja Behbudiy, S.Ayniy, A.Avloniy, Munavvar Qori, Fitrat keyinchalik Hamza CHO'l'on va boshqalar vatanparvar va millat'arvar

yoshlarni tarbiyalashdek ishga bosh bo'ldilar. Jadidlarning Turkiston ozodligi uchun kurashida asosan uch yo'nalish mavjud bo'lgan. Bular: yangi usul maktablarini ochish; umidli yoshlarni chet elga o'qishga yuborish; turli mahrifiy jamiyatlarni tuzish va ziyolilarning firqasini tashkil qilish edi. Jadidlar bir necha matbuot organlarini tashkil qilganlar. 1906 yilda "Taraqqiy", "Xurshid" gazetalari. 1907 yilda "SHuhrat" gazetasi chiqarildi. M.Behbudiy 1913 yilda "Samarqand" gazetasini chiqardi. 1913 yil 20 avgustdan "Oyna" jurnali, 1914 yildan "Sadoyi Turkiston" va boshqalar nashr qilindi. 1909 yilda Munavvar qori maslakdosh do'stlari bilan "Jamiyati xayriya"ni tashkil qiladi. Bu jamiyat "Dorul ojizin"ni ochib, bir necha o'jiz va bechoralarni tarbiyaga oladi, bir necha maktab va madrasalarga 100 so'm, 200 so'mdan xayriyalar beradi. 60 ta faqir va bechora bolalarni turli maktablarda o'qitadi. Jadidlar bu jamiyat orqali Rossiya va Turkiyadagi oliy o'quv yurtlariga yoshlarni yuborib o'qitish bilan ham jiddiy shug'ullanardilar. 1910 yilda Ufadagi "Oliya" madrasasida 10 dan ortiq o'zbek o'qigan. Bu yillarda Moskva, 'eterburg, Varshava va Olmoniyada ham o'zbeklar o'qiganlar. Buxoroda tashkil qilingan "Tarbiyan aftol" jamiyati 1911 yilda 11 ta, 1912 yilda 30 ta talabani Turkiyaga o'qishga jo'natdi. Rossiyada adliya sohasi bo'yicha tahlil olgan Asadulaxo'ja o'g'li Ubaydullaxo'ja o'zbek ziyolilarining "Taraqqiy'arvarlar" firqasini tuzadi. Firqa 1914 yildan "Sadoyi Turkiston" gazetasini chiqaradi. Gazeta atrofiga M.Behbudiy, Munavvarqori, A.Qodiriy, A.Avloniy X.H.Niyoziy, Lutfullo Olimiy, CHo'l'on va boshqalar uyushib, Turkiston xalqlari tarixi, madaniyati, istiqboli haqida ko'plab maqola, hikoya, qissalar e'lon qilganlar.

O'zbek teatr sanhatiga ham birinchi bo'lib jadidlar asos solganlar M.Behbudiyning "adarkush" 'hesasi o'zbek dramachiligining birinchi namunasi hisoblanadi. "adarkush" 1914 yil 15 yanvarda Samarqandda sahnaga qo'yiladi. Bu 'hesa 1914 yil 27 fevralda Toshkentdagi Kolizey binosida A.Avloniyning "Turon" gru'asi tomonidan qo'yiladi. A.Avloniyning o'z ham rol' o'ynaydi. S'ektlar oldidan Munavvar qori nutq so'zlab, teatrning xalqqa foydasi haqida gapiradi. A.Avloniy esdaliklariga ko'ra, bu s'ektlar 1914-1916 yillarda Farg'onaning ko'plab shaharlarida ko'rsatilgan.

Jadidlar maktablar ochish bilan birga, qator darsliklar ham yaratganlar. Masalan, M.Behbudiyning "Muntahabi jug'rofiyo umumiy" (Qisqacha umumiy geografiya), "Kitobatul aftol (Bolalar maktablari), "Muxtasari tarixi islom" (Islomning qisqacha tarixi), "Madxali jug'rofiyon umroniy" (Aholi geografiyasiga kirish), "Muxtasar jug'rofiyon Rusiy" (Rusiyaning qisqacha geografiyasi), Hamzaning boshlang'ich sinflar uchun alfbosi va boshqalar shular jumlasidandir.

Xulosa qilib aytganda, Turkiston jadidlari, o'zlarining butun faoliyatlarini Turkiston xalqlarini, mahrifatli, madaniyatli qilishga qaratdilar. Bu ishda M.Behbudiy, Munavvarqori, A.Avloniy, A.Qodiriy, Ayniy, Hamza, Fitrat, Botu, CHo'l'on va boshqalarning xizmatlari katta bo'ldi. CHunonchi, O'zbekiston prezidenti I.Karimov "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" asarida aytganlaridek, XX asr boshidagi mahrifatchilik harakati namoyondalari boylik uchun, shon-shuhrat uchun maydonga chiqishmadi. Ular maktablar ochgani, xalqni o'z haq-huquqlarini tanishga dahvat etganlari uchun birov maosh to'lamagan. Ular o't bilan o'ynashayotganlarini, istibdodga qarshi kurashayotganliklari uchun ayovsiz jazolanishlarini oldindan bilishgan. Bilaturib ongli ravishda mana shu yo'ldan borganlar. CHunki vijdonlari, iymonlari shunga dahvat etgan.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Temur va temuriylardan keyingi davrda Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat qanday edi?
2. Ko'chmanchi o'zbeklar kimlar edi va ularning Turkiston xududiga bostirib kirishi o'lkaga qanday tahsir ko'rsatdi?

3. Turkiston qanday sabablarga ko'ra xonliklarga bo'linib ketdi?
4. Turkiston xonliklari o'z boshidan qanday ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotni kechirmoqda edi?
5. Turkistonning xonliklarga bo'linib ketishi qanday oqibatlarni keltirib chiqardi?
6. Rus' va G'arb davlatlarining O'rta Osiyoga qiziqishi qachon va qanday boshlandi?
7. Rossiyaning O'rta Osiyoga dastlabki hujumlari qanday oqibatlar bilan tugadi?
8. Rossiya tomonidan O'rta Osiyoni zabt etishning uzoq muddatli strategik rejalarini asosiy sabablari nimada?
9. O'rta Osiyo bosib olingandan keyin Rossiya o'zining mustamlakachilik tartiblarini qanday amalga oshirdi va xalq uni qanday qabul qildi?
10. Rossiyaning mustamlakachilik siyosati va uning mahalliy xalqlar madaniyatini qanday tushkunliklarga olib keldi?
11. O'rta Osiyo xalqlari hayotini ruslashtirish siyosati va uning mahalliy xalqlar madaniyatini qanday tushkunliklarga olib keldi?
12. Rossiya mustamlakachilik siyosatidan ma'naviy qadriyatlarimiz ko'pgina yo'qotishlarga qaramasdan qanday va qanchalik saqlanib qoldi?
13. Yuqoridagi fikrlarga asoslanib mustamlakachilik siyosati va u keltirib chiqargan asoratlarga, o'zingizni o'sha davrda yashayotgan hisoblasangiz, qanday harakat qilgan bo'lar edingiz?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov T.A. O'zbekiston : milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T, O'zbekiston. 1993.
2. Karimov I.A. Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman. «Fidokor» gazetasi. 8 iyun' 2000 yil.
3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T.SHArq. 1998.
4. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. Toshkent. "O'zbekiston". 1996 yil.
5. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasini xalqni-xalq, millatni -millat qilishga xizmat etsin. Toshkent, "O'zbekiston", 1998 yil.
6. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Toshkent. "SHArq" nashriyot-matbaa Bosh tahririyati. 1998 il.
7. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. Toshkent. "O'zbekiston". 1992 yil.
8. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Islom Karimovning YuNESKO Ijroiya Kengashi sessiyasining 155-yakunlovchi Majlisida so'zlagan nutqi. "Xalq so'zi" gazetasi 7 noyabr' 1998 yil.
9. Abu Toxirxo'ja. Samariya: Narshaxiy. Buxoro tarixi. Bayoniy. SHajarai Xorazmshohiy. Ibrat. Farg'ona tarixi. T.Meros. 1991.
10. Ahmedov B. O'zbekiston xalqlari tarixi manbalari. T., O'zbekiston. 1991.
11. Karimov SH., SHamsutdinov R. Vatan tarixi. T.O'qituvchi. 1997.
12. O'zbekiston tarixi. T.Universtitet. 1997.
13. Aliev A. Mahmudxo'ja Behbudiy. Toshkent. "Yozuvchi". 1994 yil.
14. Bobobekov H.N. Qo'qon tarixi. Toshkent, "Fan", 1996 yil.
15. Ziyoev H. Turkistonga Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. T. "SHArq", 1998 yil.

6-MA'RUZA:

**Turkistonda sovet xokimiyatining o'rnatilishi va unga qarshi qurolli xarakat.
Sovet xokimiyatining O'zbekistonda amalga oshirgan siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy tadbirlari
va ularning mustamlakachilik mohiyati.**

REJA:

1. Turkiston muxtoriyatining tashqil topishi va faoliyati.
2. Buxoro amirligi va Xiva xonligidagi ijtimoiy-siyosiy ahvol.
3. 20-yillaridagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy vaziyat.
4. O'rta Osiyoda milliy-davlat chegaralanishining o'tkazilishi.

TAYANCH IBORALAR

1917 yil fevral' burjua - demokratik inqilobi , Sovetlar, Kasaba uyushmalari, Turkiston komiteti, "SHo'roi Islomiya", "SHo'roi ulamo", Muvaqqat hukumat, Turkiston o'lka musulmonlari Soveti, 1917 yil oktyabr' to'ntarishi, Turkiston muxtoriyati, qarshilik ko'rsatish harakati, "Muvaqqat Farg'ona xukumati", Qizil armiya, milliy-ozodlik urushi, 'artizanlar xarakati, Sovet xokimiyati, Turkiston ASSR, "Harbiy kommunizm", g'alla mono'oliyasi, revolyutsiyani eks'ort qilish, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi, Xorazm Xalq Sovet Respublikasi. Industrlashtirish, qishloq xo'jaligi jamoatlashtirish, industrial-agrar Respublika, koo'erativ, zarbdor qurilishlar, quloqlar, kolxoz, MTS, 'axta yakkaxokimligi,

1917 yilning fevralida 'etrogradda burjua-demokratik inqilob g'alaba qozondi. podsho Nikolay 11 taxtdan voz kechdi. Xokimiyat muvaqqat xukumat qo'liga o'tdi. Monarxiyaning ag'darilishi mamlakatning demokratik taraqqiyot yo'liga o'tishiga imkoniyat yaratdi. Siyosiy maxbuslar qamoqxonalardan ozod etildi. Barcha siyosiy tashkilotlar va 'artiyalar oshkora faoliyat ko'rsata boshladilar. Ishchi, soldat va dexqon de'utatlari Sovetlari, kasaba uyushmalari tashkil to'di. So'z erkinligi, matbuot erkinligi va boshqa demokratik erkinliklar quloch yoza boshladi. Mamlakat axolisining aksariyat ko'pchiligi, shu jumladan Rossiyaning mustamlakasi bo'lmish Turkiston xalqi xam inqilobni qizg'in kutib oldi. O'lkani qator shahar va qishloqlarida bo'lib o'tgan miting va namoyishlarda xalq ommasi yangi xokimiyatni qo'llab-quvvatladi. Turkiston aholisi inqilob tufayli mustamlakachilik zulmidan qutulishga umid bog'ladi.

Monarxiya ag'darilgandan so'ng o'lkamizda xokimiyat Muvaqqat xukumatning mahalliy organi bo'lgan Turkiston komiteti qo'lga o'tdi. Uning tarkibiga rusiyzabon aholi vakillari bilan birga Bukeyxonov, Tanishboev, Maqsudov va Davletshin singari maxalliy xalq vakillari xam kirdilar. Joylarda xokimiyat turli jamoat tashkilotlarini birlashtirgan ijroiya komitetlari qo'lga o'tdi.

Inqilob Turkistonning musulmon aholisini ham siyosiy kurash jabxasiga tortdi. Mahalliy aholining demokratik kuchlari uyusha boshladilar. Ularga jadidlar rahbarlik qilar edilar. 1917 yilning mart oyida Toshkentda "SHo'roi Islomiya" jamiyati tashkil to'di. Bu jamiyat va uning joylardagi tashkilotlari mahalliy aholi de'utatlari Sovetlari vazifasini bajarar edi. "SHo'roi Islomiya"ning tashabbusi bilan a'el oyida chaqirilgan Turkiston musulmonlarining 1 o'lka qurultoyi Muvaqqat xukumatni qo'llab-quvvatladadi va federativ demokratik Rossiya tarkibida Turkistonga muxtoriyat berish g'oyasini o'rtaga tashladi. Lekin hademay milliy demokratlarning safida bo'linish ro'y berdi. Iyun oyida ruxoniylar va ularning tarafdorlari "sho'royi ulamo" deb nomlangan tashkilotni tuzdilar. "SHo'royi Islomiya"dan farqli o'laroq "SHo'royi ulamo" tarafdorlari jamiyatda shariat qonunlarining ustivorligini tahmin etishni istar edilar. SHuni ham tahkidlab o'tish kerakki, xokimiyat te'asida turgan Muvaqqat xukumat birinchi galda yirik burjuaziya va 'omeshchiklarning manfaatlarini ifoda etardi. SHu boisdan bu xukumat xalq ommasining eng asosiy talablarini bajarishga shoshilmasdi. Mehnatkashlarga juda ko'p kulfatlar keltrigan birinchi jaxon urushunini to'xtatish va 'omeshchik yer egaligini tagatish ana shunday

masalalar jumlasiga kirardi. Ustiga-ustak urush oqibatida mamlakatdagi iqtisodiy axvol tobora yomonlashib bordi: narx-navolar oshdi, oziq - ovqat tahminoti yomonlashdi. Bularning xammasi aholining bir qismida norozilik kayfiyatlarini uyg'otdi. Odamlarning Muvaqqat hukumatdan ixlosi qaytdi. Bol'sheviklar va boshqa so'l 'artiyalar yuzaga kelgan vaziyatdan ustalik bilan foydalandilar. Ular rus ishchilari, kambag'al dexqonlar va soldatlar orasida tashviqotni kuchaytirdilar. Bol'sheviklar ommani sotsialistik inqilobni amalga oshirishga, mamlakatda 'roletariat diktaturasini o'rnatishga dahvat etdilar.

Iqtisodiy qiyinchiliklar va oziq-ovqat tahminotining yomonlashganligini ro'kach qilib, Toshkent shahar ishchi va soldat de'utatlari Soveti sentyabr' oyida bolsheviklarning inqilobiy rejalarini amalga oshirishga urindilar. Ularning chaqirig'i bilan Toshkent ko'chalariga chiqqan ishchi va soldatlar hokimiyatni qo'lga olishga urinib ko'rdilar. Lekin Turkiston Sovetlarining ko'pchiligi va o'lkada milliy tashkilotlar Toshkentdagi sentyabr' voqealarini qoraladilar. Muvaqqat xukumat tomonidan yuborilgan general Korovichenko boshchiligidagi jazo eks'editsiyasi shaxardagi tartibsizliklarni bostirishga muvaffaq bo'ldi.

Sentyabr' voqealaridan keyin Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat kundan-kunga keskinlashib bordi. Ocharchilik kuchaydi, aholining turmush darajasi keskin 'asaydi. Oqibatda kambag'al aholi orasida norozilik kayfiyatlari oshdi. 1917 yil 27 oktyabrda 'etrograddan telegramma olindi. Telegrammada 'oytaxtda qurolli qo'zg'olon g'alaba qozonganligi va xokimiyat Sovetlarning qo'lga o'tganligi, Lenin boshchiligidagi yangi xukumat tuzilganligi ma'lum qilingan edi. Bu habar Toshkentdagi voqealar rivojini tezlashtirdi. 28 oktyabrda bu yerda shahar Sovetining tashabbusi bilan qurolli qo'zg'olon boshlandi. Qo'zg'olonda asosan rus ishchi va soldatlari ishtirok etdilar. 3 kunlik janglardan so'ng hokimiyat Toshkent Sovetining qo'lga o'tdi. Oktyabr' to'ntarishi mamlakatda sodir bo'layotgan demokratik jarayonning to'xtab qolishiga sabab bo'ldi. Tahsis Majlisiga saylovlar o'tkazilib, yangi qonuniy boshqaruv tizimi vujudga kelayotgan bir 'aytda bol'sheviklarning tashviqotiga uchgan ishchi va soldatlar zo'ravonlik yo'li bilan hokimiyatni Sovetlar qo'lga olib berdilar. Bu hol Turkiston aholisining katta qismida norozilik uyg'otdi. Turkiston o'lka Soveti, O'lka musulmonlar soveti va boshqa jamoat tashkilotlari bu qonli voqeani qoraladilar. Masalan, 1917 yil 6 noyabrda Samarqand shahrida bo'lib, o'tgan shahar Soveti va demokratik tashkilotning qo'shma yig'ilishida "etrogradda bolsheviklar tomonidan xokimiyatning qo'lga olinishi butun mamlakatda demokratiya emas, balki bol'sheviklar amrini o'tkazishdir" deb tahkidladi. Yig'ilish qatnashchilari Toshkentdagi oktyabr' voqealariga quyidagicha munosabat bildirdilar: "Toshkentdagi dahshatli voqealar demokratik tashkilotlarning faol ishtirokida taftish etilsin va bu voqealarning aybdorlari darhol javobgarlikka tortilsin". Lekan o'sha 'aytda real harbiy kuchga ega bo'lgan xamda 'o'ulistik, ommaga xush yoqadigan shiorlarni o'ziga qurol qilib olgan sovetlar va bol'sheviklar 'artiyasi bunday talablarni mutlaqo inobatga olmadilar. Turkistonning tub joyli axolisi ular taklif etgan sotsialistik taraqqiyot yo'lga qarshi ekanligini hisobga olmay, hokimiyatga mahkam yo'ishib oldilar va o'lkada Sovet hokimiyati tizimini bar'o eta boshladilar.

15-22 noyabrda Toshkentda o'lka Sovetlarining 111 shezdi bo'lib o'tdi. Shezdada muhokama qilngan masalalarning eng asosiysi xokimiyat masalasi edi. Bol'shevik-de'utatlar bu masalaga sinfiy asosda yondashishni va o'lkada 'roletar xokimiyatni tashkil etishni taklif etdilar. O'ng eserlar va men'sheviklar esa koalitsion hukumat tuzish, bu xukumatni tashkil etishda barcha demokratik tashkilotlarning ishtirokini tahmin etish xamda xukumatdagi o'rinlarning yarmini musulmon aholisi vakillariga berishni yoqlab chiqdilar. Hokimiyat masalasini muhokama etish juda qizg'in o'tdi. Shezdada mazkur masala bo'yicha "SHo'roi ulamo" tashkilotining rahbari SHerali La'in ham o'z fikrini bildirdi. U " musulmonlar o'lkada faqatgina bitta inqilobiy demokratiya hukm surishiga qarshi turadilar" deb aytdi. "Musulmonlar butun xokimiyatni talab qila olsalar-da biroq kelgindi unsurlarga yon berib, ularning vakillarini xukumatga kiritadi", dedi notiq. SH.La'in " hukumatni boshqacha tashkil etishda musulmonlar qatnashmaydilar", deb ogoxlantirdi. Nutqning oxirida u musulmonlar " mamlakatni tahsis

Majlisiga olib boradigan hokimiyatni qo'llab-quvvatlaydilar", dedi. SH.La'inning nutqidan musulmonlar sovet xokimiyatini tan olmasligi ayon bo'lib qoldi.

SH.La'in nutqini muhokama qilish chog'ida men'shevik Vanshteyn o'lka Soveti tarkibiga musulmonlar vakillarini kiritishni taklif etdi. Biroq uning bu taklifi delegatlar tomonidan quvvatlanmadi, Shezd rezolyutsiyasida ochiqdan-ochiq bunday deyiladi: "Hozirgi 'aytda musulmonlarni o'lka inqilobiy hukumati organiga kiritish mahalliy aholining soldat, ishchi va dexqon de'utatlari Sovetiga munosabatining butkul noaniqligi, mahalliy aholi orasida sinfiy tashkilotlarning yo'qligi tufayli nomatlubdir". SHunday qilib, Oktyabr' to'ntarishidan keyingi dastlabki kunlardayoq Sovetlar hamda ularda ko'pchilikni tashkil etgan bol'sheviklar va so'l eserlar katta siyosiy xatolikka yo'l qo'ydilar. Ular Turkiston xalqlarini o'z taqdirini o'zi hal qilish huquqidan mahrum etdilar. Mahalliy millat vakillari hatto o'lkani boshqarish ishiga ham jalb qilinmadi. Sovet hokimiyati chor hukumatining shovinistik siyosatini davom ettirdi.

Ana shunday sharoitda musulmon tashkilotlari hokimiyatni o'z qo'llariga olishga va Turkiston uchun muxtoriyat maqomini olishga qaror qildilar. 1917 yilning 26 noyabrida Qo'qonda Turkiston musulmonlarining IV favqulodda qurultoyi o'z ishini boshladi. Qurultoyning kun tartibida Turkiston muxtoriyatini tahsis etish asosiy o'rin egalladi. Mazkur masala bo'yicha qabul qilingan rezolyutsiyada shunday deyiladi: "Shezd Turkistonda yashovchi millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilashga asoslanib, Turkistonni Federativ Rossiya Respublikasi tarkibida xududiy jihatdan muxtor deb e'lon qiladi, shu bilan birga muxtoriyatning qaror topishi shakllarini Tahsis Majlisiga havola etadi". Qurultoy Turkistonda yashayotgan milliy ozchilik axoli xuquqlarining muttasil himoya qilinishini tantanali ravishda e'lon qildi. 28 noyabrda bo'lajak davlat tuzilmasining nomi "Turkiston muxtoriyati" deb belgilandi. Qurultoyda Muvaqqat hukumat tuzildi. Hukumat boshlig'i etib "Alash O'rda" 'artiyasining rahbari injener M.Tanishboev saylandi.

Turkiston muxtoriyatining e'lon qilinishi o'lkada siyosiy vaziyatni keskinlashtirib yubordi. Toshkentdagi Turkiston sovet xukumat ham, Qo'qondagi muxtor xukumat ham o'zlarini o'lkada yagona qonuniy xukumat deb bilar edilar. Turkistondagi ayrim siyosiy tashkilotlar va 'artiyalar sovet xukumatini, boshqalar esa muxtor xukumatni tan olishlarini ma'lum qildilar. Bu ikki xukumat o'rtasidagi ixtilofni muzokara yo'li bilan xal etishga urinishlar natija bermadi. SHO'rolar davrida Turkiston muxtoriyatining tariximizda tutgan o'rniga to'g'ri baho berilmadi. Muxtoriyat aksiinqilobiy harakat, reaksion unsurlar va burjua millatchilarining harakati sifatida talqin etildi. Muxtoriyatni qoralash yo'lida ochiq tuhmat va bo'xtonlardan ham toymaydilar. Masalan, "O'zbekiston SSR tarixi" kitobining 3-jildida quyidagi satrlarni o'qishimiz mumkin: "Qo'qon muxtoriyati" 'roletariat diktaturasini, ag'darib, feodalizm tuzumini qayta tiklash va Turkistonni Angliyaning mustamlakasiga aylantirishni maqsad qilib qo'ydi". To'g'ri, muxtoriyatchilar 'roletariat diktaturasi va sotsialistik tuzumga qarshi edilar, chunki bu tuzum o'zbek xalqi va Turkistonning boshqa xalqlari uchun tamoman yot edi. Keyingi tarixiy taraqqiyot sotsializmni ijtimoiy tuzum sifatida inkor etganligi xammamizga ayondir. Demak, Turkiston muxtoriyati tarafdorlari boshidayoq sotsialistik taraqqiyot yo'lga qarshi chiqib, to'g'ri ish qilgan edilar. Lekin muxtoriyatchilarni "Feodolizm tuzumini qayta tiklash"da va Turkistonni "Angliya mustamlakasiga" aylantirmoqchi bo'lganlikda ayblash biron-bir tarixiy faktga asoslanmagan bo'xtondir. Turkiston muxtoriyatining tashkilotchilari feodalizmni emas, balki burjua-demokratik taraqqiyot yo'li tarafdorlari edilar. O'sha sharoitda ular taklif etgan yo'l taraqqiyotning eng maqbul yo'li ekanligi shubhasizdir. Nihoyat, Turkiston xur va mustaqil davlat bo'lishini orzu qilgan muxtoriyatchilar uni yana boshqa bir davlatning mustamlakasi bo'lishini xoxlashlari mumkinmi? Muxtoriyatchilarni millatchilikda ayblash ham asossiz dahvodir. Muxtor xukumatga rusiyazon, aholi vakillari kiritilgan edi. Turkistonning bo'lajak 'arlamentida o'rinlarning 1/3 qismi yevropalik, aholi vakillariga berilishi ko'zda tutilgan edi.

SHuni ham tahkidlab o'tish kerakki, sovet tarixchilari muxtoriyat shahniga turli bo'xtonlar yog'dirgan bir 'aytda xorijdagi tarixchilar Turkiston muxtoriyati, haqida e'tiborga sazovor fikrlarni bayon etganlar. Jumladan, X.Seton-Uotson, J.Uiler, E.D.Ankos singari

tadqiqotchilar “Qo’qon muxtoriyati xalq irodasini ifodalagan hamda Turkiston ozodligi tarafdorlari bo’lgan xalq vakillari” ekanligini tahkidlaganlar. Muxtoriyat shahriga yog’dirilgan tuhmatlardan yana biri shuki, bu xukumat go’yo xalq ommasini tomonidan qo’llab - quvvatlanmagan emish. Faktlarga murojaat qilaylik. “Ulug’ Turkiston” gazetasining habar berishicha, 1918 yilning 7-10 yanvarida Qo’qon shahrida Turkiston sotsial-inqilobchilarining II shezdi bo’lib o’tidi. Shezdda Qo’qon, Skobelev, Andijon, Marv, Samarqand, Asxobod, Qizil-Arvot shaharlari va neft’ konlaridan vakillar qatnashdilar. Delegatlar bir ovozdan muxtoriyatni qo’llab-quvvatlash xaqida qaror qabul qildilar. Bundan tashqari bol’sheviklar va sovet xokimiyatiga nisbatan muxolifatda bo’lgan kadetlar, sobiq chor armiyasining ofitserlari, eski mahmuriyat xodimlari Turkiston muxtoriyatini yagona qonuniy xukumat deb tan oldilar. O’lkaning turli shahar va qishloqlarida muxtoriyatni qo’llab-quvvatlash maqsadida miting va namoyishlar bo’lib o’tidi. Lekin bu namoyish qonli to’qnashuv bilan tugadi, namoyishchilardan 15 kishi, askarlardan 1 kishi xalok bo’ldi. Miting va namoyishlar davomida muxtoriyat xazinasiga mablag’ to’lganligi ham aholi Turkiston muxtor hukumatiga xayrihoh ekanligining isbotidir. 1917 yilning dekabr’ oyida Turkiston muxtor hukumati boshlig’i M.Tanishboev istefoga chiqdi. Uning o’rniga M. Cho’qayev bosh vazir etib saylandi. Yangi xukumat boshlig’i keskin siyosiy vaziyatni imkon boricha sovetlar bilan muzokara olib borish yo’li bilan hal etishga xarakat qildi. Lekin muxtoriyatchilarning ekstremistik kayfiyatdagi bir qismi Ergash qo’rboshi boshchiligidagi masalani qurolli yo’l bilan hal qilishga intildilar. 1918 yilning yanvarida o’lka Sovetlarining IV sezdi muxtoriyatni tarqatib yuborish xaqida qaror qabul qilganidan so’ng bunday kayfiyatlar yanada kuchaydi. Ergash qo’rboshi qo’shinlari Qo’qonning yangi shaxriga xujumlar uyushtirdilar, nahar qalhasini shturm bilan olmoqchi bo’ldilar. Lekin qalhani olish ularga nasib etmadi. SHundan so’ng o’lka sovet xukumati muxtoriyatni harbiy yo’l bilan bostirishga kirishdi. Skobelev va Toshkent shaharlaridan Qo’qonga harbiy kuchlar yuborildi. 1918 yil 19 fevral soat 13 da qizil gvardiyachi askarlar Qo’qonning eski shahrini zambaraklardan, o’qqa tuta boshladilar. Ertasi kuni 20 fevralda shaharga qizil askarlar kirib keldilar. Bir necha kun davomida shaxarda shiddatli janglar bo’lib o’tidi. Voqeaning guvohi bo’lgan shaxslarning guvohlik berishicha, “ruxoniylar boshchilik qilgan xalq ommasini bironta binoni, bironta omborni, bironta savdo korxonasi va karvonsaroyini jangsiz dushmanga topshirmas edilar”. Ammo kuchlar teng emas edi. Qizillar harbiy jixatdan beqiyos darajada ustun edilar. SHuning uchun ham uch kunlik janglardan so’ng Ergash qo’roboshining yigitlari shaharni tashlab ketishga majbur bo’ldilar. Vahimaga tushgan Qo’qon axolisi shaharni tark etib boshladi. SHahar qizil askarlar va dashnaklar tomonidan talon-taroj qilindi. Qo’qon uch kecha-kunduz olov ichida qoldi. Uylar, manufaktura va don omborlari yonib kul bo’ldi. Qurbon bo’lgan odamlarning soni manbalarda turlicha ko’rsatilgan: birida 1 ming kishi, boshqasida 1,5 ming, uchinchisida esa 10 ming kishi qurbon bo’ldi, deb berilmoqda. O’sha vaqtda Qo’qonda ingliz razvedkasi xodimi shaxid bo’lganlar soni 3 ming kishi bo’lganligi ko’rsatib o’tadi. Muxtor hukumatiga aloqador bo’lgan 30 kishi qamoqqa olindi. Ularning ayrimlari qo’lga tushishi bilanoq sudsiz otib tashlandi. SHunday qilib, rus revolyutsiyasining shiorlariga ishonib Turkistonni muxtor jumxuriyatga aylantirish sari qilingan dastlabki xarakat shovinistik kayfiyatdagi o’lka sho’ro hukumati tomonidan qonga botirildi. Turkiston xalqlarining milliy mustaqillikka erishish borasidagi orzusi sarobga aylandi. Farg’ona vodiysi va Turkiston o’lkasining barcha shahar va qishloqlarida sovet xokimiyati o’rnatildi. Bol’sheviklar o’z dasturiy maqsadlarini amalga oshira boshladilar. Xususiy mulk natsionalizatsiya qilindi. Daxriylikni o’ziga shior qilib olgan Sovet hokimiyati dinni tahqib etib boshladi. Barcha ijtimoiy jarayonlarga sinfiylik nuqtai nazaridan yondoshgan yangi xokimiyat inson’arvarlik, adolat va diyonat, inson xuquqlari, qonun ustivorligi singari azaliy qadriyatlarni oyoqosti qila boshladi. Sovet hokimiyati dastlabki kunlardan o’zining mustabid tuzum ekanligini namoyon etdi. Markaziy Osiyo xalqlari 70 yildan ziyodroq muddat davomida ana shunday mustabid tuzum sharoitida yashashga majbur bo’ldilar. Turkiston muxtoriyatining tor-mor etilishi Farg’onada mahalliy axoliga nisbatan boshlanib ketgan zo’ravonlik va terrorchilik harakatining debochasi edi. Qo’qon qonli voqealaridan so’ng iqtisodiy va ma’naviy sohalarida ham tub joyli aholining milliy manfaatlariga,

diniy ehtiqlik va anhanalariga zid bo'lgan siyosat olib borildi. Sanoat korxonalarining natsionalizatsiya qilinishi, aholining boy qatlamlariga solingan kontributsiyalar, otlar va oziq - ovqatlarning rekvizitsiya qilinishi, qizil askarlar tomondan sodir qilingan zo'ravonlik va talonchilik, eski diniy maktab va madrasalarning yo'ilishi, qozilar sudining bekor qilinishi, vaqf yerlarining musodara etilishi ana shular jumlasidandir. Natijada Farg'ona va boshqa viloyatlarda mahalliy aholining keng qatlamlari SHo'rolar hokimiyatiga qarshi qurolli kurash boshladi. Asosan 1918-1924 yillarda bo'lib o'tgan bu qurolli kurash sovet davrida "bosmachilik xarakati", xozirgi kunda esa "qarshilik ko'rsatish xarakati" deb atalmoqda. Bizningcha bu xarakatni "Turkiston xalqlarining milliy-ozodlik kurashi" deb atash to'g'riroq bo'lardi. Istiqloqlilik xarakati ya'ni Turkiston ozodligi va mustaqilligi uchun kurash Rossiyaning yurtimizni bosib olishidan to 1991 yilgacha, Markaziy Osiyo Respublikalari istiqloqlolga erishguncha qadar davom etgan. 1918-1924 yillardagi voqealar esa o'zining ko'lam va usullari jihatidan istiqloqlilik xarakatining alohida bir davrini tashkil etadi va tom mahnoda yurtimiz mustaqilligi uchun olib borilgan ozodlik urushi edi. Milliy-ozodlik urushida Markaziy Osiyo tub joyli aholisining keng qatlamlari - dexqonlar, xunarmandlar, burjuaziya, ruhoniylar, qisman ishchilar va ziyolilar qatnashdilar. Ularning asosiy maqsadi mustabid sovet rejimini ag'darish va Turkistonni mustaqil davlatga aylantirish edi. O'lka rusiyzabon aholisining bir qismi qarshilik ko'rsatish tomonida turib, SHo'rolar xokimiyatiga qarshi kurash olib bordi. Ular jumlasiga sobiq chor armiyasining ofitserlari, eski mahmuriyat amaldorlari, kazaklar, ka'italistlar va quloqlar kirardilar. Rus aksiinqilobchilari bol'sheviklar zo'rlik bilan tiqishtirayotgan sotsialistik tuzumga qarshi bo'lib, Turkistonni burjua Rossiya Respublikasi tarkibida bo'lishini istardilar.

Milliy ozodlik urushi jarayonida qarshilik ko'rsatish xarakatining yo'lboshchilari - qo'rboshilar yetishib chiqdilar. Ayniqsa Kichik va Katta Ergashlar, Madaminbek, SHermuxammadbek, Ibroximbek Laqay, Mulla Abduqaxxor, Junaydxon qo'rboshilar xarakatda muhim rol o'ynadilar. Milliy ozodlik urushi Turkiston muxtoriyati bostirilishi bilanoq boshlandi. Ozodlik kurashi bayrog'ini birinchi bo'lib Kichik Ergash ko'tardi. Qo'qon yaqinidagi Bachqir qishlog'ini o'ziga qarorgoh qilib olgan Kichik Ergash qizillarga qarshi muvaffaqiyatli janglar olib bordi. Janglardan birida Kichik Ergash xalok bo'lgandan so'ng qo'rboshilik lavozimini shu yerlik Katta Ergash o'z zimmasiga oldi. Birmuncha keyinroq istiqloql uchun kurashga Madaminbek qo'shildi. Madaminbek tuzgan qurolli dastalar Marg'ilon shahri atroflarida harakat qila boshladilar. O'sh tomonlarla Xolxo'ja eshon, Namangan uezdida Qobilbek va SHermuxammadbeklar boshchiligida SHo'ro xokimiyatiga qarshi qurolli kurash boshlanib ketdi. 1918 yilning martida Bachqir qishlog'ida bo'lib o'tgan Farg'ona qo'rboshilari qurultoyida yagona qo'mondonlik tuzishga qaror qilindi. Ergash qo'rboshi oliy bosh qo'mondon - amirulmuslimin etib saylandi.

Sovet xokimiyati Farg'onada boshlanib ketgan xalq harakatiga to'g'ri siyosiy baho bermadi. 'artiya va sovet rahbarlari bu qurolli harakat ag'darib tashlangan eks'luatator sinflar - burjuaziya, feodallar va ruhoniylar sinfiy kurashining bir shakli deb baxoladilar. SHunga yarasha xalq harakatini tugatishning birdan-bir yo'li kuch ishlatish deb ehtirof etildi. Sovet xokimiyati mahalliy xalqni qarshilik ko'rsatishga "xomiylik qilish", ularni qo'llab-quvvatlashda ayblab, aholiga nisbatan terror usulini qo'llay boshladi. Bunga javoban mahalliy xalq vakillarining katta qismi qarshilik ko'rsatish sifiga kelib qo'shildi. Kurash tobora keskin tus ola boshladi. Qisqa muddat davomida butun Farg'ona jangovor harakatlar maydoniga aylandi. Biroq tayinli yuir front chizig'i yo'q edi. Bu aslida butun viloyatga yoyilgan 'artizanlar urushi edi. 1918 yilning kuzida istiqloql uchun kurashchilarning soni 15 ming kishiga yetib bordi.

1919 yilning bahorida mustaqillik uchun olib borilgan urush keng quloch yozdi. Madaminbek boshchiligidagi otryadlarning yirik o'eratsiyalari Namangan atroflarida boshlandi. Andijon uezdida Mahkam xoji otryadlari jang olib bordi. SHermuxammadbek esa Marg'ilonni egalladi. Qarshilik ko'rsatishning yirik jangovor kuchlari Qo'qon va Jalolobod uchun kurash olib bordilar. Deyarli butun Farg'ona vodiysi qo'rboshilar otryadlarining nazorati ostiga o'tdi.

SHo'rolar hokimiyati amalda faqat shaharlarda, temir yo'l stantsiyalari va konlarda saqlanib qoldi.

Musulmon kommunistlar bu harakatni kuch bilan bostirishga qarshi chiqdilar. Ular qarshilik ko'rsatish uchun umumiy avf e'lon qilishni talab qildilar. Turkiston ASSR Markaziy Ijroiya Komiteti bu talabni inobatga olib, 1919 yilning 7 mayida umumiy avf e'lon qildi. Lekin bu tadbir kutilgan natijani bermadi, chunki "xarbiy kommunizm" siyosati doirasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar, ya'ni oziq-ovqat razvyortkasining joriy etilishi, g'alla mono'oliyasi, bozorlarni bекitish va hokazo - ijtimoiy-siyosiy vaziyatni yanada keskinlashtirdi va qarshilik ko'rsatish saflariga yangidan-yangi kuchlarning kelib qo'shilishiga sabab bo'ldi. Mustaqillik uchun olib borilgan qurolli harakatlar Samarqand va Sirdaryo viloyatlariga ham yoyildi.

Rus muhojir dehqonlaridan tuzilgan o'z-o'zini himoya qilish otryadlari dastaavval qarshilik ko'rsatishga qarshi harakat qilgan edi. Lekin "xarbiy kommunizm" siyosati joriy etilgandan so'ng rus dehqonlarining sovet xokimiyatidan ixlosi qaytdi. Ularning otryadlari Monstrov qo'mondonligi ostida alohida Dexqonlar armiyasiga birlashib, SHo'rolarga qarshi kurash boshladilar. Madaminbek barcha antisovet kuchlarni birlashtirish maqsadida 1919 yil 1 sentyabrda Dexqonlar armiyasi bilan ittifoq tuzdi. SHundan so'ng Farg'ona vodiysida yirik xujum o'ratsiyalari o'tkazildi. Birlashgan kuchlar 8 sentyabrda O'sh shahrini qo'lga kiritdilar. 10 sentyabrda Andijon qamali boshlandi. Qarshilik ko'rsatish bir oylik janglar davomida shaharni ololmadilar va qizillarning tazyiqi ostida Oloy tomonga chekindilar. 22 oktyabrda Ergashtomda o'tkazilgan qo'rboshilar qurultoyida Muvaqqat Farg'ona xukumati tuzildi. Madaminbek xukumat boshlig'i va bosh qo'mondon etib, Monstrov esa uning o'rinbosari etib saylandilar. Sovet hokimiyatiga qarshi harbiy harakatlar yana davom ettirildi.

Ammo 1919 yilning oxirlarida Markaziy Osiyodagi siyosiy vaziyat SHo'rolar hokimiyati foydasiga o'zgara boshladi. Birinchidan, markazdan uzilib qolgan Turkiston Kolchak va Denikinlar armiyalari va ataman Dutovning dastalari tor-mor etilishi natijasida Orenburg orqali Rossiya bilan bog'landi. Rossiyadan Turkistonga yangi xarbiy kuchlar olib kelinishi imkoniyati tug'ildi. Ikkinchidan, sovet davlati Farg'onada xo'jalik hayotini tiklash, ularga moddiy va moliyaviy yordam berishni yo'lga qo'ydi. Uchinchidan, sovet organlari aholi orasida tashviqot va targ'ibot ishlarini kuchaytirdilar. Ana shular natijasida urushdan toliqqan dexqonlar tinchgina turmush kechirish umidida o'z xonadonlariga qaytib kela boshladilar.. Bu esa istiqloqlilik xarakatining ijtimoiy bazasini ma'lum darajada torayishiga olib keldi.

Ana shunday vaziyatda 1920 yilning yanvar'-fevral' oylarida Qizil armiyaning qarshilik ko'rsatishning asosiy bazalariga qarshi o'tkazgan xarbiy o'ratsiyalari muvaffaqiyat qozondi. Ergash qo'rboshining Bachqirdagi bazasi ishg'ol etildi, uning o'zi esa jangda halok bo'ldi. Rus Dehqonlar armiyasi ham tor-mor etilib, uning qo'mondoni Monstrov asirga olindi. Namangan, Mingte'a-Aravon va 'aytug'-Uchqo'rg'on rayonlarida Madaminbek, SHermuxammadbek va qarshilik ko'rsatishning boshqa yirik qo'shilmalariga anchagina shikast yetkazildi. Bularning xammasi qarshilik ko'rsatishning ruhiyatiga salbiy ta'hir ko'rsatdi. Ayrim qo'rboshilar orasida ixtiyoriy sovet xokimiyati tarafiga o'tish kayfiyatlari paydo bo'ldi. Norin bilan Qoradaryoning qo'shilish joyida yirik mag'lubiyatga uchragan Madaminbek o'zining asosiy kuchlarini saqlab qolish maqsadida 1920 yilning 6 martida 2-Turkiston diviziyasi qo'mondonligi bilan tinchlik bitimini imzolashga majbur bo'ldi. Madaminbekning talabi bilan shartnomaga quyidagi so'zlar yozib qo'yildi "Turkiston fuqarolari hayotini tashkil etishda Sovet hokimiyati shariat asoslarini saqlab qoladi, mexnatkash aholi manfaatlarini himoya qiladi..." Madaminbek va boshqa taslim bo'lgan qo'rboshilarning otryadlari qayta tuzilib, ulardan alohida 'olk tashkil etildi va 2-turkiston diviziyasi tarkibiga kiritildi.

Qo'rboshilarning xali tor-mor etilmagan otryadlari Farg'onaning janubidagi Oloy tog'lari tomoniga chiqib ketishga muvaffaq bo'ldilar. Endi qarshilik ko'rsatishga umumiy rahbarlik qilish SHermuxammadbekning qo'lga o'tdi. Taslim bo'lmagan qo'rboshilar Madaminbekning xatti-xarakatini qoraladilar. Muzokaralar olib borish uchun Xolxo'ja va

SHermuxammadbeklarning xuzuriga kelgan Madaminbek ular tomonidan o'ldirildi. Ilgari sovet xokimiyati tomoniga o'tgan ayrim qo'rboshilar yana qaytib SHermuxammadbekka qo'shildilar. Kurash yana shiddat bilan davom etdi. Ikkala tomon xam tezroq dushman ustidan g'alaba qozonishga intilib, faqat qurol kuchiga ishonar va terrordan xam qaytmas edilar. Tinch aholi ikkala tomondan ham iskanjaga olinar edi.

SHermuxammadbek ozodlik urushiga tashkiliy tus berishga urindi. 1920 yil uning rahbarligida Muvaqqat Turkiston xukumati tuzildi. Oziq-ovqat to'rlash, otlar tayyorlash uchun maxsus guruxlar tashkil etildi. Bu guruhning hatti-harakatlari aholining noroziligini uyg'otdi. Sovetlar o'z tashviqotida bundan ustalik bilan foydalandilar. Bundan qathiy nazar, SHermuxammadbek umumiy qo'mondonlik qilgan qarshilik ko'rsatish kurashini davom ettiraverdilar. Ular hatto Jalolobod shahrini egallashga muvaffaq bo'ldilar. Lekin yaxshi qurollangan va yaxshi harbiy tahlim olgan qizil armiyaning zarbalari ostida qarshilik ko'rsatish yana Farg'ona vodiysining tog'li janubiy qismiga chekinishga majbur bo'ldilar. 1922 yilning oxirlarida SHermuxammadbek Afg'onistonga o'tib ketdi. SHundan so'ng yana ikki yil Farg'onaning tog'li rayonlarida qarshilik ko'rsatishning harakatlari davom etdi. Bu xarakat bora-bora susayib, 1924 yilga kelib barxam to'di.

1920 yildan boshlab milliy-ozodlik urushining ko'lami kengayib, u deyarli butun Markaziy Osiyo xududlariga yeyildi. Bu asosan Buxoro amirligi va Xiva xonligining tugatilishi va bu yerda xam mustabid sovet tuzumining o'rnatilishi bilan bog'liq edi. Oktyabr to'ntarishidan so'ng sovet davlati nomiga bo'lsa-da bu davlatning mustaqilligini tan oldi. Amalda esa sovet hukumati ularning ichki ishlariga aralashar, Buxoro va Xivaga ham sotsialistik inqilobni esk'ortlashga intilar edi. 1918 yil mart oyida Turkiston sovet hukumati rahbari Kolesov boshchiligidagi qizil qo'shinlar birinchi marta Buxoroga xujum qildilar. Ularning bu yurishi muvaffaqiyatsizlikka uchragan bo'lsada, sovet rahbariyati o'z maqsadidan qaytmadi. Markaziy frontlarda g'alabalarga erishib, sovet davlatining siyosiy ahvoli birmuncha mustaxkamlangandan so'ng, ular yana bu ikki xonlikka qarshi harbiy agressiya tayyorlashga kirishdilar. 1919 yilning noyabr oyida Skalov boshchiligidagi harbiy qo'shilmalar "yosh xivaliklar" firqasining dahvati bilan Xiva xonligiga bostirib kirdilar. Ikki oy davom etgan janglardan so'ng qizillar xonlik xududlarini okku'atsiya qildilar. So'nggi Xiva xoni Said Abdulla taxtdan voz kechdi. Xivaning amaldagi diktatori Junaydaxon Qoraqum tomonga chekindi. 1920 yilning a'relida Xorazm Xalq sovet Respublikasining tuzilganligi e'lon qilindi. Yosh xivalik 'Yusu'ov boshchiligidagi yangi hukumat tuzildi.

1920 yilning 28 avgustida Frunze qo'mondonligi ostida qizil armiyaning qismlari Buxoro amirligiga xujum boshladilar. Katta ustunlikka ega bo'lgan qizillar uch kunlik janglardan so'ng Eski Buxoroni shturm bilan qo'lga oldilar. Amir Sayid Olimxon oldin Boysun va Dushanbe tomonlarga qochdi, so'ngra Afg'onistonga o'tib ketishga majbur bo'ldi. 6 oktyabrda amirning yozgi qarorgohi - Sitorai Mohi Xossada xalq vakillarining I Butunbuxoro qurultoyi o'z ishini boshladi. Qurultoy Buxoroni xalq sovet Respublikasi deb e'lon qildi. Yosh buxorolik F.Xo'jaev boshchiligidagi yangi hukumat mamlakatni boshqara boshladi.

Yosh xivaliklar va yosh buxoroliklar o'z mamlakatlarida burjua-demokratik tartiblarni o'rnatishga intilar edilar. Lekin Sovet davlati rahbarlari ularni o'z bilganlaricha siyosat yuritish imkoniyatidan mahrum etdilar. Sovet davlati Buxoro va Xorazm Respublikalarida xam sotsialistik o'zgarishlarni amalga oshirila boshlandi.

Bunga javoban Buxoro va Xorazmda ham qarshilik ko'rsatish harakati boshlanib ketdi. Qarshilik ko'rsatish Buxoro va Xivaning davlat mustaqilligini tiklash, o'z vatanlarida o'zlari hohlagan tarzda xayot kechirish uchun kurashga otlandilar.

Xorazmda istiqlolchilik harakatining eng kuchaygan davri 1924 yilga to'g'ri keldi. Bu Xorazm Respublikasida jadallik bilan amalga oshirila boshlangan sotsialistik isloxotlar bilan bog'liq edi. SHu yilning yanvar oyida Xorazmdagi barcha antisovet kuchlar birlashib, bunday siyosatga qarshi isyon ko'tardilar. 'itnak rayonida harakat qilgan Madraximboy otryadi kommunistlar, komsomollar va militsionerlarni qamoqqa olib, sovet muassasalarini ostin-ustun qilib tashladilar. Xazoras'da Sobirboy, Matchonbek va SHokirjon'ir boshchiligidagi dastalar

Madraximboy otryadiga kelib qo'shildilar. Bog'ot, Xonqa, Yangiariq, Saduvar va boshqa joylarda ham qo'zg'olonlar boshlanib ketdi. Barcha dasta otryadlar birlashib taxminan 10 ming kishilik olomon Xiva tomon yurish boshladi. Qoraqumda yashirinib yurgan Junaydaxon xam 8 mingga yaqin yigitlari bilan Xivaga yo'l oldi. Qarshilik ko'rsatish Toshovuq, Mang'it, Gurlan, SHovot, G'ozibodni egallab, 10 yanvarda Xivaga yaqinlashdilar. SHahar yaqinida ikki xafta davomida shiddatli janglar bo'lib o'tdi. 25 yanvarda Turkistondan yordamga kelgan qizil askarlar qarshi xujumga o'tib, qarshilik ko'rsatishni Xivadan chekinishga majbur etdilar. Junaydaxon bu gal xam Qoraqumga chekindi. U 1929 yilgacha SHo'rolarga qarshi kurashdi, so'ngra Eron orqali Afg'onistonga o'tib ketdi.

Buxoroda qarshilik ko'rsatish harakati SHo'rolar hokimiyati o'rnatilishi bilan oq vujudga keldi. Bu kurashga dastavval amir Sayid Olimxon, amir xorijga ketib qolgach, Anvar'oshsho va Ibroximbeklar boshchilik qildilar. 1922 yilning 1 yanvarida Ibroximbek Dushanbeni oldi. Taxminan 10 ming kishidan iborat qarshilik ko'rsatish butun SHarqiy Buxoroni o'z nazorasi ostiga oldilar. Qarshilik ko'rsatish Buxoro atroflarida ham faol harakatlar boshlab yubordilar. Nurotani o'ziga tayanch bazasi qilib olgan Mulla Abuqaxxor birin-ketin shahar va qishloqlarni SHo'rolardan tozalay boshladi. Qisqa muddatga ular Buxoroni xam olishga muvaffaq bo'ldilar. Lekin Buxoro sho'ro hukumatiga yordamga kelgan qizil armiyaning muntazam qismlari ularni shaharni tashlab ketishga majbur etdilar. 1922 yil 28 mayda Nurota yaqinida Mulla Abduqaxxor dastalari tor-mor etildi. Anvar'oshsho boshchiligida qo'shinlar esa 1922 yilning iyul-avgust oylarida avval Boysun rayonida, keyinchalik Xovaling-Baljuvon rayonida mag'lubiyatga uchradi. Anvar'oshshoning o'zi jangda xalok bo'ldi. Ammo Ibroximbek, Salim'oshsho, Davlatmandbiy boshchiligidagi qarshilik ko'rsatish bundan keyin xam kurashni davom ettirdilar. 1925 yilning sentyabrida og'ir tengsiz janglarda mag'lubiyatga uchragan Ibroximbek o'zining 5 ming nafar askari bilan Afg'oniston xududiga o'tib ketishga majbur bo'ldi. Afg'onistonda yuzaga kelgan og'ir siyosiy vaziyatdan kelib chiqib, Ibroximbek va uning yigitlari vatanga qaytish, xukumatga taslim bo'lish va tinch mehnat bilan shug'ullanishga qaror qildilar. SHu niyatda 1929 yilda Tojikistonga qaytib kelgan Ibroximbekning o'zi asirga olinib, 1932 yilda Toshkentda otib tashlandi.

SHunday qilib, Markaziy Osiyo xalqlarining o'zoq davom etgan milliy-ozodlik urushi ayrim obyektiv va subhektiv sabablarga ko'ra mag'lubiyatga uchradi. Qarshilik ko'rsatish kuchlarining yetarli darajada uyushmaganligi, yagona markazlashgan qo'mondonlikning yo'qligi, urush xarakatlarini olib borishda 'artizanlik usullarining ustivorligi, vatanparvarlarning qurollanishi va harbiy tayyorgarligi yuqori darajada bo'lmaganligi, ayrim qo'rboshilar o'rtasidagi noaxillik va ixtiloflar shular jumlasidandir. Qarshilik ko'rsatishda yagona strategik reja yo'q edi. Farg'ona, Buxoro va Xorazm qarshilik ko'rsatishining harakatlari o'zaro muvofiqlashtirilmadi. Natijada qizillar vatanparvarlar qo'shinlarini aloxida-alohida tor-mor qilishga erishdilar. Milliy ozodlik urushining mag'lubiyati natijasida Markaziy Osiyoda uzil-kesil SHo'rolar xukumati o'rnatildi. Mag'lubiyatga uchrashidan qathi nazar, Markaziy Osiyo xalqlarining 1918-1924 yillardagi milliy-ozodlik urushi katta tarixiy ahamiyatga ega edi. Bu kurashlar davomida hozirgi mustaqil O'zbekiston davlatining poydevori yaratilgan edi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Qarshilik ko'rsatish harakati mag'lubiyatga uchragandan so'ng sovet davlati O'zbekistonda sotsialistik tuzumni bar'o qilishga kirishdi. 20-30-yillar davomida xususiy sektor deyarli butunlay tugatildi. Sanoat, trans'ort, qishloq xo'jaligi va boshqa tarmoqlardagi ko'plab ishlab-chiqarish vositalari davlat yoki kolxoz-koo'rativ mulkiga aylantirildi. Natijada davlat xalq xo'jaligini istalgancha boshqarish imkoniyatiga ega bo'ldi. Mahmuriyatchilik, buyruqbozlik iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy usuliga aylandi.

Urushdan oldingi yillarda O'zbekistonda amalga oshirilgan yirik ijtimoiy tadbirlardan biri – bu industrilashtirish siyosati bo'ldi. 20-yillarning o'rtalarida O'zbekiston qoloq agrar o'lka edi. Respublika sanoati uncha katta bo'lmagan 'axta tozalash, yog'-moy ishlab chiqarish, konserva sanoatidan iborat edi, holos. SHu boisdan Respublikamizda ko'pdan-ko'p sanoat korxonalarining

bar'o etilishi muhim ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega edi. Ammo O'zbekistonda industrlashtirish oson kechmadi. Respublika ishlab chiqaruvchi kuchlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi, milliy ishchilar sinfi va injener-texnik xodimlarning ozligi, aholining savodxonlik darajasining 'astligi – bularning hammasi industrlashtirish jarayonida qo'shimcha qiyinchiliklar tug'dirdi. Lekin bundan qathi nazar xalqimizning fidokorona mehnati, Rossiya va boshqa Respublikalarning qardoshlarcha yordami tufayli 1925-1940 yillarda O'zbekistonimizning industrial saloxiyati beqiyos darajada o'sdi. Yangidan-yangi korxonalarning ishga tushirilishi tufayli Respublikamizda sanoat mahsulotining yal'i xajmi 1925-1928 yillar davomida 55 foizga, 1929-1932 yillarda 230 foizga, 1933-1937 yillarda 243,8 foizga, 1938-1941 yillarda esa 132 foizga oshdi. Farg'ona va Toshkent to'qimachilik kombinatlari, Samarqand, Buxoro va Marg'ilon 'illakashlik fabrikalari, Toshkent 'oyabzal fabrikasi, "Toshsel'mash" zavodi, Kattaqo'rg'on moy-ekstrakt zavodi va ko'plab boshqa korxonalar o'sha davrda bunyod etildi.

Industrlashtirish natijasida Respublikamizda ishchilar sinfining soni keskin oshdi. Ikkinchi besh yillikning ohiriga kelib sanoat ishchilarining soni 130,5 ming kishini tashkil etdi, ularning 36,2 foizi xotin - qizlardan iborat edi. Urushdan oldingi davrdayoq O'zbekiston industrial-agrar Respublikaga aylandi. Xalk xo'jaligida sanoat mahsulotining ulushi 70 foizni tashkil etdi. Yirik sanoat korxonalari bazasida CHirchiq, Bekobod, Kattaqo'rg'on, Yangiyo'l, Quvasoy singari yangi industrial shaharalar qad ko'tardi. Sanoat bilan bir qatorda energetika, temir yo'l, suv va avtomobil' trans'orti hamda aloqa vositalari ham rivojlandi. Bularning hammasi Respublikamiz qiyofasini tubdan o'zgartirib yubordi.

SHu bilan birga industrlashtirish chog'ida ma'lum xatoliklar va nuqsonlarga ham yo'l qo'yildi. O'zbekistonda amalga oshirilgan industrlashtirish siyosatining mustamlakachilik mohiyati avvalo shunda namoyon bo'ldiki, Respublikamizda asosan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan yengil va oziq - ovqat sanoati korxonalari vujudga keltirildi. Og'ir sanoat, mashinasozlik va boshqa yetakchi tarmoqlarni rivojlaitirishga e'tibor berilmadi. Natijada O'zbekiston iqtisodiy jihatdan markazga qaramligicha qolaverdi. Ikkinchidan, yangi qurilayotgan sanoat korxonalarini ishchi va injener-texnik xodimlar bilan tahminlash maqsadida Roosiya dan ko'p kadrlar olib kelindi. Mahalliy millat vakillaridan esa sanoat kadrlarini tayyorlashga yetarli -e'tibor berilmadi. Bunday noto'g'ri siyosatning natijaci shu bo'ldiki, 1937 yilda Respublika ishchilar sinfining atigi 37 foizi mahalliy millat vakillaridan, qolgan qismi esa rusiyazon aholi vakillaridan iborat edi. Uchinchidan, industrlashtirish mahmuriy-buyruqbozlik usullari bilan amalga oshirildi. Sanoat korxonalari qurilishi uchun qo'shimcha mablag'larni izlab topish maqsadida aholi o'rtasida majburiy yo'l bilan zayomlar tarqatildi. Sanoat qurilishlariga odamlarni majburiy ravishda yuborish hollari ham ro'y berdi, qurilishlarda qatag'on qilingan fuqarolarning mehnatidan ham keng foydalanildi. Nihoyat, sanoat qurilishlarida mehnat va turmush sharoiti og'ir edi.

20-yillarning oxiri va 30-yillarda amalga oshirilgan yirik ijtimoiy tadbirlardan yana biri qishloq xo'jaligining kollektivlashtirilishi edi. Umuman olganda tarqoq dehqon xo'jaliklarini yirik xo'jaliklarga birlashtirilishi ijobiy hodisa deb qarash mumkin. Lekin bu jarayon dehqonlarning o'z xoxishi bilan, ixtiyoriy ravishda amalga oshirilishi kerak. Amalda esa 1929 yilda majburiy yo'l bilan dehqonlarni kolxozlarga birlashtirish boshlanib ketdi. Yoppasiga kollektivlashtirish davrida koo'eratsiyaning turli shakllariga barham berilib, faqatgina kolxozlar qoldirildi. Kolxozlarga ishlab chiqarish (tahminot, kredit, sotish, matlubot, ishlab chiqarish vositalarining deyarli barchasi) umumiy jamoa mulkiga aylantirilar edi. Bu esa asrlar osha xususiy tarzda xo'jalik yurgizib kelayotgan dehqonlarning noroziligini tug'dirar edi. Kolxoz tuzish dehqonlarga tazyiq o'tkazish, qonunchilikni buzish sharoitida kechdi. Kolxozga kirishni xohlamagan dehqonlarni saylov huquqidan mahrum etish, ularga yangi tuzum dushmani sifatida qarash odat tusiga kirdi. Kollektivlashtirish jarayonida badavlat dehqonlar tabaqasini tugatish siyosati olib borildi. Ularning mol-mulki musodara qilinib, o'zlari oila a'zolari bilan birga boshqa o'lkalarga ko'chirib yuborilar edi. SHuni ham tahkidlab o'tish kerakki, boy dehqon xo'jaliklarning asosiy qismi 1926-1929 yillarda yer-suv islohoti davridayoq tugatilgan edi.

Ommaviy kollektivlashtirish 'aytida esa asosan o'ziga tinch bo'lgan o'rta hol dehqon xo'jaliklari "quloq" qilindi. Tovar mahsulotning asosiy qismini yetishtirib bergan boy va o'rta hol dehqonlar tabaqasini tugatish iqtisodiy nuqtai nazardan mutlaqo noto'g'ri siyosat edi.

1972 yilning aprel oyiga qadar O'zbekistondagi dehqon xo'jaliklarining 81,7 foizi kollektivlashtirildi. Urush arafasida esa deyarli kolxozga kirmagan dehqon xo'jaligi qolmadi. Ammo kollektivlashtirish kutilgan natija bermadi. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish keskin ko'paymadi, kolxozchilarning turmush darajasi juda 'ast edi. Kolxozchilar arzimas maosh uchun yurakdan chiqarib mehnat qilmas edilar. Kolxoz dalalarida bitta xo'jalikdan bir kishi ishlar edi, qolganlar esa shaxsiy tomarqalarida band edilar. Natijada kolxozlarda surunkali ravishda ishchi kuchi yetishmas edi. O'sha davrdayoq shahardan qishloqqa yordamchilarni olib kelish boshlandi. Bu hol ayniqsa urushdan keyingi yillarda keng rasm bo'ldi.

Kollektivlashtirish jarayonida chorvachilik ayniqsa katta zarar ko'rdi. Dehqonlar o'z uy xayvonlarini kolxozga bermaslik uchun qisman so'yib yubordilar. Natijada yirik va mayda qoramollarning soni keskin kamayib ketadi.

Yoppasiga kollektivlashtirish Respublikamiz qishloq xo'jaligida 'axta yakka hokimligining kuchayishiga shart-sharoit yaratdi. SSSR ning 'axta mustaqilligini tahmin etish shiori ostida 'axta ekin maydonlari muttasil kengayib bordi. Totalitar davlat asoratiga tushib qolgan kolxozlar bunga qarshilik qilolmas edilar 1932 yilga kelib O'zbekiston Sovet Ittifoqida yetishtirilgai 'axtaning 60 foizini berdi. SHu 'aytdan boshlab xorijdan 'axta olib kelish to'xtatildi. Kolxozlarni texnika bilan tahminlash darajasi 'ast edi. O'zbekistonda ko'plab mashina-traktor stantsiyalari /MTSlar/ tashkil etilishiga qaramay, asosiy qishloq xo'jalik ishlari qo'l mehnati yordamida bajarilar edi.

SHunday qilib, ommaviy kollektivlashtirish qishloq xo'jaligida barcha muammolarni yechmadi, aksincha yangidan-yangi muammolarni keltirib chiqardi. Eng asosiysi, kolxozlar dehqonlarni davlat tomonidan eks'luatatsiya qilish vositasiga aylandi 20-30-yillarda O'zbekiston xalq xo'jaligining rivojlanishi madaniyat sohasida ham zamonaviylashtirish jarayonining boshlanishiga olib keldi. Bu davrda madaniy sohada amalga oshirilgan tadbirlar sovet tarixshunosligida "madaniy inqilob" deb atalgan edi. "Madaniy inqilob" murakkab va ziddiyatli ijtimoiy hodisadir. Bir tomondan, fan va madaniyatni rivojlantirish borasida ma'lum bir yutuqlar qo'lga kiritildi. Ikkinchi tomondan esa bu sohada ham talay xatoliklarga yo'l qo'yildi.

Madaniy sohadagi eng asosiy yutuqlardan biri savodsizlikning tugatilishidir. Barcha maktab yoshdagi bolalarni boshlang'ich, yetti va sakkiz yillik maktablarga jalb qilish, katta yoshdagilar uchun maxsus kurslar tashkil etish yo'li bilan aholining yal'i savodxonligiga erishildi. Bu borada X.X.Niyoziy, T.N.Qori-Niyoziy, 'Qayumov singari minglab fidoyi mahrifat'arvarlarning xizmatlari beqiyosdir. Maorifiing rivojlanishi, xalqning savodxonligining oshishi millatning ma'naviy salohiyatining yuksalishiga yordam berdi. Lekin 'artiyaning madaniy sohada ham zo'rlik qilishi tufayli milliy tahlim cheklab qo'yildi. 1928 yilga kelib madrasalar va eski maktablar o'z faoliyatini butunlay to'xtatdilar.

Sovet davrida O'zbekistonda hozirgi zamon oliy va o'rta maxsus tahlim tizimi vujudga keltirildi. 1920 yilda Turkiston davlat universiteti (hozirgi ToshDU) o'z faoliyatini boshladi. Keyinchalik Samarqand, Toshkent, Buxoro, Farg'ona, Andijon va boshqa shaharlarda qator 'edagogika, meditsina, 'olitexnika, qishloq xo'jalik oliy o'quv yurtlari va texnikumlari ochildi. 1937 yilga kelib Respublikamizda 31 oliy va 86 o'rta maxsus o'quv yurti bo'lib, ularda 53 ming talaba tahsil olar edi. Bundan tashqari Moskva, Leningrad va boshqa markaziy shaharlarda yuzlab o'zbekistonlik yoshlar o'qir edilar. F.Xujaev va A.Fitratlarning tashabbusi bilan 20-yillarda bir guruh yoshlar Germaniyaga o'qishga yuborildi. Lekin totalitar sovet tuzumi sharoitida ularning taqdiri ayanchli bo'ldi. Germaniyada o'qib kelgan mutaxassislar keyinchalik qatag'on qilindi. Ularning bir qismi xorijda qolib ketishga majbur bo'ldilar. Oliy va o'rta maxsus tahlimning rivojlanishi milliy ziyolilarni ko'paytirish imkonini berdi. Ayniqsa, tabiiy fanlar, texnika, meditsina singari sohalarda oliy Ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashning yo'lga qo'yilishi Respublikamizning kelajagi uchun muhim ahamiyatga ega edi.

O'zbekistonda fanning rivojlanishiga ham katta e'tibor berildi. 1932 yilda O'zbekiston SSR fan komiteti tuzildi. Bu komitet qoshida ilmiy laboratoriyalar, bo'limlar va ilmiy-tadqiqot institutlari ish olib bordi. 1940 yilda SSSR Fanlar akademiyasining O'zbekiston filiali ish boshladi. Bularning hammasi fan taraqqiyotiga ijobiy ta'sir qildi. Respublikamizda ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytdi. Bu borada birinchilar qatorida fan nomzodi va fan doktori ilmiy darajalarini olishga musharraf bo'lgan 'Soliev, T.Qoriniyoziy, I.Mo'minov, T.Sarimsoqov, Ya.G'ulomov kabi olimlarning xizmatlari salmoqlikdir.

Urushdan oldingi davrda o'zbek adabiyoti va sanhati ham katta yutuqlarni qo'lga kiritdi. Abdulla Qodiriy, S.Ayniy, CHul'on, Usmon Nosir, A.Qahhor, Oybek, X.Olimjon singari shoir va yozuvchilar o'zlarining o'lmas asarlarini yaratdilar. O'zbek adabiyotida qator yangi realistik janrlar paydo bo'ldi. Rus va jahon mumtoz adabiyotining eng yaxshi asarlari o'zbek tiliga tarjima qilinib, nashr etildi. Musiqa sanhati rivojlandi. Yunus Rajabiy, Muxtor Ashrafiy, T.Jalilov, T.Sodiqov singari bastakorlar xalqimizga manzur bo'lgan asarlar yozdilar. Anhanaviy sharqona o'zbek musiqa sanhatiga yevropa musiqasi elementlari va janrlari kirib kela boshladi. O'zbek 'rofessional teatri vujudga keldi. Bu sohada atoqli rejissyor Mannon Uyg'urning xizmati diqqatga sazovordir. Mannon Uyg'ur 1937 yilda Hamza teatrida SHeks'irning "Gamlet" asarini sahnalashtirdi. 1939 yilda birinchi o'zbek o'erasi – M. Ashrafiy va S.Vasilenkolarning "Bo'ron" s'ektaklining 'rem'erasi bo'lib o'tdi. Bir yildan so'ng to'ng'ich o'zbek baleti – "Gulandom" sahna yuzini ko'rdi. O'sha davrda faoliyat ko'rsatgan A.Xidoyatov, S.Eshonto'raeva, X.Nosirova singari aktyorlarning ijodi o'zbek teatri tarixining yorqin sahifasidir. U.Tansiqboev, B.Hamdamiy, Z.Saidnosirova va boshqa musavvirlar o'zbek tasviriy sanhatining rivojiga katta hissa qo'shgan ijodkorlar edilar.

Lekin 20-30-yillardagi madaniy jarayon nihoyatda ziddiyatli holatda kechdi. Bu sohada ham totalitar sovet tuzumi qator xatoliklarga yo'l qo'ydi, hatto kechirib bo'lmas jinoyatlar sodir etdi. Yangi milliy ziyolilarni tarbiyalash bilan bir qatorda ziyolilarni qatag'on qilish aqlga sig'maydigan hodisa edi. A.Qodiriy, A.Fitrat, CHo'l'on, Usmon Nosir, Otajon Hoshimov, Botu va boshqa istehdodli ijodkorlar qatag'onlar qurboni bo'ldilar. Dinga qarshi kurash niqobi ostida qanchadan-qancha masjidlar vayron qilindi, arab yozuvidagi diniy va dunyoviy kitoblar yo'q qilindi. Bir tomondan savodsizlikni tugatish borasida jonbozlik qilindi, lekin ikkinchi tomondan 1929 va 1940 yillarda ikki marotaba o'zbek yozuvining o'zgartirilishi yana xalqning besavod bo'lishiga olib keldi. Arab alifbosiga asoslashgan o'zbek yozuvidan voz kechish xalqni ming yillik madaniy merosidan ajratib qo'ydi. Totalitar tuzum adabiyot va sanhatning rivojlanishini "sotsialistik realizm" deb atalmish qolipga solib qo'ydi. Davlat ijodkor ziyolilardan faqat sotsialistik turmushni tarannum etishni, inqilobdan oldingi hayotni qora bo'yoqlarda tasvirlashni talab etardi. "SHaklan milliy, mazmunan sotsialistik" sanhat shiori ostida madaniyatdan milliy rux va milliy qadriyatlarni yuq qilishga harakat qilindi. Adabiyot va sanhatga sinfiylik, 'artiaviylik nuqtai nazaridan yondashish xalqimizning ma'naviy dunyosining qashshoqlashishiga, umum bashariy qadriyatlardan yiroqlashuviga olib kelishi muqarrar edi.

Respublikamizda tobora chuqurroq ildiz otayotgan mahmuriy buyruqbozlik tizimi o'zbek ayollarini ozodlikka olib chiqishdek savobli ishni ham fojeaga aylanishiga sabab bo'ldi. Xotin-qizlarning teng huquqliligini tahmin etish sinfiy kurash sifatida talqin etildi. SHuning uchun bu tadbirga "Hujum" deb nom qo'yildi. "Hujum" kom'aniyasi davomida mahmuriy usullardan keng foydalanildi. Amalga oshirilayotgai tadbirlarning to'g'riligiga odamlarni ishontirish o'rniga ularni qo'rqitish, vahimaga solish, jazolash kabi usullar keng qo'llanildi. Targ'ibot ishlari faqat ayollar o'rtasida olib borildi, vaholanki erkaklar orasida ham shunday ishlarni olib borish g'oyat zarur edi. 'aranji tashlashga qarshi bo'lgan shaxslar sinfiy dushman deb e'lon qilindi. Mahalliy xalqning qoniga singib ketgan islom omili inobatga olinmadi. Natijada "Hujum" kom'aniyasining sahifalarida qonli satrlar paydo bo'ldi. 'aranji tashlagan yuzlab ayollar jaholatdan qutulmagan erlari va boshqa qarindoshlari tomonidan o'ldirildi. Ularning qotillari ham qabul qilingan yangi qonunga binoan otib tashlandilar. Bu voqealar ijtimoiy vaziyatni keskinlashtirib, odamlarda norozilik tuyg'ularini uyg'otdi.

“Hujum” kom’aniyasining asl mohiyati faqat ‘aranji tashlashdan iborat emas edi. U xotin-qizlarni ishlab chiqarishga, ijtimoiy hayotga jalb etish vazifasini ham hal etishi kerak edi. O’sha davrda bu vazifa ijobiy hal etildi. Minglab ayollar sanoat, qishloq xo’jaligi, maorif, sog’liqni saqlash va boshqa sohalarda faoliyat ko’rsata boshladilar. Keyinchalik o’zbek ayollari orasidan taniqli olimalar, sanhatkorlar, jamoat arboblari, ishlab chiqarish ilg’orlari yetishib chiqdilar. SHubxasiz, bularning hammasi muhim tarixiy ahamiyatga ega bo’lgan voqea edi.

20-30-yillarda Respublikamiz iqtisodiy va madaniy salohiyatini yuksalganligi ikkinchi jahon urushi yillarida o’zining ijobiy natijalarini namoyon etdi. O’zbekiston Qizil Armiyaning muhim aslahaxonasiga aylandi. Urush davrida O’zbekistonga 100 dan ortiq yirik sanoat korxonalari ko’chirib kelindi, 280 ta yangi sanoat korxonasi qurildi. O’zbekiston frontga 2 mingdan ortiq samolyot, 1,7 mingdan ziyodroq aviamotor, shuncha miqdorda minomyot, 22 ming dona mina, 560 ming snaryad, 2 milliondan ziyodroq aviabomba, 1 million donaga yaqin granata, 330 ming ‘arashyut va boshqa ko’pgina mahsulotlarni yetkazib berdi. Respublikamiz qishloq xo’jaligi xodimlari mamlakatga 4 million 806 ming tonna ‘axta, 54, 1 ming tonna ‘illa, 482 ming tonna kartoshka va sabzavot, 57,6 ming tonna meva va uzum, 36 ming tonna qoqi, 159 ming tonna go’sht, 22,3 ming tonna jun va boshqa mahsulot yetkazib berdilar. O’zbekiston ishchi va dehqonlari fashizm ustidan qozonilgan g’alabaning iqtisodiy poydevorini yaratishga ulkan hissa qo’shdilar.

NAZORAT SAVOLLARI.

1. Fevral’ inqilobidan keyin Turkistonda qanday vaziyat yuzaga keldi?
2. «SHo’roi islomiya” va “SHo’roi ulamo” jamiyatlarining o’z oldiga qo’ygan maqsad va vazifalari xaqida so’zlab bering.
3. Qanday sabablar Oktyabr’ to’ntarishiga olib keldi?
4. Sovet hokimiyatining Turkistondagi shovinistik siyosatini asoslab bering.
5. Turkiston muxtoriyatining nima maqsadda tashkil etildi?
6. Qarshilik ko’rsatish xarakati (1918-1924 yillar)ni keltirib chiqargan sabablarini ko’rsating.
7. Nima sababdan Turkistondan milliy-ozodlik urushi mag’lubiyat bilan yakunlandi?
8. Nega Sovet davlati O’zbekistonda industrlashtirish siyosatini amalga oshirdi?
9. . Qishloq xo’jaligini jamoatlashtirish qanday salbiy oqibatlarga olib keldi?
10. “Madaniy inqilob”ning ijobiy va salbiy oqibatlari xaqida so’zlab bering.
11. O’zbekiston xalqi fashizm ustidan qozongan g’alabaga qanday xissa qo’shdi.
12. 50-80- yillarda O’zbekistonda iqtisodiy qanday rivojlandi?
13. 70-80-Yillarda O’zbekistonning siyosiy, ijtimoiy va ma’naviy hayotida qanday xodisalar namoyon bo’ldi?
14. “Qayta qurish” davrida O’zbekiston suverenitetini tiklash yo’lida qanday ishlar amalga oshirildi?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. *Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. Toshkent. O’zbekiston. 1996 y.*
 2. *Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q. Toshkent. SHarq. 1998.*
 3. *Karimov SH. G’alabaga qo’shilgan xissa. Toshkent. O’zbekiston. 1990 y.*
 4. *Isxakov F. ‘roshloe glazami isitorika. Toshkent. O’zbekiston. 1990.*
 5. Muhiddinov N.A. Kremla o’tgan yillarim. Toshkent O’zbekiston. 1995 y.
-

6. Sodiqov H. Hurriyatdan muxtoriyatgacha. Fan va turmush. 1991 y. 2,3-Sonlar.
 7. Ahzamxo'jaev S. Turkiston muxtoriyati. Toshkent. Fan. 1996 y
 8. Karimov N. Qimmatga tushgan to'lov yoxud... . Tafakkur. 1995 y. 3 son. Bosmachilik: Xaqiqat va uydirma. SHarq yulduzi. 1991 y. 3-Son.
 9. Ibodinov A. Qo'rboshi Madaminbek. Toshkent. Yozuvchi. 1993.
 10. Amir Sayid Olimxon. Buxoro xalqining xasrati tarixi. Toshkent. Fan. 1991.
-

7-MA'RUZA: Ikkinchi jahon urushi yillarida o'zbek xalqining fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga qoshgan hissasi. Sovet davlatida ma'muriy buyruqbozlik tuzumining kuchayishi va inqirozi davrida O'zbekiston. (1946-1991 yillar)

REJA:

1. Ikkinchi jahon urushining boshlanish sabablari. O'zbekistonning urush girdobiga tortilishi.
2. "Xotira va qadrlash" kuninig milliy bayram sifatida nishonlanishi, uning mohiyati va ahamiyati.
3. 50-80 yillarda o'tkazilgan iqtisodiy islohotlar, ularning samarasizligi.
4. Mustabid sovet tizimining O'zbekistonda amalga oshirgan qatag'onlik siyosati va uning oqibatlari.

Tayanch iboralar:

Ikkinchi jahon urushi, hujum, fashizm, harbiy xolat, og'ir sinov, blokada, Davlat Mudofaa Qo'mitasi, oziq-ovqat kartochka, evakuatsiya, xalq xo'jaligi, resurs, g'alaba.

Insoniyat juda ko'p urushlarni boshidan kechirgan bo'lib, bular ichida eng dahshatlisi, 50 milliondan ortiq kishining yostig'ini quritgan, XX asr fojiasi bo'lmish ikkinchi jahon urushidir. Olti yil (1939 yil sentyabr - 1945 yil sentyabr) davom etgan bu urush yer sharining 80% aholisi joylashgan hududni, 61 ta mamlakatni o'z ichiga qamrab olgan.

1939 yil 1 sentyabrda fashistlar Germaniyasi qo'shinlarining Polshaga bostirib kirishi bilan ikkinchi jahon urushi boshlanib ketdi. 1941 yil 22 iyun Germaniya hujum qilmaslik to'g'risidagi shartnomani buzib, Sovet Ittifoqiga hujum boshladi. Bu davlat fuqarolari bo'lgan xalqlar uchun og'ir sinovlardan iborat urush boshlandi. O'sha kuni mamlakatda harbiy xolat joriy etilganligi haqida farmon e'lon qilindi. 23 iyunda Toshkentda ko'p ming kishilik miting bo'lib o'tdi.

Urush butun mamlakat xo'jaligi, uning hayotini tubdan o'zgartirib yubordi. 1941 yil 30 iyunda Davlat mudofaa Qo'mitasi (DMK)ning tuzilishi bilan mamlakatdagi butun siyosiy, harbiy va xo'jalik hokimiyati uning qo'lga o'tdi. Ushbu qo'mitaning raisi I.V.Stalin 19 iyuldan SSSR mudofaa xalq komissari, 8 avgustda SSSR qurolli kuchlari Oliy Bosh qo'mondoni lavozimini egalladi. U ayni paytda SSSR XKS raisi va VKP (b) MK Bosh kotibi bo'lgan. Urushning dastlabki kunlarida qabul qilingan maxsus qarorlar ko'rsatmalarda mamlakatning katta xavf ostida qolganligi, uni himoya qilish uchun zudlik bilan barcha iqtisodiy-ma'naviy kuchlarni mudofaa manfaatlariga bo'ysindirish, xalq xo'jaligini to'liq harbiy izga solish lozimligi qayd etildi. Uzoq davom etgan urush qiyinchiliklari O'zbekiston mehnatkashlarini ham og'ir ahvolga soldi.

Ikkinchi jahon urushi davrida respublikaga rahbarlik qilgan O'zbekiston Kompartiyasi MKning 1-kotibi Usmon Yusupov (1937-1950 yy.) O'zbekistonliklarni fashizmga qarshi kurashga safarbar qilishda bosh-qosh bo'ldi.

O'rta Osiyo harbiy okrugi front uchun 1941 yil iyundan 1942 yil oxirigacha harbiy safarbarlik asosida 109 ta harbiy qo'shilma tuzdi, harakatdagi armiyaga va Oliy Bosh qo'mondonlik qarorgoh rezerviga 86 deviziya va brigada jo'natildi.

Urush yillarida bir yarim milliondan ortiq O'zbekistonlik fuqaro fashizmga qarshi janglarda qatnashdi. 1940 yilda respublika aholisi 6,5 million kishidan iborat edi.

Umumiy axvolning keskin yomonlashuvi oziq-ovqat borasida qiyinchilik tug'dirdi. SHaharlarda oziq-ovqat kartochkalari joriy qilindi. Urush yillarida aholining yangi ijtimoiy guruhlari - harbiy xizmatchilar oilalari, ko'chib kelgan kishilar, Urush nogironlari, yetim bolalar paydo bo'ldi. Urush yillarida respublikaga bir millondan ortiq kishi, shu jumladan 200 ming yetim bola evakuatsiya qilindi. O'zbekiston ularga boshpana ber di.

O'zbekistonliklar ko'chirib keltirilgan bolalarga mehribonlik va hamxo'rlik ko'rsatdilar. 15 nafar yetim bolalarni farzandlikka olgan SHomahmudovlar oilasining oliyjanoblighi hammamizga ma'lum. Urush nog'ironi kattaqo'rg'onlik hamid Samadov oilasi 13 bolani o'z panohiga oldi, Samarqandlik kolxozchi Fotima Qosimova 10 bolani qabul qildi. Urush yillarida 4,5 ming nafardan ziyodroq bolalar O'zbekistonlik oilalar tomonidan qabul qilinib olindi. Ko'chirib keltirilgan bolalarning asosiy qismi bolalar uylariga joylashtirildi. Urush yillarida bunday uylarning soni ikki barobardan ziyod ko'paydi.

1941 yil oxirigacha 300 ga yaqin korxona harbiy izga solindi, jangovor texnika, qurollar, o'q-dori ishlab chiqarishga moslashtirib qayta qurildi. SHulardan 100 tasi urush bo'layotgan hududlardan ko'chirib keltirildi va qayta qurildi. Bundan taSHqari yana juda ko'plab ishlab chiqarish korxonalari, maorif va madaniyat muassasalari O'zbekistonga evakuatsiya qilindi. 1941 yil 1 oktyabrgacha O'zbekiston sog'liqni saqlash xalq komissarligi tizimida 47 gospital barpo etildi va zarur uskunalar bilan jihozlandi.

Iqtisodiyotni jadal harbiy izga solish eng muhim vazifa edi. Bunda front orqasi mehnatkashlarining xizmatini aloxida ta'kidlash lozim. 1941 yil 26 iyundan boshlab ishchi va xizmatchilar uchun ish vaqtidan tashqari majburiy ortiqcha ishlar joriy qilindi, haftasiga mavjud besh kunlik o'rniga olti kunlik, bir kunda 11 soatlik ish kuni joriy qilindi. Aslida ish kuni 12-14 soatga cho'zilardi. Bu ishchi va xizmatchilar sonini oshirmasdan, ishlab chiqarish quvvatini ko'tarish imkonini berdi. Biroq ishchi kuchi baribir yetishmasdi. O'zboshimchalik bilan korxonadan ketib qolganlarga 5 yildan 8 yilgacha qamoq jazosi belgilab qo'yildi.

Xullas, urush yillarida O'zbekistonning butun moddiy va ma'naviy kuchlari g'alaba uchun safarbar etildi, hayot harbiy izga tushdi.

Urushning dastlabki vaqtlaridan iqtisodiy vaziyat keskin og'irlashdi. Ittifoq respublikadagi ko'pgina sanoat va qishloq xo'jalik rayonlarini bosib olganligi xalq xo'jaligini og'ir ahvolga solib qo'ydi. 1941 yil oxiri va 1942 yilgi Markaziy ho'kumatning harbiy xo'jalik rejasi qabul qilindi. Bunda SHarqning ahamiyati keskin ortganligi qayd qilindi va SHu yerda nihoyatda qisqa muddatda sanoat qurilishini avj oldirish, harbiy mahsulotni ishlab chiqarishni ko'paytirish, frontga umumxalq yordamini uyushtirish ko'zda to'tildi.

1941 yil sentyabr-deqabr oylarida respublika hukumati xalq xo'jaligini harbiy izga solish, qaysi korxona qachon ishga tushirilishi to'g'risida, ichki resuslarni to'la safarbar etish

to'g'risida aniq vazifalarni belgilab berdi. Kadrlar, sanoat xom ashyosi, yoqilg'i, stanoklar, uskunarlar keskin yetishmasligiga qaramay, 1941 yil deqabriga kelib Toshkentdagi 63 ta, respublika hududidagi 230 ta sanoat korxonalari mudofaa mahsulotlari ishlab chiqara boshladilar. Ko'chirib kelingan zavodlar ham o'z quvvatini oshirib bordilar.

Elektr energiyasi ishlab chiqarishni ko'paytirish maqsadida 7 ta yirik va 30 ga yaqin kichik GESlar qurildi. Ayniqsa, O'zbekistonning eng yirik gidrostansiyasi bo'lib qolgan Farxod GES ko'rilishi umumxalq qurilishga aylantirilib, 10 oy ichida Sirdaryo to'silib, GES ishga tushirildi. Elektr energiyasi 1940 yilga qaraganda 1943 yil 3,5 barobar oshdi, 1945 yilda esa 1187 ml.kilovat soatga ko'paydi. Yangi ko'mir va neft qonlari ochildi, eskilaridan ko'proq foydalaniladigan bo'lindi (Angren, SHargun, Qizilqiya qonlari va boshqalar). Bekobodda metallurgiya zavodi barpo etildi. Olmaliq mis qoni ishga tushirildi.

Urush yillarida O'zbekistonda indo'striyaning barcha sohalariga taalluqli bo'lgan 280 ta yangi sanoat korxonasi qurildi. Respublikaning sanoat quvvati 1945 yili 1940 yildagiga nisbatan 2 marta, neft ishlab chiqarish 4 marta, metallni qayta ishlash 4,5 marta, mashinasozlik 13,4 marta, ko'mir ishlab chiqarish 30 marta oshdi, kimyo sanoati ishlab chiqaradigan yalpi ma'sulotlar 5 barobar ko'paydi. SHular qatorida yengil va oziq-ovqat kooperativ sanoatining ham ishlab chiqarish ko'lamlari ancha kengaydi.

Temir yo'l ham harbiy xizmatga o'tkazildi. Toshkent temir yo'li ko'chirib kelinayotgan korxonalarning asbob-uskunalarini Garbdan SHarqqa yetkazib beriladigan asosiy yo'llaridan biri bo'lib qoldi, SHarqdan Garbga esa qurol-yarog'lar yuborilardi.

Urush davri talablari pochta va telegraf ishini ham qiyinlashtirib qo'ydi. Barcha aloqa korxonalarida ish vaqti tig'izlashtirilib, ish hajmi oshirildi, pochta korxonalarining soni, telegraf va telefon tarmoqlari uzunligi ortdi.

Urush boshlanishi bilan respublika qishloq xo'jaligi oldida ham front va front ortini qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan, sanoatni esa xom ashyo bilan ta'minlash vazifasi turardi. Buning uchun xalq xo'jaligining barcha sohalarini kabi, qishloq xo'jaligini ham harbiy izga solish, texnik ekinlar, don, poliz va sabzavot ekinlarini ko'paytirish, chorvachilik mahsulotlarini oshirish zarur edi. Vaziyatning murakkabligi shundan iborat ediki:

1. Respublika qishloq xo'jaligi paxta yetishtirishga ixtisoslashgan bo'lib, oziq-ovqat mahsulotlarining bir qismi Ittifoq fondidan keltirilardi. Urush boshlangandan keyin oziq-ovqat keltirish to'xtadi, a'olini boqish uchun ichki imkoniyatlarni topish zarur edi.

2. Deyarli bir millionga yaqin kishi, 200 ming yetimlar O'zbekistonda boshpana topdi. Evakuatsiya qilingan aholi hisobiga shaharlar aholisining ko'payishi oziq - ovqat bo'lgan talabni yanada oSHirdi.

3. De'qonlar frontga va harbiy sanoatda ishlashga safarbar etilgach, dehqonlarning mashaqqatli mehnati keksalar, ayollar, o'smirlar zimmasiga tushgan edi.

4. Sovxozlarga Garbdan yangi traktorlar, qishloq xo'jalik mashinalari va ularga ehtiyoj qismlar keltirish to'xtab qoldi.

Bu qiyinchiliklarga qaramasdan respublikada dehqonchilikni asosiy tarmoq sifatida saqlab qolgan holda don, qand lavlagi, pilla, sabzavot, poliz ma'sulotlari yetishtirishni keskin ko'paytirish tadbirlari ko'rildi. Birinchi navbatda ekin maydonlarini oshirish yuksak sur'atlar bilan olib borildi. SHimoliy Toshkent kanalini barpo etish 15 ming gektar yer ni sug'orish

imkonini berdi. O'zbekiston mehnatkashlarining kuchlari bilan Yuqori CHirchiq, SHimoliy Farg'ona, So'x-SHohimardon, Uchqo'rg'on kanallari, Kosonsoy suv ombori bunyod etildi. 1942-1943 yillar mobaynida sug'oriladigan yerlar 546 ming gektarga kengaydi.

SHunday qilib, urush yillarida O'zbekiston qishloq xo'jalik axli eng murakkab va og'ir sharoitda mehnat qilib, 4 million tonnadan ziyod paxta xom ashyosi, 82 mln. pud don, 55 ming tonna pilla, 11 mln. tonna sholi, 57,5 ming tonna meva va uzum, 36 ming tonna go'sht, 22,3 ming tonna jun va boshqa mahsulotlar yetkazib ber dilar. Bu fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga qo'shilgan munosib 'issa edi.

Front va front orqasini zarur xom ashyo va oziq-ovqat bilan ta'minlash hamda jangchilarni g'alaba sari ruhlantirishda O'zbekiston xalqi, xususan, fan va madaniyat arboblarning hissasi nihoyatda katta bo'ldi. Ilmiy muassasalarda tadqiqotlar yo'nalishi ham urush davri manfaatlariga moslashtirildi. Geolog, energetik, kimyogar olimlarning ilmiy ishlari samarali bo'ldi. Bu davrda yangi qonlar o'zlashtirildi. O'rta Osiyo Universitetining kimyo-fakulteti negizida farmatsevtika zavodi ishga tushirildi. Evakuatsiya qilinganlar hisobiga ko'paygan respublika aholisini oziq-ovqat bilan ta'minlash bo'yicha hamma imkoniyatlardan foydalanildi.

O'zbekiston SSRning harbiy mintaqalaridan Ittifoq akademiyasi institutlari va ilm-fan arboblari evakuatsiya qilindi. 1941 yilning kuzida SSSR Fanlari akademiyasi SHarqshunoslik, Tarix, Jahon adabiyoti, Moddiy madaniyat tarixi va boshqa ilmiy-tadqiqot institutlari, ko'plab olimlar ko'chib keldilar. SSSR Fanlar akademiyasi O'zbekiston filialining negizida 1943 yil 4 noyabrda O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi tashqil topdi. Akademiyaning birinchi prezidenti etib T.N.Qori-Niyozov saylandi. Fanlar akademiyasining tashqil etilishi o'zbek xalqi hayotida muhim xodisa bo'ldi. Bu akademiya O'zbekiston ilmiy tafakkurining markazi bo'lib qoldi. Bu davrda taniqli matematik olimlar T.N.Qori-Niyozov, T.A.Sarimsoqov, geolog olimlar X.N.Abdullaev, A.S.Uklonskiy, faylasuf I.M.Mo'minov, kimyogar olimlar O.S.Sodiqov, S.Yu.Yunusov, energetik A.N.Askogenskiy va boshqalar samarali ilmiy ishlarni olib borgan. Urush tufayli Moskva, Leningrad, Kiev, Minsk va boshqa shaharlardan ko'chirib keltirilgan olimlar, shoirlar, yozuvchilar va sa'natkorlar O'zbekiston olimlari va ijodkorlari bilan mustahkam aloqada ish olib bordilar.

Insonparvarlik g'oyalarini kengroq targ'ib qilish maqsadida o'zbek xalqi madaniy merosidan foydalana boshlandi. Tarixiy mavzuda badiiy asarlar («Maxmud Tarobiy», «Muqanna», «Jaloliddin Manguberdi», «Tohir Malik» va boshqalar) yaratildi. hamid Olimjon, Oybek, G'afur G'ulom, Komil Yashin, Abddulla Qahhor, Uyg'un, Sulton Jo'ra, Oydin kabi shoir va adiblar urush mavzuiga bag'ishlangan asarlar yaratdi.

Respublika teatr san'ati, kinomatog'rafiya, xaykaltaroshlik va rassomlikda vatanparvarlik mavzuidagi asarlar yaratildi. O'zbekistonda shu yillarda 35 ta mahalliy, 16 ta ko'chirib keltirilgan teatr ish olib bordi. Urush yillarida o'zbek san'atkorlari 30 ta qonsert brigadalariga bo'linib, frontdagi jangchilarga 35 ming hospitallarda esa 26 ming qonsert namoyish etdilar. Ayniqsa Tamaraxonim, Halima Nosirova, Mukarrama Turg'unboeva, Sora Eshonto'raeva, Abror Hidoyatov kabi san'atkorlar ishtiroqidagi qonsert va tomoshalar jangchilar, tomoshabinlar qalbiga zo'r ko'tarinkilik baxshida etgan. A.Abdullaev, U.Ahmedov, O'.Tojiboev kabi rassomlar urush lavhalarini, badiiy yilnomalarni yaratib, xalqimizning front va front orqasidagi fidokorona mehnatini mahorat bilan tasvirladilar.

Qisqa metrajli filmlar va 10 ta badiiy filmlar yaratildi. Y.Azimov, K.Yormatov, N.G'aniev, S.Muhamedov kabilar o'zbek kinomatog'rafini rivojlantirdilar. Bu davrda ishlangan «Nasriddin Buxoroda», «Toxir va Zuhra» kabi filmlar «O'zbekfilm»ning oltin fondiga kiritildi.

1941-1945-yillardagi urushning barcha jabhalarida O'zbekistonlik jangchilar qahramonlik va mardlik ko'rsatdilar. Ikkinchi jahon urushida fashistlar va Yaponiya militarizmi kuchlariga qarshi kurashdagi jasorati, mardlik va qahramonligi uchun 120 ming kishi orden va medallarga, 280 kishi esa Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga sazovor bo'ldi, ulardan 75 tasi o'zbek jangchilari edi, 82 O'zbekistonlik askar har uchala darajali «SHuhrat» ordenini olishga muvassar bo'lgan.

Jang harakatlari davrida harbiy asirlikda bo'lganlar, xususan, Turkiston legionida qatnashganlarning taqdiri ham nihoyatda og'ir kechdi. Urush tugagach, ular hamma joyda ta'qib etildi, ko'pchiligi turli qiynoqlarga duchor qilindi. Bu qiynoqlardan omon qolgan oz sonli kishilargina keyinchalik ozodlikka chiqarildi.

1999-yil mayda Toshkentda Xotira va qadrlash maydoni barpo etilib, unda «Motamsaro ona» haykali o'rnatildi. Xiyobonning SHimoliy va Janubiy tomonida qad ko'targan ayvonlar tokchalarida ikkinchi jahon urushida halok bo'lgan O'zbekistonlik barcha jangchilarning ism-shariflari bitilgan metall taxtalar qo'yilgan.

1. Urushdan keyingi yillarda ma'muriy - buyruqbozlik tizimi va milliy ziyolilarni qatag'on qilishning yangi to'lqini. Urushdan keyin mamlakatda rahbarlik qilish usullari normal xolatga o'tadi, tinch ko'rilishga moslashtiriladi, ijtimoiy - siyosiy hayot demokratlashtiriladi, degan orzu -niyatlar ruyobga chiqmadi. Aksincha iqtisodiyotda, ijtimoiy - siyosiy va ma'naviy hayotda ma'muriyatchilik kuchaydi. Mamlakatni boshqarish partiya -davlat apparatida rahbarlik lavozimlarini egallagan tor doiradagi xodimlar tomonidan tayyorlanadigan, shaxsan Stalin imzosi bilan matbuotda e'lon qilinadigan farmon va qarorlar orqali amalga oshiriladigan bo'lib koldi. Hammani, xususan joylardagi rahbarlarni nazorat ostiga olgan totalitar tuzum Kremlda utirganlarga mamlakatni farmon va qarorlar bilan boshqarish imkoniyatini berardi.

Respublikalarning, jumladan, O'zbekistonning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy sohadagi muammolarni xal qilish huquqlari yanada cheklanib bordi. Stalinning g'alabani ta'minlashda rus xalki asosiy rol o'ynadi, degan mash'um g'oyasi butun malakatni ruslashtirish siyosatiga aylandi. Ommaviy axborot vositalari, Kompartiya va komsomol tashkilotlari ruslarni «katta», «ulug' og'amiz» deb baralla targ'ib qila boshladi.

Markaz mutasaddilari, mafkurachilari rahnamoligida o'tgan asrlarning 50 - yillari boshlarida O'zbekistonda boshlanib ketgan ilg'or ziyolilar, ilm -fan, adabiyot, san'at, ma'rifat namoyadalarini kuvgin va ta'qib qilishlar, ular ijodidan kir izlash, ayb topishga urinishlar, shubhasiz, respublika ma'naviy hayotiga jiddiy ta'sir ko'rsatmasdan qolmadi. U ko'plab olimu ijodkorlar, shoiru adiblar, iste'dod sohiblari hayotini tahlikali xolatga duchor etdi. O'zbekiston Kompartiyasi MK, ning 1949 yil 25 iyundagi «O'zbekistan Sovet yozuvchilar soyuzining ishi to'g'risida»gi qarorida A. Qahhorning «Qo'shchinor chiroqlari» romani tanqid qilindi. Yozuvchilardan Oybek, Mirtemir, F. Gulom, U. Rashidov, M. SHayxzoda, M. Boboev, A. Qayumov va boshqalar badnom qilindi. «SHarq yulduzi», «Zvezda vostoka» jurnallarining tahririyatlariga bir qator «yaramas» asarlarni chop etishga yo'l qo'ygan, degan jiddiy ayblar quyildi.

1948 - 1949 yillarda 20 dan ortiq yirik talantli olimlar, yozuvchi va shoirlar qamoqqa olinib, yopiq ravishda so'roq qilinib, millatchilikda ayblanib, 15 - 25 yilga ozodlikdan mahrum

etiladi va surgun qilinadi. O'zbekiston Kompartiyasi MKning 1950 yil 1 sentyabrda qabul qilgan «O'zbekiston Fanlar Akademiyasining ishi to'g'risida»gi qarorida bir qator iqtisodiyot, til va adabiyot sohasidagi olimlar millatchilikda ayblandi.

O'zbekiston Kompartiyasi MKning 1951 yil 8 apreldagi «O'zbekiston SSRda musiqa san'atining ahvoli va uni yanada rivojlantirish tadbirlari to'g'risida»gi qarorida O'zbek xalqining buyuk shoiri Alisher Navoiyning «Farxod va SHirin», «Layli va Majnun» dostonlari, «Toxir va Zuxra», «Alpomish» xalq dostonlarining afsonaviy folklor syujetlariga asoslangan opera, balet va musiqali drama spektakllarini yaratish va saxnalarda ko'rsatish «zararli» ish deb baholandi. Bunday spektakllarni saxnalashtirgan ijodiy xodimlar qattiq tanqid ostita olindi. SHuningdek, Ko'pgina konsert tashqilotlari va musiqali teatr xodimlari «Eski, arxaik musiqani va juda gamgin, mungli maqom namunalari»ni tarkatganligi uchun qoralandi. Qarorda «O'zbekistonning musiqa san'ati hayotdan orqada kolmokka, O'zbek xalqini kommunistik ruhda tarbiyalash maqsad va vazifalariga to'la - to'qis xizmat kilmayotir», deb ta'kidlandi.

1951 yil 10 avgustda respublika matbuotida «Ba'zi shoirlarning ijodidagi mafkuraviy bo'zgunliklar to'g'risida» degan makola e'lon qilindi. Unda Turob To'la, Kamtar Otaboev, Mirtemir, A. Bobojonov, Sobir Abdulla, Xdbibiylarning asarlari kommunistik mafkuraga, xalqlar do'stligiga zid g'oyalarni ilgari suruvchi asarlar sifatida tanqid qilindi, ular millatchilikda ayblandi.

1951 yil 24 avgustda matbuotda e'lon qilingan «O'zbek sovet adabiyoti vazifalaridan chetda» nomli makrлада Oybek, X. Zaripov, X., Yokubov, I. Sultonov va boshqa adiblar mafkuraviy ogishlarda qoralandi. M.SHayxzoda, SHo'qrullo Yusupov, Gulom Alimov (SHuhrat)lar 1951 yilda «sovetlarga qarshi millatchilik faoliyati»da aylanib qamoqqa olindi va keyinchalik 25 yil ozodlikdan maxrum etishga xukm qilindilar.

1952 yil fevralida bo'lib o'tgan O'zbekiston Kompartiyasi MKning X Plenumi ilmiy va ijodiy ziyolilarni kuvgin, ta'qib ostiga olishda yana bir turtki bo'ldi. Plenum da «Respublikada mafkuraviy ishlarning axvoli va uni yaxshilash choralari to'g'risida»gi masala muhokama qilindi va tegishli qaror qabul qilindi. Plenumda faylasuf V.Zoxidovning ilmiy ishlariga burjua - millatchilik xatolari yuklandi. Tarixchi A. Boboxujayev va iqtisodchi O.Aminov panturkizmni targib qilishda ayblandi. Ular «siyosiy va ishchanlik sifatleri jihatidan egallab to'rgan lavozimlariga to'g'ri kelmaydigan shaxslardir», deb hisoblandi va ishdan bo'shatildi. T. To'la va M. SHayxzodalarning she'r va kushikdari «g'oyasiz va axloksiz» asarlar, deb baholandi.

O'zbek xalqining ma'naviy merosi, milliy qadriyatlari yana bir bor oyok osti qilindi, bu sohada faoliyat yuritgan ijodkorlar qatag'on qilindi. Tarixiy O'tmish ham, zamonaviy hayot ham kommunistik mafkura, sinfiylik nuqtai nazardan turib Ko'pol ravishda bo'zib baholandi. Natijada ma'naviy hayotga, falsafiy va badiiy tafakkurga, madaniyatga katta zarar yetdi.

Stalin vafotidan keyin butun SSSRda bo'lganidek, O'zbekistonda ham shaxsga siginish oqibatlarini tugatish tadbirlari ko'rildi. 1956 yil KPSS ning XX s'ezdida N.S. Xrushchuyov boshliq partiya rahbarligining bir qismi Stalin shaxsiga siginishni, noxak qatag'onlar va rahbarlikning avtoritar usullarini fosh kilib chiqdi. Katagon qilinganlar ishini qaytadan ko'rib chiqishga kirishildi. Ko'pgina jinoiy ishlar to'qib chiqarilgani, minglab odamlar nohaq qamalib,

ozodlikdan maxrum etilgani aniqdandi va ular oklandi. A. Krdiriy, CHo'lpon, Fitrat va boshqa Ko'plab yozuvchi va shoirlar okdandi. Minglab partiya, sovet, komsomol xodimlari nomlari poklandi. 50 -yillarning boshlarida shubxa ostiga olingan, har bir kadami nazorat qilinayotgan 60 nafardan ziyod yirik olimlar, adiblardan «millatchi, sovetlarning dushmani» degan yorlikdar olib tashlandi, tuxmatlardan xalos bo'ldi.

Afsuski, jamiyat ma'naviy hayotida uno'tilmas voqea bo'lgan bu bir qadar ilikdik mux,iti uncha uzoq davom etmadi. Odamlar xoxishi, erkini bugib, ixtiyorini o'ziga buysundirib, hamma narsani xukmron tuzum manfaatlariga xizmat qildirib kelgan kommunistik mafkura va uning maddoxlari Ko'p o'tmay o'z zulmkorligini qaytadan kuchaytirishga kirishdi. Uning tigi avvalo ijodkorlarga nisbatan qo'llanila boshlandi. Buning natijasida respublikaning ilm - fani, madaniyatiga salmokdi hissa kushgan

taniqdi allomalar, iste'dodli ijodkorlar Ko'prok aziyat chekkanligi, taqdirning ko'tilmagan zarbalariga uchraganligi ayni xdkikatdir.

Umuman, 1939 - 1953 yillarda 61 ming 799 kishi qamaldi. SHulardan 56 ming 112 kishi turli muddatlarga ozodlikdan maxrum etishga xukm qilingan, 7 ming 100 kishi esa otib tashlangan. Gayriqonuniy ravishda jinoiy javobgarlikka tortilganlar orasida olimlarni ham, harbiylarni ham, ziyolilardan tortib oddiy ishchilaru dexdonlarni, xdtto kasb -xunarmandlarni ham istagancha topish mumkin edi.

Xulosa kilib aytganda, O'zbekistonda amalga oshirilgan qatag'onlik siyosatining tub maqsadi va asosiy sabablari quyidagilar edi:

- > unchalik katta bo'lmagan muayyan guruh,ga kirgan shaxslarning hokimiyatni o'z shaxsiy manfaatiga xizmat qildirish uchuy yaratilgan ma'muriy - buyruqbozlik tizimini mustahkamlash;
- > jamiyatni boshqarishda yo'l quyilgan kamchilik va xatolarni o'zga shaxe va guruhlarning zimmasiga yuklash;
- > jamiyat a'zolarini kurkuvda, tobelikda sakdash, ularni mankurtga aylantirish.

Sobiq Ittifoqda turg'unlik xolati. XX asrning 80 - 90 yillarida O'zbekistonning ijtimoiy - siyosiy hayoti. XX asrning 70 - 80 yillarida SSSRda iqtisodiyotning rivojlanish sura'ti tobora pasayib, sarf - harajatlari ortib bordi. Mavjud imkoniyatlarni hisobga olmasdan ishlab chikilgan ijtimoiy, oziq - ovqat , agrar, energetika, ekologiya va boshqa sohalardagi dasturlar samara bermadi, iqtisodiy ziddiyatlarni chuqurlashtirib yubordi.

Sobiq Ittifoqda yuzaga kelgan **turgunlik xrlati** sabablariga quyidagilarni aytish mumkin. Xususan, XX asr ikkinchi yarmidan dunyoda ilmiy - texnikaviy yangiliklar sodir bo'ldi. Bundan jahonning tarakkiy topgan davlatlari samarali foydalana boshladi. Mashina - fabrika ishlab chiqarishidan avtomatlashtirilgan kompleks ishlab chiqarishga utib borildi. Ishlab chiqarishga

hisob - kitoblar, yechimlar, nazorat va boshqarish vazifalarini bajaradigan elektron - hisoblash apparatlari, axborot texnikasi, robotlar kirib keldi va keng qo'llanila boshlandi.

Odamlar bajarib kelgan oddiy texnik, mexanik, og'ir jismoniy ishlarni texnika vositalari bajaradigan bo'ldi. Fan ishlab chiqarish kuchiga aylandi. Natijada ilg'or mamlakatlarda ishlab chiqarishning samarasi oshib, intensiv taraqqiyot yo'liga kirdi. Moddiy ishlab chiqarishda ishlovchilar soni kiskarib, xizmat ko'rsatish sohasida, tibbiyot, ta'lim, ilmiy faoliyatda band bo'lganlar soni oshib bordi. Axborot texnikasi tibbiyot, fan, ta'lim va boshqa xizmat ko'rsatish sohalarda keng qo'llanila bordi. Inson texnik, mexanik va og'ir jismoniy ishlarni bajarishdan ozod bo'lib, o'zini mazmunli, ijodiy ishlarga bag'ishladi. Pirovardida turmush saviyasi tobora yaxshilanib bordi.

Bu davrda sovet davlatida esa ilmiy - texnika inqilobidan foydalanish yetarli darajada yo'lga quyilmadi. Mamlakat katta tabiiy resurslarga ega bo'lsada, xo'jaliklar ularning yetishmovchiligiga duch keldi. Ko'pgina mamlakatlar fan - texnika inqilobi tufayli xalq turmushida jiddiy ijobiy burilishga erishgan bir paytda SSSR bu jarayondan orqada kolib ketdi.

Ishlab chiqarish texnologiyasi eskirgan, mahsulotlarning sifati past, ular sotilmasdan omborlarda to'planib kolayotgan edi. Ma'muriy -buyruqbozlik tizimi, iqtisodiyotga partiyaviy rahbarlik va uning mafkuralashtirilishi iqtisodiyotni isloh, qilish yo'lidagi urinishlarni

yo'qqa chiqarar edi. Ijtimoiy ehtiyojlarga mablag ajratishda qoldik; printsipli va taqsimotda tekislik xukmron edi. Bular aholining mehnatga kizikishi va faolligini susaytirdi, boqimandalik, ichkilikbozlik, giyoxvandlik, chayqovchilik, poraho'rlik kabi yaramas illatlarni keltirib chiqardi.

Buyruqbozlik boshqaruv usuli, mamlakatda keng tarqalgan qog'ozbozlik, majlisbozlik illatlari iqtisodiyotning o'z qonunlari va vositalari asosida rivojlanishiga to'sqinlik kilmokda edi. Odamlar mulkdan begonalashtirilgan, shu tufayli loqaydlik yuzaga keldi.

«Qayta qurish» - XX asrning 80 - yillari o'rtalarida keng iste'molga kirgan tushuncha. qurish KPSS MK Bosh kotibi Mixail Sergeevich Gorbachev va KPSS Markaziy Komitetining 1985 yil 25 aprely plenumi bilan bevosita bog'liqdir. Bu siyosat SSSRda totalitar tizimni isloh, yo'li bilan o'zgarishga qaratilgan harakatni anglatgan. Qayta qurish siyosatining maqsadi va vazifasi mamlakatda to'planib kolgan ijtimoiy -siyosiy, iqtisodiy, madaniy va mafkuraviy sohalardagi muammolarni «qayta qurish» yo'li bilan xalq etishdan iborat bo'lgan.

Qayta qurish 1985 - 1990 yillarni o'z ichiga olib, ikki bosqichga bo'linadi. **Birinchi bosqich (1985 - 1987)** ma'muriy - tashqiliy tadbirlarning an'anaviy usullarda olib borilishi bilan izohlandi. Ushbu bosqichda asosiy vazifalar ilmiy - texnika taraqqiyoti yutuqlarini ishlab chiqarishga jalb etish asosida jamiyatda tub iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirish va uning asnosida inson omilini faollashtirishga qaratilgan edi.

Qayta qurishning dastlabki davrlarida asosiy e'tibor mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga yunaltilirdi. Biroq bunday jarayonning rivoji ijtimoiy munosabatlarni takomillashtirishni talab qildi. SHuning uchun 1986 yilda qayta qurish va ijtimoiy munosabatlar masalasiga alohida e'tibor berildi. Bunday siyosatning markazida esa jamiyatni demokratlashtirish, ma'muriy - buyruqbozlik va byurokratizmga, qonunsizlikka qarshi kurash turar edi. Natijada jamiyat ijtimoiy - siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotida ma'lum o'zgarishlar ruy bera boshladi, kishilarning ijtimoiy faolligi oshdi, demokratiya sari kadam tashlandi, milliy o'zlikni anglash jarayoni yuz berdi. Ammo tub o'zgarishlarni, barcha sohalarda haqiqiy islohatlarni amalga oshirish yo'lidagi urinishlar muvaffaqiyat qozonmadi. 1986 yildan boshlab mamlakat iqtisodiy axvoli battar yomonlasha boshladi, 1987 yil yanvaridan ishlab chiqarish sur'atlari keskin pasaya bordi, iqtisodiyotda inkirozli xolat yuzaga keldi. Qayta qurishning birinchi bosqichi shu tarzda mag'lubiyat bilan yakun topdi.

1987 - 1990 yillar esa qayta qurishning ikkinchi bosqichi bo'lib, enlikda jamiyatning barcha jabxalarini kompleks tarzda isloh, qilishni kun tartibiga kuydi. Jumldan, bu davrda sovet jamiyatini demokratlashtirish masalasi asosiy vazifa, deb ta'kidlandi. Demokratlashtirish jarayoni jamiyatni ma'lum darajada uyg'otdi, ijtimoiy faollik ortdi. Saylovlarning muqobil nomzodlar ishtiroqida, alternativ asosda olib borilishi ijobiy xolat edi, bundan tashqari SSSRda saylov tizimini o'zgartirish to'g'risidagi Qonun (1988 yil dekabr) ning qabul qilinishi xam jamiyat a'zolari ijtimoiy faolligini oshirishda ma'lum ahamiyat kasb etdi. Biroq Ittifoqda tub demokratik o'zgarishlarni amalga oshirish, boshlangan islohotlarni oxiriga yetkazish mumkin bulmadi. Bu ikki sabab bilan izohlanadi. Birinchidan, qayta qurishning aniq, izchil, ilmiy jihatdan puxta ishlab chikilgan dasturi yo'q edi. Ikkinchidan, partiya rahbarlari bundan manfaatdor emasdilar.

Xullas, M.S. Gorbachev boshchiligida KPSS rahbariyatining bir qismi tomonidan boshlangan qayta qurish siyosati mamlakat hayoti va umuman jahonda ma'lum o'zgarishlar sodir bulishiga olib keldi (oshqoralik, siyosiy plyuralizm, «sovuq urush»ning tugashi va x.k.). Qayta qurishni amalga oshirishdagi karama - qarshilik va noizchiliklar natijasida 80 -yillarning oxiri - 90 - yillarning boshidan mamlakat hayotining barcha sohalorida buxronlar kuchayib ketdi. Qayta qurish sobiq SSSRda to'planib kolgan muammolarni to'la xal etishga xizmat kilmadi. Mustaqillik, demokratiya va erkinlik g'oyalariga to'g'ri kelmaganligi tufayli xam amaliy samara bermadi. Oxir oqibatda KPSS ning xaloqati va SSSR ning tugashiga muayyan turtki bo'ldi.

**«Paxta ishi» va uning
oqibatlari**

^X asrning 80 - 90 - yillarda sovet hokimiyati
tomonidan mavjud turgunlik xolatidan chiqish,

shuningdek, sobiq ittifoqdosh respublikalarning mustaqillik yo'lidagi harakatlarini bartaraf etish, sobiq SSSRda yuzaga kelgan inkirozli harakatlar sabablarini ittifoqdosh respublikalardan kidirish, ularni ayblash uchun turli nayranglar, «siyosiy o'yinlar» uypab chikdilar.

1983 yilning oxirida O'zbekistonda juda og'ir vaziyat vujudga kelgan edi. Respublikada jinoyatchilikka qarshi kurashish nikobi ostida SSSR Bosh prokurori xo'zurida alohida muhim ishlar buyicha maxsus 12 kishilik tergovchilar guruxi tuzilib, O'zSSRga yuboriladi. Ular

O'zSSRda paxta tayyorlash va uni kayta ishlash bilan bog'liq jarayonlardagi «Ko'pshb yozish», «o'g'irlik», «ko'zbuyamachilik», «poraho'rlik»ni (aslida bunday moliyaviy jinoyatlar va qing'irliklar butun SSSR hududidagi iqtisodiyotda chuqur ildiz otib kelgan edi) tergov qilish bilan shug'ullandilar. Buning natijasida «paxta ishi» paydo bo'ldi. Tergovlar jarayonida Moskvadan yuborilgan T.X Gdlyan va N.V. Ivanov guruxining faoliyati natijasida respublikadagi jamoa xo'jaliklari raislari va sovxoz direktorlarining 60%, qishloq xo'jaligi yetakchi mutaxassislarining 45%, paxtachilik brigada boshliqlarining 35%, shuningdek, ko'plab rahbarlar, viloyatlar va tumanlar partiya komiteti kotiblari, respublika miyosidagi partiya, sovet va xo'jalik rahbarlari o'z vazifalaridan olib tashlandi va ularga nisbatan jinoiy ish qo'zg'atildi.

O'zSSRning ijtimoiy - siyosiy hayotida 1984 yil 23 iyunda bo'lgan O'zbekiston Kompartiyasi MK XVI - plenumi mash'um rol uynagan. Moskva tashabbusi va ko'rsatmasi bilan tashqil qilingan bu plenumda qabul qilingan hujjatlar O'zSSRda O'zbek xalqini asossiz badnom etish kompaniyasini boshlab berdi. Markazning tazyiqi ostida 1984 yildan O'zbekistondagi rahbarlik lavozimlariga sobiq ittifoqning har xil joylaridan «kadrlar desanti» kela boshladi. Birgina 1984 - 1987 yillarda Moskva, Leningrad va Rossiyaning boshqa shaharlaridan 400 dan ortiq kishi O'zbekistonning partiya, sovet, ma'muriy - xo'jalik organlariga ishga yuborilgan. Kadrlarni almashtirish siyosati ayanchli tus oldi.

Markaziy matbuotda e'lon qilingan makolalarda O'zbek xalqi badnom etilib, «paxta ishi»ga ataylab siyosiy tus berildi va u keyinroq atay «O'zbek ishi»ga aylantirilib, xalqimizning nafsoniyatini toptash yo'liga utildi. 1983 - 1990 yillarda O'zSSRda «paxta ishi» degan uydirma buyicha jami 40 ming kishi tergov qilindi, ularning aksariyati tergov izolyatorlarida prokuror sanktsiyasiz utirdi, 5 ming kishi esa soxta ayblar bilan jinoiy javobgarlikka tortildi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlool va taraqqiyot yo'li. -T.: O'zbekiston, 1992.
2. Karimov I.A. O'zbekiston - bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. -T.: O'zbekiston, 1993.
3. Karimov I.A. O'zbekiston: Milliy istiqlool, iqtisod, siyosat, mafkura. -T.: O'zbekiston, 1996.
4. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: O'zbekiston, 1997.
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: O'zbekiston, 1992, 2009.
6. Bobobekov X., Farg'ona fojialari kundaligi // «Fan va turmush». 1990, № 4-5.
7. Mustaqillik: Izohli ilmiy - ommabop lug'at // R. Ro'ziev va K., Xonazarov umumiy tahririda. To'ldirilgan uchinchi nashri. -T.: SHarq, 1996.

8. Salimov O., Usmonov K, G'aniev D. Yangi O'zbekistonning 7 zafarli yili. -T.: SHarq, 1999. -B. 9-20, 40-46.
9. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1, 2, 3 ... 12 jildlar.
10. O'zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. - T.: SHarq, 2000. -B. 624-676.
11. O'zbekistonning yangi tarixi. Uchinchi kitob. Mustaqil O'zbekiston tarixi. -T.: SHarq, 2000. -B. 7-4, 773.
12. O'zbekiston tarixi / R. Murtazaeva umumiy ta'riri ostida. -T.: Yangi asr avlodi, 2003. -B. 529-554.
13. Jo'raev N. O'zbekistonning yangi tarixi. Uchinchi kitob. Mustaqil O'zbekiston tarixi. - To'ldirilgan, qayta nashr. -T.: G'afur G'ulom, 2009. -B. 8-87.
14. Usmonov Q. O'zbekiston tarixi. -T.: IQTISOD - MOLIYA, 2006. -B. 374-400.
15. Shamsutdinov R. va boshq. Vatan tarixi. (Uchinchi kitob); R. Shamsutdinov, Sh. Karimov - T.: Sharq, 2010. -B. 440-472.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Nega Sovet davlati O'zbekistonda industrlashtirish siyosatini amalga oshirdi?
2. Qishloq xo'jaligini yasamoatlashtirish qanday salbiy oqibatlarga olib keldi?
3. "Madaniy inqilob"ning ijobiy va salbiy oqibatlari xaqida so'zlab bering.
4. O'zbekiston xalqi fashizm ustidan qozongan g'alabaga qanday xissa qo'shdi.
5. 50-80- yillarda O'zbekistonda iqtisodiyt qanday rivojlandi?
6. 70-80-Yillarda O'zbekistonning siyosiy, ijtimoiy va ma'naviy hayotida qanday xodisalar namoyon buldi?
7. "Qayta qurish" davrida O'zbekiston suverenitetini tiklash yo'lida qanday ishlar amalga oshirildi?
8. Nega Sovet xokimiyati o'zining dastlabki kunlaridan boshlab qatag'onlik siyosatini amalga oshirdi?
9. Totalitar tuzumning asosiy belgilarini ko'rsating.
10. 30-Yillarda ommaviy qatag'onlarning avjiga chiqishini qanday izoxlash mumkin?
11. 50-Yillarda O'zbekistonda amalga oshirilgan qatag'onlarning xarakterli xususiyatlari nimalardan iborat?
12. "Paxta ishi", "o'zbeklar ishi" deb nom olgan uydirma jinoiy ishlar xususida so'zlab bering.
13. Mustaqil O'zbekiston rahbariyati begunox qatag'on qilinganlar xotirasini abadiylashtirish uchun qanday tadbirlarni amalga oshirdi?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR,

1. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. Toshkent. O'zbekiston. 1996 y.
 2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Toshkent. SHarq.
 3. Karimov I.A. SHahidlar xotirasi - mangu barhaet. Xalq so'zi. 2000 yil 13 may.
 4. Rajabova R.Yo. O'zbekistoen tarixi. Toshkent. O'qituvchi. 1994.
 5. Turdiev SH. Ular Germaniyada o'qigan edilar. Toshkent. Fan. 1991 .
 6. Daminov B. Adolat, senga tahzim. Toshkent. O'zbekiston. 1992.
 7. Ilyuxin V. Qabohat yoxud.... "O'zbeklar ishi" xaqidagi uydirma xususida. Toshkent. O'zbekiston.
-

8. 1998. Isxakov F. 'roshloe glazami isitorika. Toshkent. O'zbekiston. 1990.
 9. Karimov SH. G'alabaga qo'shilgan xissa. Toshkent. O'zbekiston. 1990 y.
 10. Muhiddinov N.A. Kremlida o'tgan yillarim. Toshkent O'zbekiston. 1995 y.
-

8-MA'RUZA:

O'zbekistonda davlat mustaqilligini qo'lga kiritilishi., Demokratik-huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati asoslarining barpo etilishi. Mustaqillik yillarida O'zbekistonning iqtisodiy, ma'naviy, madaniy taraqqiyoti.

REJA:

1. O'zbekiston davlat mustaqilligini eolon qilinishi va uning tarixiy ahamiyati.
2. Mustaqillik sharoitida O'zbekistonda amalga oshirilgan siyosiy islohotlar. Davlat ramzlarining qabul qilinishi.
3. O'zbekiston Respublikasida odil fuqorolik jamiyati asoslarining barpo etilishi
4. Mahalliy hokimiyat organlarining tashkil etilishi. O'zbekistondagi siyosiy partiyalar.

TAYaNCH IBORALARI

Mustaqillik, demokratik xuquqiy davlat, totalitar tuzum, milliy qadriyatlar, davlat tili maqomi, suverenitet, xalq de'utatlari sovetlari, prezidentlik boshqaruvi. Mustaqillik deklaratsiyasi. Oliy Kengash, Di'lomatik aloqalar, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Milliy istiqol davri, referendum, davlat ramzlari, davlat bayrog'i, davlat gerbi, davlat madhiyasi, milliy valyuta. Bozor iqtisodiyoti, "O'zbekiston modeli", besh tamoyil, iqtisodiy mustaqillik, iqtisodiy islohotlar strategiyasi, kuchli ijtimoiy siyosat, bozor mexanizmi, demografik vaziyat, ko'p ukladli iqtisodiyot, tadbirkorlik, xususiylashtirish, infra tuzilmalar, investitsiya, aktsiyadorlik jamiyatlari, ko'chmas mulk va qimmatli qog'ozlar bozori, kim oshdi savdosi. Mahrifat, ma'naviyat, ma'naviy qadriyatlar, diniy qadriyatlar, milliy g'urur, millatchilik, Navro'z, vijdon va din erkinligi, xurfikrlilik, milliy istiqol mafkurasi, umuminsoniy qadriyatlar, vatanparvarlik, baynalmilallik, mafkuraviy bo'shlik, immunitet.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimov tarixchilar bilan bo'lgan uchrashuvda "Odamlarga mustaqilikning afzalligini, mustaqil bo'lmagan millatning kelajagi yo'qligi, bu tabiiy bir qonuniyat ekanini isbotlab, tushuntirib berish kerak" deb tahkidlagan edilar. prezidentimizning ana shu ko'rsatmalariga tayanib, ma'ruza matnida, O'zbekistonning davlat mustaqilligini qo'lga kiritish tomon yo'l tutishi, uning qo'lga kiritilishi, uning tarixiy ahamyatini ko'rsatib berishga harakat qilamiz. Ma'ruza matnini yozishda, O'zbekiston Respublikasi prezidenti asarlari, Respublika prezidenti va Respublika Vazirlar Mahkamasining chiqargan farmonlari, O'zbekiston Konstitutsiyasi va qator mualliflarning mutaqqillikka bag'ishlangan kitoblari va maqolalarida foydalandik

Ajdodlarimiz keyingi ikki yarim ming yilning qariyb ming yillar mobaynida o'z mustaqilligidan mahrum bo'lib , ajnabiylar xukmdorligi ostida o'tgan.

O'tgan asrning o'rtalarida Rossiya imperiyasi yurtimizni bosib olib o'z mustamlakasiga aylantirdi. SHo'rolar hokimiyati davrida ham u markazga bo'ysinuvchi homashyo yetkazib beradigan qaram o'lka bo'lib qolaverdi.

Qaramlik, avvalo, mamalakatimizning, halqimizning siyosiy jihatdan muteligida namoyon bo'ldi. Milliy davlatchiligimiz inkor etildi, xalqning hoxish -irodasiga qarshi yagona Turkiston 'archalanib, im'eriyaning mahmuriy -xududiy qismiga aylantirildi, oddiy masalalarni ham markazning ruxsatisiz hal qilolmaydigan bo'lib qoldi, mustaqil faoliyat yuritishga o'ringanlar hisobga olindi, ozodlikdan mahrum etildi. Halqimiz o'z taqdirini o'zi belgilash huquqidan mahrum etilgan edi.

Mamlakatimiz iqtisodiy jihatdan ham qaram edi. Boy tabiiy boyliklarga, unumdor yerga ega bo'lsada, unga egalik qila olmas edi. Yerga nima ekish markazdan belgilanaor, 'axta yakka

xokimligi yuqoridan tiqishtirilgan edi. Respublika rahbariyati va xalqi qancha tabiiy resurslar qazib olinayotgannini, korxonalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni, 'axtani kimdir olib ketib, qaysidir narxda kimgadir sotayotganini, bundan qancha daromad kelayotganini bilmas edi. Halqimizga boqimandasizlar sizlarni biz boqya'miz, deb tana qilinar edi. Halqimiz ma'naviy asoratga solingan edi. Tilimiz, dinimiz, milliy qadriyatlarimiz to'taldi. Tarixiy yodgorliklar, madrasalar, machitlar yo'ildi. Mashhur allomalarimiz qoralandi, kitoblari yo'qotildi. Elning ilmi kishilari quvg'in ostiga olindi, qatag'on qilindi. Biz mustaqilliknigina emas, tilimizni, dinimizni, butun ma'naviyatimizni yo'qotish darajasiga yetgan edik. SHu yerda prezidentimiz I.A.Karimov "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" kitobida keltirilgan bir 'archani keltirish o'rinlidir: CHor Rossiyasining Skobelev degan generali shunday yozgan edi: millatni yo'q qilish uchun uni o'ldirish shart emas, uning madaniyatini, sanhatini, tilini yo'q qilsang bas, tez orada o'zi tanazzulga uchraydi". Totalitar tuzum davrida davlat mamlakat boshqaruv tizimidan tortib aloxida-aloxida shaxslarning kundalik turmushiga va istiqboliga daxldor bo'lgan xar qanday katta kichik masalalarni xal etishni xam o'z zimmasiga olgani uchun mexnatkash xalq boqimandalik kayfiyatiga duchor bo'lgan edi. U faqat ishlash xukukiga ega edi xolos. Odamzot shunchaki ishlar, shunchaki umr kechirardi, xolos. Aql bilan ish tutish, voqelikni idrok qilish, bunyod etish, yaratish tuyg'ulari so'dirilgan edi. SHuning uchun ham mamlakat taraqqiyoti sustlashib, odamlar turmush darajasi 'asayib bordi.

Sobiq Ittifoqda 1985 yildan boshlab xukm surgan qayta qurish siyosati uning tarkibiga kirgan ittifoqdosh Respublikalarning mustaqillikka chiqishga yo'l qo'ymaslik maqsadida qilingan makkarona harakat edi.

XX asrning 90-yillariga sotsialistik mamlakatlarda inson huquqlarini himoya qilish, ozodlikka intilishining yangi bosqichi boshlandi. SHarqiy Yevropa mamlakatlarida qariyb yarim asrhukm surgan totalitar davlat tuzumi inqirozga yuz tutib, demokratik tartibotlar qaror to'a boshladi.

Ko'pgina mamlakatlarda mustaqillikka erishish masalasi dunyoni keng qamrab olgan jarayonga aylandi.

Mustaqillik deganda nimalarni tushunamiz Mustaqillik deganda eng avvalo, o'z taqdirimizni o'z qo'limizga olishni, o'zbek halqining izzatini va tilini o'z o'rniga qo'yishni, o'zligimizni anglashni, milliy qadriyatlarni, urf -odatlarimizni tiklashni tushunamiz. Mustaqillik-bu milliy davlatchiligimizni tiklash, kuchli demokratik huquqiy davlat bar'o etish, xech kimning qosh- qovog'iga qaramay mustaqil ichki va tashqi siyosat yurgizish degani.

Mustaqillik-bu mamlakatimizning yer usti va yer osti tabiiy boyliklariga egalik qilish, xalk qudrati, salohiyati, aqlu-zakovatiga tayanib ish yuritish, mustaqil iqtisodiy siyosat olib borish, xar bir inson, har bir oila uchun munosib turmush sharoiti yaratish deganidir.

Mustaqillik bu xar bir fuqaro uchun millati, irqi, diniy ehtiqodidan qathiy nazar, tenglik, erkinlik yaratib berish degani. Mustaqillik deganda sog'lom avlodni, barkamol va fidoyi o'g'il - qizlarni tarbiyalash, kelajak avlodga ozod va obod Vatan qoldirishni tushunamiz.

Mustaqillik deganda O'zbekistonning jaxon xamjiyatiga qo'shilishi, unda munosib o'rin egallashni tushunamiz.

80-yillar oxirida Respublika ijtimoiy xayotida jonlanish boshlandi. Odamlar xilma-xil fikrlar bildirish imkoniyatiga ega bo'la boshladilar. O'zbek Halqining dilidagi g'oya-mustaqillik g'oyasi edi, halq ana shu g'oyani ko'tardi.

Mustaqillik uchun harakatda yangi to'lqin boshlandi. Ammo yurtimizda hukmron bo'lgan markazdan yuborilgan kishilar, ularning qosh - qovog'iga qarab ish yuritadigan ayrim mahalliy ojiz rahbarlar bu g'oyaga, uni amlga oshirishga to'sqinlik qildilar. Milliy qadriyatlarimizga nisbatan yana qatag'onlik uyushtirildi, to'qib chiqarilgan "axta ishi" bahonasi bilan o'n minglab kishilar jinoiy javobgarlikka tortildi. Tarix taqozosi bilan elim, yurtim deb yonib yashayotgan Islom Karimovdek fidoyi insonning O'zbekistonning birinchi rahbari lavozimiga saylanishi bu sohadagi adolatsizliklarga barxam berilishiga olib keldi.

I.Karimov halq xohish-irodasini bajarib, o'zbek tiliga davlat tili moqomini berish ishiga boshchilik qildi. 1989 yil 21 oktyabrda Respublika Oliy Kengashi O'zbekistonning davlat tili

haqida qonun qabul qildi. Siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotning barcha sohalarida o'zbek tili to'la amal qilishi qonunlashtirildi.

Bu qonunning qabul qilinishi mamlakatimizning mustaqillik sari tashlagan birinchi qadami bo'ldi. Islom Karimovning sahy-xarakatlari natijasida markazdan yuborilgan "kadrlar to'dasiga" zarba berildi. Respublika rahbar kadrlarni tanlash, joy joyiga qo'yish ishini o'z tasarrufiga oldi. Bu ham O'zbekistonning mustaqillik sari tashlagan navbatdagi qadami edi.

90 - yillarning boshlariga kelib O'zbekistonda xalqning mustaqillikka erishishidan iborat azaliy orzusini amalga oshirish kun tartibidagi bosh masala bo'lib qoldi.

SSSR hkumati inqiroziy holatdan chiqishining yo'lini to'a olmay qoldi. 90-yillarning boshlariga kelganda markaz va ittifoqdosh Respublikalar o'rtasidagi munosabatlar keskinlashib, markaziy hokimiyatning obro'si 'asayib ketdi. Oqibatda turmushning barcha sohalaridagi salbiy axvoldan xalqning kun sayin noroziligi ortib, turmush darajasi yomonlasha boshladi.

1990 yillarga kelib Respublikalar suverenitetini va inson huquqlarini 'aymon qilgan totalitar buyruqbozlik boshqaruvining itiqbolsiz ekanligini hvyotning o'zi ko'rsata boshladi.

O'zbekiston rahbariyati Respublika xalq xo'jaligini bozor iqtisodiyotiga o'tkazishning o'ziga xos mustaqil tarzda o'zi belgilay boshladi. Unga binon, SSSR markaziy idoralaridan farqli o'laroq, O'zbekiston dadillik bilan iqtisodiy mustaqillik va siyosiy severenitetni qo'lga kiritish uchun amaliy harakat qila boshladi.

I.A.Karimov K'SS Markaziy Komitetining 1989 yil 20 sentyabrdagi 'lenumida "Biz ittifoq va Respublikalarning vazifalarini, burchlarini va o'zaro majburiyatlarini aniq-ravshan belgilab qo'yish, Respublikalar mustaqilligini har jihatdan mustahkamlash tarafdorimiz" deb tahkidladi.

Respublikada iqtisodiy va siyosiy suverenitet uchun qadamba - qadam chora-tadbirlar ko'rildi.

Masalan, O'zbekiston SSR Oliy Soveti 1989 yil 25 noyabrda bo'lgan sessiyasida "O'zbekiston SSR ni iqtisodiy va sotsial rivojlantirishning 1990 yilgi Davlat 'lani to'g'risida" gi masalani muhokama qilar ekan, Respublikaning iqtisodiy mustaqilligiga oid muhim tadbirlarni belgiladi.

1990 yil 23 martda bo'lib o'tgan O'zbekiston Kom'artiyasi Makaziy Komitetining 'lenumida O'zbekiston SSR ning siyosiy suvereniteti masalasiga jiddiy e'tibor berildi. Unda "real hokimiyat O'zbekiston kom'artiyasidan, uning barcha darajalaridagi komitetlaridan xalq de'utatlari Sovetlariga berilishi bilan bog'liq barcha qiyinchiliklarni yengib o'tishlari lozimligini tahkidlab, yuzaga kelgan vaziyatda O'zbekiston SSR prezidenti lavozimini tahsis etish muhim ahamiyat kasb etadi" deb tahkidlandi.

1990 yil 24 martdagi O'zbekiston SSR Oliy Sovetining sessiyasida O'zbekiston tarixida birinchi marta prezidentlik lavozimi tahsis etish to'g'risida qaror qabul qilindi. Sessiyada yakdillik bilan Islom Abdug'anievich Karimovni O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining prezidenti etib saylash tqg'risida qaror qabul qildi. O'zbekiston prezidenti lavozimining tahsis etilishi mustaqillik uchun kurashdagi navbatdagi qadam bo'ldi. Respublikaning birinchi prezidenti I.A.Karimov prezident vazifasiga to'xtalib, bunday dedi: "O'zbekiston prezidenti sifatidagi o'zimning asosiy vazifalarimni nimadan iborat deb bilaman?" O'zbekiston SSR ning siyosiy mustaqilligini yanada takomillashtirish, uni yangi va hayotiy mazmun bilan boyitish, shuningdek "prezident boshqaruv"ining muhim vazifalaridan biri Respublikaning iqtisodiy mustaqilligini, o'zini-o'zi idora qilishga va o'z-o'zini pul bilan tahminlashga o'tishini tahminlashdir. Ayni chog'da mexnatkashlarning, aholining hamma tabaqalari farovonligini oshirish, odamlarning talab va extiyojlarini qondirish, ijtimoiy sohani tez suhatlar bilan rivojlantirish - Respublika davlat hokimiyati organlaridan, shaxsan mendan, O'zbekiston SSR prezidentidan doimiy e'tibor qiladigan vazifadir"

O'zbekiston mustaqilligi uchun tashlangan navbtdagi qadam - O'zbekiston Oliy Sovetining ikkinchi sessiyasida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi "Mustaqillik Dekloratsiyasidir. Mustaqillik Dekloratsiyasi" ning kirish qismida quyidagilar yozib qo'yildi: "O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Oliy Kengashi o'zbek halqining davlat qurilishidagi tarixiy tajriba va tarkib to'gan boy anhanalari, har bir millatning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini

tahminlashdan iborat Oliy maqsad haqi, O'zbekistonning kelajagi uchun tarixiy mahsuliyatni chuqur xis etgan xolda xalqaro xuquq qoidalariga, umumbashariy qadriyatlarga va demokratiya 'rintsi'lariga asoslanib, O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qiladi".

SHu kundan boshlab Respublikada O'zbekistonning iqtisodiy va siyosiy hayotiga doir masalalar mustaqil tarzda xal qilina bordi.

O'zbekiston rahbariyati va xalqning O'zbekistonning mustaqillik sari dadil qadam qo'yayotganligini 1991 yil 17 mrtida bo'lib o'tgan umumxalq referendum yakunlarida ham yaqqol ko'rish mumkin. Referendumda O'zbekiston xalqning mutloq ko'pchiligida O'zbekistonni mustaqil Respublika sifatida ko'rish xohishi borligining o'ziyoq Respublika rahbariyatining bu boradagi dadil kuch-g'ayratini qo'llab-quvvatlash ifodasi edi.

Markaz va Respublikalar o'rtasidagi munosabatlar tobora taranglashib, markaz boshqaruv qobiliyatini yo'qotgan bir sharoitni to'g'ri baholay bilish qobiliyatiga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimov Oliy Kengash sessiyasini chiqarishi va unda O'zbekiston Mustaqilligi haqida qonun qabul qilishni talab qildi.

Respublika Oliy Kengashi 1991 yil 26 avgust kuni O'zbekistonning davlat mustaqilligi to'g'risidagi qonun loyixasini tayyorlash hamda 31 avgustda Oliy Kengash sessiyasini chaqirishga qaror qildi.

O'zbekiston Kom'artiyasi Markaziy Qo'mitasining 1991 yil 28 avgustda bo'lgan 'lenumi Respublika kom'artiyasininggg K'SS MK bilan har qanday aloqasini to'tatishga, K'SS ning barcha tashkilotlaridan chiqishga, uning Markaziy organlaridagi o'z vakillarining chaqirib olishga qaror qildi.

Ana shunday vaziyatda O'zbekiston Oliy Kengashining XII chaqiriq navbatdan tashqari oltinchi sessiyasi 1991 yil 31 avgustda o'z ishini boshladi. O'zbekistonning mustaqil davlat deb e'lon qilinishida mazkur sessiya katta tarixiy ahamiyat kasb etdi. Unda "O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risida" hamda "O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida"gi masalalar kun tartibiga qo'yilib, qizg'in muhokama qilindi.

O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risida prezident I.A.Karimov ma'ruzasi tinglandi. prezident o'z ma'ruzasida mustaqil davlatlar maqomiga to'xtalib, quyidagilarni tahkidladi:

"Bo'lajak mustaqil davlatlar erkin, mustaqil va teng huquqli bo'lib qolishlari, o'zlarining milliy davlat tuzish, tashqi bozorga chiqish, o'zi mahqul to'gan barcha mamlakatlar bilan xalqaro munosabat o'rnatish, di'lomatik va konsullik ahloqalari masalalarini mustaqil hal etishlari kerak. Yana tahkidlab aytaman, bu hech kimning buyrug'isiz va aralashuvisiz mustaqil amalga oshirilishi kerak." Mana shu sharoitga, yuqoridagi sabablarga asoslanib, xalqimiz hoxish-irodasini bajo keltirib, Oliy Kengash diqqatiga faqat bir masalani qo'ymoqchiman: O'zbekistonning mustaqilligi haqidagi qonunni muhokama etish va uni qabul qilishni taklif qilaman. Bu qonunda qadimiy va yangilanayotgan diyorimizda istiqomat qilayotgan barcha kishilarning xohish - irodasi o'z ifodasini to'gan. Xalqimizning bu ezgu hohish -irodasi biz uchun muqaddasdir.

Oliy Kengash de'utatlari muhokamadan so'ng O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi tqg'risidagi qonunni qabul qildilar. O'zbekiston SSR ning nomi O'zbekiston Respublikasi deb o'zgartirildi. So'ngra «O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risida Oliy Kengash Bayonoti» qabul qilindi. Oliy Kengash mazkur bayonot orqali xalqaro-huquqiy xujjatlarda qayd etilgan o'z taqdirini o'zi belgilash xuquqiga asoslanib, Respublika xalqlarining taqdiri uchun butun mahsuliyatni anglab O'zbekistonning davlat mustaqilligini va ozod suveren davlat —O'zbekiston Respublikasi tashkil etilganligini tantanali ravishda e'lon qildi.

Oliy Kengash sessiyasi «O'zbekiston Respublikasining Davlat Mustaqilligini e'lon qilish to'g'risida» qaror qabul qildi. Qarorda: «1 sentyabr' O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni deb belgilansin va 1991 yildan boshlab bu kun bayram va dam olish kuni deb e'lon qilinsin», - deb qat'iy belgilab qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi xaqidagi bu xujjatlar o'zbek xalqining asriy orzusi ro'yobga chiqqanligining xuquqiy ifodasi bo'ldi. Mazkur qonun asosida O'zbekistonning xuquqiy xolati tubdan o'zgardi. O'z moxiyatiga ko'ra bu xujjat Respublika uchun vaqtincha konstitutsiya rolni o'ynaydigan bo'ldi. Bunday qonunning qabul qilinishi Mustaqillik davrida qo'lga kiritilgan yutuqlarning natijasi xisoblanadi. Bu esa xuquqiy, iqtisodiy xamda ma'naviy-axloqiy munosabatlar natijasi sifatida muhim ahamiyatga ega.

SHu tariqa xalqimizning asriy orzusi, umidlari ushaldi, ro'yobga chiqdi. Uzoq yillar davom etgan kurash natijasida mamlakatimiz, xalqimiz siyosiy mutelikdan, asoratdan qutildi. Dunyo xaritasida yana bitta mustaqil davlat – O'zbekiston Respublikasi paydo bo'ldi. O'zbekiston tarixida yangi davr – milliy istiqlol davri boshlandi. O'zbekiston uchun mustaqil ichki va tashqi siyosat yuritish, xalqimiz uchun o'z taqdirini o'zi belgilash, o'zlari uchun munosib turmush yaratish imkoniyati vujudga keldi.

O'zbekiston Mustaqillikka erishgandan keyin davlat boshqaruvining yangi, zamonaviy va samarali tizimi shakllana boshladi. prezidentlik Respublika boshqaruv tizimi o'zagini tashkil etdi.

1991 yil oxirida O'zbekiston xayotida ulkan tarixiy voqea sodir bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Oiy Kengashining VIII sessiyasida «O'zbekiston Respublikasi prezidenti saylovi to'g'risida» qonun qabul qilindi. Qonunda O'zbekiston Respublikasi prezidenti qilib yoshi 35 dan kam bo'lmagan va 65 dan oshmagan, saylanish xuquqiga ega bo'lgan O'zbekiston fuqarosi saylanishi mumkin. O'zbekiston prezidenti 5 yil muddatga saylanadi, bir fuqaroning o'zi-ketmaket ikki muddatdan ortiq O'zbekiston prezidenti bo'lishi mumkin emas, deb belgilab qo'yilgan. 1991 yil 29 dekabrda xalqimiz uzoq yillik mustamlakachilikdan so'ng tom mahnodagi mustaqillik ramzi sifatida birinchi bor umumxalq hohish-irodasi bilan mustaqil O'zbekiston Respublikasi prezidentini sayladi. O'zbekiston Respublikasi prezidenti saylovi muqobillik asosida o'tdi. Oliy lavozimga ikki nomzod – O'zbekiston XD' va O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi nomzodi I.A.Karimov va «Erk» Demokratik 'artiyasi vakili Saloy Madaminov (Muhammad Solih) nomzodi qo'yildi.

Saylovlar yakuniga ko'ra ovoz berishda qatnashganlarning 86 foizi Islom Karimov nomzodini, 12,3 foz Saloy Madaminov nomzodini yoqlab ovoz berdi.

Respublikaning barcha xududlarida saylov uyushqoqlik bilan, qonunlarga qathiy amal qilingan xolda saylovchilarning yuksak faolligida o'tdi. Saylovlar natijalari o'zbek xalqining mustaqil taraqqiyoti va rivojlanishini, yutuqlarini I.A.Karimov shaxsi, uning dono siyosati, tashabbuskorligi va fidoyiligi bilan bog'lashning yaqqol dalilidir.

O'zbekiston erishgan istiqlolni mustahkamlash uchun xalqning fikrini bilish, mustaqillikka munosabatni aniqlash zarur edi. SHu maqsadda 1991 yil 29 dekabrda O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risidagi masala bo'yicha O'zbekiston Respublikasining referndumi o'tkazildi. Unda byulletenga «O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan e'lon qilingan O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini mahquillaysizmi?» degan savol kiritildi. O'zbekiston Respublikasining mustaqil davlat deb e'lon qilinishini yoqlab 9.718.155 kishi yoki referendumda qatnashganlarning 98,2 foizi ovoz berdi. Demak O'zbekistonning davlat mustaqilligi umumxalq tomonidan yakdillik bilan mahquullandi.

O'zbekiston Respublikasining mustaqil Respublika deb e'lon qilinishi faqat mamlakat xalqi emas, balki jahon jamoatchiligi tomonidan ham qoniqish bilan kutib olindi. Buni mustaqillik kunlarida O'zbekiston Respublikasi prezidenti nomiga kelgan tabriklardan ham bilsa bo'ladi. Masalan, Amerika Qo'shma SHtatlarining o'sha 'aytdagi prezidenti Jorj Bush I.Karimov nomiga yuborgan telegrammada shunday deydi: «Qadrli janob prezident. SSSR tarqalgandan so'ng, Sizning mamlakatingizda yuz bergn tarixiy o'zgarishlar munosabati bilan shuni ma'lum qilish menga qoniqish beradiki, Amerika Qo'shma SHtatlari Hukumati O'zbekistonni mustaqil davlat sifatida tan oldi».

Tez orada dunyoning ko'pchilik mamlakalari O'zbekistonning mustaqilligini tan oldilar va O'zbekiston bilan di'lomatik, iqtisodiy, madaniy xamkorlik o'rnatdilar.

O'zbekiston Respublikasi davlat ramzlarining qabul qilinishi mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlashda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgach, o'zining xalqaro talablar va mehyorlar doirasida qiyofasini ko'rsatmog'i, buning uchun esa o'zining butun imkoniyatlarini, o'ziga xos jixatlarini ifodalovchi davlat ramzlariga ega bo'lmog'i lozim edi.

O'zbekiston mustaqil davlat deb e'lon qilingan kunning o'zidayoq mustaqil davlat ramzlarini joriy qilish yuzasidan amaliy choralar ko'rildi.

CHunki qisqa fursatda o'z mustaqilligini qonun bilan mustahkamlab, uning jahon hamjamiyatida tan olinishiga erishish tarixiy – olamshumul voqea edi. O'zbekiston o'zining har bir kuniga va olis istiqboliga qathiy ishonch bilan qaradi, shuning uchun ham u, eng avvalo, davlat ramzlarini qabul qilib, dunyoga ko'z-ko'z etib, uni tan oldirish yo'lidan bordi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991 yil 18 noyabrda bo'lib o'tgan VIII sessiyasi «O'zbekiston Respublikasining davlat bayrog'i to'g'risida» qonun qabul qildi.

O'zbekiston Respublikasining davlat bayrog'i mamlakatimiz xududida ilgari mavjud bo'lgan g'oyat qudratli saltanatlar yutug'lariga xos bo'lgan eng yaxshi anhanalarni, g'oyalarni davom ettirgan, ulug' ajdodlarimizning aqida va maslaklariga mos bo'lgan qarashlarini davom ettirgan xolda millat tabiati va xalqimiz ruxiyatidan kelib chiqib, uning milliy va ma'naviy jixatlarini ham o'zida aks ettirmog'i kerak edi.

Bayroqdagi moviy rang - xayotimiz mazmuni aks etgan mangu osmon va obi xayot ramzidir. Timsollar tilida bu yaxshilikni, donishmandlikni, shon-shuxrat va sadoqatni bildiradi.

Bayroqdagi oq rang - tinchlik va 'oklik timsolidir. Yosh mustaqil davlat yo'lining musaffo, beg'ubor va charog'on bo'lishi uchun yaxshi niyat ifodasi.

Qizil yo'llar – bu xar bir tirik jonning qon tomiri, unda jo'sh urib turgan xayotiy kuch, tiriklik ramzi.

Yashil rang – O'zbekistonning sahovatli va tabarruk tu'rog'i, go'zal tabiati timsoli, odamlarning atrof-muhitni muhofaza qilishga undaydi.

Yarim oy – o'zbek xalqining ko'p asrlik anhanalariga mos keladi. Yarim oy va yulduzlar musaffo osmon va tinchlikning ifodasidir.

O'n ikkita yulduz tasviri – qadimdan mukammallik timsoli.

Xullas. mamlakatimiz davlat bayrog'i yurtimizning o'tmishi, bugung kuni va kelajagining yorqin ramzi bo'lib qoldi.

1992 yil 2 iyulda O'zbekiston Respublikasining Oliy Kengashining X sessiyasi «O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi to'g'risida»gi qonunni qabul qildi.

Gerb markazidagi Xumo qushi – baxt saodat va erksevarlik ramzi.

Gerbning yuqori qismidagi sakkiz qirrali yulduz Respublikamizning sobit va barqarorligi timsoli sifatida tasvirlangan.

Quyosh – davlatimizning yo'li xamisha nurafshon bo'lishi bildirilgan yaxshi niyat, ayni 'aytda u O'zbekistonning noyob iqlimiga ega mamlakat, serquyosh o'lka ekanligini bildiradi.

Boshhoqlar - rizq-ro'zimiz timsoli, to'kin-sokinlik ifodasi. O'zoq 'axta – O'zbekiston dong'ini dunyoga taratgan bebaho boyligimiz ramzi.

Bug'doy boshhoqlari va 'axta chanoqlarining davlat bayrog'iga lenta bo'lib o'ralganligi O'zbekistonda yashayotgan xalqlar do'stligi va yakdilligi ifodasi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992 yil 10 dekabrda bo'lib o'tgan XI sessiyasida «O'zbekiston Respublikasining Davlat madxiyasi to'g'risida»gi qonun qabul qilindi. SHoir Abdulla Ori'ov va Mutall Burxonov tomonidan tayyorlangan madxiya varianti tasdiqlandi.

O'zbekiston prezidentining 1994 yil 16 iyundagi farmoniga muvofiq 1994 yilning 1 iyulidan boshlab O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi – so'm muomalaga kiritildi.

O'zbekistonning davlat mustaqilligiga ega bo'lganligi katta tarixiy ahamiyatga egadir. CHunki mustaqillik natijasida:

o'zbek halqi o'z taqdirini o'zi belgilash xuquqiga ega bo'ldi, xalq davlat xokimiyatining birdan-bir sohibi, xo'jayini bo'lib qoldi.

O'zbekiston mustaqilligi Respublikada adolatli, demokratik, inson'arvar jamiyat qurish uchun yo'l ochib berdi, o'z milliy davlatchiligini bar'o qilishga imkoniyat yaratdi.

Mustaqillik tufayli O'zbekiston xalqaro miqyosda o'zini tanitish, ayni choqda xalqaro huquq mehyorlari asosida jahondagi barcha davlatlar bilan xamkorlik qilish imkoniyatini qo'lga kiritdi. Jaxon xaritasida O'zbekiston yangi, yosh mustaqil davlat sifatida o'z o'rniga ega bo'ldi.

Iqtisodiyotda tub o'zgarishlar qilish uchun imkoniyat yaratildi, jaxon amaliyoti isbotlagan bozor iqtisodiyotiga o'tish uchun sharoit bar'o etildi.

Istiqlol yillari yangi mustaqil O'zbekistonning milliy davlatchiligi poydevorini bar'o etish sohasida 'uxta va jiddiy ish olib borilgan davr bo'ldi.

Ma'lum ki, O'rta Osiyo xalqlari o'zlarining ming yilliklar mobaynida barkamol davlatchilik anhanalari bilan jaxon davlatchiligi va siyosati taraqqiyotiga katta tahsir ko'rsatgan. prezidentimiz I.A.Karimov o'zining "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" kitobida ta'kidlaganidek: "Biz buyuk davlat qurishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, buning uchun zamonaviy siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, ma'naviy imkonlarimiz bilan bir qatorda tarixiy asosimiz ham bor. 2700 yillik buyuk davlatchilik o'tmishimiz bor".

Jaxon davlatchiligi tarixi jamiyatning bir jixatdan ikkinchi xolatga o'tishi kabi inqilobiy o'zgartirishlar jarayonini ko'p ko'rgan. Ana shunday murakkab sharoitda turli davlatlar turlicha yo'l tutishgan.

Mustaqillikka erishilgach, xalqimiz oldida keskin muammolar ko'ndalang bo'ldi. Ularni hal qilmasdan turib, demokratik va xokimiyatni taqsimlash, demokratik xuquqiy davlat va fuqarolar jamiyati qurish mumkin emas edi.

O'zbekiston demokratik qadriyatlarni, shaxsning xuquq va erkinliklarini tahminlashni o'zi uchun eng ustivor qadriyatlar sifatida tanladi. Bu maqsadlarga avvalgi, mafkuraviy totalitar tuzumni tubdan buzib tashlamasdan, o'tmish asosratlaridan voz kechmasdan erishib bo'lmasdi.

Yangi davlatchilikning qaror topish jarayoni ham tashqi, ham ichki murakkab sharoitlarda ro'y berdi. Bundan tashqari, yangi davlatchiligimizni ibtidosidan boshlashga to'g'ri keldi. Natijada milliy davlatchilikka poydevor qo'yildi. Eski mahmuriy-buyruqbozlik tizimi va unga mos bo'lgan xokimiyat va boshqaruv organlari barham to'tirildi. Siyosiy va iqtisodiy boshqarish va tartibga solishning ko'pgina tuzilmalari va organlari tugatildi. Ular mahmuriy-buyruqbozlik tizimining markazlashtirilgan rejalash-taqsimlash iqtisodiyotining ustunlari edi. Mustaqillik tufayli O'zbekiston eski jamiyatdan, mustamlakachilikdan, totalitar tuzumdan ozodlik, erkinlik va hurriyat qaror to'adigan yangi demokratik jamiyatga o'ta boshladi. Demokratik tartibot - bu siyosiy hokimiyatni amalga oshirishning keng tarqalgan shaklidir. Unda demokratiya institutlari, siyosiy erkinliklar bo'lishiga, mehnatkashlarning turli tashkilotlar atrofida birlashishiga imkon beriladi. Unda barcha fuqarolarning teng huquqliligi, jamiyat va davlat boshqaruvida qonun ustivorligi, davlatning asosiy organlarining saylanishi va boshqalar bor. Ana shu tamoyillar mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasida o'z ifodasini to'gan.

1992 yil 8-dekabrda Oliy Kengashning 12-chaqiriq XI-sessiyasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi milliy davlat, dunyoviy ijtimoiy tuzumning qaror topishida, mustaqillikni huquqiy, siyosiy, ma'naviy jihatdan mustahkamlashda muhim voqea bo'ldi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti xujjatlari. Inson huquqi Butunjahon deklaratsiyasi, xalqaro huquqning qoidalari bu Konstitutsiya negiziga asos qilib olindi. Yevropa, Amerika, Osiyodagi rivojlangan davlatlarning konstitutsiyaga doir tajribalaridan foydalanildi. Yangi konstitutsiya loyihasini ikki yarim oy mobaynida umumhalq tomonidan muhokama qilinishi uning mazmunini boyitib, ayrim moddalarini o'zbek xalqining tarixiy tajribasi, milliy qadriyatlari va anhanalariga mos ravishda aniqlashtirib berdi. Konstitutsiya kirish qismi, 26 bobni birlashtirgan olti bo'lim va 128 moddani o'z ichiga oladi. Konstitutsiyaning eng asosiy g'oyasi insonni, uning hayoti, erkinligi, qadr-qimmatini hammadan yuqori qo'yadigan umuminsoniy tamoyillarga tarafdorlikdir. Konstitutsiya xalqni hokimiyatning birdan-bir manbai deb e'lon qildi. Konstitutsiyada inson - fuqaroning huquqlari va erkinliklari mustahkamlanib qo'yilgan. SHu bilan birga har bir fuqaro jamiyat va davlat oldida javobgardir.

Konstitutsiyada vijdon erkinligi va diniy ehtiқodlarning ehtirol etilganligi har bir insonga uning o'z ehtiқodiga amal qilib borish va o'z diniga erkin ehtiқod qilish huquqini beradi.

Davlat hokimiyati tuzilishining xalqaro hamjamiyat tomonidan ishlab chiqilgan demokratik shakllariga va eng avvalo, hokimiyatlarni - qonun chiqaruvchi, ijrochi va sud hokimiyatlarini - ajratib qo'yish 'rintsi'iga asoslanadi. prezident I.Karimov o'zining "O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li" kitobida: "... Qonun chiqaruvchi ijro etuvchi va sud xokimiyati vakolatlarini ajratish asosida milliy davlatchilikni bar'o etish, jamiyatning siyosiy tizimini, davlat idoralarining tuzilishini tubdan yaxshilash, Respublika xokimiyati xamda maxalliy xokimiyatning vakolatlari va vazifalarini aniq belgilab qo'yish, adolatli va inson'arvar qonunchilikni vujudga keltirish mumkin", - deb tahkidlaydilar.

O'zbekistonda fuqarolar tinchligi va millatlararo totuvlik negizida jiddiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlat boshqaruvi tizimi xalqimizning davlat qurilishi tizimidagi tarixiy merosi va jahon ilg'or tajribasi asosida tubdan o'zgartirildi. Sobiq SHo'ro Respublikalari orasida birinchi bo'lib, O'zbekistonda davlat boshqaruvining prezidentlik usuli joriy etildi. Bunday usulning o'ziga xos tomonlari quyidagilardan iborat:

Konstitutsiyaga binoan O'zbekistonda davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig'i prezident hisoblanadi.

1) Ayni vaqtda u Vazirlar Mahkamasining raisi hisoblanadi.

2) O'zbekiston Respublikasi prezidenti Respublika fuqarolari tomonidan umumiy teng va to'g'ridan-to'g'ri yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadi. SHu sababli u Oliy Majlisga bevosita bo'ysunmaydi. Lekin har yili ichki va xalqaro ahvol xususida Oliy Majlisga Ma'lumotnoma taqdim etadi.

Bundan tashqari ijro etuvchi hokimiyat devonini tuzadi va unga rahbarlik qiladi. Vazirliklar, davlat qo'mitalari hamda davlat boshqaruvining boshqa organlari prezident tomonidan tuziladi yoki tugatiladi.

3) Viloyatlar hokimlari va Toshkent shahar hokimi prezident tomonidan tayinlanadi va zarur bo'lsa ularni o'z lavozimidan bo'shatadi.

O'zbekiston Respublikasi prezidentiga keng huquqlar berilishining ahamiyati milliy davlatchiligimizni shakllantirishda, boshqaruv usulini yaxshilashda sezilmoqda.

O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritib, xuquqiy demokratik davlatni qurish yo'liga kirishar ekan jamiyatimizda yuzaga kelgan xurfiqrlilik nishonasi bo'lgan ijtimoiy-siyosiy xarakatlar va siyosiy 'artiyalarning xam o'ziga yarasha o'rni bor.

Ko'p'artiyaviylik - bu yoki u mamlakatda amal qiluvchi va davlat boshqaruvida ishtirok etish maqsadida o'zaro raqobat qiluvchi ikki va undan ortiq 'artiyalardir. Ko'p'artiyaviylik - o'ziga xos totuv yashash bo'lib, unda har bir siyosiy 'artiya ma'lum darajada umumiy manfaatlardan kelib chiqib o'z yo'lini o'tkazish demakdir.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda siyosiy 'artiyalar, jamoat tashkilotlari vujudga kelishi va faoliyat yuritishi uchun xam xuquqiy asoslar yaratildi.

Xozir O'zbekistonda 5 ta siyosiy 'artiya faoliyat ko'rsatmoqda:

1. O'zbekiston Xalq Demokratik 'artiyasi (XD') 1991 yil 1 noyabrda tashkil to'gan. XD' o'z dasturida mamlakatda adolatli jamiyat qurish, uning siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini mustaxkamlash, O'zbekiston xalqlari o'rtasida tinchlik, osoyishtalik, fuqarolar totuvligini tahminlash, har bir mexnatkashning moddiy va ma'naviy turmushini yaxshilash, fuqarolarning konstitutsiyaviy xaq-xuquqlarini ximoya qilish maqsadini ilgari suradi. O'zbekiston XD' 'arlament 'artiyasidir. O'z a'zolaridan Oliy Majlis va Maxalliy xokimiyat organlariga saylovlar 'aytida nomzodlar ko'rsatib davlat xokimiyati organlarining barcha bo'g'inlarida ishtirok etadi.

2. O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik 'artiyasi (SD') 1995 yil 18 fevralda tashkil to'gan. 'artiyaning asosiy maqsadi O'zbekiston Respublikasida barcha millat va elatlarning umumiy manfaatiga mos keladigan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jixatdan yetuk, demokratiya tamoyillariga asoslangan adolatli, fuqarolik jamiyati qurishda faol ishtirok etishdan iborat. "Adolat" sotsial-demokratik 'artiyasi Oliy Majlisda o'zining fraktsiyasiga ega.

3. O'zbekiston Miliy tiklanish demokratik 'artiyasi (MTD') 1995 yil 3 iyunda tashkil to'gan. 'artyaning maqsadi milliy manfaatlarni, milliy yakdillikni tahminlash, xuquqiy davlatni bar'o etish va O'zbekistonni jaxonning yetakchi davlatlari safiga olib kirish uchun xalqni safarbar qilishdan iborat. MTD' millatning o'z-o'zini anglashi, fuqarolarda Vatanga sadoqat va muxabbat tuyg'ularini to'la shakllantirish, bozor munosabatlariga asoslangan yangi jamiyat qurish, milliy tiklanish yo'lidan rivojlanishga erishish, milliy meros va anhanalarni ro'yobga chiqarish, millatning ilmiy, texnikaviy salohiyatini yuksaltirish va demokratik jamiyat qurish uchun qurashadi.

4. Fidokorlar milliy demokratik 'artiyasi 1998 yil yanvarda tashkil to'gan. 'artyaning maqsadi xuquqiy-demokratik davlat qurish, tadbirkorlikni qo'llab quvvatlash asosida mulkdorlar sinfini shakllantirish. 2000 yil may oyida Vatan taraqqiyoti 'artiyasi bilan kurash yo'li va maqsadi bir-biriga yaqinligi uchun ixtiyoriy birlashdi. Mamlakatda "Xalq birligi" xarakati 1995 yil iyundan faoliyat ko'rsatmoqda. Xarakatning asosiy maqsadi ko'p millatli mamlakatda xalqlar birligini yanada mustaxkamlash, fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustaxkamlangan xuquq va erkinliklarining kafolatlarini to'la-to'kis amalga oshirish va fuqarolik, vatanparvarlik tuyg'ularini rivojlantirishdan iborat.

5. Tadbirkorlar va ishbilarmonlar liberal demokratik 'artiyasi(O'ZLIDE') qo'lga kiritilgan mustaqillik o'zbek xalqi tarixida yangi davrni boshlab berdi, milliy dunyoqarashda yangicha tafakkur shakllana bordi.

XXI asr bo'sag'asida O'zbekiston o'zining davlat mustaqilligini qo'lga kiritdi, xalqimizning asriy orzusi ushaldi, o'z taqdirini, o'z kelajagini o'z qo'li bilan yaratadigan bo'ldi. Mamlakatimiz tarixida yangi davr - mustaqil taraqqiyot yo'li boshlandi. Mamlakatimiz o'z mustaqilligining to'qqizinchi yilini boshdan kechirmoqda. SHu davr ichida yuksak darajada rivojlangan O'zbekiston davlatini bunyod etish borasida amalga oshirilayotgan buyuk ishlarning hajmi ham, salmog'i ham benihoya ulkan. Eng asosiy erishgan yutug'imiz shu bo'ldiki, eski mahmuriy-buyruqbozlik boshqaruv tizimidan yangi bozor munosabatlari taraqqiyot yo'lga o'tish bazi qardosh mustaqil davlatlarda bo'lganidek, inqilobiy qon to'kilishiga olib kelgan yo'llar bilan emas, balki asta-sekin va qadamba-qadam rivojlanish orqali sodir bo'lmoqda.

Buning natijasida biz ishlab chiqarishning keskin darajada 'asayib ketishiga, narx-navoning haddan tashqari oshib ketishiga, beqarorlikka yo'l qo'ymadik. Jamiyatning iqtisodiy hayotidagi tanazzul va turg'unlikning oldi olindi. Biroq xalqimiz, ayniqsa yoshlar orasida bozor iqtisodiyotining qonun-qoidalarini to'g'ri va to'la tushunmayotgan, jamiyatimiz hayotida yuz berayotgan murakkab muammolarga to'g'ri tushuna olmayotganlar ham yo'q emas. Ma'ruza matnida biz O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos va o'ziga mos yo'lini, iqtisodiyot sohasida qo'lga kiritilgan yutuqlarni ko'rsatishga harakat qilamiz.

Bu ma'ruza matnini yozishda, O'zbekiston Respublikasi prezidentining shu davrgacha cho' qilingan asarlari, Respublika prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining chiqargan farmonlari, qator mualliflarning mamlakatimiz iqtisodiyotiga bag'ishlangan kitoblari va maqolalaridan foydalandik. Bu kitoblarda bozor iqtisodiyotiga o'tishning nazariy asoslari, uni amalga oshirishning yo'llari va uslublari, qo'lga kiritilgan yutuqlar va muammolar bayon qilingan. Biz mualliflarning O'zbekistondagi bozor iqtisodiyoti masalasidagi qarashlarini tanqidiy ko'z bilan o'rganib, ularni bir biriga solishtirishga harakat qildik.

Mamlakatimizda bozor munosabatlari qadim zamonlardan boshlab shakllangan. Tarixiy xujjatlarning guvohlik berishicha, bundan ming yillar muqaddam Buxoro va Xiva savdogarlari hayron qoldiradigan tovarlarni Hindiston, Xitoy, Rossiya va G'arbiy Yevropa mamlakatlariga yetkazib berganlar. Bozor munosabatlari qonunlarini nazar-'isand qilmaslik og'ir oqibatlarga olib kelishi mumkin. Sobiq SSSR da bozor iqtisodiyotiga aloqasi bo'lmagan iqtisodiyotni yaratishga urinib ko'rildi. Bu urinish halqlarga juda qimmatga tushdi.

Mustaqillik tufayli O'zbekiston bozor munosabatlarini shakllantirishning, milliy anhanalarga asoslangan o'z yo'lini tanlab oldi. O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tishning o'z modeli ishlab chiqildi. Ushbu kontse'tsiyaning qoidalarini prezidentimiz I.A.Karimovning kitoblarida, maqolalarida, nutqlarida, mamlakat 'arlamenti qabul qilgan qonunlarda bayon etib berilgan. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning bu yo'li Respublikamizning milliy o'ziga xosligi va manfaatlariga, uning hayoti, sharoiti va imkoniyatlariga, O'zbekiston anhanalariga, uning tarixiga va xalqning xususiyatiga muvofiq keladi. Ushbu tanlangan yo'lning mohiyati O'zbekiston Respublikasining prezidenti I.A.Karimovning besh tamoyilida tahriflab berilgan. Bu tamoyillar faqat bizning mamlakatimizda emas, boshqa davlatlarda ham tan olindi. prezidentimiz tahkidlaganiday, - "Ilg'or mamlakatlarning tajribasiga ko'ra, faqat bozor munosabatlariga o'tish xalq farovonligi, uning turmush darajasi va ravnaqini o'stirish yo'lida Respublika ishlab chiqaruvchi kuchlaridagi juda katta imkoniyatlardan to'la-to'kis foydalanishni tahminlashi mumkin".

Iqtisodiy mustaqillik deganda nimani tushunamiz? Eng avvalo har qanday davlat yoki mamlakat iqtisodiy mustaqil bo'lishi uchun uning iqtisodiyoti, xo'jaligi boshqa mamlakatlar iqtisodiyotiga qaramlikdan holi bo'lishi, eng muhim oziq-ovqat, istehmol mollari, strategik hom-ashyolar bilan o'zini-o'zi, asosan, tahminlashi kerak. Iqtisodiy mustaqil davlat boshqa davlatlar bilan teng huquqli, o'zaro manfaatli bitimlar tuzishning iqtisodiy jihatdan kafolatlanganligini ifodalaydi.

Yuqorida aytib o'tilgan besh tamoyil ana shu iqtisodiy mustaqillikning tahminlashga qaratilgan. Ular: 1) iqtisodiyotning siyosatdan ustivor bo'lishi; 2) davlat asosiy islohotchi bo'lishi; 3) qonun va qonunlarga rioya qilishning hamma narsadan ustunligi; 4) kuchli ijtimoiy siyosat; 5) bozorga o'tish bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak. Bu tamoyillarni alohida-alohida ko'rib chiqamiz.

1). Iqtisodiyotning siyosatdan ustivorligini qanday tushunmoq kerak?

Bir qancha mamlakatlarning tajribasi shuni ko'rsatdiki, iqtisodiyot siyosiy manfaatlariga bo'ysundirilganda u barbod bo'ladi. "Iqtisodiyot, deb tahkidlaydi prezidentimiz I.A.Karimov, - siyosatga nisbatan ustivor mavqeda bo'lishi lozim".

Butun insoniyat tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, inson - u dehqonmi, ishchimi, agronommi - kim bo'lmasin, o'z ish joyida o'zini xo'jayin deb his qilishi, o'z mehnatining natijalaridan moddiy jihatdan manfaatdor bo'lish kerak. Bu narsalar, inson mehnatining mahsuloti bozorning o'zi belgilab beradigan narhlar bo'yicha erkin sotilishi kerak. Bozorning qoidasi esa shunday:- kimning mahsuloti yaxshiroq va arzonroq bo'lsa, o'sha mahsulotga talab hammadan ko'ra ko'proq bo'ladi. Bu yerda hech qanday siyosat o'z tahsirini o'tkaza olmaydi.

2) nima uchun davlatning o'zi asosiy islohotchi bo'lishi kerak?

Bozor munosabatlari rivoj to'gan davlatlar iqtisodiyotga kamroq buyruq berishga harakat qiladi. Basharti vaziyat taqozo etsa, paydo bo'lgan muammolarni hal etishni davlat o'z zimmasiga oladi.

Bizda, bozor iqtisodiyotga o'tilar ekan, eski iqtisodiy mehanizmni yo'qotib, o'rniga yangi bozor mexanizmini bir laxzada yaratib bulmaydi. Ularni bar'o etish, shakllantirish uchun muayyan vaqt kerak. prezidentimizning "Yangi uy qurmay turib, Eskisini buzmag" degan gaplarida jon bor. Xo'jalikning tayanch tarmoqlari - umummilliy manfatlarga dahldor bo'lgan eng muhim vazifalarni davlat amalga oshiradi.

Bozor munosabatlariga o'tish uchun ishlab chiqarish va taqsimotning butun tizimi, davlatimizning va ijtimoiy tuzumning binosini qaytadan bunyod etish kerak. Bu ishlarni davlatdan boshqa hech kim hal qila olmaydi. Mana shuning uchun ham bizning bozor munosabatlariga o'tishimizda davlatning o'zi bosh islohotchi vazifasini bajaradi.

3). Qonun ustivorligini zaruriyati nimada?

Bozor munosabatlarini zo'ravonlik yo'li bilan shakllantirib bo'lmaydi. Bozor iqtisodiyoti huquqiy meyorlar va qoidalarga tayanishi bilan mahmuriy-buyruqbozlik tizimidan farq qiladi.

Qonunning ustivorligi huquqiy davlat bar'o etish zaruratidan ham kelib chiqadi. Qonun oldida hamma barobardir. Barcha ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar faqat qonun bilan tartibga solinadi.

Mahrifiy dunyodagi bozor- bu eng avvalo qonunga hurmat demakdir.

4) Kuchli ijtimoiy siyosat yuritishning zaruriyati nimalar bilan bog'liq?

Bu O'zbekistonning iqtisodiy ahvoli, xalqning turmushi, demografik vaziyat bilan bog'liq. Aholi tarkibida boqimandalarning hissasi ko'p. Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida dastlab aholi ijtimoiy jihatdan tabaqalanadi va himoyaga muhtoj bo'lgan qatlami kengayadi. SHuning uchun davlat himoyaga muhtoj qatlamlarni muhofaza qilish uchun baholi qudrat zarur tadbirlar ko'radi.

5). Bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tish nimani bildiradi?

Bozor iqtisodiyoti murakkab tizim bo'lib, uni birdaniga yaratib bo'lmaydi. Totalitar tuzum 'sihologiyasidan bozor 'sihologiyasiga o'tish uchun vaqt hamda yangi iqtisodiy, ma'naviy imkoniyatlar va sharoitlar kerak. Bu ishlarni hammasini bajarish uchun vaqt talab qilinadi.

Bir necha yillar mobaynida Respublika iqtisodiyoti Markazdan boshqariladigan yagona xalq xo'jaligi majmuining tarkibiy qismiga aylangan edi. Respublika arzon xomashyo va strategik mineral resurslar yetkazib beruvchi tayyor mahsulot sotiladigan bozorga aylanib qolaverdi.

Respublika hududida joylashgan ko'plab korxonalar bevosita Markaz buysunuvida edi. Amalda Respublika tovarni O'zbekiston ichki bozori uchun emas, balki tashib ketish uchun takror ishlab chiqarar edi. Respublika neft va boshqa energetika manbaalari bilan o'zini-o'zi tahminlash bo'yicha katta imkoniyatlarga ega bo'la turib, 1 million tonnadan ziyod neftni chetdan olardi. Respublika g'alla, qand, go'sht va boshqa hayotiy maxsulotlarni tashib keltirishga majbur edi.

Iqtisodiy muammolar demografik holatda yuzaga kelgan ahvol bilan qo'shilib, ijtimoiy masalalarni hal etishni g'oyat qiyinlashtirib qo'ygan edi.

Bu tanglikdan chiqish uchun O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga hos yo'lini tanladi. SHu bilan birga bosqichma-bosqich bozor munosabatlariga o'tishda ushbu mintaqaga xos bo'lgan xususiyatlar va shart-sharoitlarni hisobga oldi. Bular: 1) Respublikaning qulay jo'g'rofiy-siyosiy mavqega ega ekanligi; 2) tabiiy-iqlim sharoitlarining o'ziga xosligi; 3) Respublikadagi alohida demografik vaziyat; 4) aholi tarkibida bolalar va o'smirlarning ko'pligi; 5) aholining 60% dan ko'prog'ini qishloqda yashashligi; 6) Respublika milliy tarkibining o'ziga xosligi va b.

O'zbekiston mustaqilligining to'qqiz yili mobaynida qilingan ishlarning bosqichlari aniq ko'zga tashlanib qoldi. Iqtisodiy islohotlar birinchi bosqichining asosiy mazmuni ko'p ukladli iqtisodietning huquqiy asoslarini qurish, kishilarning xususiy mulkdan begonalashuvini bartaraf etish, odamlarga tashabbus va tadbirkorlikni rivojlantirish asosi hisoblangan hususiy mulkni davlat tomonidan muhofaza qilinishini tahminlashdan iborat bo'ldi.

O'zbekistonning iqtisodiy mustaqilligini tahminlash aynan bir 'aytda uchta yirik ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilish asosida amalga oshirilmoqda:

1) milliy iqtisodiyotni bar'o etish;

2) bozor munosabatlarini shakllantirish;

3) xalqaro xo'jalik tizimiga va jahon bozoriga kirish. O'zbekistonning siyosiy va iqtisodiy mustaqillikka va mustahkam moddiy baza yaratishga erishish manfaatlaridan kelib chiqqan holda uning iqtisodiy islohotlar sohasidagi strategik maqsaddlari quyidagicha belgilangan:

Birinchi. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodini bosqichma-bosqich shakllantirish, milliy boyliklarning o'sishini, kishilar turmushi va faoliyati uchun munosib sharoitlarni tahminlaydigan kuchli va muntazam rivojlanib boruvchi tizim yaratish.

Ikkinchi. Ko'p ukladli iqtisodni vujudga keltirish, kishining mulkdan begonalashuvini bartaraf etish,

tadbirkorlikning, har taraflama o'sishi uchun, asos bo'ladigan xususiy mulkchilikning davlat tomonidan himoya qilinishini tahminlash.

Uchinchi korxonalar va fuqarolarga keng iqtisodiy erkinliklar berish, ularning xo'jalik ishlariga davlatning to'g'ridan-to'g'ri aralashuvidan voz kechish, iqtisodni boshqaruvning mahmuriy-buyruqbozlik usullarini yo'q qilish, iqtisodiy vositalar va rabatlantirishni keng qo'llash.

To'rtinchi. Moddiy tabiiy va mehnat resurslaridan unumli foydalanishni, raqobatbardosh tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarishni, jahon iqtisodiy tizimiga kirib borishini tahminlaydigan chuqur iqtisodiy o'zgarishlarni amalga oshirish.

Beshinchi. Kishilarda yangicha iqtisodiy tafakkurni shakllantirish, ularning dunyoqarashini o'zgartirish, har bir kishiga o'z mehnatini qo'llash sohalari va shakllarini o'zi mustaqil belgilab olish uchun imkoniyat yaratish.

Milliy iqtisodiyotni bar'o qilish - iqtisodiy mustaqillikka erishishning negizi bo'lib, tub tarkibiy o'zgarishlarni taqozo qiladi, milliy boylik - yer osti va yer usti boyliklariga to'la-to'kis va haqiqiy egalik qilish, ulardan samarali foydalanishni talab qiladi. Iqtisodiy mustaqillikka yetuk va bilimdon, ishbilarmon va tadbirkor mutaxassislar erishib bo'lmaydi.

Iqtisodiy mustaqillikka bozor munosabatlarini shakllantirish va ularning amal qilish uchun huquqiy kafolatlar yaratish, tub iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish orqali erishish mumkin. Ma'lum ki, yaqin yillargacha xalq xo'jaligining turli turmoqlarini qator vazirliklar va ishlab chiqarishga dahldor bo'lgan, mahsulot yetishtirib uni qayta ishlash, sotish imkoniyatiga ega bo'lgan bu tashkilotlar davlat byudjetidan mablag' olib ish yuritishar edi. Hozir ularning ko'p qismi turli kontsernlar, birlashmalar, hissadorlik tashkilotlariga aylantirildi va tekintomoqlikka chek qo'yildi. O'zlari mahsulot ishlab chiqarib, xom ashyoni qayta ishlab, ichki va tashqi bozorga olib chiqib, ana shu yo'l bilan o'zlarini ham, davlatni ham boyishi yo'lga o'tkazildi.

Etmish yildan ortiqroq vaqt mobaynida biz jamoatchilik, davlat mulki haqida gapirib keldik. SHaxsiy boylik orttirgan, shaxsiy mulkka egalik qilgan har qanday kishi davlat va xalq dushmani sifatida qoralanar edi. SHuning uchun mulkchilik to'g'risidagi fikrlarning, umuman mulkka munosabatning o'zgarishi cheklanib qolgan ongimizga singishi qiyin bo'lya'ti. Xususiylashtirish shunchaki islohotlarning bir ko'rinishi emas. U nafaqat iqtisodda, balki inson ruhiyatida, huquqiy va siyosiy tushunchalarimizda yuz berayotgan chinakam to'ntarish. prezident I.A.Karimovning 1994 yil 21 yanvardagi "Iqtisodiy islohatlarni yanada chuqurlashtirish, hususiy mulkchilikni himoya qilishni tahminlash va tadbirkorlikni rivojlantirish tadbirlari to'g'risidagi" farmoni butun mamlakat taraqqiyotining muhim bosqichi bo'ldi. Bu farmonga asosan davlat mulkini hususiylashtirish davlat qo'mitasi tashkil etilib, uning raisi mamlakat bosh vazirining o'rinbosari etib tayinlandi.

prezident I.A.Karimovning "O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida" kitobida tahkidlanganiday, bozor munosabatlariga o'tishning birinchi bosqichida, iqtisodiy islohotlarning qonuniy-huquqiy bazasini vujudga keltirishga katta e'tibor berildi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarni huquqiy tahminlashning yaxlit va ilg'or tizimi shakllandi.

Qabul qilingan qonunlar natijasida ko'p ukladli iqtisodiyot shakllana bordi, korxona va tashkilotlarning xo'jalik yuritish faoliyatini tartibga soladigan infra tuzilmalar vujudga keltirila boshandi, bozor mexanizmlarini rivojlantirish ishiga mustahkam poydevor qo'yildi, Respublika iqtisodiga horijiy investitsiyalarni jalb etishni manfaat va huquqlarini himoya qilishga kafolat yaratadigan imkoniyat yaratildi.

Sovetlardan keyingi makondagi ko'pgina mamlakatlar islohotlarning dastlabki bosqichlarida ichki va qarz olingan valyuta zahiralarning ko'pchilik qismini eng avvalo xorijdan istehmol mollarini keltirishni kengaytirishga sarfladi. SHu tariqa ular o'z ishlab chiqaruvchilarini ichki bozordan istasa-istamasa siqib chiqardi. Oqibatda milliy sanoat va qishloq xo'jaligi inqirozga yuz tutdi.

O'zbekistonda boshqacha yo'ldan borildi. Isloh qilishning dastlabki bosqichlarida istehmol bozorini bir qadar cheklashga majbur bo'lindi. Ayni chog'da mablag' va zaxiralarni

iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarga sarflab, xorijga mahsulot tayyorlaydigan ilg'or texnologiya bazasi bilan jihozlangan zamonaviy korxonalar bar'o etib, ichki bozorni o'z mollari bilan to'ldirish yo'lidan borildi. SHu maqsadlardan kelib chiqib, o'z-mablag'larimiz va olgan qarzlrimizning asosiy qismi investitsiyalarga, Respublikaga yangi texnologiya va texnika keltirishga sarflandi. Bugunga kelib bu siyosat o'z samarasini bermoqda. Bu Asakadagi avtomobil' zavodi, Ko'kdumaloq va Mingbuloqdagi neft' konlarini ishga solish, Buxoro neftni qayta ishlash zavodi, chet ellik sheriklar ishtirokida o'nlab to'qimachilik va i'yigiruv fabrikalari, Andijon, Qo'qon va Yangiyo'lda s'irt zavodlari, Xorazm viloyatida qand zavodi, Qizilqum fosforid kombinati, Qo'ng'irot soda zavodi, Olmaliq va Navoiy kon-metallurgiya kombinatlarini qayta tadmirlash, yangi temir yo'l va avtomobil' yo'llari, yangi telekommunikatsiyalar, shahar va qishloqlarni obodonlashtirish, oziq-ovqat va mahalliy sanoatga qarashli o'nlab yangi korxonalar demakdir.

Hususiylashtirish borasidagi barcha ishlar izchil, muntazam olib borilmoqda. Iqtisodiyotning turli sohalarida va Respublika hududlarida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va hususiylashtirish bo'yicha 20 dan ortiq davlat dasturi qabul qilinib, amalga oshirilmoqda.

Iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichida hususiylashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirish sohasida dastlabki natijalar qo'lga kiritildi. Eng avvalo, kichik xususiy lashtirish amalda tugallandi, davlat mulkini boshqarish va uni mulkchilikning boshqa shakllariga aylantirish uchun kerak bo'lgan muassasalar tizimi, maxsus organlar tuzildi.

Birinchi bosqichda hususiylashtirishning ushbu jarayoni asosan savdo, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish, mahalliy sanoat korxonalarini jamoa mulki qilib berish negizida amalga oshirilgan kichik hususiylashtirishdir.

Uy-joylarni hususiylashtirish ham dastlabki qadam bo'ldi. Hususiylashtirish jarayonida ilgari davlat ixtiyorida bo'lgan bir milliondan ortiq kvartira yoki davlat uy-joy fondining 95 foizidan ortiqrog'i fuqarolarning hususiy mulki bo'lib qoldi. Bunda har 3 kvartiraning bittasi egalari ga imtiyozli shartlar bilan yoki bepul berildi. Urush faxriylari, o'qituvchilar, tibbiyot xodimlari va ilmiy xodimlar, ijodiy ziyolilar kvartiralarining bepul egalari bo'lishdi.

Kichik hususiylashtirishning amalga oshirilishi hamda boshqaruv va xo'jalik tuzilmalarida tegishli tajriba orttirilishi 1994 yilning o'rtalaridan boshlab ommaviy hususiylashtirish bosqichini boshlashga imkon berdi. Bu bosqichda ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatlarin yaratish, korxonalarning aksiyalarini muomalaga chiqarish hamda keng ko'lamdagi ko'chmas mulk va qimmatli qog'ozlar bozorini yaratish ko'zda tutilgan edi. Bu ishlar ham muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Xususiy lashtirish chora-tadbirlari tizimida davlat mulkini tanlov asosida hamda kim oshdi savdolarida sotish orqali mulkni davlat tasarrufidan chiqarishning yangi shakllaridan yanada kengroq foydalaniladigan bo'lib qoldi.

Ko'chmas mulk va qimmatli qog'ozlar bozorining yangi muassasalarini bar'o etishga asos solindi. Respublika fond birjasi va ko'chmas mulk birjasi. Milliy de'ozitoriy, investitsiya fondlari tashkil etildi.

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va hususiylashtirishdan olingan mablag'lar hisobiga ishlab chiqarishni texnika bilan qayta qurollantirish hamda ishlab chiqarish tarkibini o'zgartirish bo'yicha konkret loyixalarni ro'yobga chiqarish maqsadida, hususiylashtirish boshlanganidan keyingi davrda korxonalarga kreditlar berilayotir.

Hususiylashtirishdan keladigan samara ikki yoqlama harakterga ega, u aholining bo'sh turgan mablag'larini o'ziga jalb qilib, ularning bozorga tazyiqini 'asaytirmoqda, ayni vaqtda yangi mablag'larni ishlab chiqarishga jalb etish va tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi raqobatni yuzaga keltirish uchun sharoit yaratmoqda. O'zini mulkdor, o'z mehnatining va ishlab chiqargan mahsulotining xo'jayini deb his etish insonning yashirin kuch-g'ayratini yuzaga chiqarmoqda.

Butun iqtisodiy o'zgarishlarning yakuni barqarorlik va xalq farovonligi ko'p jihatdan tub o'zgarishlar jarayonlari agrar sektorni qanchalik keng qamrab olishiga, qishloqda islohotlar, qanchalik chuqur borishiga bog'liq bo'ladi. prezidentimiz tahkidlaganiday "eng asosiysi - qishloqda xo'jalik yuritishning shunday mexanizmini vujudga keltirish kerakki, u har bir

dehqonga manfaatdorlik bilan mehnat qilish, yetishtirgan mahsulotini mustaqil tasarruf etish, o'z oilasining mahmurchiligini tahminlash imkonini bersin".

Qishloq xo'jaligini isloh qilishning eng muhim yo'nalishi qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida band bo'lgan ortiqcha ishchilarni bo'shatib olish va ularni iqtisodiyotning boshqa sohalariga jalb etishdan iboratdir. Qishloq xo'jaligining o'zi qishloq joylarda yashayotganlarning hammasini ish bila tahminlay olmaydi. Natijada bu hol qishloq xo'jaligini rivojlantirish va isloh qilishga g'ov bo'lmoqda.

SHuning uchun islohotlarning dastlabki davrida qishloq xo'jaligini - isloh qilishga ustunlik berildi. Davlat qishloqqa butun choralar bilan yordam ko'rsatishi shart degan qoidaga qathiy amal qilindi.

Iqtisodiyotning agrar sektorida yangilanish jarayonini jadallashtirishda qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni takomillashtirish va dehqon (fermer) xo'jaliklari hamda hususiylashtirilgan fermalarning manfaatlarini himoyalash to'g'risidagi qonun va farmonlar ham qiluvchi rol o'ynaydi.

Ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida qishloqda agrar islohot jarayonida bozor iqtisodiyoti talablariga ancha mos keladigan yangi xo'jalik strukturasi shakllandi. Qishloqda davlatga qarashli bo'lmagan sektor keng rivojlandi, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining strukturasi jiddiy o'zgardi. Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning dastlabki bosqichida qo'lga kiritilgan eng muhim natija shaxsiy tomorqalarni kengaytirish, yangi sug'oriladigan yerlarni shaxsiy xo'jaliklar va bog'-dala hovli uchastkalariga ajratib berish yo'li bilan aholini amalda yer bilan tahminlashdan iborat bo'ldi.

Hozirgacha qishloq xo'jaligida mavjud bo'lgan davlat xo'jaliklari davlat ixtiyoridan chiqarildi. Ularning butun mol-mulki, texnikasi va boshqa imkoniyatlari bilan birga ijara va jamoa mulkiga aylantirildi. Bu qishloq xo'jaligida keng miqyosli hususiylashtirishning birinchi katta qadami edi.

Ma'lum ki, 'axta Respublika dehqonchiligining asosiy mahsuloti va katta boyligi hisoblanadi. Ana shu boylikning yildan-yilga ko'proq qismi uni yetishtirgan xo'jaliklar ixtiyorida qoldirilmoqda. Bu mazkur xo'jaliklarning o'z mahsulotlarini xohlagan mamlakatga sotish, shu yo'l bilan ularga o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish, ham iqtisodiy ahvolni yaxshilab olish imkoniyatini beradi.

'axta O'zbekiston uchun Respublikaning mustaqilligini kafolatlaydigan siyosiy va iqtisodiy kuch-qudrat manbai bo'lishiga qaramay, ekologiyaga va odamlar salomatligiga halokatli tahsir etib kelgan 'axta yakka hokimligiga barham berildi.

Respublikada don mustaqilligiga erishish yo'li izchil amalga oshirilmoqda. 1998 yilda 4,6 million tonna g'alla hosili yetishtirildi. Bu 1997 yildagiga qaraganda 850 ming tonna ko'pdur. Mustaqillikka erishilgan dastlabki kunlardan o'zbekistonda qishloq aholisini ichimlik suv va tabiiy gaz bilan tahminlashga qaratilgan maqsadli dastur izchil amalga oshirib kelinmoqda.

Bozor munosabatlariga o'tish davrida ijtimoiy muammolarga alohida e'tibor berish zarurati tug'ildi. Bu O'zbekistonning iqtisodiy ahvoli, xalqning turmushi, demokratik vaziyat bilan bog'liq. Birinchidan, O'zbekistonda aholining deyarli to'rt dan uch qismi sho'rolar hokimiyatining so'nggi yillarida ham o'zlarining minimal ehtiyojlarini qondirishga qodir bo'lmay, davlatning madadiga muhtoj edi. Ikkinchidan, aholi tarkibida boqimandalarning hissasi ko'p. Uchinchidan, bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida dastlab aholi ijtimoiy jihatdan tabaqalanadi va himoyaga muhtoj bo'lganlar qatlami kengayadi. O'z navbatida, aholining eng kambag'al, muhtoj tabaqalariga vaqtida madad berish, fuqarolar osoyishtaligi va millatlararo totuvlikni tahminlash islohotlarni muvaffaqiyatli o'tkazish uchun kafolat bo'lib hizmat qiladi.

O'tmishdan qolgan meroslardan biri - odamlarimiz ular uchun kimlardir o'ylaydi, deb hisoblaydi. Davlat va hukumat, korxona va xo'jalik bor ekan, ular hammasini o'ylaydi va bizni kulfatda qolirmaydi, deb hisoblaydilar.

O'tmishdan qolgan merosning nuqsoni yana shundaki, davlat boy bo'lsa oila ham, har bir inson ham badavlat bo'ladi-yu, biroq buning aksi bo'lmaydi, deb hisoblab kelingan. Eski tizimda

davlat byudjetdan juda katta mablag'lar unga hammadan ko'ra ko'proq muhtoj bo'lganlargagina yetib bormasdan, balki butun, aholi o'rtasida taqsimlangan.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida esa, jumladan bizda ham, aholining ijtimoiy jihatdan eng muhtoj tabaqalari va guruhlarini qo'llab - quvvatlash ijtimoiy siyosatning ustivor yo'nalishi bo'lib qolaveradi. Faol aholiga esa ularning mehnat va ijodiy imkoniyatini to'liq darajada ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoit yaratib beradi. Hodimlar bir tekischilikni keltirib chiqaradigan idora qoidasi bo'yicha emas, balki mehnatiga qarab taqdirlanadi. Mehnatkash o'z malakasiga, ishining sifatiga yarasha maosh oladi.

Aholining ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlari tizimida real mehnat bozorini shakllantirish, mehnatga layoqatli har bir kishiga o'z mehnati bilan oilasining turmush darajasini yaxshilash imkonini beradigan sharoitni yaratish asosiy o'rinlardan birini egallaydi.

Bozor munosabatlariga o'tish davrida ijtimoiy soha-sog'liqni saqlash, tahlil, madaniyat va san'at, ilm-fan ayniqsa mushkul, ahvolga tushib qoladi. prezidentimiz o'zining "O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li" kitobida ta'kidlaganiday, "hozirgi murakkab davrda mazkur tarmoqlarni ishonchli tarzda qo'llab-quvvatlash, ularda ishlovchi kishilarning mehnatiga munosib baho berish, ularni kuchli ijtimoiy himoyalash, ularning ijobiy imkoniyatlarini namoyon etish uchun shart-sharoit yaratish talab qilinadi."

Mustaqillikning o'tgan davridagi voqealar mamlakatimizda ijtimoiy siyosat izchil amalga oshirilayotganini ko'rsatmoqda.

Iqtisodiy, ahvol murakkab bo'lishiga qaramay, moddiy va moliyaviy imkoniyatlar cheklangan sharoitda ham doimo ijtimoiy, ahamiyatga loyiq bo'lgan eng muhim vazifalarni hal etish uchun zarur vositalar qidirib to'ildi. Islohotlarning birinchi bosqichi davomida ijtimoiy himoyalash harajatlari Respublika byudjetining salkam uchdan bir qismini tashkil etdi. Eng kam ish haqi va 'ensiyalardan soliq olinmaydigan bo'ldi, ish haqi va 'ensiyalarning eng kam miqdori bir necha bor oshirildi.

Narxlar erkinlashtirilishi va pulning qadrsizlanish darajasi ortib borishi munosabati bilan daromadlarning eng kam va o'rtacha darajasini muntazam oshirish ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlari tizimidagi eng ustun yo'nalishlardan biri bo'lib keldi. Eng kam ish haqi va boshqa to'lovlar odatda, oldindan ko'paytirib kelindi, narx-navo o'zgarishi bilan bog'lab olib borildi, bu esa aholining to'lov qobiliyati saqlanib qolishini tahminladi va turmush darajasi keskin 'asayibketishiga yo'l qo'ymadi.

Respublikaning ichki istehmol bozorini himoya qilish hamda oziq - ovqat mahsulotlari va nooziq-ovqat mahsulotlari asosiy turlari istehmolini muayyan darajada saqlab turish chora-tadbirlari ko'rilganligi aholini ijtimoiy jihatdan himoyalashning ikkinchi eng muhim yo'nalishi bo'ldi.

Ilk bor, aholining kam tahminlangan tabaqalarini ijtimoiy himoyalash borasida kuchli chora-tadbirlar o'tkazilganligi faol ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning uchinchi muhim yo'nalishi bo'ldi.

Barcha toifadagi maktablarning muallimlari, maktabgacha, maktabdan tashqari muassasalar tarbiyachilari, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarining o'qituvchilari va tibbiy hodimlarni ijtimoiy himoyalash va ularning mehnatini rag'batlantirish maqsadida ularga qo'shimcha moddiy nehmalar-kvartira haqi va kommunal to'lovlar sohasida imtiyozlar berildi.

Keyingi 'aytda ijtimoiy ko'maklashuvning tahsircan tizimini tashkil etish yo'llarini izlash natijasida mahalla orqali muhtojlarga yordam berish ijtimoiy ko'maklashishning eng sodda, ammo samarali vositasi ekanligi isbotlandi. Chunki mahalla faollari har bir kishining moddiy va mulkiy, ahvolini, har bir oilaning daromad manbaalarini yaxshi biladi.

Ijtimoiy sohada ko'rilgan choralar natijasida odamlarning ongida keskin burilish ro'y berib, aholining tobora ko'proq tabaqalari bozor munosabatlariga o'tish-iqtisodiy tanglikdan qutilishining qudratli, birdan-bir to'g'ri yo'li ekanligini tushuna boshladi.

Mustaqillik yillarida haqiqiy iqtisodiy vaziyatni, mavjud zaxiralar va imkoniyatlarni hisobga olgan holda, aholining ijtimoiy himoya qilishning mohiyatan yangi mexanizmi yaratildi. Bu esa Respublikada osoyishtalik va barqarorlikni saqlab qolish omili bo'ldi.

Yurtimizning iqtisodiy mustaqilligini tahminlashda iqtisodiy islohotlarni muntazam ravishda amalga oshirilishi hal qiluvchi omillardandir. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar xalq xo'jaligini boshqarish tizimini tubdan yangilashdan tortib, to moliya-kredit munosabatlarini, mehnatga, haq to'lash va uni ma'naviy rag'batlantirish usullarini, vositalarini o'zgartirishga qadar, iqtisodiyotni inqirozdan to'xtatib, uni rivojini tahminlashga qaratilgandir. SHuning uchun ham prezidentimiz endigi vazifa - iqtisodiy islohotlarni sobitqadamlik bilan davom ettirish, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni, aniqlab bartaraf eta borish, eng muhimi - odamlarning islohotlarga ishonchini so'ndirmaslikdan iborat ekanligini alohida tahkidlamoqda.

Butun iqtisodiyotimizni muvaffaqiyatli isloh qilishning eng muhim natijasi - sobitqadam makroiqtisodiy barqarorlikka erishildi. Asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar o'sishiga erishildi. Yal'i ichki mahsulot, sanoat mahsuloti xajmi, istemol tovarlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlari ortdi. prezidentimiz 1998 yil 23 dekabr' viloyatlar, shahar va tumanlarning hokimlari bilan uchrashuvda so'zlagan nutqida aytib o'tganiday, 1998 yilda yal'i ichki mahsulot 4,4 foizga, sanoat ishlab chiqarish xajmi 5,8 foizga, qishloq xo'jaligining yal'i mahsuloti 4,8 foizga oshgan. Inflyatsiya darajasi va g'alla mustaqilligiga erishish siyosati izchil amalga oshirildi. Mirishkor dehqonlar 4,6 million tonna g'alla hosili yetishtirdilar. Xorijiy investitsiyalar hissasi 27,3 foizga qadar oshdi.

Keyingi yillarda erishgan bu kabi ijobiy yutuqlar iqtisodiyotimizning poydevorini yanada mustahkamladi.

Mahrifat va madaniyat mustaqil O'zbekiston ichki siyosatining asosiy bo'g'inlaridan biri. SHuning uchun ham iqtisodiy, siyosiy, huquqiy islohotlar bilan birga ma'naviy, madaniy hayotimizda tub o'zgarishlar qilmay turib, mamlakatimizni rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqish mumkin emas. Mahrifat bo'lmagan joyda mustaqillikning mazmun-mohiyati ham bo'lmaydi.

Iqtisodning ma'naviyatdan ajralib qolishi, ma'naviyatni 'oymol etishi borliq bilan ma'naviyat, inson bilan olam o'rtasida jarlik paydo bo'lishiga olib keladi. Mahrifatsizlik tufayli uzoq yillar mustamlakachilik iskanjasida yashaganimiz o'zi katta saboqdir.

Mustaqillik yillarida prezidentimiz Islom Karimov ilm va mahrifatni zaruriy ehtiyoj darajasiga ko'tardi. Uning rahbarligida yangi davrning yangi ehtiyojlaridan kelib chiqib, Kommunistik mafkuradan voz kechdik. prezident I.Karimov keng ko'lamli islohotlar davrida milliy istiqlool mafkurasini yaratish va uning asosiy bo'g'ini sifatida ma'naviy va madaniy tarbiyaga alohida e'tibor berdi. prezidentimiz o'zining "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" kitobida ham tahkidlaganiday, "jamiyat taraqqiyotining asosi, uni muqarrar halokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch - mahrifatdir. Aql-zakovatli, yuksak ma'naviyatli kishilarni tarbiyalay olsakkina, oldimizga qo'ygan maqsadlarga erisha olamiz, yurtimizda farovonlik va taraqqiyot qaror to'adi".

Bu ma'ruza matnida prezidentimizning ana shu fikrlariga asoslanib, mustaqillik yillarida O'zbekistonda amalga oshirilgan ma'naviy va madaniy taraqqiyotdagi o'zgarishlarni ko'rsatishga harakat qildik. Uni yozishda bu o'zgarishlarga bosh-qosh bo'lgan I.A.Karimovning asarlaridan. O'zbekiston prezidenti va Vazirlar Mahkamasining farmonlaridan, jumladan shu mavzuga doir qator mualliflarning kitoblari va maqolalaridan foydalandik. Jumladan, Narzulla Jo'raevning prezident I.Karimov shaxsi, dunyoqarashi, islohotchilik faoliyatiga bag'ishlangan "Yuksalish" kitobi katta yordam berdi.

1.

O'zbek millati qadim-qadimdan yuksak ma'naviyat va madaniyatga ega xalqdir. Bu ma'naviyat salohiyatini butun jahon tan olgan. Faqat bunday ma'naviyatga ega bo'lgan millatgina minglab yillar osha o'z salohiyatini saqlab qola biladi. Lekin sovet mustamlakasi davrida bu qadriyatlarni yaxshiylarcha yo'q qilib tashlashga harakat qilindi. prezidentimiz o'zining "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" kitobida achinib gapirganlariday, "SHo'ro davrida

o'zbek millati tarixini buzib ko'rsatishdan, uni chalkashtirib yoritishdan, bazi sahifalarini umuman ko'rsatmaslikdan maqsad nima edi? CHor Rossiyasining Skobelev degan generali shunday deb yozgan edi: "Millatni yo'q qilish uchun uni qirish shart emas, uning madaniyatini, sanhatini, tilini yo'q qilsang bas, tez orada o'zi tanazzulga uchraydi".

Mustamlakachilik davrida jahonga Al-Xorazmiy, al-Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Amir Temur kabi buyuk mutafakkirlar va sarkardalar bilan tanilgan o'zbek xalqi tarixiga va ma'naviy qadriyatlariga befarq qaraldi. Jahon tarixida salmoqli o'rin tutgan sohibqiron Amir Temurdek buyuk shaxsning faoliyatini yoritish taqiqlab qo'yildi. Xalqimizning urf-odatlarini, milliy bayramlari va dini kamsitildi. Yetmish yil mobaynida fuqarolar qalbidagi milliy g'urur so'ndirishga harakat qilindi. Birgina misol: milliy Respublikalar tub aholisi o'z ona tilini unutib, rus tilida gapirgan taqdirdagina uni madaniyatli hisoblash odat bo'lib qolgan edi. O'rta va oliy o'quv yurtlarida xalqimiz tarixi nihoyatda qisqartirilgan va yuzaki holda o'qitilardi. O'z millati va madaniyati bilan faxrlanish fazilati mahalliychilik va millatchilik sifatida qoralanib kelindi.

Mustaqillikka erishilgach, ma'naviyat mavzularini tadqiq etish va yoritish taraqqiyotning muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'lib qoldi. SHu jihatdan olganda buyuk allomalar asarlarining nashr etilishi, Temur, Ulug'bek, Bahoviddin Naqshband, Imom Buxoriy, Al-Farg'oniylarining yubileylarining o'tkazilishi, qadimiy yodgorliklarni tahmirlash ishlarining o'tkazilishi katta ahamiyatga ega bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasining mustaqil deb e'lon qilinishi milliy o'z-o'zini anglashning o'sishigagina emas, balki aholining butun hayot faoliyatiga, ayniqsa ma'naviy sohada, sifat jihatidan yangi tus berdi.

Mustaqillikka erishgan mamlakatlarning hech birida ma'naviyatga O'zbekistondagichalik katta e'tibor berilmaya'ti. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan turli sohalaridagi tub islohotlar eng avvalo, ma'naviy zaminga asoslangan holda yuksak madaniyat talablariga mos ravishda olib borilmoqda.

O'zbekistonning milliy davlat mustaqilligi qo'lga kiritilishi bilan Davlat tili to'g'risidagi qonun keng miqyosda va faollik bilan amalga oshirilmoqda. O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi o'zbek xalqi, bu xalq bilan birgalikda Respublikada yashab turgan boshqa tub millat va elatlarning milliy davlati qayta tiklanishiga rag'bat berdi.

Stalin shaxsiga sig'inish yillarida va keyingi o'n yilliklar davomida qatag'on qilingan Respublika fuqarolarining oqlanishi, shuningdek, 1985-1989 yillarda SSSR Oliy Sudi chiqargan qarorlarning O'zbekiston Oliy Sudi tomondan qayta ko'rib chiqilishi O'zbekiston mustaqilligi qaror topishi davomida bu Respublika xalqlari ma'naviy hayotining sifat jihatidan yangi taraqqiyotga kirganligidan dalolat beradi.

Milliy davlat mustaqilligi e'lon qilinganidan keyin ma'naviyatni qayta tiklashga qaratilgan aktlarning biri Navro'zni bayram qilishga 1992 yili rasmiy maqom berilganligi bo'ldi. Navro'z sharqda yangi yil boshi, tabiat uyg'onish chog'i sifatida bayram qilinadi.

Navro'z o'z ildizlari bilan islomgacha bo'lgan madaniyat va mahrifatga borib taqaladigan va ham o'troq, ham ko'chmanchi aholining jamoa birdamligi anhanalarini namoyish etuvchi bayramdir. Sovet davrining bitta mafkurani hukmron qilib qo'ygan qolip-andozalari Navro'zni quruq maishiy tantana darajasiga tushirib qo'ygan edi. Endilikda bu bayram qayta tiklandi, ushbu bayramga bag'ishlab har yili umumdavlat miqyosida tantanalar o'tkazilishi ana shunday dalolat beradi.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida islom madaniyati va mahrifatini keng targ'ib qilishga katta ahamiyat berilmoqda. O'rta Osiyo tarixida birinchi marta Qurhoni Karim va Hadislar, bir qator diniy kitoblar o'zbek tilida cho' etildi. O'zbekistonda dinga yuksak madaniyat va ma'naviyat quroli, g'oyat kuchli ahloq maktabi sifatida qaralmoqda. Bu mamlakat aholisi asosiy ko'pchiligining dunyoqarashi, ijtimoiy kelib chiqishi, aqidasi va ruhiy-ma'naviy holati bilan mushtaraklik kasb etmoqda. SHuning uchun prezidentimiz o'zining "O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari" kitobida shunday yozadi: "Qo'hna tariximizning qaysi davrini eslamaylik, din har doim odamlarni o'z-o'zini idora etishga, yaxshi xislatlarni

ko'paytirib, yomonlaridan holos bo'lishga chorlagan... din xalq ma'naviyatining yuksalishiga hissa qo'shib kelgan ekan, bugungi davlatchiligimiz haqida so'z yuritganda, rejalar tuzganda, dinni, eng avvalo, ham milliy, ham umuminsoniy qadriyat sifatida e'tiborda tutishimiz kerak".

SHu bilan birga hukumatimiz islom mahrifatiga, uning boy ma'naviy va madaniy merosiga qanchalik ko'p yon bossa, uni sohtalashtiruvchilarga, islom omillaridan o'z manfaati yo'lida foydalanuvchilarga shunchalik ko'p qarshi turmoqda. Ayni 'aytda O'zbekistonda islom dini bilan bir qatorda o'nlab din va mazhablar mavjud. SHuning uchun ularning har birining o'ziga xos mafkurasi, tartib-qoidolari, dindorlar hayot tarzi hisobga olinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Toshkent va va O'rta Osiyo arxie'isko'i Vladimirning Svyato-Us'enskiy kafedral sobori qoshida diniy - mahmuriy markaz tashkil etish va 1996 yilda Ye'arxiyaning 125 yiligini nishonlash to'g'risidagi murojaatini qo'llab-quvvatladi va bu haqda alohida qaror qabul qildi.

Aholisi 130 ga yaqin millat va elatdan iborat bo'lgan, ruhiy va ma'naviy ehtiyojlari xilma-xil bo'lgan O'zbekistonday mamlakatda insonning tili, millati, irqi, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, ehtiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qathiy nazar insonligi uchun ulug'lash mamlakat inson'arvar siyosatining asosiga aylanmoqda.

prezident I.Karimov yuksak mahrifiy-madaniy jamiyat qurish, har tomonlama barkamol avlodni shakllantirish siyosatini yurgizmoqda. Bu niyatga yetish uchun eng avvalo mamlakat aholisi mahrifiy-madaniy saviyasini oshirish, turmush darajasini ko'tarish, ongli hayotni qaror to'tirish islohotlar davrining eng muhim vazifalaridan biri qilib qo'yilmoqda.

Mustaqillik sharoitida nima uchun ma'naviyat, ma'naviy qadriyatlarni qayta tiklashga katta e'tibor berilmoqda?

1) Yangi jamiyat bar'o etishda aholining milliy tarixiy turmush va tafakkur tarzidan, xalq anhanalari va urf-odatlaridan kelib chiqmoqda.

2) prezidentimiz "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li", "O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari", "Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin", "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" nomli asarlarida ma'naviyatimizning o'z mohiyati bilan kelajak poydevori ekanligi atroflicha asoslab berdi.

O'zbekistonda yangi jamiyat qurish yo'lida ma'naviyat sohasida quyidagi vazifalar amalga oshirilmoqda.

1. Ma'naviy va ahloqiylikni qayta tiklash.

2. Xalqimizning milliy madaniyati va uning o'ziga xosligini ifoda etuvchi vosita bo'lmish o'zbek tilini rivojlantirish, bu tilning davlat maqomini izchil va to'liq ro'yobga chiqarish.

3. Xurfikrlik, vijdon va din erkinligi qoidalarini qaror to'tirish.

SHunday qilib istiqlol yillarida mamlakatda yuksak mahrifiy -madaniy jamiyat qurish har tomonlama barkamol insonni shakllantirish asosiy vazifa qilib qo'yildi. Bu esa O'zbekiston xukumati olib borayotgan madaniy-mahrifiy siyosatning oliyanob mohiyatidan dalolat beradi.

Mustaqillik sharoitida jamiyatda yuz berayotgan demokratik jarayonlar, xurfikrlikka intilish odamlardan xodisalarga yangicha tafakkur bilan qarashni taqozo qiladi.

Xalqni yangi yo'ldan boshlab borish, uning qarashlari va orzu-maqсадlarini bir yo'nalishga burish, kuchlarni uyg'unlashtirish uchun mafkura zarur edi. Umumxalq va umumdavlat manfaatlariga mos keladigan eng maqbul yo'lni tanlash, buning uchun esa mafkuraviy yakkaxokimlikka barham bergan holda aholining barcha tabaqalari qatlamlarini, talab extiyojlarini, ma'naviy-ruxiy chanqoqligini qondira oladigan yetuk va barkamol g'oyani yaratish zarur edi.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.Karimovning 1992 yilda nashr etilgan "O'zbekiston o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" asari ma'naviy hayot uchun yo'l-yo'riq bo'ldi. Asarning "Mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy negizlari" deb atalgan bobida ilgari surilgan umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, xalqimizning ma'naviy merosini saqlash va rivojlantirish, inson o'z imkoniyatlarini erkin namoyish qilishi, vatanparvarlik tamoyillari istiqlol mafkurasi uchun asos bo'lib qoluvchi qoidalardir.

Milliy istiqlol mafkurasi O'zbekistonning mustaqillikka erishishi haqidagi siyosiy, ilmiy, nazariy, tarixiy, falsafiy, badiiy va diniy qarashlar majmui xalqni kelajakka ishonch, ehtiqod ruhida tarbiyalovchi g'oyaviy qurol, barcha toifa kishilarini shu maqsad yo'lida birlashtiruvchi g'oyat qudratli ma'naviy omil hisoblanadi.

Milliy istiqlol mafkurasining asosiy mohiyati quyidagilardan iborat:

- xalqimizning azaliy anhanalariga, udumlariga, ruhiyatiga, tiliga, diniga mos g'oyalar asosida odamlar ongida kelajakka ishonch, mehr-oqibat, insof, sabr-toqat, adolat, mahrifat tuyg'ularini singdirish,

- milliy istiqlol mafkurasi orqali xalqimizda o'zining qudrati va ximoyasiga suyanagan holda, umuminsoniy qadriyatlarga asoslanib, jahon xamjamiyatida, ilg'or davlatlar orasida teng xuquqli va munosib o'rin egallashga intilish xissini tarbiyalash,

- sog'lom, ma'naviy boy, komil avlodni shakllantirish, milliy istiqlol mafkurasining negizini vatanparvarlik, erkinlik, milliy iftixor, inson'arvarlik, baynalmilallik kabi xususiyatlar tashkil etadi.

Demak, istiqlol mafkurasi o'z mohiyati va negizlariga ko'ra mustaqillikni mustaxkamlashga barcha imkoniyatlarni buyuk maqsad sari yo'naltirishga qaratilgan.

Respublika prezidenti milliy mustaqillik mafkurasini yaratishning targ'ibotchisi bo'lib maydonga chiqdi. Uning rahbarligida yangi davrning yangi ehtiyojlaridan kelib chiqib, kommunistik mafkuradan voz kechdik. Endi ana shu mafkura o'rnini bosadigan qandaydir maslak, g'oya zarur edi. I.A.Karimov "Tafakkur" jurnali bosh muharririning savollariga javoblarida tahkidlaganiday, "mafkura bo'lmasa odam, jamiyat, davlat o'z yo'lini yo'qotishi muqarrar. Ikkinchidan, qaerdaki mafkuraviy bo'shliq vujudga kelsa, o'sha yerda begona mafkura hukmronlik qilishi ham tayin". Darhaqiqat, qonunga muhabbat, yuksak ahloq va barkamol aql, sog'lom va har tomonlama asosli mafkura mavjud joydagina tantana qiladi. Aholisi axloqsiz, ma'naviy qashshoq mamlakatning istiqboli esa hamisha ayanchli bo'lgan.

O'zbekistonda ma'naviy muhitning sog'lomligi, har qanday islohotlarning eng avvalo odamlar ongi va dunyoqarashiga, ruhiy-ma'naviy olamiga moslashtirib olib borilayotganligi sababli fuqarolar imkoniyati, yaratuvchilik va bunyodkorlik qobiliyatlari tobora kuchaymoqda.

SHo'ro davrining mafkurasi, kommunistik dunyoqarash, mohiyat e'tiboriga ko'ra, bizning turmush tarzimizga, xalqimizning tabiatiga tamoman begona edi. SHunga qaramasdan, kishilarning ongiga majburan singdirilgan bu soxta tahlilotning salbiy tahsiri hanuz sezilib turadi.

Jamiyatimizning mafkurasi shu jamiyatning tayanchi bo'lmish oddiy inson va uning manfaatlarini ifoda etishi, xalqimizning bexatar, tinch-omon, farovon, badavlat turmushga erishishi uchun kuch-g'ayrat manbai bo'lishi lozim.

Milliy mafkura nimalarni o'zida mujassamlashtirishi va qanday talablarga javob berishi kerak? Bu savolga prezidentimiz I.Karimov o'zining "Tafakkur" jurnali bosh muharririning savollariga bergan javoblarida shunday javob beradi: 1) milliy mafkura o'zligimizni, muqaddas anhanalarimizni anglash tuyg'ularini, halqimizning ko'p asrlar davomida shakllangan ezgu-orzularini, jamiyatimiz oldiga qo'yilgan oliy maqsad va vazifalarni qamrab olishi shart.

2) Jamiyatimizda bugun mavjud bo'lgan xilma-xil fikrlar va g'oyalar, erkin qarashlardan, har qanday insonning ehtiqodi va dunyo qarashidan qathiy nazar, ularning barchasini yagona miliy bayroq atrofida birlashtiradigan, xalqimiz va davlatimizning daxlsizligini asraydigan, el-yurtimizni eng buyuk maqsadlar sari chorlaydigan yagona g'oya-mafkura bo'lish kerak.

3) Milliy mafkuramiz har qanday millatchilik va shunga o'xshagan unsurlardan, boshqa elat va xalqlarni mensimaslik, ularni kamsitish kayfiyati va qarashlaridan mutlaqo holi bo'lib, qo'shni davlat va xalqlar, umuman jahon hamjamiyatida, xalqaro maydonda o'zimizga munosib hurmat va izzat qozonishda poydevor va rahnamo bo'lishi darkor.

4) Milliy g'oya birinchi navbatda yosh avlodimizni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbiga inson'arvarlik va odamiylik fazilatlarini 'ayvand qilishdek oliyjanob ishlarimizda madadkor bo'lishi zarur.

5) U vatanimizning shonli o'tmishi va buyuk kelajagini uzviy bog'lab turishga, o'zimizni ulug' ajdodlarimiz boqiy merosining munosib vorislari deb his qilish, shu bilan birga, jahon va zamonning umumbashariy yutuqlariga erishmoqqa yo'l ochib beradigan va shu maqsadlarga muttasil dahvat qiladigan g'oya bo'lishi kerak.

prezidentimiz I.A.Karimov har bir suhbat, ma'ruza va nutqlarida milliy istiqlol mafkurasining asoslarini tobora chuqurroq yoritib bermoqda, uning turli qirralari, xususiyatlarini o'rganib yaxlit bir tahlilot sifatida ishlab chiqmoqda. prezident 2000 yil 6 ar'elda Oqsaroyda ziyolilar bilan bo'lgan uchrashuvida "o'zining kelajagini ko'rsatmoqchi va qurmoqchi bo'lgan har qanday davlat yoxud jamiyat, albatta, o'z milliy g'oyasiga suyanish va tayanish kerakligi"ni ta'kidladi. Zero, davlat tizimi, uni boshqarish va olib borayotgan siyosat avvalo aniq va ravshan ifodalangan mafkura asosida qurilmog'i lozim. O'z milliy g'oyasiga tayanmagan jamiyat inqirozga duchor bo'lishi, o'z yo'lini yo'qotib qo'yishi mumkin.

prezidentimiz Oqsaroydagi uchrashuvda, milliy mafkura xech qanday shaklda davlat mafkurasi maqomiga ko'tarilmasligi, aylanmasligi kerak deb ta'kidladilar. U jamiyatimizdagi qarashlar rang-barangligi, g'oyalar xilma-xilligini saqlagan holda, ularni bir-biri bilan kurashishga, baxslashuvga, har qanday 'artiya,xarakat, xar qaysi inson, fuqaroning o'z fikrini erkin ifoda etishi va uni himoya qilishiga ziyon yoki tazyiq ko'rsatmasligi kerak.

Asosiy qonunimiz - Konstitutsiyamizda O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy xayot siyosiy institutlar, fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi, deb alohida ta'kidlab o'tilgan. Jamiyatimizda ko'p'artiyaviylik xukm surmoqda. 'artiyalar xozirgi 'allada tajriba to'lash, ommaning tahsirchan tabaqalari orasiga chuqurroq kirib borish, o'z g'oyalari, maqsad-niyatlarini ular ongiga singdirishga xarakat qilmoqdalar.

Yagona milliy g'oya, milliy mafkura asoslarini shakllantirishda prezidentimiz I.A.Karimovning "Fidokor" gazetasi muxbiri bilan suxbati (2000 yil 8 iyun) muhim axamiyat kasb etadi. Suxbatda ta'kidlanganidek, dunyo xozir tobora fikrlar, g'oyalar, dunyoqarashlar to'qnashuvi maydoniga aylanib bormoqda. Kimning g'oyasi, mafkurasi kuchli bo'lsa, kim xushyorroq bo'lib, tegishli xulosa chiqara olsa va bundan o'z xalqi, o'z yurtiga nima zarar kelishini bilib olsa, bu kurashda o'sha yengib chiqadi. I.A.Karimov milliy istiqlol mafkurasining zarurati va axamiyatini ko'rsatish barobarida mafkuraviy ximoyalanish (immunitet) choralari ko'rish, kelajak avlodni "milliy ildizlari baquvvat, dunyoni chuqur anlaydigan, zamon taraqqiyoti bilan barobar qadam tashlaydigan" odamlar qilib tarbiyalash vazifasini qo'yadi.

Milliy mafkura yaratish, yurtboshimiz aytganlaridek, bir yillik yoki besh-o'n yillik ish emas. Xayot davom etar ekan, uning shiddatli surhati tufayli mafkuraning oldiga qo'yiladigan yangi-yangi talablar xam paydo bo'laveradi. Milliy g'oya, milliy mafkurani ishlab chiqish, uni shakllantirishda millatning eng ilg'or vakillari, mutafakkirlari ishtirok etadilar.

Milliy mafkurani te'adan turib yaratib va xayotga joriy etib bo'lmaydi. Bu mafkura o'sha mamlakatda yashaydigan barcha aholining yuragidagi g'oyalar, tuyg'ularni ifoda etishi kerak. prezidentimiz ta'kidlaganiday, "milliy istiqlol mafkurasi xalqimizga xos bo'lgan eng muqaddas tuyg'u va tushunchalarning mujassam ifodasi bo'lishi kerak".

prezidentimiz suxbatda inson dunyoqarashining shakllanishida mahrifatning, xususan, ijtimoiy fanlarning o'rni beqiyos ekanligini alohida ta'kidladilar. Bu fikrni davom ettirib I.A.Karimov shunday deydi: "Milliy mafkurani shakllantirishdagi eng katta manba - bu xaqqoniy yoritilgan tarixdir. Tarixni bilmay turib, mafkuraning falsafiy negizlarini anglab bo'lmaydi. CHunki mafkuraning falsafiy asoslari o'z davrida tarixiy xaqiqat tufayli tug'ilgan".

prezidentimiz suhbatda milliy mafkuraning axamiyatini yana bir bor yuqoriga ko'tarib shunday dedilar : "... mana shunday ozod kunlarda bilib-bilmay yo'ldan toyib, ya'ni ku''a-kunduzi yo'lini yo'qotib, chet ellarda chalinayotgan nog'oraga o'ynab yurgan ayrim yoshlarning ko'zini ochishda milliy mafkuramiz muhim o'rin tutishi shubxasiz. CHunki, milliy mafkura - bu xalqning, millatning o'tda yonmaydigan, suvda cho'kmaydigan o'lmas ehtiqaqidir.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Mustaqillik va davlat mustaqilligi deganda nimani tushunasiz?
2. Totalitar tuzumning mohiyati nimada?
3. O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi va uning ahamiyati nimada?
4. Qaysi kun O'zbekiston Respublikasining mustaqillik kuni deb belgilandi, u qanday xujjatda ko'rsatib berildi?
5. O'zbekistonning davlat ramzlari mustaqillikni mustahkamlashda qanday ahamiyatga ega?
6. O'zbekiston nima uchun bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'lini tanladi?
7. Nima uchun bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tiladi?
8. Iqtisodiy isloxlarning strategik maqsadlari nimalardan iborat?
9. Mulkni xususiylashtirish deganda nimani tushunasiz?
10. Bozor infrastukturasi deganda nimani tushunasiz?
11. O'zbekiston iqtisodiyotida qishloq xo'jaligining o'rni qanday?
12. Madaniy meros nima va uni tiklash deganda nimani tushunasiz?
13. Ma'naviy qadriyatlarni tiklash yo'lida qanday ishlar qilindi?
14. Davlat tili to'g'risidagi qonunning ahamiyati nimada?
15. Milliy istiqloq mafkurasini yaratish xayotiy zarurat ekanligi nimada?
16. Milliy istiqloq mafkurasining mohiyati nima?
17. Milliy istiqloq mafkurasini shakllantirishda prezidentimizning xizmatlarini ko'rsatib bering.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li. Toshkent. O'zbekiston. 1992.
- Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. T.O'zbekiston. 1993.
- Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T. SHarq. 1998.
- Karimov I.A. Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman. «Fidokor» gazetasi. 2000 yil, 8 iyun.
- Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li. Toshkent. O'qituvchi. 1992.
- Karimov I.A. Iqtisodiy siyosatning ustivor yo'nalishlari. Toshkent. O'zbekiston. 1993.
- Karimov I.A. O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. Toshkent. O'zbekiston 1993.
- Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy isloxlarning chuqurlashtirish yo'lida. Toshkent. O'zbekiston. 1995.
- Karimov I.A. Qishloq xo'jaligi taraqqiyoti to'kin xayot manbai. Toshkent. O'zbekiston 1998.
- Jo'raev N., Fayzullaev T., Usmonov Q. O'zbekiston tarixi. Milliy mustaqillik davri. Toshkent. SHarq. 1998.
- Usmonov Q., G'aniev D. O'zbekiston mustaqil taraqqiyot yo'lida. Toshkent. O'zbekiston. 1992
- Jo'raev N. Fayzullaev T., Usmonov Q. O'zbekiston tarixi. Milliy istiqloq davri. Toshkent. SHarq. 1998.
- Usmonov Q. O'zbekiston: mustaqillik odimlari. Toshkent. O'qituvchi. 1994.
- O'zbekiston Respublikasi: Mustaqil davlatning bunyod bo'lishi. Toshkent. O'zbekiston. 1992.

9-MA'RUZA

O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi.

REJA:

1. Mustaqil O'zbekiston tashqi siyosati asoslarining ishlab chiqilishi, uning tamoyillari.
2. O'zbekistonning jaxon hamjamiyatiga qo'shilishi.
3. O'zbekistonning MDH va Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan aloqalari va hamkorligi.
4. O'zbekiston tashqi siyosatida iqtisodiy omillarning muhim o'rni.

TAYANCH IBORALAR

Diplomatik aloqalar, geostrategik mavqe, eksport, patentsial, mintaqaviy xavfsizlik, davlatning suveren tengligi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (EXHT), "Sovuq urush" siyosati, terrorchilik, Mustaqil Davlat Xamdo'stligi (MDX), integratsiya, kollektiv xavfsizlik.

XX asrning so'nggi 10 yilligi jahon tarixiga ijtimoiy dunyoqarashda, jahon hamjamiyatining jo'g'rofiy-siyosiy tuzilishida tub o'zgarishlar davri bo'lib kiradi. Jahon yangi davrga qadam qo'ydi. Bu davrning o'ziga xos belgilari, bir tomondan, davlatlar va xalqlar o'rtasida yaqinlashuv jarayonlari va hamkorliklarning kuchayishi, yaxlit siyosiy va iqtisodiy makonlarning vujudga kelishi, yagona xalqaro mehyorlar, qoidalar va andozalarga o'tish bo'lsa, ikkinchi tomondan, sotsialistik lagerning yemirilishi, totalitar tuzumlarning tugatilishi, bu tuzumlar o'rnida yosh mustaqil davlatlarning paydo bo'lishidir.

Hozirgi mustaqil O'zbekiston milliy istiqboliga erishgunicha sobiq SSSR deb atalgan qudratli, hukmron Markaz tasarrufida o'z erkinligidan, mustaqil ichki va tashqi siyosat yurgizish haq-huquqlaridan mahrum edi. SSSR Konstitutsiyasida bu Respublika "teng huquqli", "mustaqil", "suveren" davlat sifatida tahrif etilsa-da, amalda ko'zga ko'rinmas i'lar bilan qo'l-oyog'i bandi etilib qo'yilgan edi. Tabiiy boyliklar, resurslar, iqtisodiy imkoniyatlar, salohiyatga ega bo'lgan Respublikaning xo'jalik hayoti ham, madaniy-ma'naviy jabhalari ham ittifoq davlatining hoxish irodasi, oliy ko'rsatmasi bilan boshqarilib kelinar edi.

O'zbekistonning mustaqillikka erishuvi uning ko'p asrlik qaramlik va mutelik iskanjasida yashagan xalqi hayotida tarixiy voqea, burilish nuqtasi bo'ldi. SHu bilan birga uning davlat siyosatida, xalqaro maydondagi munosabatlarida ham o'ziga xos muhim bosqich bo'ldi. Avvalo, yosh, mustaqil, suveren davlatning jahonga yuz tutishi, uni ko'plab davlatlar, mamlakatlar tomonidan ehtirol etilishi, di'lomatik, savdo-sotiq va boshqa aloqalarni o'rnata borishi O'zbekiston Respublikasining xalqaro maydonga chiqishiga yo'l ochib berdi.

O'zbekiston qulay geostrategik mavqega ega. Hozirgi O'zbekistonning xududi tarixan shunday joy bo'lganki, bu yerda juda ko'p savdo yo'llari tutashgan, jo'shqin tashqi aloqalar va turli madaniyatlarning bir-birini boyitish jarayoni kechgan. Hozirgi kunda O'zbekiston o'zining mustaqil energetika va suv tizimlariga ega bo'lgan sobiq Sovet O'rta Osiyosining markazida turibdi, ko'pgina masalalarda Respublikalar o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in bo'lib xizmat qilmoqda va xorijiy mamlakatlar bilan munosabatlarni rivojlantirishda tobora faol rol o'ynamoqda.

O'zbekiston mustaqil Markaziy Osiyo Respublikalari orasida g'oyat kata eks'ort imkoniyatiga ega bo'lgan juda muhim xomashyo-'axta va undan tayyorlangan mahsulotlarni yetishtiruvchi hamda yetkazib beruvchi asosiy Respublikadir.

O'zbekiston Respublikaning siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini himoya qilish imkonini beradigan yetarli 'otentsialga ega. Yer bag'rining g'oyat qimmatli xomashyolarga boyligi chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, Respublikaning jahon bozoriga chiqishini tahminlaydigan tarmoqlarni rivojlantirish imkonini beradi.

O'zbekiston o'z milliy manfaatlariga javob beradigan, mamlakatning jahon hamjamiyatiga qo'shilishini tahminlaydigan, milliy, mintaqaviy va jahon xavfsizligiga ko'maklashadigan tashqi siyosat yurgizmoqda. Uning asosiy qoidalari prezident I.A.Karimovning asarlarida, ma'ruza va nutqlarida asoslab berilgan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida qonunlashtirilgan. "Respublika davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini tahminlash maqsadida ittifoqlar tuzish, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirish va ulardan ajralib chiqishi mumkin" deyiladi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17-moddasida.

O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosatiga quyidagi qoidalar asos qilib olingan:

- davlatning suveren tengligi va chegaralarning daxlsizligini hurmat qilish;
- boshqa davlatning ichki ishlariga aralashmaslik;
- nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish;
- kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik;
- inson huquqlarini va erkinliklarini hurmatlash;
- ichki milliy qonunlardan xalqaro huquqning umum ehtirol etilgan qoidalari va normalarining ustivorligini tan olish;
- tajavvuzkor harbiy blokklar va uyushmalarga kirmaslik;
- davlatlararo teng huquqli va o'zaro manfaatli hamkorlik. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatida tinchlik, barqarorlik, hamkorlik tamoyillari ustunlik qiladi.

O'zbekiston Respublikasi o'z tarixida birinchi marta 1992 yil 2-martda jahon hamjamiyatining to'la, teng huquqli subhekti sifatida Birlashgan Millatlar Tashkilotiga qabul qilindi. O'zbekiston BMT Nizomi, xalqaro huquqiy mehyorlar, davlatlararo muomala qoidalari, shuningdek, BMT tarkibiga kiruvchi xalqaro tashkilotlarning talablariga rioya qilishini bildirdi. O'zbekiston amalda deyarli barcha xalqaro siyosiy, iqtisodiy va madaniy tashkilotlarning a'zosidir: "Evropada hamkorlik va xavfsizlik tashkiloti", "Arlamentlararo Ittifoq", "Xalqaro valyuta fondi", "Rekonstruktsiya va rivojlanish Yevropa banki", "Jahon banki", "Xalqaro mehnat tashkiloti" va boshqalar bunga misoldir. Toshkentda 50 dan ortiq xalqaro tashkilotlar vakolatxonalari ochilgan.

Mamlakatimiz prezidenti I.A.Karimovning BMT Bosh Asambleyasining 1993 yilda bo'lgan 48-sessiyasida ishtirok etishi va unda qilgan ma'ruzalari O'zbekistonni jahonga ko'hna va navqiron yosh davlat sifatida namoyon etdi.

1993 yil fevralda Toshkentda BMTning vakolatxonasi tahsis etildi va ish boshladi. O'zbekiston Respublikasi va BMT rahbarlarining sahy-harakatlari natijasida bugungi kunda Respublikamizda BMTning vakolatxonasi, mamlakatimizda BMTning taraqqiyot dasturi, qochoqlar ishi bo'yicha oliy qo'mita komissari, jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Aholi joylashish jamg'armasi, Narkotiklarni nazorat qilish dasturi, Bolalar jamg'armasi singari iqtisoslashgan muassasalarni o'z tarkibiga birlashtirishga muvaffaq bo'ldi.

O'zbekiston 1992 yil fevral' oyida dunyoda tinchlikni mustahkamlash, inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha katta tadbirlarni amalga oshirayotgan nufuzli xalqaro tashkilot - Yevropada Xavfsizlik va hamkorlik tashkilotiga a'zo bo'lib kirdi. I.A.Karimovning 1992 yil 9-10 iyulda bo'lib o'tgan Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining majlisida ishtirok etishi, unda nutq so'zlashi va Kengashning 10 iyulda bo'lgan majlisiga raislik qilishi O'zbekistonning jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallayotganligining dalilidir.

EXHT Toshkentda va Urganchda atrof-muhitni qayta tiklash bo'yicha seminar tashkil qilib, Orol muammosini hal qilishga ko'maklashmoqda. YeXHTning Toshkentda aloqalar bo'yicha mintaqaviy byurosi ochilgani ham ijobiy ahamiyatga ega bo'ldi.

O'zbekiston jahondagi 105 mamlakatni birlashtiruvchi qo'shilmaslik harakatiga qabul qilindi, bo'lg'usi jahon 'arlametining timsoli bo'lmish 'arlametlararo Ittifoqqa kirdi. Islom konferentsiyasi O'zbekistonni kuzatuvchi sifatida qabul qildi va mamlakatimizga ishonchli va mashuliyatli sherik deb qarashmoqda.

O'zbekiston Respublikasi bir qator ixtisoslashgan nufuzli xal-qaro tashkilotlar - "Xalqaro mehnat tashkiloti", "Jahon 'ochta ittifoqi", "Elektr aloqasi bo'yicha xalqaro ittifoq", "Jahon

meteralogiya tashkiloti”, “Xalqaro Olim’iada qo’mitasi”, Atom energiyasi bo’yicha xalqaro agentlikning a’zosi bo’ldi. Bularning hammasi O’zbekiston Respublikasining tarixan qisqa vaqtda xalqaro hamjamiyatga qo’shilganining, xalqaro hamjamiyatning teng huquqli a’zosi sifatida dunyo siyosatida faol qatnashayotganining yaqqol ifodasidir.

Bugungi kunda ham dunyo keskin ziddiyatlarga to’lib-toshib turibdi. “Sovuq urush” siyosati barham to’gan bo’lsada, milliy va diniy nizolar jahon tinchligiga xavf solib turibdi. Butun insoniyatni ekologik tanglik, biogenetik buzilishlar, uyushgan jinoyatchilik, ekstremizm, terrorchilik tashvishlantirmoqda. Jahon xavfsizligini tahminlash davrimizning eng dolzarb masalasiga aylangan. Jahon tinchligi mintaqalardagi tinchlikka, shuningdek, ayrim olingan har bir mamlakatdagi tinchlikka bog’liq bo’lib qoldi. Har bir mamlakatda milliy xavfsizlik tahmin etilgan bo’lsa, o’sha mamlakat joylashgan mintaqada xavfsizlik bo’ladi, mintaqalarda xavfsizlik tahminlansa, jahon xavfsiz bo’ladi. SHuning uchun ham jahon siyosatida milliy, mintaqaviy va jahon xavfsizligini tahminlash masalalariga alohida e’tibor berilmoqda.

O’zbekiston Respublikasi ham o’zining tashqi siyosatida milliy, mintaqaviy xavfsizlik masalalariga jahon xavfsizligining tarkibi qismi sifatida alohida e’tiborini qaratib kelmoqda. prezidentimiz o’zining “O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” asarida ta’kidlaganiday, “Hozirgi sharoitda, umumiy xavfsizlikni tahminlash va muvozanatga erishish manfaatlari nuqtai nazaridan yangi mustaqil davlatlarning xavfsizligi va barqaror rivojlanish muammolari ulkan ahamiyat kasb etmoqda”.

Ma’lum ki, 1991 yil 7 dekabrda Belovej o’rmonida bo’lib o’tgan uchrashuvda haqiqatda yemirilib borayotgan SSSR o’rniga Mustaqil Davlatlar Hamdo’stligi (MDH) tuzilgan edi.

Boshqa mustaqil Respublikalar boshliqlari singari, O’zbekiston rahbariyati ham ish bitib bo’lganidan keyin undan habardor qilindi. SHunday bo’lsada, O’zbekiston rahbariyati MDHga kirishga qaror qildi. O’zbekiston hukumati hamdo’stlik davlatlari bilan ikki tomonlama va ko’ptomonlama asosda iqtisodiy, savdo va madaniy hamkorlik o’rnatishga harakat qildi. 1992 yilda O’zbekiston Respublikasi Rossiya federatsiyasi, Ukraina, Qozog’iston, Qirg’iziston va boshqalar bilan shartnomalar tuzdi. MDH davlatlari boshliqlarining 1992 yil may oyida Toshkentda bo’lib o’tgan uchrashuvida O’zbekiston prezidentining tashabbusi bilan kollektiv xavfsizligi to’g’risida shartnoma tuzildi. Bu shartnomani olti mamlakat rahbarlari imzoladilar. MDH davlatlari o’rtasida davlatlararo iqtisodiy qo’mitaning tuzilishi bu mamlakatlar o’rtasida iqtisodiy aloqalarni kengaytirishda muhim bosqich bo’ldi.

O’zbekiston Markaziy Osiyoda joylashganligidan, uning tinchligi, osoyishtaligi va xavfsizligi muayyan mahnoda shu mintaqada vaziyat muvozanatiga ham bog’liqdir. CHunki prezidentimiz ta’kidlaganiday, “Markaziy Osiyo mintaqasida turli siyosiy, iqtisodiy, harbiy, trans’ort va ekologiyaga oid muammolar to’planib qolgan. SHuni nazarda tutadigan bo’lsak, butun mintaqaning sobitqadam va barqaror rivojlanishini tahminlash va mojaroli vaziyatlarning oldini olish uchun hozirgi kunda ichki va tashqi muvozanatni saqlash va qo’llab-quvvatlashgina birdan-bir maqbul tamoyildir. Mitaqada jo’g’rofiy-siyosiy muvozanatni va barqarorlikni saqlagan taqdirdlagina mazkur muammolarni hal etish imkoni tug’iladi. Bu esa o’z navbatida yal’i xavfsizlikni tahminlash muammolarini hal qilishga qo’shilgan salmoqli hissa bo’ladi”.

Markaziy Osiyo davlatlari boshliqlarining I.A.Karimov tashabbusi bilan 1993 yil 4 yanvarda Toshkenda chaqirilgan uchrashuvi shu davlatlar hayotida jiddiy voqea bo’ldi. Bu uchrashuvda umuman butun mintaqa taqdiriga taalluqli muammolar birinchi marta muhokamaga qo’yildi. Markaziy Osiyo davlatlaridan birining ‘oytaxtida muntazam chaqirilib turiladigan ana shunday uchrashuvlar mintaqa kuchlarini ji’lashtiruvchi muhim dastakka aylandi. Bu davlatlar tarixiy taqdirlari va geosiyosiy holatining mushtarakligi ularning o’zaro iqtisodiy, savdo-sotiq, siyosiy va ma’naviy hamkorlikni kengaytirish, inqirozli holatdan chiqib olishni taqozo qildi. SHu sababdan qo’shni Afg’onistonda ko’p yillardan buyon davom etib kelayotgan fuqarolar urushi yohud yon qo’shnimiz Tojikiston zaminida yuz berayotgan birodarqushlik urushlari shu mintaqadagi umumiy vaziyatga salbiy tahsir ko’rsatayotganligi, bundan O’zbekistonning ham tashvish chekayotganligi, shuni hisobga olib Respublikamiz rahbariyati mintaqadagi siyosiy iqlimni sog’lomlashtirishga astoydil harakat qilayotganligi hamma ma’lum . Bu borada

Respublikamiz prezidentining Birlashgan Millatlar Tashkiloti Assambleyalari sessiyasida so'zlagan nutqlarida, shuningdek BMT bosh Kotibi nomiga yo'llagan maktublarida va boshqa uchrashuvlar va anjumanlarda qayta-qayta uqtirib o'tganligi bejiz emas.

Respublikamiz prezidentining qondosh va qardosh Tojikiston xududida yuz berayotgan qonli urush-nizolarni bartaraf etish, tojik xalqi boshiga tushgan kulfatu musibatlarni yengillashtirish, moddiy va ma'naviy jihatdan ko'maklashish, mazkur davlatdagi muxolifatchi kuchlar o'rtasida tinch muzokaralar o'tkazish yo'li bilan umumiy kelishuv va yarashuv bitimlariga kelishish borasida tashabbuskor faoliyati taxsinga sazovordir. O'zbekiston prezidentining Tojikistondagi (1998 yil 30 noyabr') voqealar haqidagi bayonotida shunday deyiladi: - "Tarixiy taqdiri va anhanalari bizga juda yaqin bo'lgan jafokash Tojikiston xalqiga hech kim bizchalik, ayniqsa, inson'arvarlik yordami sohasida ko'mak bermagan".

Markaziy Osiyodagi qardosh Respublikalar o'rtasida o'zaro hamkorlik, integratsiya jarayonlari mintaqa xalqlari uchun, ularning yorqin kelajagi uchun milliy istiqlool butunlay yangi sahifa ochdi. O'z milliy boyliklari, resurslarini tasarrufiga kiritgan Markaziy Osiyo xalqlari istiqlool yo'lidan izchil bormoqdalar. prezidentimiz I.A.Karimov tahkidlaganiday, - "xalqlarimiz tarixi, madaniyati, anhanalari, diniy ehtiqodlarining mushtarakligi mamlakatlarimiz o'rtasidagi amaliy hamkorlik va hamjixatlikning muhim poydevori hisoblanadi... bizning maqsadlarimiz bir. Bizda milliy munosabatlarda keskinliklar yo'q, xal qilib bo'lmaydigan vaziyatlar ham yo'q. Integratsiya yo'lidan harakat qilayotganimiz ham buni tasdiqlab turibdi".

1994 yil yanvarda Toshkentda O'zbekiston va Qozog'iston Respublikalari prezidentlari uchrashuvi 'aytida ikkala davlat o'rtasida yagona iqtisodiy makonni yaratish to'g'risida shartnoma imzolanishi, ko'p o'tmay unga qardosh Qirg'iziston davlatining qo'shilishi shubhasiz, mintaqa xalqlari hayotida muhim voqea bo'ldi. Uchchala davlat o'rtasidagi shartnoma o'z samarasini bermoqda. Almati shahrida bitimda qatnashuvchi mamlakatlar vakillaridan iborat Davlatlararo ijroiya qo'mita tuzildi. Toshkentda mintaqa bank markazi ish boshladi. Sanoatni integratsiyalashtiradigan dastur ishlab chiqildi. Hozirda bu dastur asosida butun Markaziy Osiyo mintaqasi muxtoj bo'lgan mahsulotni ishlab chiqaradigan birgalikda sarmoya sarflanadigan obyektlar aniqlab olindi hamda ularni amalga oshirish borasida tegishli tadbirlar hayotga tadbqiq etilmoqda. Mintaqada bunyod etilayotgan yagona iqtisodiy makon faoliyatida boshqa qo'shni davlatlar ham bimalol qatnashishlari mumkin. SHunga ko'ra Tojikiston ham bu shartnomaga qo'shildi.

Xalqaro miqyosda obro'-e'tibor, mamlakatlar va xalqaro hurmat-e'tibor katta siyosiy, ma'naviy hamda axloqiy ka'ital hisoblanadi, uni hech qanday pulga sotib olib bo'lmaydi. Bu mustaqil O'zbekistonning asosiy qadriyatidir.

SHu bilan bir vaqtda, xalqaro aloqalar, o'zaro foydali hamkorlik mavjud muammolarni hal etishga, istalgan mamlakatni taraqqiy ettirishga ulkan hissa qo'shadi. SHu mahnoda O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan hamkorligi o'zining yuksak samarasini bermoqda. Bugungi kunda O'zbekiston eng obro'li va nufuzli xalqaro tashkilotlar tarkibiga kirgan bo'lib, barcha qithalardagi o'nlab mamlakatlar bilan do'stona aloqalarni rivojlantirib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi prezidenti o'zining "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida ..." kitobida tahkidlaganiday, "O'zbekiston dunyo uchun ochiq. Biz ham dunyoning O'zbekistonga katta qiziqish bilan qarayotganligini his etmoqdamiz. Bu esa O'zbekistonning barqaror rivojlanishi uchun eng yaxshi kafolatdir. Biz buni O'zbekiston ka'ital sarflash nuqtai nazaridan ham, dune miqyosidagi keng qamrovli xavfsizlikning tarkibiy qismi sifatida mintaqada barqarorlikni tahminlash nuqtai nazaridan ham borgan sari e'tibor qozanayotganligining dalili deb bilamiz".

O'zbekistonning xalqaro munosabatlarning turli subhektlari bilan aloqalari qanchalik chuqur va keng bo'lsa, ular bilan munosabatlarda noaniqliklar, yotsirashlar muammolar shunchalik kam bo'ladi. SHu mahnoda mamlakatimiz jahon hamjamiyatidagi integratsiyalashuv jarayonida aktiv ishtirok etmoqda. Bunda BMTning integratsiya sohasidagi imkoniyatlari g'oyat ulkanligini hisobga olmoqda.

O'zbekiston o'zining tashqi aloqalarini ham ko'p tomonlama, ham ikki tomonlama asosda tashkil etmoqda. O'zbekistonning AQSH bilan ikki tomonlama munosabatlari izchil va

sobitqadamlik bilan rivojlanib bormoqda. Dunyoning yetakchi davlati bo'lgan, juda katta siyosiy, iqtisodiy, harbiy-texnikaviy, intellektual salohiyatga ega bo'lgan AQSH bilan ko'p tomonlama munosabatlarni rivojlantirish biz uchun ustivor ahamiyat kasb etmoqda. AQSH bilan aloqalar Respublikamizning davlat mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash jarayoniga salmoqli hissa qo'shmoqda.

So'nggi yillarda Yevropadagi ko'pgina mamlakatlar - Germaniya, Buyuk Britaniya, Frantsiya, Bel'giya, Gretsiya, CHexiya, Slovakiya va boshqa mamlakatlar bilan bevosita ikki tomonlama munosabatlarimiz ancha kengaydi va mustahkamlandi.

SHarqiy va Janubiy-SHarqiy Osiyo mamlakatlari - Ya'oniya, Janubiy Koreya, Xitoy, Vhetnam, Malayziya, Xindiston, Indoneziya, va boshqa mamlakatlar bilan aloqalarimiz mustahkamlanib borayotganligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Keyingi vaqtlarda Ya'oniya mintaqamizning murakkab muammolarini - xavfsiz va barqaror tinchlikka erishish, atrof-muhit muhofazasi masalalarini hal etishda faol va manfaatdorlik bilan ishtirok etmoqda.

O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati xalq manfaatlari yo'lida xizmat qilishga, xalq turmushi, farovonligini yaxshilashga yo'naltirilgan. SHuning uchun xorijiy mamlakatlar bilan aloqalarda iqtisodiy omillar hal qiluvchi rol' o'ynaydi. Xorijiy mamlakatlardan Respublikamizga ilg'or texnologiyalar, sarmoyalar kirib kelishi, qo'shma korxonalar qurilishi oqilona tashqi siyosatning natijasidir.

Bugungi kunda O'zbekistonda jahondagi 70 ga yaqin mamlakatlarning sarmoyalari ishtirokida tashkil etilgan 2400 dan ortiq qo'shma korxonalar ishlab turibdi. Ular istehmol mollari, eks'ort uchun sifatli tovarlar ishlab chiqarmoqda, aholiga xizmat qilmoqda. Mamlakatimiz har yili Davos shahrida o'tadigan jahon iqtisodiy anjumanida ishtirok etmoqda. Anjumanda qatnashish O'zbekistonni va uning imkoniyatlarini tanishtirish, chet el investitsiyalarini jalb etish uchun muhim ahamiyatga egadir. CHunki chet el investitsiyalari xalq xo'jaligining tarkibini qayta qurishga, takomillashtirishga va ishlab-chiqarishni jihozlashga, sermehnat va ko'p ilm talab qiluvchi ishlab chiqarishni bar'o etishga yo'naltiriladi. Hozirgi vaqtda O'zbekistonda 5 milliarddan ortiq AQSH dollari miqdoridagi xorijiy investitsiyalar ishtirokida loyihalar amalga oshirilmoqda. Zarafshon vodiysidagi Muruntovda AQSHning N'yumont Mayning kor'oratsiyasi bilan hamkorlikda tog' jinslaridan oltin va kumush ajratib oluvchi "Zarafshon-N'yumont" qo'shma zavodining qurilishi, yiliga 200 ming yengil avtomobil' ishlab chiqaruvchi "UzDEU avto", Frantsiya va Ya'oniya bilan hamkorlikdgi strukturasida eng yirik bo'lgan neftni qayta ishlash zavodi, Farg'onada Germaniya bilan hamkorlikda "Uz salaman" 'oyafzal fabrikasi qurilishi buning dalilidir. Respublikamizning Eron janubiy 'ortlariga va o'nlab boshqa muhim obyektlariga yo'l ochgan temir yo'l bo'yicha harakati boshlandi. Bunday hamkorlikdan ikkala tomon ham manfaat ko'rmoqda. Qo'shma korxonalarning qurilishi natijasida ko'plab ish o'rinlari vujudga kelmoqda, bu Respublikada ishsizlik muammosi yechish, ishsizlarni ishga joylashtirishga ko'maklashmoqda.

Tahlim, fan va madaniyat sohasidagi hamkorliklar ham ajoyib samaralar bermoqda. Universitetlar va boshqa o'quv yurtlarimiz zamonaviy uskunalar va qo'llanmalar bilan tahminlanmoqda, ko'pchilik kurslar taniqli jahon olimlari tomonidan o'qilmoqda, va malaka oshirmoqda. O'zbekiston Respublikasi prezidentining iqtidorli yoshlarning chet elda o'qishini qo'llab-quvvatlovchi "Umid" jamg'armasi tashkil etildi. Bu jamg'arma ajratgan grant hisobiga AQSH, Buyuk Britaniya, Frantsiya, Germaniya va Ya'oniyaning eng nufuzli universitetlarida bakalavr va magistr darajalarini olish imkoniyatini beradi.

SHunday qilib, O'zbekiston o'zining buyuk kelajak sari shahdam qadamlar bilan bormoqda. Bundan uning serqirrali tashqi siyosati ham muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. O'zbekistonning kelajakdagi istiqbollari to'g'risida gapirar ekanmiz, ayrim qarashlarni keltirish maqsadga muvofiqdir. Masalan, Xalqaro iqtisodiy forum prezidenti Klaus SHvab, O'zbekiston 10-15 yildan keyin jahonning rivojlangan mamlakatlari qatorida turishi mumkin deb hisoblaydi. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida boshqa masalalar qatori tashqi siyosat soxasidagi vazifalarini ham takomillashtirib bormoqda. prezident I.A.Karimovning ikkinchi chaqiriq O'zbekiston

Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasidagi ma'ruzasida (2000y 22 yanvar) O'zbekiston tashqi siyosatining yaqin kelgusidagi vazifalari deb quyidagilarga ahamiyat berishni takidlagan:

Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni saqlash, xavfsizlikni ta'minlash, mamlakatimizda rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan farovon demokratik davlat bar'olar etishdek oliy maqsadga erishmog'imiz uchun O'zbekistonning jahon xalqjamiyatiga keng miqyosda integratsiyalashuvini ta'minlash.

NAZORAT SAVOLLARI

1. XXI asr bo'sag'asida dunyoda qanday tub o'zgarishlar ro'y berdi?
2. O'zbekiston tashqi siyosatda qanday tamoyillarga amal qiladi?
3. O'zbekistonning jahon xalqjamiyatiga qo'shilishi deganda nimani tushunasiz?
4. MDH doirasidagi ko'p tomonlama va ikki tomonlama hamkorlik nima?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Karimov I.A. O'zbekiston kelajagi buyuk davlat. Toshkent. "O'zbekiston". 1992.**
2. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent. "O'zbekiston". 1998.
3. Karimov I.A. Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasidagi ma'ruzasi.
4. Jo'raev N., Fayzullaev T., Usmonov Q. O'zbekiston tarixi. Milliy mustaqillik davri. Toshkent "SHarq". 1998.
5. Taraqqiyot va hamkorlik yo'llarida. O'zbekiston tashqi siyosati va di'lomatiyasi. Toshkent "o'zbekiston". 1993.
6. O'zbekiston mustaqil taraqqiyot yo'lida. (Usmonov Q., G'aniev D.) Toshkent. O'zbekiston. 1994.